

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA YOZGI
SOG'LOMLASHTIRISH ISHLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA
METODIK TAVSIYA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI
MAKTABGACHA TA'LIM AGENTLIGI**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA
YOZGI SOG'LOMLASHTIRISH ISHLARINI
TASHKIL ETISH BO'YICHA METODIK TAVSIYA
(takomillashtirilgan)**



Toshkent-2023

Ushbu metodik tavsiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagogik jamoasi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda maktabgacha yoshdagi bolalarni yozgi sog'lomlashtirish, chiniqtirish, ularning salomatligini mustahkamlashning maqsad va vazifalari, ushbu davrni tashkil etuvchi pedagogik jamoa a'zolarining lavozim vazifalari, davr davomida o'tkazish tavsiya etilgan rivojlantirish markazlaridagi ta'limiy-tarbiyaviy jarayon va umumiy guruhlarda ishlash tafsiloti bayon etilgan.

Shuningdek, metodik tavsiyada yozgi tadbirlarni tashkil etishda hayot xavfsizligi asoslari, suv havzalaridan foydalanish, bolalarni sog'lom va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ham yoritilgan.

Mazkur qo'llanma maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari va ota-onalarga mo'ljallangan bo'lib, undan pedagog mutaxassislar ijodiy yondashgan holda ta'lim jarayonini mazmunan boyitishlari mumkin.

Mualliflar:

N.Umirzakova	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bosh mutaxassis
M. Ishoqova	MTMRMQTMOI, katta o'qituvchi
M.Fayzullayeva	MTMRMQTMOI, katta o'qituvchi
S. Rahimova	MTMRMQTMOI, katta o'qituvchi
H. Rizayeva	Toshkent shahar MTB, metodist
M. Muhamadaliyeva	Toshkent shahar, Yunusobod tumani 288-MTT metodist
D. Muhammedova	Toshkent shahar, Yunusobod tumani 301- MTT, direktor

Mundarija

Soʻz boshi

Yozgi sogʻlomashtirish davrining maqsad va vazifalari

Yozgi sogʻlomashtirish davrini tashkil etishga oid meʼyoriy hujjatlar

Maktabgacha taʼlim tashkilotining yozgi davrga tayyorligi mezonlari

Yozgi sogʻlomashtirish davrida foydalaniladigan anjom va jihozlar

MTT xodimlarining yozgi sogʻlomashtirish davrini samarali tashkil etishdagi asosiy vazifalari

Yoz davrida sogʻlomashtirish tadbirlari shakllari

Yoz davrida bolalar bilan taʼlimiy-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va uni tashkil etish

Ilovalar:

1-ilova. Maktabgacha taʼlim tashkilotining yozgi sogʻlomashtirish davri uchun ish rejasi (namuna)

2-ilova. Maktabgacha taʼlim tashkilotida yozgi sogʻlomashtirish davrining taxminiy kun tartibi

3-ilova. Yozgi sogʻlomashtirish davrida chiniqtirish tadbirlari

4-ilova. Yoz davrining muhim sanalari

5-ilova. Yoz davrida bolalarni sogʻlomashtirishning shakl va metodlari

6-ilova. Yozgi sogʻlomashtirish davrining mavzuviy reja namunasi

7-ilova. Yozgi sogʻlomashtirish davrida taʼlim jarayonini mavzuli rejalashtirish

8-ilova. Yozgi sogʻlomashtirish ayvonchalari, oʻyin maydonchalari, sport maydonchalarining namunalari

9-ilova. Tarbiyachining yozgi sogʻlomashtirish davri uchun shaxsiy ish rejasi (ish jurnali)

So‘z boshi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, bilan birga tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida qator vazifalarni belgilab berdi.

Belgilangan vazifalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lom, jismoniy barkamol va har tomonlama rivojlanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishini inobatga olgan holda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida yozgi sog‘lomlashtirish va chiniqtirish ishlarini samarali tashkil etilishiga alohida e‘tibor berish zarur.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni sog‘lomlashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish yozgi sog‘lomlashtirish davri (iyun-avgust)da amalga oshiriladi. Aynan, yoz faslida bolalarning ochiq havoda ko‘proq sayr qilishlari, tanasini chiniqtirish, harakatda bo‘lish va salomatligini mustahkamlash uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida qulay va zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, yozda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan barcha tadbirlarni yengillashtirish, qiziqarli va yorqin o‘tishini ta‘minlash, charchoqyozdi mashqlar, turli ko‘ngilochar tadbirlarni muntazam uyushtirish, kichik sayrlarni tashkillashtirish, ijodiy va amaliy ishlarni bajartirish, suv muolajalarini o‘rinli qo‘llash va alohida belgilangan kun tartibiga qat‘iy amal qilish tavsiya etiladi.

Yozgi davrda o‘quv yili davomida olib borilgan rivojlantirish markazlari va umumiy guruhlardagi ta‘limiy-tarbiyaviy faoliyat davom ettiriladi, ya‘ni davrga mos berilgan oy va haftalar mavzulari asosida har kuni ta‘limiy faoliyat tashkil etiladi. Bunda yosh guruhlaridagi bolalarning rivojlantirish markazlari (Qurish-yasash va matematika; syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish; til va nutq; fan va tabiat; san‘at)dagi erkin faoliyatlari hamda umumiy guruh (frontal)larda (musiqa, nutq o‘stirish, jismoniy tarbiya, badiiy adabiyot, elementar matematika, ikkinchi tilni o‘rganish) mashg‘ulotlarini olib borish tasviya etiladi. Quyida ushbu jarayonni tashkil etish bo‘yicha mavzuli rejalashtirish taqdim etilgan. Pedagoglarning ushbu namunaviy rejalashtirishdan tashkilot imkoniyati, yosh guruhining shart-sharoiti va albatta, bolalarning yosh xususiyatlari, qobiliyati va ehtiyojlaridan kelib chiqib ijodiy yondashgan holda tashkil etish tavsiya etiladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotining yozgi sog‘lomlashtirish davrida amalga oshiriladigan tashkiliy, metodik, sog‘lomlashtirish hamda nazoratga doir chora-tadbirlar rejasi tashkilotning navbatdagi pedagogik kengashida tasdiqlanadi. Tashkilotning yozgi sog‘lomlashtirish davri ish rejasida ta‘limiy-tarbiyaviy ishlar,

sogʻlomlashtirish-chiniqtirish ishlari, tashkiliy ishlar (obodonlashtirish, moddiy- texnik bazani boyitish) hamkorlik ishlari, sport va koʻngilochar tadbirlari belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Ish reja namunasi ilovada havola qilingan.

Yozgi sogʻlomlashtirish davri boshida “Bolalar xavfsizligi va sogʻligʻini muhofaza qilish” yoʻriqnomasi bilan barcha pedagog xodimlarini tanishtiriladi hamda tashkilotning metodisti, hamshirasi, jismoniy tarbiya yoʻriqchisining yozgi davrda amalga oshiradigan vazifalari aniq belgilab beriladi.

Yozgi sogʻlomlashtirish tadbirlari samarali oʻtkazilishi maktabgacha taʼlim tashkiloti jamoasining oʻz vaqtida va puxta tayyorgarlik koʻrishiga bogʻliqdir.

Bu davrda bolalarning sogʻligini mustahkamlash uchun bor imkoniyatlardan foydalanib maydonchalarni tayyorlash, barcha tadbirlarni har bir bolani yaxshi rivojlanishi va ularni chiniqtirishga qaratish lozim.

Yozgi sogʻlomlashtirish davrining maqsad va vazifalari

Bugungi kunda ekologik vaziyatning yomonlashuvi yoshlarning, xususan, maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarning sogʻligʻi, jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Natijada sogʻliqni saqlash, umumiy rivojlanish va profilaktik vazifalarni hal qilishda sogʻliqni himoyalash texnologiyalari, ularni optimal va oqilona tashkil etilishidan faol foydalanish kerak boʻladi.

Bunday vazifalarni amalga oshirishning eng samarali shakllaridan biri yoz faslidir. Yoz- bolalar juda koʻp yurish, chopish va sakrashni mumkin boʻlgan ajoyib va unumdor vaqt.

Yozgi sogʻlomlashtirish davrining maqsadlari:

- salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash;
- bolalarning shikastlanishi va kasallanishini oldini olish;
- yozgi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning harakatlanish faolligini, xissiy va kognitiv rivojlanishini taʼminlash;
- bolalarning bilim, koʻnikma va malakalarini mustahkamlashga yoʻnaltirilgan taʼlimiy-tarbiyaviy jarayonning samarali shakl va usullaridan foydalanish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.

Yozgi sogʻlomlashtirish davrining vazifalari:

- bolalarning salomatligini mustahkamlash;
- tabiiy omillardan keng foydalanish hisobiga bolalarni sogʻlomlashtirish va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini amalga oshirish: havo, quyosh, suv;

- o'quv yili davomida olingan BKMni mustahkamlashga qaratilgan ta'limiy- tarbiyaviy jarayonni tashkil etish;
- sog'lom turmush tarzi va bilimga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish;
- xavfsiz xatti-harakat ko'nikmalarini takomillashtirish;
- tabiat qo'yni (gulzor, bog', tajriba maydonchasi)da mehnatni tashkil etish, bilish faoliyati, turli xil ta'limiy va harakatli o'yinlarni tashkil etish, amaliy kuzatish, tajriba-eksperimentlar, samarali ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun tabiiy muhit (sharoit)dan foydalanish;
- ota-onalar o'rtasida tarbiya va sog'lomlashtirish masalalari bo'yicha pedagogik va sanitariya-targ'ibot ishlarini amalga oshirish, yozgi davrda ularni bolalar bilan birgalikdagi tadbirlarga jalb qilish.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida kattalarning asosiy vazifasi o'sib borayotgan organizmning dam olish, ijodiy faoliyat va harakatga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirishdir.

Yozgi sog'lomlashtirish davrini tashkil etishga oid me'yoriy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi"gi 2019-yil 16-dekabrda 595-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi"gi 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi 2019-yil 13-mayda 391-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi"gi 2019-yil 25-iyulda 626-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi bosh davlat sanitariya vrachining qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar
7. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 26-iyunda hisobga olindi, hisob raqami 30-son] SanQvaN № 0016-21
8. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2020-yil 17-dekabrda 15-son va Sog'liqni saqlash vazirligining 2020-yil 9-dekabrda 138-son qaroriga "Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorga kiritilayotgan o'zgartirishlar qo'shma qarori.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining yozgi davrga tayyorligi mezonlari:

-o'yin va jismoniy tarbiya maydonchalarini SanQvaN talablari asosida jihozlanishi, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilish;

-kerakli hujjatlarning mavjudligi: yozgi davr uchun DMTTning ish rejasi, ichimlik bilan ta'minlashrejimini tashkil etish, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, tashkilot hududiga yaqin joylarga ekskursiyalar va sayohatlarni tashkil etish, bolalarni zararli o'simlik va boshqa narsalar bilan zaharlanishining oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar, davolash-profilaktika tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hujjatlar, pedagog va ota-onalar uchun turli tavsiyalar va maslahatlar;

-qum va bolalar maydonchasini o'z vaqtida namlantirish uchun sharoit yaratish;

-bolalar bilan yozgi sog'lomlashtirish davrini tashkil etishni nazorat qilish tizimining mavjudligi.

Sport, harakatli o'yinlar, sport bayramlari, ekskursiya va boshqalarni o'tkazish, shuningdek, sayrlar davomiyligini oshirish tavsiya etiladi.

Sog'lomlashtirish jarayoni samarali bo'lishiga erishish uchun kun tartibiga bolalarning ochiq havoda maksimal darajada bo'lishlari, yoshga mos uyqu va dam olishning boshqa turlari nazarda tutiladi.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida foydalaniladigan anjom va jihozlar:

- suv, loy va qum bilan o'ynaladigan yelim o'yinchoqlar;
- qo'l yuvish uchun suv, bir martalik sochiqchalar, chiqindilar uchun chelak;
- shamol o'yinlari uchun jihozlar (aylanalar, qog'oz pirpiraklar, lentalar);
- voqeaband va teatrlashtirilgan o'yinlar uchun jihoz va qog'irchoqlar;
- sport o'yinlari uchun jihozlar (xalqalar, keglilar, badminton, arqonchalar, har xil kattalikdagi to'plar);
- stol bosma o'yinlari;
- tabiat qo'ynida mehnat qilish uchun kerakli jihozlar to'plami (kurakcha, belkurak, supurgi, hokandoz, xaskash, suv sochadigan jo'mrakli chelakchalar);

- qo‘l mehnati uchun kerakli ashyolarning qog‘oz qutilarda bo‘lishi (rangli va rangsiz qog‘ozlar, bo‘yoq, plastilin shablon—andozalar, bo‘yash uchun kitobchalar, sochiqchalar);
- sayrda namoyish etish va hikoya qilib berish uchun badiiy adabiyotlar;
- yengil to‘shama, shirma va pardalar.

Tashqariga olib chiqiladigan jihozlarning xavfsizligi (singan, teshilgan joylarini yo‘qligi) tekshirilib, har kuni sayrdan keyin yuviladi, quritiladi va quti yoki savatlarga joylanadi. Sayrdan so‘ng har bir jihoz ko‘zdan kechiriladi.

Sayr va o‘yinlardan so‘ng ayvoncha, maydoncha va bolalar uychalari tozalanadi, suv bilan yuviladi.

Qum saqlanadigan joylar doimo tozalanib, qum elanib, nam holatda saqlanishi ta‘minlanadi, o‘ynab bo‘lingandan so‘ng qum ustini g‘ilofi bilan berkitib qo‘yiladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida yozgi dam olish davriga tayyorgarlik barcha xodimlar tomonidan o‘z lavozim vazifalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti xodimlarining yozgi sog‘lomlashtirish davrini samarali tashkil etishdagi asosiy vazifalari

•Maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktori

Tashkilotning-yozgi sog‘lomlashtirish davrida amalga oshiriladigan ishlar rejasini DMTT ishchi guruhi va ijodiy guruhi bilan hamkorlikda tuzish;

-ma‘muriy-xo‘jalik ishlari: xo‘jalik mudiri bilan birgalikda hududni obodonlashtirish (yashil maydonchalar, gulzor, qum yashiklarni to‘ldirish, ayvoncha va uning hududini ta‘mirlash, ularni bo‘yash, daraxt va butalarga shakl berish) ishlarni amalga oshirish;

- SanQvaN talablariga mos jismoniy tarbiya va o‘yin maydonchasini jihozlash;

- yer maydonlarini sug‘orish, hovliga suv sepish uchun suv bilan ta‘minlash;

- **ta‘lim -tarbiya jarayonini tashkil etish:** tashkilot metodisti va pedagog (jismoniy tarbiya yo‘riqchisi, musiqa rahbari va psixolog)lar, tarbiyachilar bilan ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etilishiga rahbarlik qilish;

- maktabgacha ta‘lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi asosida ta‘lim -tarbiya berish jarayonini davom ettirishda uslubiy maslahat va ko‘rsatmalar berish;

-tashkilotda tashkil etilgan yozgi sog‘lomlashtirish davridagi barcha chiniqtirish tadbirlari, ovqatlantirish va ta‘lim-tarbiya jarayonini nazoratga olish.

- **tibbiy ishlarni tashkil etilishi:** tibbiy xonani birinchi yordam dori-darmon vositalari bilan to‘liq ta‘minlash, taomnomalarni davrga mos tuzilishi, bolalarni sog‘omlashtirish va chiniqtirish tadbirlarini tashkil etilishiga rahbarlik qilish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tibbiy xodimlari

- tibbiyotxonasida izolyatimidoimiyyatayyorbo'lishini ta'minlash;
birinchi yordam dori-darmon vositalarini saqlanish va yaroqlilik muddatini hisobga olish;
- bolalarda uchraydigan yengil jarohatlanish holatlarini oldini olish bo'yicha tavsiyalar berish, bunday holatlar ro'y berganda birinchi yordam ko'rsatish;
- bolalar rivojlanishi bo'yicha antropometrik ko'rsatkichlarni har oyning 5-sanasiga qadar belgilash;
- hayot va salomatlikni muhofaza qilish, kasalliklarning oldini olish bo'yicha ko'rsatma berish;
- chiniqtirishning tashkil etilishini nazorat qilish bo'yicha tavsiyalar berish;
- guruh, yotoqxona va yuvinish xonalari, suv havzasi, ayvoncha va o'yin maydonchalarining sanitar holatlarini nazoratga olish;
- tashkilotda kun tartibiga qat'iy rioya qilinishini nazoratga olish;
- har bir guruhda bolalar uchun ichimlik (qaynatilgan suv) bilan ta'minlanishini doimiy nazoratga olish;
- maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari tibbiy kartalarini to'liq yuritilishini ta'minlash;
- tashkilotda o'tkazilgan tibbiy ko'rik asosida aniqlangan tez kasallikka chalinuvchi bolalar bilan sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish;
- bolalarni sog'lomlashtirish, hayotini muhofaza qilish, gigiyena qoidalariga rioya qilish bo'yicha ota-onalarga maslahat-tavsiyalar berish;
- tashkilotda "Salomatlik burchagi"ni tashkil etish va unda ota-onalar uchun tavsiya va maslahatlarni berib borish;
- bolalar bilan o'tkaziladigan tadbirlarda mas'ul shaxs sifatida ishtirok etadi.

• Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti

- ota-onalar uchun ko'rgazmali ma'lumotlar tayyorlash;
- tarbiyachi pedagoglarning ish hujjatlarini nazorat qilish;
- davr tadbirlari ijrosini tegishli tarzda nazoratga olish;
- tashkilot pedagoglariga yozgi sog'lomlashtirish davrini tashkil etish borasida maslahat-tavsiyalar uyushtirish;
- o'tkazilgan tadbirlar hisobotini tuman maktabgacha ta'lim bo'limlariga hisobotini taqdim qilish;
- yozgi dam olish davrida bolalar bilan ta'lim jarayonini rejalashtirish bo'yicha tavsiya, ko'rsatmalar tayyorlash;
- bolalarni sog'lomlashtirish va chiniqtirish yuzasidan ota-onalarga maslahatlar berish.

•Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari

- guruh bolalarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan tarzda yozgi sog'lomlashtirish davri uchun ish rejani tuzish;
- ertalabki qabul va badantarbiya mashqlarini ochiq havoda o'tkazish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi asosida bolalarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash bo'yicha rejalarni amalga oshirish;
- oylik, haftalik mavzular bo'yicha rivojlantiruvchi markazlarni jihozlash va mavzuli rejalashtirish asosida ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatni olib borish;
- ta'limiy-tarbiyaviy jarayon va chiniqtirish tadbirlarini samarali tashkil etish;
- yozgi sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etishda jihozlash va bezatish ishlarini olib borish;
- hamshira bilan birgalikda bolalar rivojlanishi antropometrik ko'rsatkichlarni belgilash;
- yer maydonchalari va o'yin maydonchalarida bolalar mehnati va o'yin faoliyatini to'g'ri tashkil etish;
- yozgi davr kun tartibiga rioya qilish va bolalarni ichimlik suvi bilan ta'minlash;
- ota-onalar uchun oilada bolalarni chiniqtirish bo'yicha kerakli maslahat va tavsiyalar berish;
- bola hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'riqnomasiga rioya etish;
- ochiq havoda bolalar hayoti xavfsizligini ta'minlash;

•Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbari

- yozgi dam olish davrining maqsad va vazifalari hamda bolalarning ochiq havoda bo'lish vaqtlarini hisobga olib o'z faoliyatini rejalashtirish;
- ko'ngilochar tadbir, bayram va hordiq'larni rejalashtirish va ularni o'tkazish.
- oylik va haftalik mavzularga oid qiziqarli uchrashuvlarni tashkil etish.
- yozgi sog'lomlashtirish davrida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish asosida umumiy guruhlarda musiqa mashg'ulotlarini olib borish.

• **Jismoniy tarbiya yo'riqchisi**

- bolalar bilan ertalabki badantarbiya mashqlarini o'tkazish;
- bolalar bilan o'tkaziladigan sport tadbirlari, jismoniy musobaqalarni tashkil etish; reja asosida musiqa rahbari, tarbiyachi bilan hamkorlikda sport bayramlarini o'tkazish;
- guruhlar yosh tarkibini hisobga olib, dastur asosida sport o'yinlarini o'tkazish; jismoniy rivojlanishda orqada qolgan bolalar bilan alohida mashg'ulotlar olib borish;
- tarbiyachilar va ota-onalarga maslahat - tavsiyalar berish;
- sport o'yinlari va sog'lomlashtirish tadbirlari paytida bolalar sog'ligi va xavfsizligiga javob berish;
- sport ko'ngil ochar soatlarini tashkil etish;
- sport, basketbol, futbol maydonchalarini jihozlash va unda bolalar harakatlanish faoliyatini tashkil etish.

• **Tarbiyachi yordamchilari**

- tarbiyachi bilan hamkorlikda kun tartibini samarali tashkil etish;
- chiniqtirish va sog'lomlashtirish tadbirlarida tarbiyachiga yordam berish;
- guruh hududi, ayvonchalarni tozalash;
- guruh xonalarining sanitar holatini saqlash;
- rivojlanish markazlarida ta'limiy-tarbiyaviy jarayonni olib borishda tarbiyachi bilan hamkorlikda faoliyat yuritish.

• **Yoz davrida sog'lomlashtirish tadbirlari shakllari**

- ertalabki gimnastika (an'anaviy, korrektsiyalovchi);
- sog'lomlashtiruvchi yugurish;
- turli sport o'yinlari;
- harakatli o'yinlar;
- yayov yurib sayr qilish, ekskursiyalar, yo'nalishlar bo'yicha sayr (eng oddiy sayyohlik);
- mayda motorika, diqqat va harakatlarni rivojlantirish, muvofiqlashtirishga qaratilgan harakatli mashqlar, muvozanatga qaratilgan mashqlar, dam olish gimnastikalari, to'g'ri qaddi-qomat va tovonlarni jipslash uchun mashqlar;
- basseyn (hovuz)dagi mashg'ulotlar;
- sport mashqlari va sport turlari elementlari;
- uyqudan keyingi sog'lomlashtiruvchi muolajalar;
- chiniqtiruvchi tadbirlar(quyosh, suv, havo);
- kun tartibidagi yakka tartibdagi ishlar.

Har bir guruh uchun faol harakatli tadbirlar rejasini tuzishda ularning shakllarini xilma-xilligiga e'tibor qaratish, shuningdek, jismoniy faoliyat bilan bog'liq tadbirlar (harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, ekskursiya, mehnat)ni hisobga olish muhimdir. Bunday tadbirlar havo isib ketgunga qadar yoki havo salqin paytda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Eng issiq kunlar(chilla)da bolalar uzoq vaqt davomida to'g'ridan-to'g'ri quyosh ostida bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Tarbiyachi ishini oqilona tashkil etish uchun ertalabki gimnastika komplekslari, sport mashqlari (sport o'yinlari elementlari: futbol, basketbol, badminton, velosiped va samokatda uchish), harakatli o'yinlar, estafetalar, mayda motorikani rivojlantirish va dam olish mashqlari kartotekasini yozgi davr uchun tayyorlab qo'yish kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori va shifokor bolalarni chiniqtirish va sog'lomlashtirish ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun mas'uldirlar.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida chiniqtirish muolajalarini tashkil etish juda muhim bo'lib, u bola oganizmini himoya qilish funksiyasini mustahkamlaydi, infektsiyalarga va haroratning o'zgaruvchanligiga bardoshli bo'lishga tayyorlaydi, qon aylanishini, modda almashinuvini, aqliy faoliyatini yaxshilaydi va asab tizimi faolligini oshiradi.

Maxsus chiniqtirish tadbirlarini tashkil qilishda MTTdagi barcha bolalarni guruhlarga ajratish tavsiya etiladi.

- 1- guruh. Bolalar sog'lom, ilgari chiniqtirilgan.
- 2- guruh. Bolalar sog'lom, birinchi marta chiniqtiriladigan tadbirlarni boshlaydigan yoki salomatligida ayrim kamchiliklar bor bolalar.
- 3- guruh. Surunkali kasalliklarga chalingan bolalar yoki uzoq vaqtdan keyin maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan bolalar.

Chiniqtirish bo'yicha tavsiyani quyidagi jadval ko'rinishida berish mumkin:

Guruhlar	Familiya, ism	Havo			Quyosh			Suv			Yalang'oyoq yurish			Zoh
		vaqt	davomiyligi		vaqt	davomiyligi		vaqt	davomiyligi		vaqt	davomiyligi		
1-guruh														
2-guruh														
3-guruh														

Ushbu jadvalda chiniqtirish tadbirlarining boshlang'ich va yakuniy nazorati, shuningdek, ularning organizmga ta'sir qilish vaqtining ko'payishi ko'rsatiladi.

Chiniqtirish tadbirlari davomida, kamida 2-oyda bolalar bir guruhdan ikkinchisiga o'tkazilishi mumkin. Bolalar quyidagi mezonlar asosida guruhlarga o'tkaziladi:

- bu davrda o'tkir kasalliklarning yo'qligi;
- bolalarning chiniqtirish tadbirlariga ijobiy hissiy munosabati;
- sovuqqa nafas siqishi, yurak urishining keskin oshishi, "g'oz terisi" bilan qoplanish kabi salbiy tashqi belgilarning yo'qligi.

Toza havoda chiniqish jarayonlari suv va quyoshda chiniqishdan oldin tashkil etilishi lozim.

Quyoshda chiniqish daraxtlar soyasida yengil havo vannalari bilan boshlanadi, so'ngra bolalarning qo'llari, oyoqlari yalang'och holda quyosh vannalariga o'tadilar, bunda bolalarning boshida har doim yengil qalpoqcha bo'lishi shart.

Quyosh vannasini olish uchun bolalarning o'yinlarini 5-6 daqiqada quyoshning to'g'ridan-to'g'ri nurlari ostida olib borish, keyin yana soyaga qaytish

tavsiya etiladi. Quyoshdan qorayish boshlangandan so'ng quyosh vannalari umumiy tarzda tashkil etiladi.

Quyosh vannalari 5 daqiqadan boshlanib, bolalarning quyoshda birato'la 10 daqiqagacha qolishigacha yetkaziladi va kun davomida bu jami 40-50 daqiqani tashkil etishi mumkin.

Tibbiy xulosa bilan chiniqtirish man etilgan bolani tadbirlarga jalb etish man etiladi. Shuni esda tutish kerakki, chiniqtirish usullari va vositalari bolaning yoshiga, holatiga va atrof-muhit sharoitlariga qarab alohida tanlanadi.

Toza havo bilan chiniqtirish barcha bolalarga tavsiya etiladi, lekin bolaning ahvoriga qarab umumiy yoki qisman havo vannalarini otkazish kerak.

Xuddi shu narsa suv tadbirlarida ham amal qilinadi- umumiy yoki qisman muolajalardan foydalaniladi va suv harorati alohida tanlanadi.

Umumiy muolajalarni tashkilotda joylashgan dushdan foydalanish bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Yalangoyoq yurishni tashkil qilish uchun qum, tosh, shag'al, keramzit va boshqalar bilan jihozlangan turli o'lcham va kattalikdagi "salomatlik yo'lakchasi"dan foydalanish mumkin.

Chiniqtirishning samarasini oshirish uchun yoz davrida suzish havzalarida o'ynash, bolalar cho'miladigan sun'iy hovuz (basseyn), ariqcha (jilg'acha)lardan keng foydalanish lozim. Bunda suv harorati +20 darajadan past bo'lmasligi, suvda turish muddati 30 soniyadan 5-10 daqiqagacha asta-sekin ortib boradi.

Tarbiyachilar va ularning yordamchilari sog'lomlashtirish muolajalarini nazorat qilib boradilar va MTT tibbiy xodimlariga ularning samaradorligi haqida ma'lumot beradilar.

Sog'lomlashtirish jarayonini tibbiy-pedagogik nazorat qilishni tashkil etish majburiy(shart)dir.

Shuni esda tutish kerakki, sog'lomlashtirish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liqdir:

- to'g'ri tashkil etilgan ovqatlanish va suyuqlik ichish rejimiga;
- shaxsiy gigiyena talablariga rioya qilishga;
- me'yorda (kerakli miqdorda) chiniqtirishga;
- bolalar sog'lig'iga tahdid soladigan omillarning yo'qligi (zararli va zaharli o'simliklar, hasharotlarning ko'pligi, tayoqcha, toshchalar, shoxlar, singan uskunalar va ularning qoldiqlari va boshqalar);
- bolalarning hissiy (emotsional) holati;

-oila va maktabgacha ta'lim tashkilotida sog'lomlashtirish uchun yagona yondashuvlar.

Yoz davrida bolalar bilan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va uni tashkil etish

Yoz davrida tashkil etilgan ta'limiy jarayon bolaning 5 ta rivojlanish sohasini qamrab oladi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishini rejalashtirish va tashkil etish

Maktabgacha ta'lim tashkiloti hududida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish talablariga rioya qilgan holda harakatli, sport o'yinlarni tashkil qilish uchun joy, sport o'yinlarining elementlari bilan jihozlanganligi muhimdir. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi yordamida "Sog'lomjon" markazini tashkil etish mumkin. Bu markazda sport inventarlari, turli harakatli o'yinlar uchun ishlatiladigan jihoz va anjomlar jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda yordam beradi. Markazda sayr va safarlarga chiqishga tayyorgarlik ko'rish mumkin, shuningdek, haftalik syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish yoki jismoniy sport o'yinlarini rejalashtirish lozim.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanishni rejalashtirish va tashkil etish.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi vazifalari har kuni barcha faoliyat turlari va rivojlantirish markazlarida hal qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning eng asosiy faoliyati bo'lgan o'yin faoliyatida ham shu vazifalar samarali amalga oshiriladi. Shuning uchun, yoz davrida bolaning yoshi, o'yin malakalarini shakllantirishga qaratilgan ijodiy o'yinlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Kichik guruh tarbiyachilari bolalarning bosh va qo'shimcha rollarni ijro etganda o'zaro hamkorlikda bo'lishlariga ahamiyat berishlari, katta guruhlarda esa o'yin syujetini yaratishga, syujetli-rolli o'yinlarda faollik ko'rsatishga e'tibor berishlari kerak.

Kattalaming o‘yin jarayonidagi ishtiroki uyatchan, tortinchoq bolalarda liderlik (yetakchilik) sifatlarini shakllantirishga imkon bersa, o‘ziga yuqori baho beradigan bolalar esa o‘zaro kelishib birgalikda bajarishga, ikkinchi darajali rollarni ijro etishga undaydi.

Yozgi sog‘lomlashtirish davrida bolalarni yo‘l harakati va hayot xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirish va ularni mustahkamlashga katta e‘tibor berish lozim. Tarbiyalanuvchilar biror ertak qahramonlari yordamida yoshlariga mos ravishda yo‘l belgilari bilan tanishishlari, ko‘chada, uyda, jamoat joylarda, tabiat qo‘ynida o‘zlarini qanday tutishlari, xavfsizlik qoidalariga qanday rioya qilishlari lozimligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lib boradilar.

Bundan tashqari, kichik yoshdagi bolalarning moslashuvini tashkil qilish bo‘yicha psixologlarning tavsiyalarini inobatga olish hamda “Onam bilan birga” moslashuv guruhlarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Ijodiy rivojlanishni rejalashtirish va tashkil etish.

Teatrlashtirish, qo‘shiq aytish, tinglash, shovqinli cholg‘ularni chalish, rasm chizish, loy bilan ishlash yozning istiqbol rejasida mavjud bo‘lishi kerak. Ushbu faoliyatni tashkil qilish o‘quv yili jarayonidan farqli va o‘zgacha bo‘lishi kerak, ya‘ni:

- rassomning ustaxonasiga sayohat -bu soyabonli ayvonchadagi molbertlar, ijodkorlik uchun turli xil material, jihozlar mavjud, tajribali tarbiyachi esa har safar chizish uchun yangi texnikani taklif qiladi: “barmoq va kaftda rasm solish”, “diatipiya va monotipiya”, “plastilin va mozayka rasmlar”, “sachratib rasm solish”, “tabiat shakllarining bosmasi”, “g‘ijimlangan qog‘oz bilan rasm chizish”, “klyaksografiya”, “xo‘l qog‘ozga rasm solish”;

- “Kulolnikida mehmonda” maydonchasi, bu yerda loy, plastilindan buyumlar yasash mumkin;

- musiqa rahbari tashkil etgan musiqa markaziga tashrif. Bu parda yoki teatr shirmasi bilan jihozlangan sahna qo‘rinishidagi maydoncha bo‘lib, unda cholg‘ular (qo‘lda yasalgan yoki haqiqiysi): puflab chalinadigan, urib chalinadigan, shovqinli musiqiy cholg‘u asboblari, stolda o‘ynaladigan musiqiy-ta‘limiy o‘yinlar, ovoz kuchaytirgich, disk, noutbuk (kompyuter) kabi anjomlar tashkil etilishi mumkin. Musiqa markazida teatr burchagi bo‘lib, unda chodir va qo‘g‘irchoqlar bo‘lishi mumkin.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida musiqiy faoliyatning quyidagi shakllari an‘anaviydir: bo‘sh vaqtni tashkil etish, bayramlar, ko‘ngilochar tadbirlar, mustaqil musiqiy faoliyat, teatr tomoshalari va spektakllar, raqs va ertalabki musiqiy gimnastika.

Noan‘anaviy tadbirlar-musiqiy loyihalar, integratsiyalashgan musiqiy

xordiqalar, bayram yoki ko'ngilochar tadbirlar. Masalan: noan'anaviy shakllardan foydalanish tarbiyachilar va ota-onalarning ijodiy salohiyatini oshirishga imkon beradi.

ILOVALAR

1-ilova

Maktabgacha ta'lim tashkilotining yozgi sog'lomlashtirish davri uchun ish reja namunasi

Tashkiliy ishlar

	Olib boriladigan ishlar	Muddat	Mas'ul	Izoh
	Yozgi sog'lomlashtirish davrida foydalaniladigan ish hujjatlarini tayyorlash	Mayning 3-haftasi	Tashkilot pedagog xodimlari	Maktabgachata ta'lim agentligining 2023-yil maydagi -buyrug'i asosida sog'lomlashtirish davri uchun barcha ish hujjatlari rasmiylashtirildi

Sog'lomlashtirish-chiniqtirish ishlari

	Olib boriladigan ishlar	Muddat	Mas'ul	Izoh
	Har bir guruh uchun faol harakatli tadbirlar rejasini tuzish	Mayning 3-haftasi	Tashkilot ishchi guruhi	Tadbirlar rejasini tuzilib, MTT direktori tomonidan tasdiqlandi

Ta'limiy-tarbiyaviy ishlar

	Olib boriladigan ishlar	Muddat	Mas'ul	Izoh
	Yozgi sog'lomlashtirish davri uchun mavzuli rejalashtirish asosida ta'limiy-tarbiyaviy	Mayning 3-haftasi	Tashkilot pedagog xodimlar	-sonli pedagogik kengash

	Faoliyatni tashkil etishga hozirlik ko'rish			Xodimlar maktabgacha ta'lim agentligi tomonidan yozgi sog'lomlashtirish davri uchun taqdim etilgan tavsiya bilan tanishtirildi.

Sport va ko'ngilochar tadbirlar

	Olib boriladigan ishlar	Muddat	Mas'ul	Izoh
	"Biz baxtli bolalarmiz!" bayram tadbiri	31-may	Tashkilot ijodiy guruhi	1-iyun-Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri o'tkazilib, uning bayonnomasi rasmiylashtirildi

Hamkorlik ishlari

	Olib boriladigan ishlar	Muddat	Mas'ul	Izoh
	Kuzatuv kengashi va mahalla faollari ishtirokida yozgi sog'lomlashtirish davrini xavfsiz va mazmunli o'tkazish yuzasidan yig'ilish	Mayning 3-4-haftasi	MTT direktori va xamshira, Kuzatuv kengashi va mahalla raisi	Yig'ilish o'tkazilib, bayonnoma rasmiylashtirildi.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish davrining
TAXMINIY KUN TARTIBI**

$7^{30} - 8^{30}$	Ochiq havo (ayvonchada) bolalarni qabul qilish, ertalabki filtr
$8^{30} - 8^{50}$	Ochiq havoda ertalabki badantarbiya
$9^{00} - 9^{30}$	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta
$9^{30} - 10^{40}$	Rejalashtirilgan tadbirlar (rivojlantiruvchi markazlarda ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatlar, ochiq havoda o'yinlar, ko'ngiolochar tadbirlar)
$10^{40} - 11^{00}$	Ikkinchi nonushta (sharbat, kefir, kompot, ho'l mevalar)
$11^{00} - 12^{20}$	Chiniqtirish tadbirlari (qumda o'ynash, yalangoyoq o'tda yurish, suv bilan o'yinlar)
$12^{25} - 13^{00}$	Tushlikka tayyorgarlik, tushlik
$13^{00} - 15^{00}$	Uyquga tayyorgarlik, uyqu
$15^{00} - 15^{40}$	Asta—sekin uyqudan uyg'onib turish, yuvinish. Xonada havo vannalari-o'yinlar. Bolalar bilan yakka tartibda ishlash. Kunning ikkinchi yarmi uchun belgilangan faoliyatlar
$15^{40} - 16^{00}$	Ikkinchi tushlik
$16^{00} - 17^{00}$	Ayvonchada tashkil etilgan markazlarda ta'limiy, stol, syujetli-rolli o'yinlar. O'yin maydonchasida harakatli va ihtiyoriy o'yinlarni tashkil etish
$17^{00} - 18^{00}$	Ota-onalar bilan suhbat. Bolalarni uyga kuzatish

Izoh: kun tartibi maktabgacha ta'lim tashkilotining ish soati ichki imkoniyati, shart-sharoiti va har bir guruhning yosh xususiyatini inobatga olgan holda tuziladi.

Yozgi sog'lomlashtirish davrida chiniqtirish tadbirlari

r Guruhlar	Chiniqtirish tadbirlari	Vaqti
Kichik yosh guruhi (3-4 yosh)	Havo vannasi Quyosh vannasi Basseynda cho'milish G'adir-budur yo'lakchalarda yurish	Kun davomida 10.00-11.00 gacha 10- daqiqqa Tashkilot jadvaliga ko'ra 15- daqiqa Kunduzgi uyquga yotishdan avval 10 -daqiqqa
O'rta yosh guruhi (4-5 yosh)	Havo vannasi Quyosh vannasi Basseynda cho'milishG'adir-budur yo'lakchalarda yurish	Kun davomida 10.00-11.00 gacha 10- daqiqqa Tashkilot jadvaliga ko'ra 20-daqiqa Kunduzgi uyquga yotishdan avval 15-daqiqa
Katta yosh guruhi (5-6 yosh)	Havo vannasi Quyosh vannasi Basseynda cho'milish G'adir-budur yo'lakchalarda yurish	Kun davomida 10.00-11.00 gacha 10- daqiqqa Tashkilot jadvaliga ko'ra 25 daqiqa Kunduzgi uyquga yotishdan avval15- daqiqqa
Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh)	Havo vannasi Quyosh vannasi Basseynda cho'milish G'adir-budur yo'lakchalarda yurish	Kun davomida 10.00-11.00 gacha 10- daqiqqa Tashkilot jadvaliga ko'ra 25 daqiqa Kunduzgi uyquga yotishdan avval 15 -daqiqqa

Yoz davrning muhim sanalari.

1-iyun	Butunjahon bolalami himoya qilish kuni
5-iyun	Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni
Iyun	Yengil sanoat xodimlari kuni (har yili iyun oyining ikkinchi yakshanbasida nishonlanadi)
16-iyun	Butunjahon bolalar futboli kuni
Iyun	Olimpiya yugurish kuni (har yili iyun oyining uchinchi yakshanbasida nishonlanadi)
23-iyun	Xalqaro Olimpiada kuni
27-iyun	O‘zbekiston Matbuot va OAVlari xodimlari kuni
1 Iyul	O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - so‘m muomalaga kiritilgan kun
1-iyul	Butunjahon me‘morlar kuni
2-iyul	O‘zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi qabul qilingan kun
11-iyul	Butunjahon xalqlari kuni
14-iyul	Xalqaro Baliqchilar kuni (har yili Iyuloyining ikkinchi yakshanbasida nishonlanadi)
20-iyul	Butunjahon shaxmat kuni
20-21-iyul	Imom al-Buxoriy kuni
Avgust	Mahallalar kuni (har yili avgust oyining birinchi shanbasida nishonlanadi)
Avgust	Fizkulturachilar kuni (har yili avgust oyining ikkinchi shanbasida nishonlanadi)
Avgust	Temiryo‘lchilar kuni (har yili avgust oyining ikkinchi shanbasida nishonlanadi)
Avgust	“O‘zbekiston - Vatanim manim” qo‘shiq bayrami kuni (har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasida nishonlanadi)
Avgust	O‘zbekiston Respublikasining Havo floti kuni (har yili avgust oyining 3-yakshanbasida nishonlanadi)

Yoz davrida bolalarni sog'lomlashtirish shakl va metodlari

	Sog'lamlashtirish shakl va metodlari	Mazmuni
1	Sog'lom turmush tarzini yaratish	- Yengillashtirilgan rejim - Moslashtirilgan rejim - Yoz davrida guruh hayotini o'ziga xos tarzda tashkil etish. - Ichimlik rejimiga rioya qilish
2	Jismoniy mashq	- Ertalabki badantarbiya - Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlari, mashqlar, ko'ngilochar o'yinlar - Harakatli va ta'limiy o'yinlar - Profilaktika gimnastikalari (qomatni tik tutish, yassi oyoqlikni oldini olish, ko'rish qobiliyatini yaxshilash va h.o.) - Sport o'yinlari
3	Gigiyenik va suv muolajalari	- Yuvinish. - Qo'llarni tirsakkacha yuvish - Suv va qum bilan o'yinlar
4	Havo vannasi	- Xonalarni shamollatish (elvizak) - Derazalar ochiq holda uxlash - Kuniga 2-marta toza havoda
5	Faol dam olish	- O'yin-kulgi va bayramlar - Qiziqarli o'yinlar - Salomatlik kunlari - MTT hududi va undan tashqarida sayr va sayohatlar
6	Musiqqa terapiyasi	- Kun davomidagi tadbirlarni musiqa va qo'shiqlar jo'rligida tashkillashtirish - Musiqa ostida o'yin, mashq, ko'ngilochar tadbirlarni olib borish - Yoz davrida musiqiy va
7	Autotrening va psixogimnastika (ruhiy xotirjamlikni saqlash)	- Hissiy sohani rivojlantirish uchun o'yin va mashqlar

		- Asab tarangligini yumshatuvchi o‘yin- treninglar - Psixogimnastika - O‘z-o‘zini massaj qilish o‘yini
8	Chiniqtirish	- Hovli va o‘yin maydonchasida yalangoyoq yurish - O‘yinli massaj - Guruhda mashq yo‘lagi (tugmali, g‘adir-budur, tuzli, yormali, halqachali, to‘siqli) - Hovli va maydonchalardagi “Salomatlik yo‘laklari”
9	Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish	- Maslahat, amaliy jarayonlar, suhbatlar tashkil etish
10	V itaminoterapiya	- Ovqatlanish ratsioniga sharbatlar, mevalar, sabzavotlar va ko‘katlar kiritish

Yozgi sogʻlomashtirish davrining mavzuviy reja namunasi

6-ilova

Oy mavzusi	Hafta mavzusi	Yosh guruhleri			
		Kichik guruh	Oʻrta guruh	Katta guruh	Maktabga tayyorlov guruh
Iyun Baxtli bolalik	1-hafta: Baxtli bolalik	Baxtli bolalik	Baxtli bolalik	Baxtli bolalik	Baxtli bolalik
	2-hafta: Gullar va qushlar	Qushlar bizning doʻstimiz	Gulzorga mehr	Gulzordagi gullar	Gulzordagi gullar
	3-hafta: Tabiat qoʻynida	Bogʻimizga sayr qilamiz	Bogʻcha boʻylab sayr	Jonli va jonsiz tabiat	Jonli va jonsiz tabiat
	4-hafta: Ertak qahramonlari – bizning	Ertak qahramonlari	Ertak qahramonlari	Ertak qahramonlari	Ertak qahramonlari
Iyul Quvnoq yoz	1-hafta: Yoz otmoqda	Yozgi oʻyinlar	Yozgi oʻyinlar	Yoz – soz	Yoz – soz
	2-hafta: Sport – salomatlik garovi	Quvnoq estafetalar	Quvnoq estafetalar	Biz yosh sportchilarmiz	Biz yosh sportchilarmiz
	3-hafta: Kitoblar olamiga sayohat	Ertaklar yaxshilikka	Ertaklar olamiga sayyohat	Qiziqarli uchrashuvlar	Qiziqarli uchrashuvlar
	4-hafta: Suv bayrami	Suv qiroli mehmonda	Suv qiroli mehmonda	Suvning xususiyatlari	Suvning xususiyatlari
Avgust Quvnoq va sogʻlom bolalar	1-hafta: Vitaminlar	Sabzavot va mevalar	Sabzavot va mevalar	Vitaminlar bilan qiziqarli	Vitaminlarning sarguzashtlari
	2-hafta: Buni bilishimiz kerak	Kattalarga quloq sol	Kattalarga quloq sol	Buni bilish foydali	Buni bilish foydali
	3-hafta: Oʻynaymiz-quvnaymiz	Oʻyinlar shaharchasi	Oʻyinlar shaharchasi	Oʻynab oʻrganamiz	Oʻynab oʻrganamiz
	4-hafta: Yoz taassurotlari	Zavqli yoz	Zavqli yoz	Yoz oʻtdi soz	Yoz oʻtdi soz

**Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish davrining
TAXMINIYFAOLIYATTURLARI**

N	Bolalar faoliyati turlari	Bir hafta ichida	Bir oy
1	Jismoniy tarbiya Sayrda	Sport va ko'ngilochar o'yinlar -1	1 4
2	Musiq	Ko'ngilochar o'yinlar	1
3	Xoreografiya	Raqsl o'yinlar	1
4	Tasviriy faoliyat	1	4
5	Konstruksiyalar tuzish/aplikatsiya (navbatma-navbat)	1/1	4/4
6	Loydan yasash	1	4
7	Elementar matematika	Mantiqiy o'yinlar	1
8	Fan va tabiatshunoslik asoslari/ekologiya	Tajribalar o'yinlar viktorinalar-1	4
9	Nutq, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish	O'yinlar,viktorinalar-1	4
10	Badiiy adabiyot	Kunduzgi uyqu ko'zda tutilmaganda uyqidan oldin o'qiladigan badiiy asarlarni sayr paytida o'qish tavsita etiladi.	

*Izoh: Maktabgacha ta'lim tashkilotidayozgi sog'lomlashtirish davrining taxminiy faoliyat turlari markazlarda,
ko'ngilochar o'yinlar hovli va yozgi maydonchalarida tashkil etilad*

Yozgi sog‘lomlashtirish davrida ta‘lim jarayonini mavzuli rejalashtirish KICHIK GURUH

7-ilova

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK!

Guruh	Kichik						
Mavzu	Baxtli bolalik						
Muddati	Iyun 1-hafta						
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi	Saf, doira boʻlib saflana oladi,bir joyda ikki oyoqlab sakraydi, turli usullar bilan yuradi, xalqaga arqonni kirgizadi, katta koptoklarni masofaga ikki qoʻl bilan, oʻtirib, turib irtadi. Mustaqil qoʻli, yuzini yuvadi, tishlarini tozalaydi, sochiqdan foydalanadi.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Oʻzi haqida–“men” deb birinchi shaxs nomidan gapiradi, oʻzi haqida soʻzlaydi, hissiyotlarini ifodalaydi.					
	Nutq, muloqat, oʻqish va yozish malakalari	Rasmda koʻrgan narsasi haqida soʻzlaydi, turli savollarga javob beradi, muloqot davrida faollik bildiradi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Bitta belgi asosida predmetlarni ajratadi, qurilish bloklaridan toʻgʻri foydalanadi, bilimlarini mustahkamlaydi. Bitta va koʻpni ajratadi, geometrik shakllarni farqlaydi.					
	Ijodiy rivojlanish	Tabiat koʻrinishi va goʻzalligini his qiladi, tasviriy materiallar nomini biladi va farqlaydi. Ranglardan toʻgʻri foydalanadi.					
Rivojlantirish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish, yasash va matematika	Istirohat bogʻida		Hayvonot bogʻida			Namuna, legolar, kubiklar, qurilish materiallari, istirohat bogʻi va hayvonot bogʻi tasvirlangan rasmlar, hayvonchalar maketi
	Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish	“Baxtli bolalik” mavzusida kichik konsert			“Bogʻcha-bogʻcha” syujetli-rolli oʻyin		AKT, liboslar, shar va gullar, oʻyin uchun jihozlar va liboslar.
	Til va nutq		“Bolalar bayrami” mavzuli rasm asosida suhbat				Mavzuga oid rasmlar.
	Fan va tabiat	Doʻstim uchun shar			Sovunli koʻpikchalar		Turli xil rangdagi sharlar, suyuq sovun, naycha (trubochka), yelimli idish, suv, salfetka.
	Sanʼat		Bayramona koʻchalar				namuna, rangli qalam va boʻyoqlar, oq qogʻoz.

IYUN. BIRINCHI HAFTA

BAXTLI BOLALIK

Qurish- yasash va matematika

Mavzu: Istirohat bog'ida

Maqsad: bolalar mustaqil ravishda istirohat bog'ini o'z tasavvurlari asosida quradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, legolar, kubiklar, qurilish materiallari, istirohat bog'i tasvirlangan rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Istirohat bog'i tasvirlangan rasmlar va namunani ko'rib chiqish.
2. Kerakli qurilishmateriallarinitanlab olish.
3. Bolalar ishlari.
4. Bajarilgan ishni muhokama qilish va bolalarni rag'batlatirish.

Qo'shimcha: o'yin maydonchasida arg'imchoqlar uchish.

Syuietli-rolli o'yin va sahnalashtirish

Mavzu: "Baxtli bolalik" mavzusida konsert

Maqsad: bolalar yil davomida yod olgan she'r va qo'shiqlarini eslaydilar, bayramni qanday tashkil etish mumkinligini o'zaro kelishadilar.

Kerakli jihozlar: AKT, liboslar, shar va gullar.

Faoliyatning borishi:

1. Bayram rejasinituzish.
2. Yod olgan she'rva ashularini takrorlash.
3. Kerakli liboslarda obrazga kirish.
4. Boshlovchining ko'rsatmasi asosida konsert namoyish qilish.
5. Bayram yakunida do'stlarini tabriklash.

Qo'shimcha: Konsert dasturi yanada boyitish va do'stlariga havola etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: tadbirni rejalashtirilgan holda tashkillashtirish.

Fan va tabiat

Mavzu: Do'stim uchun shar.

Maqsad: bolalar sharlarni turli xil kattalikda puflaydilar, do'stlariga hadya qiladilar. Kerakli jihozlar: turli xil rangdagi sharlar.

Faoliyatning borishi:

1. Sharlarni qo'l bilan paypaslab ushlab ko'rish.
2. Har bir bolaga bittadan shar berib puflatish.
3. Do'stlariga hadya qilish.
4. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha: sharlarga rangli tasmalar bog'lab bezak berish.

Alohida e'tibor qaratiladi: nafasni bir maromda chiqarish.

29

Qurish- yasash va matematika

Mavzu: Hayvonot bog'ida.

Maqsad: bolalar legodan foydalanib hayvonot bog'ini quradilar, har bir hayvonning kattaligiga qarab, ular uchun uychalarni qurishni rejalashtiradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, "Hayvonot bog'i" mavzusidagi rasm, legolar, katta- kichik kubiklar, qurilish materiallari, hayvonchalar maketi.

Faoliyatning borishi:

1. "Hayvonot bog' i" tasvirlangan rasmni kuzatish.
2. Namuna bilan tanishish.
3. Qurilish materiallarini tanlash.
4. Ijodiy ish.
5. Hayvonlar uchun katta, kichik hajmdagi uychalarni yasash.
6. Bolalarni rag'batlantirish.

Qushimcha: qurilgan uychalar ichiga hayvonlar mulyajini qo'yib chiqish.

Til va nutq

Mavzu: "Bolalar bayrami" mavzusidagi rasm asosida suhbat.

Maqsad: bolalar "1-Iyun Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" va u kunni qanday o'tkazish haqidagi tasavvurlarini boyitadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Turli xil bayramlar aks etgan mavzuli rasmlar.
2. Mavzuga oid rasmga qarab hikoya qilib berish.
3. O'zaro suhbat qurish.
4. Bolalarni rag'batlantirish.

Qushimcha: multfilim namoyish etish.

San'at

Mavzu: Bayramona ko'chalar.

Maqsad: bolalar bezatilgan bayramona ko'chalar haqida tushunchaga ega buladilar, ranglardan to'g'ri foydalangan holda "Bayramona ko'chalarni" tasvirlashni biladilar.

Kerakli jihozlar: na'muna, rangli qalam va bo'yoqlar, oq qog'oz.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna bilan tanishish.
2. Kerakli jihozlarni tanlash.
3. Bolalar ishi.
4. Bajarilgan ishga izoh berish.
5. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha: tashkilot foyesini bezatish.

Alohida e'tibor qaratiladi: ranglardan to'g'ri foydalanish, bo'yash tartibi.

Syujetli- rolli o‘yin va sahnalashtirish

Mavzu: Bog‘cha - bog‘cha

Maqsad: bolalar maktabgacha ta‘lim tashkilotlari haqidagi tasavvurlarini boyitadilar, rollarga kirib o‘ynash orqali bir kunlik faoliyatlarini yoritib beradilar, bir-birlari bilan muloqatga kirishadilar.

Kerakli jihozlar: oyin uchun jihozlar va liboslar.

Faoliyatning borishi:

1. O‘yin jihozlari bilan tanishish.
 2. Rollarni taqsimlash.
 3. O‘yin jarayoni.
 4. Rollarni almashib o‘ynash.
 5. Bolalar rollarini muhokama qilish.
 6. Bolalarni rag‘batlantirish.
- Alohida e‘tibor qaratiladi: jamoadagi ahillik.

Fan va tabiat

Mavzu: Sovunli ko‘pikchalar

Maqsad: bolalar sovun ko‘pikchalarini hosil qilishni biladilar va unga qiziqish bildiradilar.

Kerakli jihozlar: suyuq sovun, naycha (trubochka), baklajka, suv, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
 2. Tajriba uchun qo‘yilgan jihozlarni kuzatish.
 3. Suyuq sovun va suvni chayqatib ko‘rish.
 4. Suyuq sovun va suvni naychalar yordamida aralashtirish.
 5. Baklajkaga naychani solish va puflash orqali sharchalar hosil qilish.
 6. Bolalarni rag‘batlantirish.
- Alohida e‘tibor qaratiladi: xavfsizlik va tartib.

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK!

Guruh	Kichik						
Mavzu	Qushlar-bizningdo‘stimiz						
Muddati	Iyun2-hafta						
Rivojlanishsohalarigaoid maqsadlar	Jismoniyrivojlanish hva sog‘lom turmushtarziningshakllanishi	Muvozanatni saqlabyuradi,uch oyoqli velosipeddauchadi, arqon ustida yuradi,buyumlarni biridishdan ikkinchi idishga joylaydi.Ta’mnianiqlaydi,mustaqilqoshiqdanfoydalanadivaovqatdanso‘ngog‘zinichayadi.					
	Ijtimoiy-hissiyrivojlanish	O‘zehtiyojlarinibildiradi,tabiatganisbatanqiziqishbildiradi,hamdardlikbildiradi,salbiyharakatlargao‘zmunosabatini bildiradi.					
	Nutq,muloqat,o‘qishvayozishmalakalari	Sodirbo‘layotganjarayonniso‘zlabberadi,diqqatvaxotirasirivojlanadi,qaytahikoyaqilishmalakalarishakllanadi.					
	Bilishjarayonining rivojlanishi	Matematikbilimdarajalarianiqlanadi,ta’limiyo‘yinlarorqalifikrlashgavaxozirjavoblikkao‘rganadi.					
	Ijodiyrivojlanish	O‘quvyilidavomidaolganbilimlartakrorlanadi,to‘g‘ri,egrivaturliko‘rinishdagichiziqqlarnichizaoladi,ranglarnito‘g‘ritanlashnibiladi.					
Rivojlanishmarkazlari		Ta’limiy-tarbiyaviyfaoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkinfaoliyat	Qurish,yasashvamatematika	Qushlaruchundonxo‘rak		Hayvonotbog‘ida			Legolar, namuna, qush mulyajlari
	Syujetli-rolli o‘yinlarvasahnalashtirish	Qushlardo‘koni			Qushlar vaavtomobil		Qushlardo‘konitasvirlanganrasm,qurilishmateriallarito‘plami,legolar to‘plami, qushlarmaketi,qushlaruchunni qob,avtomobil ruli
	Tilvanutq		Qushlarni qandayparvarish qilamiz?		“Qushlar” mavzusidashe’ryodolis h		Qafasda qush, donxo‘rak,qushlaruchun maxsus donlar va rasmlari,AKTvarasmlar
	Fanvatabiat	Qaysi qushnima bilanoziqlanadi.					Qafasdagito‘tiqush,quyon,toshbaqa,baliq,chumoli,tipratikanvaularni ngozuqalari.
	San‘at		Qushcha(rasm)		Qushchauchunuycha(applikatsiya)		oq qog‘oz, rangli qalam vabo‘yoqlar,mo‘yqalam,suv,rangli qog‘ozlardan kesilgan qushchauchasi,yelim.

IYUN. IKKINCHI HAFTA

QUSHLAR BIZNING DOSTIMIZ

Qurish- yasashvamatematika

Mavzu: Qushlaruchundonxo‘rak

Maqsad: bolalar qushlar uchun donxo‘rak yasashni o‘rganadilar, qushlarga nisbatan g‘amxo‘r munosabatda bo‘ladilar, reja bo‘yicha ishlashga o‘rganadilar.

Kerakli jihozlar: legolar, namuna, qush mulyajlari.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani ko‘rib chiqish.
2. Ijodiy ish.
3. Tayyor donxo‘rakka qushni joylashtirish.
4. Donxo‘rakka yegulik solish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: tabiatga nisbatan mehr.

Fan va tabiat

Mavzu: Jonivorlar nima yeydi?

Maqsad: bolalar turli xil jonivorlar nomini biladilar va ularning oziqalarini bir - biridan farqlay oladilar.

Kerakli jihozlar: qafasdagi to‘tiqush, quyon, toshbaqa, baliq, chumoli, tipratikan va ularning ozuqalari.

Faoliyatning borishi:

1. Hayvonlar, xashoratlari, qushlarni ko‘rish.
 2. Ularning oziqalari bilan tanishish.
 3. Ularni oziqlantirish.
 4. Yakuniy hulosasi chiqarish.
- Qo‘shimcha: boshqa turdagi hayvonlarni nimalar bilan oziqlanishi haqida suhbat.
- Alohida e‘tibor qaratiladi: hayvonlarni to‘g‘ri oziqlantirish.

Syujetli -rolli o‘yinlar va saxnalashtirish

Mavzu: Qushlar do‘koni.

Maqsad: bolalar do‘kon turlari orasida “qush do‘koni” ham borligini biladilar, qush do‘koni qanday faoliyat olib borishi bilan yaqindan tanishadilar.

Kerakli jihozlar: qushlar do‘koni tasvirlangan rasm, qurilish materiallari to‘plami, legolar to‘plami, qushlar maketi.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlarni kuzatish.
 2. Ishni rejalashtirish.
 3. Kerakli materiallarni tanlash.
 4. Rollarni taqsimlash.
 5. Sahnalashtirish.
- Alohida e‘tibor qaratiladi: do‘kon turlari haqidagi bilimlari.

Til va nutq

Mavzu: Qushlarni qanday parvarish qilamiz?

Maqsad: bolalar qushlar haqida ma'lumot oladilar, ularga g'amxo'rlik qiladilar, parvarishlashni o'rganadilar.

Kerakli jihozlar: qafasda qush, donxo'rak, qushlar uchun maxsus donlar va ularning rasmlari.

Faoliyatning borishi:

1. Qushlarni tomosha qilish.
 2. Qushlar haqida suhbatlashish (qushlar nomi va ular nimalar bilan oziqlanadi).
 3. Donlarni qafasga qo'yish va qushlarni oziqlantirish.
 4. Donxo'rakni donlar bilan to'ldirish.
- Qo'shimcha: donxo'rakni guruh ayvonchasiga qo'yish.
Alohida e'tibor qaratiladi: qush turlari va uni oziqlanishi.

San'at

Mavzu: Qushcha rasmini chizish

Maqsad: bolalar dumaloq va uchburchak shakllardan foydalangan holda qushcha rasmini chiza oladilar.

Kerakli jihozlar: oq qog'oz, rangli qalam va bo'yoqlar, mo'yqalam, suv, rasm namunasi.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzati sh.
 2. Shakllardan foydalangan xolda rasm chizish.
 3. Bolalarni rag'batlantirish.
- Qo'shimcha qism: "Qushlar uchib kelishdi" mavzusida rasmlar ko'rgazmasi.

Syujetli -rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: "Qushlar va avtomobil" o'yini

Maqsad: bolalar o'yin qoidalarini biladilar, asosiy harakatlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: qushlar uchun niqob, avtomobil ruli.

Faoliyatning borishi:

1. Atributlarni tanlash.
 2. Rollarga bo'linish.
 3. O'yin faoliyati.
 4. Bolalarni rag'batlantirish.
- Qo'shimcha: "Qarg'alar va qarchig'aylar" o'yini.

Til va nutq

Mavzu: "Qushlar" she'rini yod olish

Maqsad: She'rni yoddan biladilar, qushlar harakatlarini bajaradilar. Kerakli jihozlar: AKT va rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Qushlar rasmini kuzatish.
 2. She'rni o'qib berish.
 3. AKT orqali she'rni tinglash.
 4. Takrorlash orqali yod olish.
 5. Bolalarni rag'batlantirish.
- Qo'shimcha qism: topishmoqlar topish.
Alohida e'tibor qaratiladi: diqqat va eslab qolish malakasi.

Sanat

Mavzu: Qushcha uchun uycha

Maqsad: bolalar tayyor shakllarni kerakli joyga yelimlaydilar, yelimdan to'g'ri foydalanish malakalarini oshiradilar.

Kerakli jihozlar: oq qog'oz, namuna, rangli qog'ozlardan kesilgan qushcha uychasi, yelim.

Faoliyatning borishi:

1.Namunani kuzati sh.

2.Kesilgan qog'ozlarni joylashtirish, yelimlash.

3.Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha: "G'ozlar-g'ozlar" harakatli o'yini.

Alohida e'tibor qaratiladi: namunadan maqsadli foydalanish.

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK!

h	Guru	Kichik					
u	Mavz	Bog‘imizga sayr qilamiz					
ati	Mudd	Iyun 3-hafta					
Riv ojlanishsoha larigaoid maq sadlar	Jismoniyrivojlani shva sog‘lom turmush Tarzining shakllanishi	Aylanayoyitagidanemaklabo‘tadi,mustaqilravishdao‘yinchoqlarniqutigajoylashtiradivaundanoladi,boshqabolaga koptokniirg‘itadiyokiotadi,xavflipredmetlarningfarqiga boradi.					
	Ijtimoiy- hissiy rivojlanish	O‘zigado‘sttanlaydi,kattalarmehnatiniqadrlaydi,do‘stlarininghissiyotlarinianiqlaydivaungamunosibharakatlanadi. Tabiatdanzavqlanadi.					
	Nutq, muloqat, o‘qish va yoz ish malakalari	She‘rniyoddanaytadi,mazmuninianglaydi,kichikhikoyalartuzadivaso‘zlabberadi.Olganbilimlarinido‘stlaribilan o‘rtoqlashadi.Harflargaqiziqishbildiradi,ayrimharflarningshaklinibiladivafarqlaydi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Predmetlardanyasalganmaterialnifarqlaydi(qog‘ozdan,taxtadan,temirdan),turganjoyinianiqlaydi,fazoviymo‘ljaloladi.					
	Ijodiy rivojlanish	Tanishqo‘shiqclarvarasmlarnitanibularniajrataoladi.Soddakompozitsiyalarvaalohidabuyumlarnichizadi.					
Rivojlanishmarkazlari		Ta’limiy-tarbiyaviyfaoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
E rkinfaoliy at	Qurish, yasash vamatematika				Gullar uchungultuvak		Legolar, namuna, mavzuga oidrasmlar,tayyorgultuvaklar,yelim gullar.
	Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish	Yoshbog‘bonlar					Ishqurollari,do‘ppi,qiyiqcha.
	Tilvanutq			“Bog‘bonm ehnati” rasmi asosidasuhbat			Mavzulirasmlar.
	Fan va tabiat			Gultuvaklar uchun tuproq tayyorlash			Gultuvak,tuproq,tosh,o‘g‘itlar, suv,gulko‘chati.
	San’at	Bog‘imizdagi gullar (rasm)			Guldasta(loy)		Namuna,rangliqalamvabo‘y oqlar,oqqog‘oz, loy,plastilin,stek, doska,salfetka.

IYUN. UCHINCHI HAFTA

BOG‘IMIZGA SAYR QILAMIZ

Syujetli- rolli o‘yinlar

Mavzu: Yosh bog‘bonlar

Maqsad: bolalar bog‘bon mehnati bilan shug‘ullanadilar, bog‘bon ish qurollaridan foydalanishni o‘rganadilar.

Kerakli jihozlar: ish qurollari, do‘ppi, qiyiqcha.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Rollarni taqsimlash.
3. O‘yin jarayonining borishi.
4. Bolalarni rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: sayr vaqtida tashkilot bog‘ida mehnat tashkil etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: bog‘bon ish qurollarini boshqa turdagi mehnat qurollaridan farqlash.

San‘at

Mavzu: Bog‘imizdagi gul

Maqsad: bolalar gul chizishda turli elementlardan foydalana oladilar, ozoda, tartibli bo‘yashni o‘rganadilar.

Kerakli jihozlar: namuna, rangli qalam va bo‘yoqlar, oq qog‘oz.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzati sh.
2. Ijodiy ish.
3. Bolalar ishlarini tahlil qilish.
4. Bolalarni rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: jamoa bo‘lib ishlash muhitini yaratish.

Til va nutq

Mavzu: “Bog‘bon mehnati” rasmi asosida suhbat.

Maqsad: bolalar so‘zlar va iboralarni o‘z joyida ishlata boshlaydilar, suhbat davomida o‘z fikrlarini to‘liq bayon eta oladilar.

Kerakli jihozlar: mavzuli rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuli rasmlarni tomosha qilish.
2. Rasmlardagi syujetni tahlil qilish.
3. Syujet asosida o‘zaro suhbat uyushtirish.
4. Do‘stlari fikrlarini to‘ldirish.

Qo‘shimcha: mavzuga oid ta‘limiy o‘yinlar.

Alohida e‘tibor qaratiladi : suhbat davomida faollik va lug‘at boyligi.

Fan va tabiat

Mavzu: Gul tuvaklari uchun tuproq tayyorlash.

Maqsad: bolalar jonli va jonsiz tabiatni farqlaydilar, tuproqning xususiyatlari haqida qo‘shimcha ma’lumotga ega bo‘ladilar.

Kerakli jihozlar: gul tuvak, tuproq, tosh, o‘g‘itlar, suv, gul ko‘hati.

Faoliyatning borishi:

- 1.Vazifani tushuntirish.
2. Mavjud jihozlarni ko‘zdan kechirish.
- 3.Vazifani tarbiyachi yordamida bajarish.
- 4.Tayyor tuproqqa gul ko‘chatini ekish.

Qo‘shimcha: gullarni sug‘orish tavsiya etiladi.

Alohida e‘tibor qaratiladi: gul uchun maxsus tayyorlangan tuproqning tarkibi.

Qurish- yasash va matematika

Mavzu: Gullar uchun gultuvak

Maqsad: bolalar sochiluvchi buyumlar saqlanishi mumkin bo‘lgan idish shaklini yaratadilar.

Kerakli jihozlar: legolar, namuna, mavzuga oid rasmlar, tayyor gultuvaklar, yelim, gullar. Faoliyatning borishi:

- 1.Namuna va mavzuga oid rasmlarni kuzatish.
- 2.Vazifani tushuntirish.
- 3.Gul tuvaklar yasash.
- 4.Bolalarning ishini muhokama qilish.
- 5.Gul tuvaklarini yelim gullar bilan boyitish.

Qo‘shimcha: tarbiyachi yordamida xonadagi gul tuvaklarni tozalash.

Alohida e‘tibor qaratiladi: bajarilgan ish hajmi.

Sanat

Mavzu: Guldasta

Maqsad: bolalar kaft orasida aylanma harakatlari orqali dumaloq shaklni hosil qiladilar, mayda qo‘l motorikalarini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, loy, plastilin, stek, doska, salftetka.

Faoliyatning borishi:

- 1.Vazifani tushuntirish.
- 2.Na‘muna bilan tanishish.
3. Ijodiy ish.
- 4.Bajarilgan ish taqdimoti.

Qo‘shimcha: barcha guldastalardan katta guldasta hosil qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: loy, plastiliga shakl berish texnologiyasi.

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK!

Guruh	Kichik						
Mavzu	Ertakqahramonlarimehmonda						
Muddat	Iyun4-hafta						
Rivojlanish sohalarigaoid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish vasog'lomturmus h tarzinin gshakllanishi	Arqon ustida yurish xarakatlarini bajaradi, sport zinasidan yuqori va pastga harakatlanadi, badantarbiya vaqtidamashqlarni takrorlaydi, mayda predmetlarni ma'lum bir tartibda taxlaydi. Silliq va notekis teksturaning farqigaboradi,aravachalarni itaradi, xonada tartibni saqlaydi.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Faoliyatlardavomidadiqqatinijamlaydi,olganbilimlarini“Menbilaman”iborasi ostidaso‘zlabberadi.					
	Nutq, muloqat, o‘qishva yozishmalakalari	Biron bir parchani tinglab asarni nomini aytadi, rasm yuzasidan tasviriy hikoya tuzadi, ko‘p, bitta ma’noda so‘zlarniishlatadi,ta’limiyo‘yinlarni mustaqil o‘ynaydi.					
	Bilish jarayoniningrivojlanishi	O‘xshashjuftliknitanlay oladi,asarlardagi hodisalarnitahlilqiladi,yaxshi-yomonnifarqlaydi.					
	Ijodiy rivojlanish	Ijodiyishdamustaqilyondashganholdayangiasarlaryaratishgaxarakatqiladi.Shablonlardanto‘g‘rifoydalanadi.					
Rivojlanishmarkazlari		Ta’limiy-tarbiyaviyfaoliyat					
		Dusha	Seshanb	Chorshanb	Payshanb	Juma	Resurslar
Erkinfaoliyt	Qurish, yasash va matematika	Ertaknamouycha					Legolar,namuna,mavzugaoid rasmlar,qurilishbloklari
	Syujetli-rollio‘yinlarva sahnalashtirish			“Sholg‘om”ertagini Sahnalashtirish			Ertak qahramonlariningkiyimlari, AKT
	Tilvanutq	“Bu qaysiertakdan”rasmlarni kuzatish				“Ertakni davomettir” ta’limiyo‘yin	Turliertaklardanrasmlar
	Fanvatabiat			Yozne’matlari xosiyatlari			Xo‘l mevalar
	San’at	Sehrli olma(loy)		Bo‘g‘irsoq(rasm)		O‘rmono‘simliklari	Keraklianjomlar

IYUN. TO‘RTINCHI HAFTA

ERTAK QAHRAMONLARI MEHMONDA

Qurish- yasash va matematika

Mavzu: Ertaknoma uycha

Maqsad: bolalar qurish malakalarini yanada mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: legolar, namuna, mavzuga oid rasmlar, qurilish bloklari.

Faoliyatning borishi:

- 1.Namuna va mavzuga oid rasmlarni kuzatish.
- 2.Kerakli qurilish bloklarini tanlash.
- 3.Ijodiy ish.
- 4.Bolalarning ishini muhokama qilish.
- 5.Tayyor ishni qo‘ shimcha detallar bilan boyitish.

Qo‘shimcha: mo‘jizaviy uy kompozitsiyasini yaratish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: ertakni eslash.

Til va nutq

Mavzu:“Bu qaysi ertakdan” rasmlarni kuzatish.

Maqsad: bolalar ertaklar nomini biladilar, qahramonlarni taniydilar.

Kerakli jihozlar: turli ertaklardan rasmlar.

Faoliyatning borishi:

- 1.Vazifani tushuntirish
- 2.Rasmlarni kuzatish.
- 3.Rasm asosida suhbat.
- 4.Suhbatni yakunlash, umumiy xulosa chiqarish.

Qo‘shimcha: sayr vaqtida tashkilot hududidagi ertak qahramonlari haykallari va rasmlarini kuzatish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: sozlashuv nutqi.

San‘at

Mavzu: Sehrli olma

Maqsad: bolalar doira shaklini mustaqil ravishda yasaydilar, ranglardan to‘g‘ri foydalanish malakalarini boyitadilar.

Kerakli jihozlar: namuna, loy, plastilin, doska, salftetka.

Faoliyatning borishi:

- 1.Vazifani tushuntirish.
- 2.Namuna bilan tanishish.
- 3.Ijodiy ish.
- 4.Bajarilgan ish taqdimoti.

Qo‘shimcha: barcha olmalarni katta savatga solish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: loy, plastilinga shakl berish texnologiyasi.

Syujetli- rolli o‘yinlar

Mavzu: “Sholg‘om” ertagini sahnalashtirish.

Maqsad: bolalar ertak qahramonlarining harakati va so‘zlarini yoddan biladilar, obrazga kirishga urinadilar.

Kerakli jihozlar: ertak qahramonlarining kiyimlari, AKT.

Faoliyatning borishi:

- 1.Vazifani tushuntirish.
- 2.Rollarni taqsimlash.
- 3.Ertakni sahnalashtirish.
- 4.Bajarilgan ishni tahlil qilish.
- 5.Bolalarni ragbatlantirish.

Qo‘shimcha: “Sholgom” ertagi multfilmini namoyish etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: obrazga kirish malakasi.

Fan va tabiat

Mavzu: Yoz mevalari xosiyati

Maqsad: bolalar yozgi mevalarning ko‘rinishi, mazasi, shakli haqidagi bilimlarini boyitadilar, ularni totish orqali tamiga qarab farqlaydilar.

Kerakli jihozlar: yozgi xo‘l mevalar, salfetka, tarelka, taxtakach, desert pichog‘i, birmarotalik sanchqi

Faoliyatning borishi:

- 1.Xo‘l mevalarni ko‘rish, shakli va nomini aniqlash.
- 2.Mevalarni kesish va mazasini totish.
- 3.Mevalarni ta‘miga qarab ularni guruhlash: nordon, shirin, suvli, suvi kam.
- 4.Xulosalash.

Qo‘shimcha: mevali salat tayyorlash.

Alohida e‘tibor qaratiladi: mevalarning mazasini ajrata olish.

San‘at

Mavzu: Bo‘g‘irsoq

Maqsad: bolalar doira shaklini mustaqil ravishda chizadilar va bo‘yash texnologiyasini biladlar.

Kerakli jihozlar: namuna, rangli qalam va qog‘oz, bo‘yoqlar, salfetka.

Faoliyatning borishi:

- 1.Namuna bilan tanishish.
 - 2.Ijodiy ish.
 - 3.Bajarilgan ish taqdimoti.
- Qo‘shimcha: “Bo‘g‘irsoq” ertaginiaytibberish.

Tilvanutq

Mavzu: “Ertaknidavomettir” ta’limiyo‘yin.

Maqsad: bolalr ertaklarni nomini biladilar va uni hodisalarini so‘zlab beradilar. Kerakli jihozlar: turli ertaklardan rasmlar.

Faoliyatning borishi:

- 1.Vazifani tushuntirish.
- 2.Rasmlarni kuzatish.
- 3.Rasmni qaysi ertakdan ekanligini aniqlash
- 4.Topgan ertakni davom ettirish.
- 5.Suhbatni yakunlash, umumiy hulosha chiqarish.

Qo‘shimcha: ertak kitoblarni tomosha qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: savollarga tortinmasdan javob qaytarish.

Sanat

Mavzu: O‘rmon o‘simliklari

Maqsad: bolalar yelimlash va mo‘ljal olishni biladilar.

Kerakli jihozlar: namuna, tayyor shablonlar, rangli qog‘ozlar, yelim, salfetka. Faoliyatning borishi:

- 1.Vazifani tushuntirish.
- 2.Namuna bilan tanishish.
- 3.Ijodiy ish.
- 4.Bajarilgan ish taqdimoti.

Qo‘shimcha: o‘rmon maketlarini yaratish.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh	Kichik					
Mavzu	Yozgi oyinlar					
Muddati	Iyul 1-hafta					
Rivojlani sh sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi	To'g'ri, egri-bugri, ilon izi bo'lib yuradi, tovonda, oyoq uchida yurish harakatlarini boshlaydi, predmetlarni tezlikda yig'ishga harakat qiladi. Shaxsiy gigiyenaga rioya qiladi, kiyimlarini tartibga keltirishni boshlaydi.				
	Ijtimoiy-hissiy	Yutugidan zavqlanadi, oyin va oyinlarga nisbatan qiziqish bildiradi. O'yin davomida aqlan rivojlanadi.				
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Berilgan savolni tushunadi va unga javob beradi, sodda gaplar tuzishni boshlaydi, lugat boyligidagi sozlardan keng va orinli foydalana boshlaydi.				
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Oyinchoq va oyinlarning nima uchun unga kerakligini izohlaydi, tabiat xaqidagi bilimlari kengayadi.				
	Ijodiy rivojlanish	Yuqori va past tovushlarni farqlaydi, loydan mustaqil ravishda dumaloq shaklni yasaydi.				
Rivojlanish markazlari		Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat				
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	Bog'chamizyolachalari				Suv xavzasi Namuna, kubiklar, g'ishtchalar,
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish			Hayvonot bog'iga sayr		Uy va yovvoyi hayvonlarning rasmi va niqoblari
	Til va nutq	"Davlat gerbi qabul qilingan kun" mavzusi asosida suxbat				Tog' yon bag'ridagi dam Gerb tasviri, AKT, mavzuli rasmlar, AKT
	Fan va tabiat			Quvnoq favvora		Suv, maxsus idishlar, suv purkagich
	San'at	Gulzordagikapalaklar				Bizning sevimli mevalar Namuna, oq qog'oz, rangli qalamlar.

IYUL. BIRINCHIHAFTA

YOZGI O‘YINLAR

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Bog‘chamiz yo‘lakchalari

Maqsad: bolalar asosiy qurish material (kubik, g‘ishtcha, turli xil legolar)larini farqlashni va nomini aytishni biladilar.

Kerakli jihozlar: namuna, kubiklar, g‘ishtchalar, legolar.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna bilan tanishish.

2. Qurilish materiallarining nomini aytish.

3. Yo‘lakcha yasash.

4. Bolalarni rag‘batlantirish.

E‘tiborga moyillik jihati: jihozlardan o‘z o‘rnida va maqsadli foydalanish.

Til va nutq

Mavzu: “O‘zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi qabul qilingan kun”. Suhbat.

Maqsad: bolalar O‘zbekiston Respublikasi Davlat Gerbini biladilar, unda nimalar tasvirlanganligini mustaqil ayta oladilar.

Kerakli jihozlar: gerb tasviri, AKT Faoliyatning borishi:

1 Gerb tasvirini o‘rganish.

2 Gerbning nimalardan iboratligini aniqlash.

3. O‘ zaro suhbatl ashish.

4. AKT orqali mavzu asosida slaydlar tomosha qilish.

5. Qo‘shimcha qism: mavzuga mos she‘rlarni yod olish taklif etiladi.

San‘at

Mavzu: Gulzordagi kapalaklar

Maqsad: bolalar tabiat haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar, chizish va bo‘yash malakalarini boyitadilar.

Kerakli jihozlar: namuna, oq qog‘oz, rangli qalamlar.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna bilan tanishish.

2. Kerakli jihozlarni tanlab olish.

3. Ishni rejalashtirish.

4. Ijodiy ishlash.

5. Bolalarni rag‘batlantirish.

E‘tiborga moyillik jihati: barmoqlar yordamida bo‘yash texnologiyasi.

Syujetli- rolly o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Hayvonot bog‘iga sayr

Maqsad: bolalar yovvoyi va uy hayvonlarini ajrata oladilar, ularga nisbatan mehlari yanada oshadi, sahnalashtirishda mustaqil ravishda qatnasha oladilar .

Kerakli jihozlar: uy va yovvoyi hayvonlarning rasmi va niqoblari.

Faoliyatning borishi:

1. Hayvonlarning rasmini ko‘rib chiqish.
2. Niqoblarni tanlash.
3. Rollarni taqsimlash.
4. O‘yin faoliyati.

Qo‘shimcha qism: hayvonlarning tovushiga taqlid qilish.

Fan va tabiat

Mavzu: Quvnoq favvora

Maqsad: bolalar suv xususiyatlarini o‘rganadilar, tabiatga nisbatan mehrli bo‘ladilar, suvni isrof qilmaslikka odatlanadilar.

Kerakli jihozlar: suv, maxsus idishlar, suv purkagich.

Faoliyatning borishi:

1. Favvora rasmini tomosha qilish.
2. Suvning xususiyatlarini o‘rganish (rangsiz, xidsiz, sovuq ekanligini tajribada qullab ko‘rish).
3. Baklajkadan suv sepib favvora hosil qilish.

E‘tiborga moyillik jihati: favvoraning boshqa suv havzalaridan farqini bilish.

Qurish Yasash va matematika

Mavzu: Suv havzasi

Maqsad: bolalar kubiklarning kattava kichikligini farqlaydilar, kubik va legolardan suv havzasini qura oladilar, qurilish materiallarini rangi va shakliga qarab ajratadilar.

Kerakli jihozlar: kubiklar, namuna, legolar.

Faoliyatning borishi:

1. Suv havzasi rasmini kuzatish.
2. Kerakli jihozlarni tanlash.
3. Suv havzasi qurishni rejalashtirish.
4. Mustaqil faoliyat.

Qo‘shimcha qism: mavzu asosida topishmoqlar topish.

Til va nutq

Mavzu: Tog‘ yon bag‘rida hordiq

Maqsad: bolalar bog‘langan nutqlarini mustahkamlaydilar, manzaralarni ta‘riflaydilar, o‘zaro fikr almashadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuli rasmlar, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Mavzuga mos rasmlar va AKT dan manzaralar tasvirini kuzatish.
3. Hikoyalar tuzish.
4. Faoliyatni yakunlash.

Qo‘shimchaqism: shaxsiyhayotdanso‘zlabberishtavsiyaetiladi.

Sanʼat

Mavzu: Bizning sevimli mevalar

Maqsad: bolalar mevalar nomini biladilar, rangi, shaklini, mazasini farqlaydilar, namunani kuzatadilar va ijodiy ishlaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, oq qogʻoz, rangli qalamlar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosida suhbat.
2. Namuna bilan tanishish.
3. Mustaqil ishlash
4. Bolalarni ragbatlantirish.

Eʼtiborga moyillik jihat: namuna asosida rasm chiza olish.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh	Kichik					
Mavzu	Quvnoqestafetalar					
Muddat	Iyul2hafta					
Rivojlanish sohalarigaoid maqsadlar	Jismoniyrivojlanish	Ertalabkibadantarbiyamashqlarinibajarishdato‘g‘riharakatlanadi,tanaa‘zolariharakatimustahkamlanadi.				
	hva sog‘lomturmush tarziningshakllanishi					
	Ijtimoiy-hissiyrivojlanish	Guruhlardado‘stonamunosabattabo‘lishadi,buyumlarnio‘rtoqlashadi,yilfasllarigamunosibta‘rifberadi.				
	Nutq,muloqat,o‘qishvayozishmalakalari	Bog‘langannutqshakillanadi,rasmlardantanishertakqahramonlarinitaniydi,yoshigamoskitoblarnitomoshaqiladi.Yirik munchoqlarniipgateradi.				
	Bilishjarayoni ningrivojlanishi	Yilfasllarinitasvirleydi,sportturlarinibir-biridanfarqlaydi,suvvahavoningnimauchunkerakliginibiladi,tana a‘zolarininomlaydi.				
	Ijodiyrivojlanish	Guruhbilanqo‘shiqaytadi, buben,nay,ksilafonchalishgataqlidqiladi.Qumdanturlishaklvapiramidalarquradi.				
Rivojlanishmarkazlari		Ta‘limiy-tarbiyaviyfaoliyat				
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma Resurslar
Erkinfaoliyat	Qurish, yasash va matematika	Gimnastikanarvoni				Namuna,sanoqcho‘plarivalegolarto‘plami.
	Syujetli-rolli o‘yinlarvasahnalashtirish	Sportdo‘koni			Sportmurabbiysi	Sportjihozlari,jihozlarnijoylashtirishuchundo‘konpeshtaxasi,kassa,mavzugaoi drasmlar turli sportmurabbiylari tasvirlanganslaydlar, sportturlari tasvirlanganrasmlar,sportanjomlari.
	Tilvanutq			Jismoniydaqiqauchunshe‘ryodolish		AKT
	Fanvatabiat				Yurakurishini eshitmiz	Odam tana qismlari rasmi, harakatlio‘yinlar uchunnigoblar
	San‘at			Koptokcha(rasm)		Keraklianjomlar
					Piramida (applikatsiya)	

IYUL. IKKINCHIHAFTA QUVNOQ ESTAFETALAR

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Gimnastika narvoni

Maqsad: bolalar sanoq choʻplari va lego toʻplamidan mustaqil foydalangan holda gimnastika narvonini quradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, sanoq choʻplari va legolar toʻplami, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Sport turlari haqidagi slaydlarni tomosha qilish.
2. Namunani kuzatish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash.
4. Ijodiy ish.

Qoʻshimcha: sport kompleksini qurish va uni jihozlash.

Alohida eʼtibor qaratiladi: bolalar oʻrtasidagi doʻstona munosabat.

Syujetli-rolli oʻyinlar va dramalashtirish

Mavzu: Sport doʻkoni

Maqsad: bolalar sport anjomlari va jihozlarining nomlarini hamda ularning vazifalarini biladilar, sport turlariga qiziqadilar.

Kerakli jihozlar: sport jihozlari, jihozlarni joylashtirish uchun doʻkon peshtaxtasi, kassa, mavzuga oid rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. “Oʻyinchoqlar doʻkoni”, “Kitoblar doʻkoni”, “Sport jihozlari doʻkoni” tasvirlangan rasmlarni tomosha qilish va ularni farqlash.
2. Rollarni taqsimlash.
3. Oʻyin uchun sharoit yaratish.
4. Oʻyin jarayoni.

Qoʻshimcha: Oʻzbekistonning mashhur sportchilarining rasmini tomosha qilish.

Til va nutq

Mavzu: Jismoniy daqiqa uchun sheʼr yod olish.

Maqsad: bolalar xotira va diqqatlarini jamlaydilar, sheʼr aytib jismoniy harakatlarni bajaradilar.

Kerakli jihozlar: AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Ovozli yozuvni tinglash.
 2. Ovozli yozuv bilan takrorlash.
 3. Sheʼrni yod olish.
 4. Sheʼr aytib jismoniy harakatlarni bajarish.
- Qoʻshimcha: musiqa sadolari ostida jismoniy harakatlarni bajarish.
- Alohida eʼtibor qaratiladi: eslab qolish qobiliyati.

Sanʼat

Mavzu: Koptokcha

Maksad: tarbiyalanuvchilar dumaloq chiziqlar chizishni mashq qiladilar, ranglarni farqlaydilar, moʻyqalam bilan ishlash koʻnikmalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: oq qogʻoz, moʻyqalam, rangli boʻyoqlar, suv idish, koptok rasmi aks etgan namuna, kartochka, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Koptok va uning rasmini kuzatish.
 2. Namunalar bilan tanishish.
 3. Koptok rasmini chizish.
 4. Bolalarni ragbatlantirish.
- Alohida e'tibor qaratiladi: koptokning o'ziga xos xususiyatlarini bilish.

Svuietli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Sport murabbiysi

Maqsad: tarbiyalanuvchilar sport turlariga yanada qiziqadilar, sport murabbiysi va uning vazifalarini biladilar.

Kerakli jihozlar: turli sport murabbiylari tasvirlangan slaydlar, sport turlari tasvirlangan rasmlar, sport anjomlari.

Faoliyatning borishi:

1. Slaydni tomosha qilish.
2. Sport anjomlari bilan tanishish.
3. Kerakli sport anjomlarini tanlash.
4. Rollarga taqsimlash.
5. O'yin jarayoni.

Alohida e'tibor qaratiladi: o'yin jarayonidagi dialog.

Fan va tabiat

Mavzu: Yurak urishini eshitamiz

Maqsad: tarbiyalanuvchilar odam tanasi qismlari va yurakning urishi haqidagi tushunchalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: odam tana qismlari rasmi, harakatli o'yinlar uchun niqoblar.

Faoliyatning borishi:

1. Tana qism rasmlarini kuzatish.
2. Tana qismlarini to'g'ri aytish.
3. Sakrashvaharakatli o'yinlarni o'ynashshundanso'ngyurakurishini eshitibko'rish. Alohida e'tibor

qaratiladi: yurak urish tezligini sezish.

San'at

Mavzu: Piramida

Maksad: tarbiyalanuvchilar rangli qog'ozlarni ketma-ketlikda, ustma-ust qo'ya oladilar, yelimlash malakalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: piramida, namuna, rangli qog'ozdan kesilgan doirachalar, yelim, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Piramida rasmini tomosha qilish.
 2. Namunalar bilan tanishish.
 3. Yelimlash ketma-ketligini kuzatish.
 4. Bolalarning ish jarayoni.
 5. Bolalarni rag'batlantirish.
- Qo'shimcha: tayyor o'yinchoq piramidalarni yig'ishni taklif qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: ketma-ketlikda katta-kachiligiga qarab ustma-ust qo'yish.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh	Kichik						
Mavzu	Ertaklar yaxshilikka etaklar						
Muddati	Iyul3-hafta						
Rivojlanish sohalariga maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi	Belgilangan nishonga predmetni irtg'itadi, xalqaga arqonni kirgizadi, taroq, dastro'mol yoki qo'lsuchi qdan foydalanadi.					
	Ijtimoiy-hissiy	Yordam soraydi, kattalarga murojat qilishni biladi, zinopoyadan xarakatlanish qoidalarini biladi, xavfli predmetlarni					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Rasmlarga munosib xikoya tuzadi, shaxsiy hayotidan kichik hikoyalar tuzadi. Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga xarakat qiladi. Kitob haqida tushunchaga ega.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	6 ta rangni farqlaydi, sanoq haqida tushunchaga ega, uzun-qisqa tushunchalarini biladi.					
	Ijodiy rivojlanish	Bo'yash texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishga harakat qiladi, tayyor shakllardan predmetlar tasvirini yaratadi, bezaklar bilan bezatadi.					
Rivojlanish markazlari		Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushan	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika			Ertakdagi minora			lego, mozaika, kubiklar.
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish	Kitob do'koni					Kitoblar, rasmlar, o'yinchoq terminal va pullar.
	Til va nutq				Ertak tinglash		Ertak kitoblar, ertak mazmuni yoritilgan rasmlar, AKT.
	Fan va tabiat		Ertak qaxramonlarini yaratish		Kitoblarga ikkinchi hayot bag'ishla		Namuna, qum, ertak qahramonlarini aks ettiruvchi qoliplar, suv, ta'mirtalab kitoblar, rangli qog'oz va yelim.
	San'at	Ertak kitob yaratish					Oq qog'oz, qalam, bo'yoq, namuna.

IYUL. UCHINCHIHAFTA

ERTAKLAR YAXSHILIKKA YETAKLAR

Svuietli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Kitob do‘koni

Maqsad: bolalar kitobga qiziqadilar va kitob do‘kon haqidagi tushunchalarini boyitadilar.

Kerakli jihozlar: kitoblar, rasmlar, o‘yinchoq terminal va pullar.

Faoliyatning borishi:

1. Bolalar ichidan sotuvchini tanlash.
 2. Kitob do‘konini tomosha qilish.
 3. Sotuvchi bilan suhbatlashish, narxlarni so‘rash.
 4. Kitob sotib olganda pul muomalasi bilan ishlash.
- Qo‘shimcha qism: bolalarni tashkilotdagi kichik kutubxonaga sayr qilish.
- Alohida e‘tibor qaratiladi: o‘yin so‘ngida jihozlarni tartibga keltirish.

San‘at

Mavzu: Sevimli ertak kitobim

Maksad: bolalar sevimli ertak kitobi rasmini chizadilar, qalam va bo‘yoq bilan ishlash malakalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: oq qog‘oz, qalam, bo‘yoq, namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Ertak kitoblarini tomosha qilish.
 2. Bolalarning sevimli kitoblari haqida suhbat.
 3. Yoqtirgan ertak kitoblari rasmini chizish.
 4. Kitoblar taqdimoti.
- Qo‘shimcha qism: sevimli ertagi haqida suhbat qurish.

Qurish-

YasashvamatematikaMavz

u: Ertakdagi minora

Maksad: bolalar minoralar haqidagi tushunchalarini hamda sanoq va katta-kichik hajm to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: lego, mozaika, kubiklar.

Faoliyatning borishi:

1. Ertaklardagi minoralarning rasmlarini tomosha qilish.
 2. Rasm va namunalarni tahlil qilish.
 3. Ijodiy ish.
 4. Bajarilgan ishlarga izoh berish.
- Qo‘shimcha qism: sayrda qumdan ertaklardagi minoralarni yasash.

Fan va tabiat

Mavzu: Ertak qahramonlarini yaratish

Maksad: bolalar ertak qahramonlarini yodga oladilar, ularning obrazlariga kira oladilar, ko‘rinishi asosida syujetni qumdan yoki yana biron bir turdagi materialdan yarata oladilar, ijodiy ish vaqtida gigiyenaga rioya qiladilar.

Kerakli jihozlar: namuna, qum, ertak qahramonlarini aks ettiruvchi qoliplar, suv.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlar orqali qumdan foydalanishni ko‘rish.
2. Qumni nam holatga keltirish.
3. Qoliplarni qumga toldirish.
4. Ertak qahramonlarini yaratish.

Qo‘shimcha qism: obrazga kirishni taklif qilish.

Til va nutq

Mavzu: Ertaklar olamiga sayohat

Maksad: tarbiyalanuvchilar ertak mazmuni xususida fikr yuritadilar, ertakdagi jarayonni tahlil qiladilar, g‘am, qayg‘u, xursandchilik kabi hissiyotlarni anglaydilar, lug‘at boyliklarini boyitadilar.

Kerakli jihozlar: ertak kitoblar, ertak mazmuni yoritilgan rasmlar, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Ertak mazmuni yoritilgan rasmlarni kuzatish.
2. Ertak kitobini tanlash.
3. Ovozli yozuvni tinglash.
4. Ertakni qayta so‘zlab berish.
5. Ertaklardan olgan taassurotlari haqida yakuniy suhbat.

Qo‘shimcha qism: AKT orqali ertakni tomosha qilish.

Fan va tabiat

Mavzu: Kitoblarga ikkinchi hayot bag‘ishlaymiz

Maksad: bolalar kitoblarni asraydilar va undan to‘g‘ri foydalanadilar, kitobni yaroqli holga keltirish ishlarini mustaqil olib borishga urunadilar, yelimdan to‘g‘ri foydalanadilar Kerakli jihozlar: ta‘mirlab kitoblar, rangli qog‘oz va yelim.

Faoliyatning borishi:

1. Kitoblarni ko‘rish.
2. Nima qilish kerakligini rejalashtirish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash.
4. Yirtiq kitoblarni ta‘mirlash.

Qo‘shimcha qism: ta‘mirlangan kitobchalardan foydalanish va ularni javonlarga joylashtirish.

IYUL
MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

53

	Guruh	Kichik					
	Mavzu	Suvqirolimehmonda					
i	Muddat	Iyul4-hafta					
Rivojlanish sohalarigaoid maqsadlar	Jismoniyrivojlanishva sogʻlomturmush tarziningshakllanishi	Suvdasuzishharakatlarinibajaradi,chiniqishmuolajalariniamalgaoshiradi.					
	Ijtimoiy-hissiyrivojlanish	Jamoaviyoʻyinfaoliyatidafaolqatnashadi,doʻstlarigasamimiymunosabatbildiradi					
	Nutq,muloqat,oʻqishvayozishmalakalari	Kattalardankitoboʻqibberishlarinisoʻraydi,yoddaqolganhodisanisoʻzlabberadi,turlichiziqlarboʻylabqalamniyurgazadi.					
	Bilishjarayoni ningrivojlanishi	Tabiatgavaturliijismlargamunosabatbildiradi.Jonliobyektlargaqiziqishbildiradi.Koʻpliknitaqqoslaydi.					
	Ijodiyrivojlanish	Tabiatkoʻrinishlari,oʻyinchoqlar,bolalarkiyimlaridagiranglargoʻzalliginisezadi.					
Rivojlanishmarkazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviyfaoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkinfaoliyt	Qurish, yasashvamatematika	Qayiqcha			Suvuchunariqcha		Kubiklar,lego,maxsusidishdasuv,namunakubik,lego,kartonlar,mavzuasosidasmasmlar.
	Syujetli-rolli oʻyinlarvasahnalashtirish		Suvostidunyosi				Turli baliqlarvasuvosti hayvonlariniqoblari,suvparisi kiyimlari, polietilen paketdasuv,AKT,suvostitasvirlangan maket
	Tilvanutq	Nemoniizlab					
	Fanvatabiat			Turli xilusullarda suvsepish		Ranglisuvlar	Suv purkagich, suv, baklajkalar,chelak,mavzuasosidasrasm namuna-lar,suv,shaffofidishlar, rangliboʻyoqlar,pipetka.
	Sanʼat	Suvpurkagich (applikatsiya)			Xoʻlqogʻozdarasm chizish		Keraklianjomlar

IYUL. TO‘RTINCHI HAFTA SUV QIROLI MEHMONDA

Qurish-Yasash va matematika

Mavzu: Qayiqcha

Maqsad: bolalar qayiqchani nimadan yasalishi haqidagi bilimlarini boyitadilar, qayiqchani turli qurilish bloklaridan yasab ko‘radilar, qayiqni kim boshqarishi va qanday boshqarishini biladilar, suv transporti haqida bilgan ma‘lumotlarini qayta eslash orqali mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: kubiklar, lego, maxsus idishda suv, namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Turli xildagi qayiqchalar rasmini tomosha qilish.
2. Namunani o‘rganish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash.
4. Ishni rejalashtirish.
5. Ijodiy ish.

Tayyor qayiqchalarni maxsus idishga solib boshqarish.

Qo‘shimcha qism: qayiqchani qog‘ozdan yasashni taklif qilish, suv transporti bilan bolalarni yana bir bor tanishtirish.

Alohida e‘tiborga moyillik jihati: suv transport turlari.

Til va nutq

Mavzu: “Suv” haqida multfilm namoyishi va suhbat

Maksad: bolalar suv osti hayoti, u yerdagi jonzoqlar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar, savollarga to‘liq gap bilan javob berishga o‘rganadilar.

Kerakli jihozlar: AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Multfilm namoyishi.
2. Multfilm taassurotlari bilan o‘rtoqlashish.
3. Multfilm mazmuni bo‘yicha suhbat.
4. Yakun

Qo‘shimcha qism: akvariumdagi baliqlarni kuzatish, ularni oziqlantirish.

Alohida e‘tiborga moyillik jihati: kuzatuvchanlik va ko‘rganlarni to‘liq bayon ayta olish.

San‘at

Mavzu: Suvpurkagich

Maksad: bolalar mo‘yqalam va yelimdan to‘g‘ri foydalanish malakalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, mo‘yqalam, suv, oq qog‘oz, tayyor shablonlar, suvpurkagich.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Suvpurkagichni qanday va qanaqa yasalganini aniqlash.
3. Shablonlarni olish.
4. Shablonlarni namuna asosida yelimlash.
5. Tayyor ishni turli bezaklar bilan boyitish.

Qo‘shimcha qism: baklajkalardan ham suvpurkagich ixtiro qilish, bolalarni rag‘batlantirish.

Alohida e‘tiborga moyillik jihati: tayyor bezatilgan ijodiy ishlar.

Svuietli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Suv osti dunyosi

Maksad: bolalar rollarni mustaqil ijro etadilar, suv osti dunyosi va baliqlar nima bilan ozuqlanishi haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar, jamoada ishlash tartibiga rioya qiladilar, do‘stlik va mehr tuyg‘ularini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: turli baliqlar va suv osti hayvonlari niqoblari, suv parisi kiyimlari, polietilen paketda suv, AKT, suv osti tasvirlangan maket.

Faoliyatning borishi:

1. Rollarni taqsimlash.
2. O‘yin uchun joy hozirlash.
3. O‘yinni rejalashtirish.
4. O‘yin jarayoni.
5. Yakuniy suhbat.

Qo‘shimcha qism: AKTda suv ostini tomosha qilish.

Alohida e‘tiborga moyillik jihati: suv osti dunyosi haqidagi bilim.

Fan va tabiat

Mavzu: Turli xil usullarda suv sepish

Maksad: bolalar suv sepish usullarini biladilar, suv sepishda ehtiyotkorlikka rioya qiladilar, qanday idishdan qanday tarzda (chelakdan ko‘p miqdorda, baklajkadan kamroq va bir tekisda, suv purkagichda tomchilab) suv sepilishini aniqlaydilar.

Kerakli jihozlar: suv purkagich, suv, baklajkalar, chelak, mavzu asosida rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosida rasmlarni tomosha qilish.
2. Mavjud jihozlarni tanlash.
3. Tanlangan jihozlarni suv bilan to‘ldirish.
4. Suvni qaysi idishdan qanday sepilishini tajriba orqali sinab ko‘rish.
5. Tajriba muhokamasi va xulosa.

Qo‘shimcha qism: sayrda “Suv separ” o‘yini tashkil etish.

Qurish-yasash va

matematika Mavzu: Suv uchun ariqcha

Maqsad: bolalar tekis va notekis qurilmalarni yaratadilar va ularning foydalanish uchun yaroqliligini aniqlaydilar, fazoviy mo‘ljalladilar, kubik hamda legolardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanadilar.

Kerakli jihozlar: namuna, kubik, lego, kartonlar, mavzu asosida rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosidagi rasmlarni kuzatish.
2. Ariqchani nimalardan yasash mumkinligini aniqlash.
3. Kerakli jihozni tanlash.
4. Ijodiy ish.
5. Bajirilgan ishni muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha qism: AKTda daladagi ariqchalarni ko‘rish, tashkilotdagi ariqchalarni sayrda tomosha qilish

Fan va tabiat

Mavzu: Rangli suvlar

Maqsad: bolalarhar xil rang yordamida rangli suvlar hosil qilish malakalarini mustahkamlaydilar. Kerakli jihozlar: namunalar, suv, shaffof idishlar, rangli bo'yoqlar, pipetka.

Faoliyatning borishi:

1. Namunalarni tomosha qilish.
2. Shaffof idishdagi suvlarni tanlash.
3. Suvga pipetka yordamida rangli bo'yoqlarni qo'shish.
4. Hosil bo'lgan rangli suvlarni tahlil qilish.

Qo'shimcha qism: o'tkazilgan tajribalarni taqqoslab, suhbatlashish.

San'at

Mavzu: Xo'l qog'ozda rasm chizish.

Maksad: bolalar tasviriy faoliyatning bu turi bilan yanada yaxshiroq tanishadilar, mustaqil tarzda ijodiy ishlaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, rangli bo'yoq, suv, oq qog'oz xo'l qog'oz.

Faoliyatningborishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Xo'l qog'ozda tasvirlarni yaratish.
3. Tayyor ishni tahlil qilish.
4. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: istaklariga ko'ra tasviriy faoliyatning boshqa turi bilan shug'ullanishlarini taklif qilish.

Alohida e'tiborga moyillik jihati: bolalarning ijodi.

AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG‘LOM BOLALAR

Guruh	Kichik					
Mavzu	Sabzavot vamevalar					
Muddat	Avgust1-hafta					
Rivojlanish sohalarigaoid maqsadlar	Jismoniyrivojlanish	To‘siqlarniaylanibo‘tadi,predmetlarniushlaganholdabadantarbiyamashqlarinibajaradi,emaklaydi,qoshiqdanmustaqilfoydalanadi.				
	Ijtimoiy-hissiy-rivojlanish	Rolgakirishadi,o‘yinuchunsharoityaratadi.Hamdardlikbildiradi,o‘zkechinmalarivahissiyotlarininamoyonetadi.				
	Nutq,muloqat,o‘qishvayozishmalakalari	Mavzulirasmlarasosidaqisqahikoyatuzadi,savollargajavobberadi.Lug‘atboyligioshadi.				
	Bilishjarayoni ningrivojlanishi	Tabiatomboribilanyaqindantanishadi,qaysimevavasabzavotlardanqandayvitaminolishmumkinliginibiladi.				
	Ijodiy-rivojlanish	Ovalshaklinichizaoladi,mevavasabzavotlarshaklinikerakliranglardato‘g‘ribo‘yaydi.				
Rivojlanishmarkazlari		Ta’limiy-tarbiyaviyfaoliyat				
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma Resurslar
Erkinfaoliyt	Qurish, yasash va matematika		Sabzavotlar uchun ombor xona			Namuna, kubiklar, legolar, sabzavotlar uchun ombor xona tasviri tushirilgan suratlar.
	Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish	Sabzavotlar do‘koni			Polizdagimehnat	Kerakli anjomlar
	Til va nutq		Mevavasabzavotlar ni ajrat			Mevavasabzavotlar to‘plami, savatcha, likopcha, “Mevava sabzavotlar” ta’limiy o‘yini.
	Fan va tabiat	Ta’midantop				Zaruri anjomlar
	San’at		Hosil yig‘amiz (loy)		Menevgan meva (rasm)	Plastilini yoki loy, taxta, cha, salfetka, namuna, sabzavot rasmlari, savatcha. oqqog‘oz, rangli bo‘yoqlar, namuna, mo‘yqalam

AVGUST. BIRINCHIIHAFTA SABZAVOT VA MEVALAR

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish
Mavzu: Sabzavot va mevalar do'koni

Maqsad: tarbiyalanuvchilar "Do'konda" ta'limiy o'yini orqali yoz oylarida pishadigan sabzavot va mevalar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: AKT, sotuvchi kiyimi, tarozi, yasama pul, meva va sabzavotlar mulyaji.

Faoliyatning borishi:

1. O'yin jihozlari bilan tanishish.
2. Rollarni taqsimlash.
3. O'yin jarayoni.
4. Ro'llarni almashib o'ynash.
5. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: meva va sabzavotli kartochkalarni berib, ularni ajratib, savatchalarga solishni taklif etish.

Fan va tabiat

Mavzu:

Ta'midan top

Maqsad: tarbiyalanuvchilar mevalarni ta'tib ko'rish orqali ularning ta'mlarini farqlaydilar, lug'atini yangi so'zlar (nordon, shirin) bilan boyitadilar.

Kerakli jihozlar: likopchada mayda qilib to'g'ralgan har xil mevalar (olma, uzum, limon, banan, anor), ko'zni bog'lash uchun ro'molcha, salfetka, mevalar rasmi tasvirlangan kartochkalar. Faoliyatning borishi:

1. Likopchadagi mevalarni ko'rib chiqish.
2. Mevalarni ta'tib ko'rish va meva nomini aytish.
3. Rasmi kartochkalarni mazasiga ko'ra (shirin, nordon) ajratish.
4. Mevalarning foydali tomonlari haqida suhbat.
5. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: mevalarning foydasi haqida videolavha ko'rishni taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: mevalarning vitamanga boyligi va organizm uchun foydasi.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Sabzavotlar uchun omborxona

Maqsad: tarbiyalanuvchilar kubiklar va turli lego konstruktorlardan sabzavotlar uchun omborxona quradilar, geometrik shakllarni nomlab ularni sanaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, kubiklar, legolar, sabzavotlar saqlanadigan omborxona tasviri tushirilgan rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Sabzavotlar uchun omborxona mavzusidagi rasmlarni ko'rib chiqish
2. Namuna bilan tanishish
3. Omborxona qurilishini rejalashtirish
4. Bolalar ish jarayoni

Bolalarni rag'batlantirish Alohida e'tibor qaratiladi: ijodiy yondashish.

Til va nutq

Mavzu: Meva va sabzavotlarni ajrat

Maqsad: tarbiyalanuvchilar sabzavot va mevalarni farqlaydilar, lugʻat boyligini oshiradilar, taʼlimiy oʻyinlarga qiziqish bildiradilar.

Kerakli jihozlar: meva va sabzavotlar toʻplami, savatcha, likopcha, “Meva va sabzavotlar” taʼlimiy oʻyini.

Faoliyatning borishi:

1. Savatdagi sabzavotlarni va likopchadagi mevalarni kuzatish.
2. Meva va sabzavotlar rasmlarini koʻrib chiqish.
3. Savatcha va likopchaga sabzavot va mevalar rasmini ajratish va oʻxshash, farqli jihatlarini tushuntirish.

4. Bolalarni ragʻbatlantirish.

Qoʻshimcha: kim qanday sabzavot va mevalarni yaxshi koʻrishi haqida suhbat.

Alohida eʼtibor qaratiladi: bolalarning lugʻat boyligini yangi soʻzlar bilan boyitish.

Sanʼat

Mavzu: Hosil yigʻamiz

Maqsad: tarbiyalanuvchilarning qoʻl motorikasi rivojlanadi, ijodiy tasavvuri shakllanadi.

Kerakli jihozlar: plastilin yoki loy, taxtach, salfetka, namuna, sabzavot rasmlari, savatcha.

Faoliyatning borishi:

Pomidor, bodring, kartoshka, piyoz, sabzi, qovun, tarvuz, qovoq mulyajlarini koʻrib chiqish.

1. Namunalar bilan tanishish.
2. Bolalar ishlari.
3. Tayyor ishlar taqdimot-koʻrgazmasi.
4. Bolalarni ragʻbatlantirish.

Qoʻshimcha: sabzavotlar haqida sheʼr va topishmoqlar.

Alohida eʼtibor qaratiladi: ijodiy ishda ozodalik va sarishtalik.

Syujetli -rolli oʻyinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Polizdagi mehnat

Maqsad: tarbiyalanuvchilar polizdagi mehnat haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: poliz ekinlari mulyaji va rasmlari.

Faoliyatning borishi:

1. “Polizdagi mehnat” rasmini koʻrish
2. Oʻyin jihozlari bilan tanishish
3. Poliz ekinlari rastalarini yaratish
4. Rollarni taqsimlash
5. Rolni qay darajada ijro etganligini oʻzaro muhokama qilish
6. Ragʻbatlantirish

Alohida eʼtibor qaratiladi: obrazga kirib rolni ijro etish.

Sanʼat

Mavzu: Men yoqtirgan meva

Maqsad: bolalar istaklari asosida rasm chizadilar, ijodiy ish jarayoniga nafislik bilan yondashadilar.

Kerakli jihozlar: oq qogʻoz, rangli boʻyoqlar, namuna, moʻyqalam.

Faoliyatning borishi:

1. Oʻzi yoqtirgan meva rasmini chizishni rejalashtirish.
2. Chizish texnologiyasi bilan tanishish.
3. Bolalarning ijodiy faoliyati.
4. Bolalar ishini koʻrib chiqish va ragʻbatlantirish.

Qoʻshimcha: multfilm koʻrish

Alohida eʼtibor qaratiladi: rangli boʻyoqlardan toʻgʻri foydalanish.

AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG‘LOM BOLALAR

Guruh	Kichik						
Mavzu	Kattalarga quloq sol						
Muddati	Avgust 2-hafta						
Rivojlanish sohalariga oʻldir maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining	Kolonna, doira boʻlib saflana oladi, muvozanatni saqlab yuguradi, sport zinasida yuqori va pastga harakatlanadi, bir joyda ikki oyoqlab sakraydi.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	“Menga yoqadi”, “Menga yoqmaydi” kabi fikrlarni bildiradi, syujetli-rolli oyinlarda ishtirok etadi. Oz oilasi haqida sozlar ekan, nima yoqishi va yoqmasligi haqida gapiradi.					
	Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari	AKT orqali koʻrgan holatlarini yodda qolgancha sozlab beradi, ibratli soʻzlar va ogohlantirishlarni togri tahlil qilib unga rioya qiladi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Turli muammoli vaziyatlardan toʻgʻri chiqish holatlarini biladi, xavf tugʻdirganda qanday chora koʻrishni biladi.					
	Ijodiy rivojlanish	Tasavvurlari asosida syujet yaratishga xarakat qiladi, tasviriy faoliyatning boshqa bir turlariga qiziqish bildiradi.					
Rivojlanish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanb	Seshanba	Chorshanb	Payshanb	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	Ikki qavatli bino					Namuna, kubik, lego, qurilish bloklari.
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish		Yoʻl qoidasi umr foydasi				Yoʻl belgilari, furajka, tayoqcha, rullar
	Til va nutq	Nima yaxshi-yu nima yomon?			“Moydodbir”multfilmnamoyishi		Mavzuga oid rasmlar, kitoblar, rasmlar, AKT.
	Fan va tabiat	Gigiyenikmuolajalar (qoʻlyuvishodobi)					Sovun, sochiq, qoʻl yuvish qoidalari tasvirlangan rasm
	Sanʼat		Gulli sochiqlar (rasm)		Sovun quti va sovun (loy)		Namuna, rangli boʻyoq yoki rangli qalam va akvarel qogʻozlar, loy, plastilin, salfetka, steyk, doska

AVGUST. IKKINCHI HAFTA

KATTALARGA QULOQ SOL

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Ikki qavatli bino

Maqsad: bolalar quruvchi kasbi to'g'risidagi ma'lumotlarini boyitadilar, qurilish ishlarida ishtirok etadilar, jamoa bilan hamjixatlikda ishlashga odatlanadilar.

Kerakli jihozlar: namuna, kubik, lego, qurilish bloklari.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Namunani o'rganish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash
4. Ijodiy ish.

Qo'shimcha: tayyor ishni mayda detallar bilan to'ldirish Alohida e'tibor qaratiladi: hayot xavfsizligi asoslari.

Til va nutq

Mavzu: Nima yaxshiyu, nima yomon

Maqsad: bolalar yaxshini yomondan ajrata olishga o'rganadilar, qisqa gaplardan hikoya tuza oladilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar, rasmlar, AKT Faoliyatning borishi:

1. Rasmlar va kitoblarni ko'rib chiqish.
2. Mavzuga mos videorolikni tomosha qilish
3. Rasmlar asosida o'zaro suhbat
4. Mavzu yuzasidan sodda gaplar bilan hikoya tuzish
5. Muhokama, xulosa

Qo'shimcha: "Egri va to'g'ri" ertagini tinglash.

Alohida e'tibor qaratiladi: hikoyadagi gaplar va uning mazmuni

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Yo'l qoidasi - umr foydasi

Maqsad: bolalar yo'l harakati qoidalari va svetafor chiroqlarini biladilar. Kerakli jihozlar: yo'l belgilari, furajka, tayoqcha, rullar Faoliyatning borishi:

1. O'yin maydonini va kerakli anjomlarni tayyorlash
2. O'yinni rejalashtirish
3. Rollarni taqsimlash
4. O'yin jarayoni
5. O'yinni yakunlash

Qo'shimcha: "Ehtiyot bo'li" harakatli o'yin

Alohida e'tibor qaratiladi: svetofor chiroqlariga qilib harakatlanish.

Sanʼat

Mavzu: Gulli sochiqlar

Maqsad: bolalar chizish va boʻyash malakalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, rangli boʻyoq yoki rangli qalam va akvarel
qogʻozlar Faoliyatning borishi:

1. Namuna bilan tanishish.
2. Kerakli anjomlarni tanlash.
3. Ishni rejalashtirish.
4. Ijodiy ish.

Qoʻshimcha: koʻrgazma tashkil qilish

Alohida eʼtibor qaratiladi: bolaning ijodkorligi, ranglarni toʻgʻri tanlash

Til va nutq

Mavzu: “Moydodir” multfilmi namoyishi

Maqsad: bolalar multfilmdan tozalikka va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishga odatlanadilar.

Kerakli jihozlar: AKT Faoliyatning borishi:

1. Ozodalik haqida suhbat
2. Multfilm namoyishi
3. Multfilmdan olingan taassurotlar bilan oʻrtoqlashish

Qoʻshimcha: mavzu asosida sheʼr yod oldirish

Alohida eʼtibor qaratiladi: ozodalik va shaxsiy gigiyenaga rioya qilish

Fan va tabiat

Mavzu: Ozoda qoʻllar

Maqsad: bolalar qoʻl yuvish qoidalarini biladilar

Kerakli jihozlar: sovun, sochiq, qoʻl yuvish qoidalari tasvirlangan rasm Faoliyatning borishi:

1. Gigiyena vositalari bilan tanishtirish.
2. Qoʻl yuvish qoidalari tasvirlangan rasmni oʻrganish.
3. Qoʻlni qoidalar asosida yuvish.
4. Bajarilgan ishni tahlil qilish.

Qoʻshimcha: qoʻl yuvishning afzalligi va yuqumli kasalliklarni oldini olish haqida suhbat.

Alohida eʼtibor qaratiladi: qoʻl yuvish qoidasiga muntazam rioya qilish.

Sanʼat

Mavzu: Sovun qutisi va sovun

Maqsad: bolalar loy yoki plastilin bilan ishlash malakalarini mustahkamlaydilar. Kerakli jihozlar: namuna, loy, plastilin, salftka, steyk, doska.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani oʻrganish.
2. Kerakli anjomni tanlash.
3. Ishni rejalashtirish.
4. Ijodiy ish.
5. Yakuniy suhbat.

Qoʻshimcha: sovunqutisivasovungabezaklarberish, ota-onalaruchunkoʻrgazmatayyorlash.

Alohida eʼtibor qaratiladi: gigiyena qoidalariga rioya qilish.

AVGUST
OYMAVZUSI: QUVNOQVASOG‘LOMBOLALAR

Guruh	Kichik						
Mavzu	Oyinlar shaharchasi						
Muddati	Avgust 3-hafta						
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi	Katta koptoklarni masofaga, ikki qoʻl bilan, oʻtirib, turib irgʻitadi. Oʻz tana aʻzolari harakatini kuzatib, uni tahlil qiladi. Ovqatlanish jarayonida gigiyenaga rioya qiladi.					
	Ijtimoiy-hissiy	Oʻz xatti-harakatlariga javob beradi (“buni men qildim”), boshqa bolaning hissiyotlarini aniqlaydi va soʻz bilan ifoda etadi.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Sodda gaplar tuzadi, soʻzlashishda emoʻyialarga kirishadi, imo-ishoralar bilan istagini bayon etadi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Oʻyin turlari orqali bilish jarayonlari boyiydi, yarim, yarimtacha tushunchalarini biladi. Sanoq va sonlar qatoridagi bogʻliqlikni tushunadi.					
	Ijodiy rivojlanish	Kechinmalari asosida turli tasvirlarni chizadi. Yelimlash ishlarini mustaqil bajaradi.					
Rivojlanish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushan	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika		Oʻyinchoqlar javoni				Namuna, lego, kubik, mavzuga oid rasmlar
	Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish				Xarakatli oʻyinlar		niqoblar va kerakli anjomlar
	Til va nutq	Quvnoq tilcha ertagi					Oynachalar, salfetka, mavzuli rasm,
	Fan va tabiat			“Besh tosh” va “Sapalak tosh”larni jamlash			Mavzu asosida rasm, turli kattalikdagi toshlar
	Sanʼat	Quvnoq smayliklar			Kollaj “Bolalar oʻyingohi”		Namuna, rangli qalam va qogʻozlar, tayyor smayliklar, turli xildagi tayyor rasmlar, mavzu asosida rasmlar, yelim, oq qogʻozlar

AVGUST. UCHINCHHAFTA

O‘YINLAR SHAHARCHASI

Til va nutq

Mavzu: “Quvnoq tilcha” ertagi

Maqsad: bolalar artikulyatsion mashqlarni bajaradilar, o‘z xatti-harakatlarini kuzatishni o‘rganadilar.

Kerakli jihozlar: oynachalar, salfetka, mavzuli rasm, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlarni tomosha qilish.
2. AKT orqali ertakni tinglash.
3. O‘tirgan holda oynachalarni qo‘lga olib, rasmda tasvirlangan artikulyatsion mashqlarni bajarish.

4. Yakuniy suhbat.

Qo‘shimcha: artikulyatsion mashqlarni uyda davom ettirishni taklif qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: til harakati.

San‘at

Mavzu: Quvnoq “smayliklar”

Maqsad: bolalar turli hissiyotlarni tasvirlaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, rangli qalam va qog‘ozlar, tayyor smayliklar.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Kerakli anjomlarni tanlash.
3. Ishni rejalashtirish.
4. Ijodiy ish.
5. Ko‘rgazma.

Qo‘shimcha: quvnoq smayliklarni applikatsiya usulida yaratish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: ijodkorlik

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: O‘yinchoqlar javoni

Maqsad: bolalar o‘z tasavvurlaridagi javonni yasaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, lego, kubik, mavzuga oid rasmlar Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish
2. Namunani kuzatish
3. Kerakli jihozlarni tanlash
4. Ijodiy ish.
5. Ishlar taqtimoti.

Qo‘shimcha: tayyor javonni jihozlash

Alohida e‘tibor qaratiladi: tasavvurlarini kengaytirish

Fanvatabiat

Mavzu: “Besh tosh” va “Sapalak” o‘yinlari uchun toshlarni topamiz

Maqsad: bolalar toshlarni katta va kichikligiga, yassiligiga qarab ajratadilar. Kerakli jihozlar: mavzu asosida rasm, turli kattalikdagi toshlar. Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish
2. Rasmlarni tomosha qilish
3. Toshlarni ajratish

Qo‘shimcha: “Besh tosh” va “Sapalak” o‘yinlarini o‘ynash

Alohida e‘tibor qaratiladi: toshlarning katta, kichik va yassiligiga sezgirlik

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Harakatli o‘yinlar

Maqsad: bolalar oyoq, qo‘l mushaklarini chiniqtiradilar, chaqqonlik va tezliklarini oshiradilar.

Kerakli jihozlar: niqoblar va kerakli anjomlar Faoliyatning borishi:

1. Niqoblarni tanlash.
2. O‘yinlarni rejalashtirish.
3. Harakatli o‘yinlarni o‘ynash.

Qo‘shimcha: niqoblar tayyorlash.

Alohida e‘tibor qaratiladi: o‘yin shartini bilish.

San‘at

Mavzu: “Bolalar o‘yingohi” kollaji

Maqsad: bolalarda tasavvur va ijodiy qobiliyatlar mustahkamlanadi.

Kerakli jihozlar: namuna, turli xildagi tayyor rasmlar, mavzu asosida rasmlar, yelim, oq va rangli qog‘ozlar.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna bilan tanishish.
2. Kerakli jihozlarni tanlash.
3. Ijodiy ish.
4. Bajarilgan ish taxlili.

Qo‘shimcha: tayyor ishni izohlab berish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: ijodiy ishning mazmuni va ko‘rinishi.

AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG‘LOM BOLALAR

Guruh	Kichik					
Mavzu	Zavqliyoz					
Muddat	Avgust4-hafta					
Rivojlanish sohalarigaoid maqsadlar	Jismoniyrivojlanish	Matrapbilanmaydauchayotgan,suzayotganpredmetlarnitutadi,sovunko‘piklariniuchiradi.Chaqqonliknivatzliknioshiradi.				
	Ijtimoiy-hissiyrivojlanish	Faslganisbatankechinmalarinihis-tuyg‘ularbilanifodalaydi,fikrlashorqalivazifanito‘g‘ribajarishgaurinadi.				
	Nutq,muloqat,o‘qishvayozishmalakalari	Shaxsiyhayotidanso‘zlabberadi,turlitovushlargaqalidqiladi,unlitovshlarnito‘g‘ritaffuz qiladi.				
	Bilishjarayoni ningrivojlanishi	Geometrikshakllarnibiladiulardanbironbirnarsahosilqiladi.Predmetlarnibelgisigako‘raguruhlarga bo‘ladi.				
	Ijodiyrivojlanish	Yirtishyo‘liorqaliapplikasiyaishlariniamalgaoshiradi,predmetgamosranglarnitanlaydi,ishiniqo‘shimchalarbilanboyitadi.				
Rivojlanishmarkazlari		Ta’limiy-tarbiyaviyfaoliyat				
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Jumma
Erkinfaoliyat	Qurish, yasash va matematika		Shakllarnijoylashtir		Rasmlimazaykalar	
	Syujetli-rolli o‘yinlarvasahnalashtirish	Kichiksayyoxlar				Namuna, geometrik shakllar, turlipredmetlar,rasmlar,ta’limiyo‘yin,turliko‘rinishdagi mozaikalar
	Tilvanutq	Topgantopaloq (topishmoqlar)				Mavzugaoirdrasmlar, hayvono‘t bog‘i, muzey, istirohat bog‘i, tog‘ yonbag‘irlarini ifodalovchi atributlar
	Fanvatabiat				Yozgi mevalarnikuzatish	Rasmlikartochkalar, niqoblar, ta’limiyo‘yinlar
	San’at		Rasmnito‘ldir			Mevalidaraxtniekilibuni hosilgakirishigachabo‘lganjarayon ketma-ketligitasvirlanganrasmyokiAKT, “Me vadaraxtniekvauninghosilinitezroqol!” ta’limiy o‘yini
						Namuna, rangliqalamlar, yakunlanmaganrasmlar

AVGUST. TO'RTINCHI HAFTA

ZAVQLIYOZ

Syujetli-rollo'yinlarvasahnalashtirish

Mavzu: Kichiksayyohlar

Maqsad: bolalar borgan va ko'rgan joylari haqida o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar. Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar, hayvonot bog'i, muzey, istirohat bog'i, tog' yon- bag'irlarini ifodalovchi atributlar Faoliyatning borishi:

1. O'yin uchun sharoit yaratish
2. O'yinni rejalashtirish
3. Rollarni taqsimlash
4. O'yin
5. Taassurotlar bilan o'rtoqlashish.

Qo'shimcha: sayyohatga borgan joylari haqida suhbat

Alohida e'tibor qaratiladi: qaysi maskanda qanday faoliyat tashkil etilganligi.

Til va nutq

Mavzu: Topgan topaloq (ta'limiy o'yinlar)

Maqsad: bolalar fikrlashga, ziyraklikka o'rganadilar.

Kerakli jihozlar: rasimli kartochkalar, niqoblar, ta'limiy o'yinlar.

Faoliyatning borishi:

1. Rasimli kartochlarni ko'zdan kechirish
2. Xohishiga ko'ra kartochkalarni tanlash
3. Kartochkadagi vazifalarni bajarish
4. Vazifani izohlab

berishQo'shimcha: topishmoqlar
topish

Alohida e'tibor qaratiladi: bolaning tafakkuri, tezkorligi

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Shakllarni jonlantir

Maqsad: bolalar predmetlarning shakllarini aniqlay oladilar, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, geometrik shakllar, turli predmetlar, rasmlar, ta'limiy o'yin.

Faoliyatning borishi:

1. Ta'limiy o'yin qoidalarini tushuntirish.
2. Vazifani tanlab olish.
3. Shakllardan biron bir predmetni hosil qilish.
4. Tayyor predmetni harakatlantirish.

Qo'shimcha: "Bu qaysi predmetga o'xshaydi?" ta'limiy o'yini.

Alohida e'tibor qaratiladi: qobiliyati, tasavvuriga

Sanʼat

Mavzu: Rasmni toʻldir

Maqsad: bolalar rasmlarni qolgan yarmini chiza oladilar, qoʻl mayda motorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, rangli qalamlar, yakunlanmagan rasmlar Faoliyatning borishi:

1. Namunadagi rasmlarni kuzatish
2. Vazifani tanlab olish
3. Kerakli rangli qalamlarni tanlash
4. Vazifani bajarish
5. Bajarilgan ish tahlili.

Qoʻshimcha: chizgan rasmlarga mos sheʼr yoki topishmoqlar aytish

Alohida eʼtibor qaratiladi: etishmagan qismlarni topa olish, ranglarni oʻz oʻrnida ishlatish

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Rasml mozaikalar

Maqsad: bolalar fazoviy moʻljol olish malakalarini mustahkamlaydilar, qismdan butunni hosil qiladilar.

Kerakli jihozlar: turli koʻrinishdagi mozaikalar Faoliyatning borishi:

1. Mavjud mozaikalarni tomosha qilish
2. Oʻz hohishiga koʻra mozaikalarni tanlab olish
3. Mozaikalarni yigʻish
4. Tayyor ishni tahlil qilish

Qoʻshimcha: qoʻshimcha mozaikalarni taklif qilish Alohida eʼtibor qaratiladi: fazoviy moʻljalni aniq olish.

Fan va tabiat

Mavzu: Yozgi mevali daraxtlarni kuzatish

Maqsad: bolalar mevali daraxtni ekilib uni hosilga kirishigacha boʻlgan jarayonni kuzatadilar.

Kerakli jihozlar: mevali daraxtni ekilib uni hosilga kirishigacha boʻlgan jarayon ketma-ketligi tasvirlangan rasm yoki AKT, “Meva daraxtini ek va uning hosilini tezroq ol!” taʼlimiy oʻyini Faoliyatning borishi:

1. Mevali daraxt ekilib, u pishib etgunga qadar boʻlgan jarayonni rasm yoki AKT orqali tomosha qilish.
2. Koʻrilgan rasm yoki AKTdan olingan maʼlumotlar boʻyicha suhbat.
3. “Meva daraxtini ek va uning hosilini tezroq ol!” taʼlimiy oʻyini (kartochkalar ketma- ketligini toʻgʻri joylashtirish).
4. Tahlil.

Qoʻshimcha: tashkilot bogʻidagi mevali daraxtlarni kuzatish.

O'RTA GURUH

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK!

Guruh		Orta guruh					
Mavzu		Baxtli bolalik					
Muddati		Iyun 1-hafta					
Rivojlantirish sohalari o'ldirish maqsadlar	Jismoniy rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini shakllanishi	Kengligi 20-25 sm. Bo'lgan ariqchadan sakrash harakatini mustahkamlash, to'ldirishimon tashlab qo'yilgan arqoncha ustida muvozanat saqlab yurishni davom ettirish, havfsiz harakatlanish bo'yicha tushunchalarini kengaytirish.					
	Ijtimoiy-xissiy rivojlanish	O'yinlar davomida tegdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritishni mustahkamlash. O'yin mazmuni bo'yicha do'stlari bilan kelishishiga o'rgatishda davom etish.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Hayotidagi ayrim voqealarni gapirib berishga yo'naltirish, buyumlarni nomi, belgisi, vazifalari bo'yicha kichik hikoyalar tuzishda davom etish.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	O'ng tomon va chap tomon tushunchalarini mustahkamlash, "kecha", "bugun", "ertaga" tushunchalarini kengaytirish.					
	Ijodiy rivojlantirish	Murakkab bo'lmagan voqeaband rasmlarni chizishda davom etish, bir bo'lak loyni barmoqlarda cho'zish orqali turli shakllarga keltirishni mashq qilish, qog'ozdan buklayish yo'li orqali oddiy narsalarni yaratishni o'rgatish.					
Rivojlantirish markazlari		Talimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	Qurilish materiallaridan o'yin maydonchasini quramiz					Qurilish materiallari, lego konstruktor, turli kattalikdagi g'ishtlar
	Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish	1 Iyun- Butunjahon bolalar kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri					Niqoblar, jihozlar, disk, AKT, kostyumlar
	Til va nutq		Bayram tassurotlari asosida suhbat		Ta'limiy o'yin. "Bu qaysi faslda"		Mavzu asosida suratlar, AKT materiallari
	Fan va tabiat	Quyoshning taftini xis qilamiz	Shirin sharbatlar		Havo va suv tajribasi "Quvnoq Sharchalar"		Suv, maxsus idishcha, naychalar
	Sanat				"Baxtli bolalik" bayram manzaralari rasm, applikatsiya orqali		Oq va rangli qog'ozlar, tabiat materiallari, rangli qog'oz, rangli bo'yoq, rangli qalamlar

IYUN. BIRINCHI HAFTA

BAXTLI BOLALIK

Syuietli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: 1-Iyun - butunjahon bolalar kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri

Maqsad: bolalar mustaqil ravishda o'z istaklariga ko'ra rollarni tanlaydilar, yil davomida yod olgan she'r va qo'shiqlarini eslaydilar, bayramni qanday tashkil etish mumkinligini o'zaro kelishadilar.

Kerakli jihozlar: AKT, liboslar, shar va gullar.

Faoliyatning borishi:

1. Bayram rejasini tuzish.
2. Yod olgan she'r va ashulalarini takrorlash.
3. Kerakli liboslarda obrazga kirish.
4. Boshlovchining ko'rsatmasi asosida Konsert namoyish qilish.
5. Bayram yakunida do'stlarini tabriklash.

Qo'shimcha: kichik guruh tarbiyalanuvchilarini bayramga taklif qilish Alohida e'tibor qaratiladi: tadbirni kuy va qo'shiqlar bilan boyitilishi.

Fan va tabiat

Mavzu: Quyoshning taftini his qilamiz

Maqsad: bolalar quyoshning xususiyatlari haqidagi bilimlarini amaliy tajriba orqali yanada boyitadilar.

Kerakli jihozlar: guruhning quyosh nurlari tushib turgan joy, mavzuga oid rasmlar, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlarni ko'rish.
2. Quyosh nurlariga qo'llarini tutish va isitish.
3. Quyosh nurlari tushayotgan joyga idishda muzdak suv qo'yish va uning ilishini kuzatish.
4. kuzatish.
5. Quyosh nurlari tushayotgan joyga yax bo'laklarini qo'yib uning erishini kuzatish.
6. Amaliy tajribani xulosalash.

Qo'shimcha: quyoshning yorug'lik taratishini, chiqishi va botishini AKT orqali namoyish etish. Alohida e'tibor qaratiladi: xulosa chiqarish.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Qurilish materiallaridan o'yin maydonchasini quramiz

Maqsad: bolalar quruvchi kasbi to'g'risidagi ma'lumotlarini boyitadilar, qurilish ishlarida ishtirok etadilar, jamoa bilan hamjihatlikda ishlashga odatlanadilar.

Kerakli jihozlar: namuna, kubik, lego, qurilish bloklari.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Namunani o'rganish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash
4. Ijodiy ish.

Qo'shimcha: tayyor ishni mayda detallar bilan to'ldirish Alohida e'tibor qaratiladi: hayot xavfsizligi asoslari.

Til va nutq

Mavzu: Bayram taasurotlari asosida suhbat.

Maqsad: bolalar “1-Iyun Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” va u kunni qanday o‘tkazganliklari haqida fikrlarini bayon etadilar, lug‘at boyliklarini oshiradilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Turli xil bayramlar aks etgan mavzuli rasmlar.
2. O‘zaro suhbat qurish.
3. Borgan joylari haqida do‘stlari bilan o‘rtoqlashish.
4. Yana qaeirlarga borishni istashlarini aytish.

Qo‘shimcha: borgan maskanlarining rasmini chizish.

Fan va tabiat

Mavzu: Shirin sharbatlar

Maqsad: bolalar mevalar siqish yo‘li bilan mustaqil ravishda sharbat tayyorlaydilar va uning nima uchun foydali ekanligini aytib beradilar.

Kerakli jihozlar: xo‘l mevalar, naycha (trubochka), stakan, suv, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushintirish.
2. Xo‘l mevalarni kuzatish.
3. Xo‘l mevalarni siqish va ulardan sharbat olish.
4. Sharbatlarni totib ko‘rish.
5. Qaysi sharbat nima uchun foydali ekanligini tahlil qilish.

Qo‘shimcha: bolalarni rag‘batlantirish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: tabiat ne‘matlari haqidagi bilimlar.

Til va nutq

Mavzu: “Bu qaysi faslda” ta‘limiy o‘yin

Maqsad: bolalar qaysi faslda qanday meva, sabzavotlar pishib etilishi, bu faslning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarni mustahkamlaydilar, o‘ylab vazifani to‘g‘ri bajarishga intiladilar. Kerakli jihozlar: “Bu qaysi faslda” ta‘limiy o‘yin Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosida suhbat.
2. “Bu qaysi faslda” ta‘limiy o‘yini o‘ynash.
3. O‘yinni tahlil qilish.
4. Qo‘shimcha savollar Qo‘shimcha:

mavzuga doir boshqotirmalar

Alohida e‘tibor qaratiladi: fikrni yetkazib bera olish,so‘zlashishdagi nutqning ravonligi.

Fan va tabiat

Mavzu: “Quvnoq sharlar”. Havo va suv bilan amaliy tajriba

Maqsad: bolalar sharlarni turli xil kattalikda puflaydilar, shardan chiqayotgan havoda suvni tebranish holatiga keltiradilar.

Kerakli jihozlar: turli xil rangdagi sharlar, idishda suv, salftkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Sharlarni qo‘l bilan paypaslab ushlab ko‘rish.
2. Har bir bolaga bittadan shar berib puflatish.
3. Sharlarni og‘zini tezlik bilan bo‘shatgan holda idishdagi suvda to‘lqin hosil qilish.
4. Amaliy tajriba natijasini muhokama qilish.

Qo‘shimcha: sharlarga rangli tasmalar bog‘lab bezak berish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: nafasni bir maromda chiqarish.

Sanat

Mavzu: “Baxtli bolalik” bayram manzaralari

Maqsad: bolalar bezatilgan bayramona ko‘chalar haqidagi tasavvurlarini rasmlarda ifodalaydilar, ranglardan to‘g‘ri foydalanadilar va applikasiya jarayonida ozodalikka e‘tibor qaratadilar. Kerakli

jihozlar: namuna, rangli qalam va bo‘yoqlar, oq qog‘oz, yelim, salftka, .

Faoliyatning borishi:

1. Namuna bilan tanishish.
2. Kerakli jihozlarni tanlash.
3. Bolalar ishi.
4. Bajarilgan ishga izoh berish.
5. Bolalarni rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: tashkilot fayasini bezatish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: mavzuni yoritilganligi

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK!

Guruh		Orta guruh					
Mavzu		Gullar va qushlar					
Muddati		Iyun2-hafta					
Rivojlantirish sohalariga maqsadlar	Jismoniy rivojlantirish va soglom turmush tarzini shakllanishi	Tengdoshlari bilan harakatli o'yinlarda ishtirok etish hoxishini tarbiyalash. O'yinlar orqali harakat tezliklarini oshirish, yo'nalishlarni o'zgartirgan holda yurishni o'rganishda davom etish. Gimnastika narvonchasiga tirmashib chiqishni mashq qildirish.					
	Ijtimoiy-xissiy rivojlanish	Faoliyatlar, muloqotlar davomida "Sehrli so'zlar"dan foydalanishni o'rgatish, xushmuomalalikka chaqirish, ovozni balandlatmaslik, shovqin solmaslikka odatlantirish.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Tevarak-atrofdagi narsalarga e'tiborlik bilan qarash va ularni yodda saqlashga o'rgatish, ko'rganlari asosida qisqacha hikoyalar tuzishni mustahkamlash. Lug'atiga kirgan yangi so'zlarni so'z o'yinlari orqali mustahkamlash.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Geometrik shakllardan foydalangan holda qurilgan buyumlarni tahlil qilish, ularni farqlashni mustahkamlash. Vaqt haqidagi tushunchalarini kengaytirish. Yoz oylarida kattalar mehnati bilan tanishtirishd davom etish. Gullar va qushlar mavzusidagi bilimlarini kengaytirish.					
	Ijodiy rivojlanish	Qog'oz sathida ishlashni o'rgatish, loy ishlarida ikki va uch qismli buyumlarni yaratishni mashq qilishda davom etish, uchi to'mtoq bo'lgan qaychi bilan uzun-qisqa lentachalarni qirqish orqali qaychi bilan ishlash malakasini mustahkamlash.					
Rivojlantirish markazlari		Talim-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	Qushlar uchun shinam uy quramiz		Pazllardan gulzor yaratamiz			Qurilish materiallari, lego konstruktor, turli kattalikdagi g'ishtlar
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish	"Gullar" do'koni					Niqoblar, jihozlar, disk, AKT, kostyumlar
	Til va nutq		Qushlar bizning do'stimiz rasmlar asosida hikoya tuzish		Ta'limiy o'yin. "Bu qaysi qushning bolasi".		Mavzu asosida suratlar, AKT materiallari
	Fan va tabiat	Gullarning turiga qarab saralash	Tabiatda: Gullarni parvarishlash (gullarning tagini yumshatish, suv quyish)				Suv, maxsus idishcha, naychalar
	Sanat	"Afsonaviy gul" rasm, applikasiya usullari yordamida			Ertakdagi qushcha loy ishi		Oq va rangli qog'ozlar, rangli bo'yoq, rangli qalamlar, yelim, loy.

IYUN. IKKINCHI HAFTA

QUSHLAR BIZNING DO‘STIMIZ

Syujetli -rolli o‘yinlar va saxnalashtirish

Mavzu: Gullar do‘koni.

Maqsad: bolalar do‘kon turlari orasida “gul do‘koni” ham borligini biladilar, gul do‘koni qanday faoliyat olib borishi bilan yaqindan tanishadilar.

Kerakli jihozlar: gullar do‘koni tasvirlangan rasm, yelim gullar, suvpurkagich.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlarni kuzatish.
2. Ishni rejalashtirish.
3. Kerakli materiallarni tanlash.
4. Rollarni taqsimlash.
5. Sahnalashtirish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: do‘kon turlari haqidagi bilimlari.

Fan va tabiat

Mavzu: Gullarning turiga qarab saralash

Maqsad: bolalar turli xil gullar nomini biladilar va ularni parvarishlash haqidagi bilimlarini boyitadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar, turli xil gullar, gullarni solish uchun maxsus idishlar, suv.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlarni tomosha qilish.
2. Gullarni nomlash.
3. Gullarni turiga qarab ajratish.
4. Ularni suvga solish.
5. Yakuniy hulosa chiqarish.

Qo‘shimcha: gullarni ko‘proq saqlanishi uchun nimalar qilish kerakligi haqida suhbat.

Alohida e‘tibor qaratiladi: gullarni turiga qarab ajratish.

San‘at

Mavzu: Afsonaviy gul

Maqsad: bolalar fantaziyalari oshadi, hayoliy tasavvurlarini yanada boyitadilar, tasviriy faoliyatning turli usullaridan foydalanadilar.

Kerakli jihozlar: oq qog‘oz, rangli qalam va bo‘yoqlar, mo‘yqalam, suv, rasm namunasi.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Rasmlarni hayoliy tasavvurlari asosida rasm chizish.
3. Bolalarni rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha qism: “Chambarak” yasashni taklif qilish.

Qurish- yasash va matematika

Mavzu: Qushcha uchun shinam uycha quramiz

Maqsad: bolalar qurilish bloklaridan qushcha uchun uychani yasaydilar, kerakli hajmni yasaydilar.

Kerakli jihozlar: qurilish bloklari, namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Kerakli materiallarni tanlash.
3. Ijodiy ish.
4. Bolalarni rag batlantirish.

Qo‘shimcha: “G‘ozlar-g‘ozlar” harakatli o‘yini.

Alohida e‘tibor qaratiladi: namunadan maqsadli foydalanish.

Til va nutq

Mavzu: Qushlar bizning do‘stimiz

Maqsad: bolalar qushlar haqida ma‘lumot oladilar, ularga g‘amxo‘rlik qiladilar, parvarishlashni o‘rganadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar, qafasda qush, donxo‘rak, qushlar uchun maxsus donlar va ularning rasmlari.

Faoliyatning borishi:

1. Qushlarni va mavzuga oid rasmlarni tomosha qilish.
2. Qushlar haqida suhbatlashish (qushlar nomi va ular nimalar bilan oziqlanadi).
3. Donlarni qafasga qo‘yish va qushlarni oziqlantirish.
4. Bajargan ishlari va ko‘rganlariga asoslanib hikoya tuzish

Qo‘shimcha: mavzuga oid she‘r yod olish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: so‘zlarni qayta takrorlamaslik va parazit so‘zlardan foydalanmaslik.

Qurish- yasash va matematika

Mavzu: Pazllardan gulzor yaratamiz

Maqsad: bolalar mayda qo‘l motorikalarini rivojlantiradilar, fazoviy mo‘ljal olish malakalarini mustahkamlaydilar, bo‘lakdan butunni yaratadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid pazllar, namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani ko‘rib chiqish.
 2. Ijodiy ish.
 3. Tayyor pazllarda qanday gullar aks ettirilganligini tahlil qilish.
- Alohida e‘tibor qaratiladi: pazllarni joylashtirish malakasi.

Fan va tabiat

Mavzu: Gullarni parvarishlash

Maqsad: bolalar gullarni parvarishlashni biladilar, gullarga ozor bermaydilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar, turli xil tuvakdagi gullar, gullarni tagini yumshatish uchun ketmoncha va belkuraklar, suvpurkagich, suv.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlarni tomosha qilish.
2. Gullarni nomlash.
3. Ish anjomlarini tanlash.
4. Gullar tuprog‘ini yumshatish.
5. Ularga suv quyish.
6. Yakuniy xulosa chiqarish.

Qo‘shimcha: tashkilot gulzoridagi gullarni tagini yumshatish.
Alohida e‘tibor qaratiladi: mehnat faoliyatiga.

Til va nutq

Mavzu: Bu qaysi qushning bolasi?

Maqsad: qushlarning turlarini biladilar, qaysi qushning bolasi ekanligini biladilar.

Kerakli jihozlar: AKT va rasmlar, rasmlari kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Qushlar rasmini kuzatish.
2. AKT orqali qushlar va bolalari tasvirlangan vidiorolikni tomosha qilish.
3. Rasmlari kartochkalarni tomosha qilish va qush bolasini onasiga biriktirish.
4. Bajarlilgan vazifani tahlil qilish.
5. Bolalarni ragbatlantirish.

Qo‘shimcha: topishmoqlar topish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: diqqat va eslab qolish malakasi.

San‘at

Mavzu: Ertakdagi qushcha

Maqsad: bolalar tasviriy faoliyatning barcha turlari yo‘nalishida mustaqil ishlaydilar.

Kerakli jihozlar: loy, plastilin, stek, doska, oq qog‘oz, rangli qalam va bo‘yoqlar, mo‘yqalam, suv, rasm namunasi.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish.
 2. Ishni rejalashtirish.
 3. Ijodiy ish.
 4. Rag‘batlantirish.
- Qo‘shimcha: ko‘rgazma tashkil qilish.

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK!

Guruh		O'rta guruh					
Mavzu		Tabiat qo'ynida					
Muddati		Iyun 3-hafta					
Rivojlantirish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini shakllanishi	Gimnastika skameykasida mashqlar bajarishni mustahkamlash, musiqa oxanglari ostida umumgavdani rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishga orgatish. Ochiq havoda bajarish suv, quyosh vannalarini olish orqali soglig'ini mustahkamlash.					
	Ijtimoiy-xisdiy rivojlanish	Kattalar va tengdoshlari diqqatini jalb qilishga, o'z fikrlarini erkin bayon qilish orqali o'z "men"ini namoyish etish. Suhbat va oyinlar orqali bolada ozi va atrofdagilarning hissiy holatlarini his qila bilishga orgatishda davom etish.					
	Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari	Bolalarni savollarga to'liq javob berishga orgatishni davom ettirish. Tavsiya etilgan rasmlardan tabiatga oid bo'lgan manzaralarni topish va ularni qisqacha ifodalashga o'rgatishda davom etish. Kitob o'qishga taqlid qilishni rivojlantirish.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Ko'p-kam tushunchalarni farqlashni davom ettirish, fazoviy tushunchalarini oyinlar orqali mustahkamlash, "Kimda shuncha?", "Kim topqir?", "Kim bekindi?" kabi oyinlar orqali son-sanoq, fazoviy tushunchalarni mustahkamlash.					
	Ijodiy rivojlanish	Atrof- olamga estetik munosabatni tarbiyalashda davom etish, atrofga bo'lgan qiziquvchanligini oshirish, ijod davomida turli ranglardan foydalanishga, ularni o'z ornida ishlatishga orgatish. Rasm chizish davomida qol harakatlarini boshqarishni rivojlantirish.					
Rivojlantirish markazlari		Talim-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshan	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika			Bolalar bogi atrofini oraymiz			Qurilish materiallari, lego konstruktor, mozaikalar,
	Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish	Tabiat himoyachilari	Mevalar nima dyeydi?				Niqoblar, jihozlar, disk, AKT, kostyumlar
	Til va nutq		"Har bir faslning o'z ziynati bor" mavzusida suhbat		Bir yillik va kop yillik gullarni farqlash		Mavzu asosida suratlar, AKT materiallari
	Fan va tabiat	Tabiat inomlari "Ho'l mevalar teramiz"					Turli mevalar hamda mulyajlar, ajoyib xaltacha, savatchalar.
	San'at	"Tabiat manzarasini tasvirlaymiz" applikasiya			Bolalar rasmlarida tabiat manzarasi		Oq va rangli qog'ozlar, rangli bo'yoq, rangli qalamlar

IYUN. UCHINCHI HAFTA

TABIAT QO'YNIDA

Fan va tabiat

Mavzu: "Xo'l mevalar teramiz" tabiat in'omlari

Maqsad: bolalar mevalarni tabiat in'om etganini va bu iboraning ma'nosini biladilar, mevalarni ehtiyotkorlik bilan terishga urinadilar.

Kerakli jihozlar: mevalar, mevalarning mulyaji, jihozlar, savatcha.

Faoliyatning borishi:

1. Mevalar va jihozlar bilan tanishish.
2. O'yinning vazifasi bilan tanishish.
3. Mevalarni shoxdan asta sekinlik bilan terish.
4. Hosilni kam-ko'pligi va uning sifati haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashish.

Qo'shimcha: mevalar sharbatini chiqarib (qirg'ich orqali), bolalar bilan ist'mol qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: mevalarni sifatli terish.

San'at

Mavzu: Tabiat manzarasini tasvirlaymiz

Maqsad: bolalar qaychi bilan ishlash hamda tabiat manzarasidagi detallarga qaychi bilan shakl berish malakalarini, mayda qo'l motorikalarini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, qaychi, rangli va oq qog'ozlar, yelim, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Namuna bilan tanishish.
3. Ijodiy ish.
4. Bajarilgan ish taqdimoti.

Qo'shimcha: tashkilot foyesida ko'rgazma tashkil etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: qaychidan to'g'ri foydalanish texnologiyasi.

Svuietli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish Mavzu: Tabiat himoyachilari

Maqsad: bolalar tabiat himoyachilari bajarishi lozim bo'lgan ishlarni biladilar, o'zlarini tabiat himoyachilaridek his qiladilar.

Kerakli jihozlar: niqoblar, jihozlar, fartuk, bosh kiyim.

Faoliyatning borishi:

1. Markazdagi jihozlar bilan tanishish.
2. Rollarga bo'linish.
3. Kiyimlarni kiyish.
4. O'yin faoliyati.

Qo'shimcha: tabiat qo'yniga sayohatga chiqish.

Alohida e'tibor qaratiladi: tabiatni asrashga nisbatan bo'lgan xatti-harakatlar.

Til va nutq

Mavzu: “Har bir faslning o‘z ziynati bor” fasllar haqida suhbat

Maqsad: bolalar qaysi faslda qanday o‘zgarishlar bo‘lishini, fasllar haqidagi savollarga javob berishni biladilar.

Kerakli jihozlar: savolli, rasmlari kartochkalar, AKT, “Qaysi fasl?” didaktik o‘yin.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlarni ko‘rib chiqish.
2. AKT orqali yil fasllari tasvirlangan videorolik yoki slaydlarni tomosha qilish.
3. “Qaysi fasl?” didaktik o‘yin.
4. Fasllarga oid turli savollarga javob berish.

Qo‘shimcha: AKTda yil fasllarni va bu fasldagi mehnat turlarini sanab berish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: fasllar haqidagi bilimlari va suhbat jarayonidagi faollik.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: “Mevalar nima deydi?” she‘riy sahna

Maqsad: bolalar mavzu asosida yod olgan she‘rlarini qayta esga oladilar, she‘rni aytishda intonatsiyaga e‘tibor qaratadilar.

Kerakli jihozlar: niqoblar, disk, AKT, kostyumlar.

Faoliyatning borishi:

1. Kostyum va niqoblarni tanlash.
2. Obrazga kirish.
3. Tanlagan mevalari haqida she‘rlarni do‘stlariga aytib berish.
4. Ketma-ketlikda she‘rlarni aytish orqali kichik konsert tashkil etish.

Qo‘shimcha: markazda olib borilgan faoliyatni barcha guruh tarbiyalanuvchilari bilan birgalikda yana bir bor takrorlash va jarayonga yangi mevalarni kiritish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: talaffuzi va mimikasi.

San‘at

Mavzu: Tabiat manzarasini chizamiz

Maqsad: bolalar rasm chizish malakalarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, rangli va oq qog‘ozlar, rangli qalamlar, rangli bo‘yoqlar, mo‘yqalam, suv idishi

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Na‘muna bilan tanishish.
3. Ijodiy ish.
4. Bajarilgan ish taqdimoti.

Qo‘shimcha: mavzu asosida jamoa ishini taklif qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: ranglar yorqinligi.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Bolalar bog‘i atrofni o‘raymiz

Maqsad: bolalar atrof-muhitni asrash va avaylash, uni muhofaza qilish uchun panjaralar qurishni biladilar, panjaraning vazifasi nimadan iborat ekanligini biladilar.

Kerakli jihozlar: lego, qurilish materiallari, kubiklar.

Faoliyatning borishi:

1. Bog‘ maketini tomosha qilish.
2. Maket atrofni panjaralar bilan o‘rash.
3. Bajarilgan ishni tahlil qilish.

Qo‘shimcha:tarbiyalanuvchilar bilan mehnat faoliyatini tashkil qilish. Alohida e‘tibor qaratiladi:bolalarni tabiatni asrashga o‘rgatish.

Fan va tabiat

Mavzu: Bir yillik va ko‘p yillik gullarni farqlash

Maqsad: bolalar bir yillik va ko‘p yillik gularni farqlaydilar, uni nima uchun bir yillik va ko‘p yillik deb nomlanishini biladilar.

Kerakli jihozlar: rasmlı kartochkalar, atirgul, moychechak, lola, pitunya, rayhon, chinnigul, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Rasm orqali gullarni tomosha qilish.
2. AKT orqali ko‘p yillik va bir yillik gullarning o‘ sishini tomosha qilish.
3. Ko‘pyillik va bir yillik xona gullari va gulzordagi gullarni yodga olish, qaysi gullar qancha vaqtdan beri o‘ sishini eslash va bir yillik guldən ko‘p yillik gullar farqini aniqlash.

4. Yakuniy xulosa chiqarish.

Qo‘shimcha: davriy gullarni tuvakka ekish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: ko‘p va bir yillik gullarni bir-biridan farqlash.

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK!

Guruh		Orta guruh					
Mavzu		Ertak qahramonlari bizning mehmonimiz					
Muddati		Iyun4-hafta					
Rivojlantirish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlantirish va soglom turmush tarzini shakllanishi	30 metr masofaga o'rtacha tezlikda yugurishni mashq qilish, futbol, basketbol sport o'yinlari haqidagi dastlabki tushunchalarini boyitish, to'p bilan yurish, uni ma'lum masofaga irg'itish, uloqtirish haraktlarini mustahkamlash.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	O'yinlar davomida tegdoshlari bilan o'yinchoqlarni bo'lishish, mehribonlik, do'stlik hislarini tarbiyalash. O'yinlar uchun sahnani bezashda o'z fikrlarini berishga, tasavvurini kengaytirishga yordam berish. Yuz harakatlari orqali atrofdagilarning xis tuyg'ularini tushunishga o'rgatish.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Hikoya tuzish davomida so'zlarni to'g'ri tanlash, grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzishga e'tibor berish, o'ziga tanish bo'lgan mavzularda tengdoshlari bilan bahslashishga o'rgatish, muloqot davomida lug'at ishiga e'tibor qaratish, ya'ni ot, sifat, fe'l kabi so'z turkumlarini to'g'ri ishlatishga o'rgatish.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Mozaika va pazllarni o'z o'rniga yig'ishni o'rgatishda davom etish. Lego donachalaridan mustahkam inshootlar qurishda davom etish. 3-4 ta qushni bir-biridan farqlash, ularning ovozi ajratish to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlash. Faoliyatlar davomida matematik tushunchalarini mustahkamlashda davom etish.					
	Ijodiy rivojlanish	Loydan yasalgan o'yinchoqlarni milliy naqshlar bilan bezashni mashq qildirish. Rasm chizishning nuqtali, klyaksografiya, shtrixli usullaridan foydalanish orqali tasviriy faoliyatga qiziqish uyg'otish.					
Rivojlantirish markazlari		Talimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	Teatr uchun sahna quramiz			Yalmog'iz kampirning uy chasi		Qurilish materiallari, lego konstruktor, turli kattalikdagi g'ishtlar
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish	"Sholg'om" ertagi ni sahnalashtirish	"Uch cho'chqacha" ertagi. Stol teatri				Niqoblar, jihozlar, AKT, kostyumlar, qo'g'irchoqlar
	Til va nutq			"Bu qaysi ertak" rasmlar asosida viktorina			Mavzu asosida suratlar, AKT materiallari
	Fan va tabiat				Bug'doy donlaridan ertak qaxramonini yaratish		suv, bug'doy, kapron mato, iplar, rangli qog'oz, qaychi, yelim
	Sanat	Men sevgan ertak qahramonining rasmi	Klyaksografiya usulidagi rasmlar		Teatr uchun dekoratsiyalar (rasm, applikatsiya)		Oq va rangli qog'ozlar, rangli bo'yoq, rangli qalamlar, loy.

IYUN. TO‘RTINCHI HAFTA

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI

Syujetli- rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: “Sholg‘om” ertagini sahnalashtirish.

Maqsad: bolalar ertak qahramonlarining harakati va so‘zlarini yoddan biladilar, obrazga kirishga urinadilar.

Kerakli jihozlar: ertak qahramonlarining kiyimlari, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Rollarni taqsimlash.
3. Ertakni sahnalashtirish.
4. Bajarilgan ishni tahlil qilish.
5. Bolalarni ragbatlantirish.

Qo‘shimcha: “Sholgom” ertagi multfilmini namoyish etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: obrazga kirish malakasi.

San‘at

Mavzu: Men sevgan ertak qahramonining rasmi

Maqsad: bolalar sevimli ertak qahramonlarini ko‘z o‘ngilarida gavdalandiradilar, uni mustaqil ravishda tasvirlaydilar, ertak qahramonining vazifasini yoddan biladilar va unga taqlid qiladilar. Kerakli jihozlar: namuna, loy, plastilin, stek, doska, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Na‘muna bilan tanishish.
3. Ijodiy ish.
4. Bajarilgan ish taqdimoti.

Qo‘shimcha: barcha ertak qahramonlaridan kompozitsiya yaratish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: loy, plastilinga shakl berish texnologiyasi.

Qurish- yasash va matematika Mavzu: Teatr uchun sahna quramiz

Maqsad: bolalar sahna nima uchun kerakligi va uning shakli qandayligini biladilar, qurish malakalarini yanada mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: legolar, namuna, mavzuga oid rasmlar, qurilish bloklari.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna va mavzuga oid rasmlarni kuzatish.
2. Kerakli qurilish bloklarini tanlash.
3. Ijodiy ish.
4. Bolalarning ishini muhokama qilish.
5. Tayyor ishni qo‘shimcha detallar bilan boyitish.

Qo‘shimcha: sahnaga o‘yinchoqlarni chiqarish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: ishlanmani hajmi va mustahkamligi.

Til va nutq

Mavzu: Bu qaysi ertakdan? Rasmlar asosida viktorina

Maqsad: bolalar ertaklar nomini biladilar, qahramonlarni taniydilar, mavzu asosida barcha savollarga topqirlik bilan javob qaytaradilar.

Kerakli jihozlar: turli ertaklardan rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Rasmlarni kuzatish.
3. Rasm asosida suhbat.
4. Suhbatni yakunlash, umumiy hulosani chiqarish.

Qo'shimcha: sayr vaqtida tashkilot hududidagi ertak qahramonlarini kuzatish.

Alohida e'tibor qaratiladi: sozlashuv nutqi.

Syujetli- rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: "Uch cho'chqacha" ertagi.

Maqsad: bolalar ertak qahramonlarining harakati va so'zlarini yoddan biladilar, ularning obrazlarini barmoq teatri orqali namoyish etadilar.

Kerakli jihozlar: stol teatri, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Rollarni taqsimlash.
3. Ertakni sahnalashtirish.
4. Bajirilgan ishni tahlil qilish.
5. Bolalarni ragbatlantirish.

Qo'shimcha: "Uch cho'chqacha" ertagi multfilmini namoyish etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: barmoqlar harakati va tovush tezligi.

Fan va tabiat

Mavzu: Bug'doy donlaridan ertak qahramonlarini yaratish

Maqsad: bolalar ertak qahramonlarini bug'doy donlari yordamida yaratadilar, unga bezak beradilar, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: turli ertak qahramonlari rasmlari, namuna, yelim, oq va rangli qog'ozlar, bug'doy doni, flamaster, plastilin, rangli bo'yoq, salftetka, suv.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Rasmlarni va namunani kuzatish.
3. Ijodiy ishni rejalashtirish.
4. Ijodiy ish.
5. Taqdimot.

Qo'shimcha: ertak kitoblarni tomosha qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: don bilan ishlash malakalari.

San'at

Mavzu: Klyaksografiya usulidagi rasmlar

Maqsad: bolalar tasviriy san'atning klyaksografiya turida mustaqil rasm chizadilar.

Kerakli jihozlar: namunalar, oq qog‘oz, bo‘yoqlar, suv, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Namunalar bilan tanishish.
2. Istaklari asosida syujetni tanlash.
3. Ijodiy ish.
4. Bajirilgan ish taqdimoti.

Qo‘shimcha: “Kviling” usulida gul rasmini yaratish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: klyaksagrofiyada bolalarning fantaziyasini boyitilishi.

Qurish- yasash va matematika

Mavzu: Yalmog‘iz kampirning uy chasi

Maqsad: bolalar yalmog‘iz kampirni taniydilar, u qayerda qanday holatda yashashini biladilar, yalmog‘iz kampirning uy chasi boshqa uychalardan nimasi bilan farqlanishini biladilar.

Kerakli jihozlar: legolar, namuna, mavzuga oid rasmlar, qurilish bloklari.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna va mavzuga oid rasmlarni kuzatish.
2. Kerakli qurilish bloklarini tanlash.
3. Ijodiy ish.
4. Bolalarning ishini muhokama qilish.
5. Tayyor ishni qo‘shimcha detallar bilan boyitish.

Qo‘shimcha: uy chani kattaroq hajmda guruh maydonchasida yaratishni taklif etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: uy chani alohida belgilarini inobatga olish.

Sanat

Mavzu: Teatr uchun dekoratsiyalar

Maqsad: bolalar yelimlash va mo‘ljallashni biladilar, nafislikka intiladilar, yangilik yaratishga xarakat qiladilar.

Kerakli jihozlar: namuna, tayyor shablonlar, rangli qog‘ozlar, yelim, salfetka, rangli qalamlar .

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Namuna bilan tanishish.
3. Ijodiy ish.
4. Bajirilgan ish taqdimoti.

Qo‘shimcha: dekoratsiyalar bilan guruh burchaklarini bezatish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: bolalarning ijodkorligi.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh		Orta guruh					
Mavzu		Yoz otmoqda soz					
Muddati		Iyul I-hafta					
Rivojlantirish sohalariga maqsadlar	Jismoniy rivojlantirish va soglom turmush tarzini shakllanishi	Turli haraktkli o'yinlar va chiniqtirish muolajalarini muntazam o'tkazish orqali sport va jismoniy tarbiyaga qiziqtirish. Musobaqa, estafeta o'yinlarini tashkil etish orqali bolalarda harakat faolligini oshirish.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Kattalar bilan muloqotni barcha faoliyatlarda olib borishga o'rgatish. Muloqot vaqtida o'zidan kattalarni hurmat qilishni o'rgatishda davom etish.Ularning hissiyotlarini ifodalash orqali hayrixohlik bildirish.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Lug'atni faollashtirish ya'ni berilgan rasmlar asosida ular haqida imkon darajasida so'zlab berishga o'rgatishda davom etish, buyumlarning vazifalari haqidagi tushunchalarini kengaytirish.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Kiyimlar haqidagi tushunchalarini rivojlantirish. Jonsiz tabiatga bo'lgan e'tiborini oshirish, tabiiy boyliklarni asrashga o'rgatish. O'yin turlari orqali iqtisodiy ta'lim berishda davom etish					
	Ijodiy rivojlanish	Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni o'stirish, ertak, hikoya va she'rlarni to'qishga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish. Tanish asarlardagi qahramonlar obrazini bo'yoqlarda aks ettirish malakasini rivojlantirish.					
Rivojlantirish markazlari		Talim-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanb	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	Markaz sayrga ko'chiriladi: Qumdonda turli qurilishlarni amalga oshirish.					Qurilish materiallari, turli kattalikdagi g'ishtlar, qoliplar, qum qutisi va soyabon
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish		.	Bog'chaga teatr keldi. Tanish ertaklarni sahnalashtirish			Niqoblar, jihozlar, AKT, kostyumlar, bola uchun beshik, qo'g'irchoqlar
	Til va nutq		Yozgi o'yinlar tasvirlangan rasmlar asosida hikoya tuzish.		Ta'limiy o'yin "Bog'dami, polizdami?"		Mavzu asosida suratlar, AKT materiallari
	Fan va tabiat	Markaz sayrga ko'chiriladi: Tabiatda: kapalaklar, asalari, chumolilarning harakat- larini kuzatish va ularning harakatlariga taqlid qilish					Hovlidagi obnektlar
	Sanat	Markaz sayrga ko'chiriladi: Asfaltda yozni tasvirlaymiz.			Qo'g'irchoqlar uchun ko'ylaklarni bezaymiz		Rangli bo'rlar, salqin joy, rangi qog'oz, qaychi, tayyor ko'ylaklar, yelim

IYUL. BIRINCHI HAFTA

QUVNOQ YOZ

Qurish Yasash va matematika

Mavzu: Qumonda turli qurilishlarni amalga oshirish

Maqsad: bolalar qumning xususiyatini biladilar, mustaqil ravishda murakkab qurilishlarni amalga oshiradilar.

Kerakli jihozlar: o'yin maydonchasidagi qumdon, qum uchun maxsus chelakcha, turli Shakldagi qoliplar, suv, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani olish.
2. Qurilishni amalga oshirish uchun qumning namligini o'rganish.
3. Zarur bo'lsa qumni xo'llash.
4. Turli ko'rinishdagi binolar va shakllarni yasash.
5. Bolalar ishini rag'batlantirish.

Alohida e'tibor qaratiladi: jihozlardan o'z o'rnida va maqsadli foydalanish.

Sanat

Mavzu: Asfaltda yozni tasvirlaymiz

Maqsad: bolalar asfaltda rasm chizish malakalarini mustahkamlaydilar, asfalt bo'ylab mo'ljal olishga intiladilar.

Kerakli jihozlar: rangli bo'rlar.

Faoliyatning borishi:

1. Istaklariga ko'ra biron-bir rasmni tanlash.
2. Tanlangan rasmni rangli bo'rlar yordamida asfaltga chizish.
3. Ijodiy ishlarini o'rtoqlashish.
4. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha: harakatli o'yinlar o'ynash.

Alohida e'tibor qaratiladi: rangli bo'rlardan foydalanish texnologiyasi.

Syujetli- rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Bog'chaga teatr keldi. Tanish ertaklarni sahnalashtirish.

Maqsad: bolalar o'zlari bilagn barcha ertak syujetini yodga oladilar, ertak qahramonlarini obrazlarini yaratadilar.

Kerakli jihozlar: turli ertak qahramonlarining niqoblari, kiyimlari, ertak kitoblar.

Faoliyatning borishi:

1. Ertak kitoblarni ko'rib chiqish.
2. Niqoblarni tanlash.
3. Rollarni taqsimlash.
4. Ertaklarni sahnalashtirish.

Qo'shimcha: biron bir ertakni kichik guruh tarbiyalanuvchilari uchun sahnalashtirib berish.

Til va nutq

Mavzu: Yozgi o'yinlar tasvirlangan rasmlar asosida hikoya tuzish.

Maqsad: bolalar rasmlar asosida hikoyalar tuzadilar, undagi voqea hodisalarni tahlil qiladilar, nega, nima uchun, qachon, qanday degan savollarga javob beradilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar,

AKT Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlarni va AKT orqali videoroliklarni tomosha qilish.
2. Rasmlar va videorolik asosida hikoya tuzish.
3. Hikoyaga sarlavha berish

Qo‘shimcha: mavzuga mos she‘rlarni yod olish taklif etiladi.

Fan va tabiat

Mavzu: Tabiatda: kapalaklar, asalari, chumolilarni kuzatish va ularning harakatlariga taqlid qilish.

Maqsad: bolalar tabiatdagi hasharotlar bilan yaqindan tanishadilar, ularning harakatlarini taqlid qilish orqali bajaradilar.

Kerakli jihozlar: tabiat qo‘ynidagi hasharotlar.

Faoliyatning borishi:

1. Guruh o‘yin maydonchasiga chiqish.
2. Gullar, daraxtlar va o‘tlar orasidagi hasharotlarning harakatlarini tomosha qilish.
3. Hasharotlarni harakatlarini takrorlash.
4. O‘zaro mavzu asosida suhbatlashish.
5. Yakuniy xulosa chiqarish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: jonli tabiat haqidagi bilimlari.

Til va nutq

Mavzu: Bog‘dami, polizdami?

Maqsad: bolalar bog‘langan nutqlarini mustahkamlaydilar, tabiat nebmatalarini aynan qayerda pishib etilishini biladilar.

Kerakli jihozlar: mavzuli rasmlar, AKT, kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Mavzuga mos rasmlar va AKTda bog‘ va poliz tasvirini kuzatish.
3. Kartochkalarni olish va ularni turiga ko‘ra ajratish.
4. Bajarilgan vazifani tahlil qilish.

Qo‘shimcha: bog‘ va poliz ekinlaridan ta‘tib ko‘rish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: topqirlik va idrok.

San‘at

Mavzu: Qo‘g‘irchoqlar uchun ko‘ylaklarni bezaymiz Maqsad:

bolalar o‘z istaklari asosida ornamentlarni tasvirlaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, oq, rangli qog‘oz, rangli qalam va bo‘yoqlar, yelim, salfetka, suv, mo‘yqalam.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosida suhbat.
2. Namuna bilan tanishish.
3. Mustaqil ishlash
4. Bolalarni rag‘batlantirish.

E‘tiborga moyillik jihati: namuna asosida rasm chiza olish.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh		Orta guruh					
Mavzu		Sport - salomatlik garovi					
Muddati		Iyul 2-hafta					
Rivojlantirish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlantirish va soglom turmush tarzini shakllanishi	Bolalami chaqqonlik, epchillik, jamoa bilan birga harakat qilish kabi sifatlarini rivojlantirish. G'alabalardan hursand bo'lish, mag'lubiyatning sabablarini aniqlash va xatolarni takrorlamaslikka o'rgatishda davom etish. Suv havzasida cho'milish vaqtida shaxsiy gigiyenaga rioya qilish qoidalarini o'rgatish					
	Ijtimoiy-xissiy rivojlanish	O'zi va atrofdagilarning xissiy kechinmalarini ifoda qilishda davom etish. O'zi yoqtirgan va yoqtirmagan narsalar haqida fikr yuritishga o'rgatish. Yoqish va yoqmaslik sabablari to'g'risidagi ma'lumotlarni ifodalay olishga o'rgatish.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Lug'at boyligini oshirish, so'z o'yinlari orqali ularda nutq madaniyatini oshirish, tovushlarni talaffuz etishda kattalarga taqlid qilish va to'g'ri aytishni o'rganish. Suhbatlar davomida o'z fikrlarini bayon qilishga , 2- va 3 gapdan iborat qisqa hikoyalar tuzishni mashq qilishda davom etish.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Qum va tuproq haqidagi tushunchalarni mustahkamlash, sport haqidagi bilimlarini kengaytirish, sport jihozlarining qanday maqsadda ishlatilishini o'rgatish. Oddiy tajribalar asosida buyumlarning xususiyatlarini aniqlashda davom etish.					
	Ijodiy rivojlanish	Qaychi bilan doira shaklini qirqishni mustahkamlash, qog'oz sathida ishlashni o'rgatishda davom etish, ranglarni to'g'ri tanlash va o'z o'rnida ishlatish, yelimning inson hayotiga zarar ekanligi haqidagi ma'lumotlarni berishda davom etish.					
Rivojlantirish markazlari		Talimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	Velosiped haydash yo'lagini yasaymiz		Ta'limiy o'yin. Tasmani to'g'ri taq			Qurilishmateriallari, lego konstruktor, pazllar. Bolalar soniga etarli tasmlar.
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish	O'yinchoq mashinalar poygasi					Niqoblar, jihozlar, kostyumlar, mashinalar, bayroqchalar, koptoklar va boshqa jihozlar
	Til va nutq	Kim ko'p tez aytish aytadi?			Sport turlari haqida suhbat		Mavzu asosida suratlar, AKT
	Fan va tabiat	Estafetalar uchun kerakli jihoz. Baklajkalarga qum va tuproq to'ldirish					Bo'sh, toza boklashkalar, qum, tuproq, qum to'ldirish uchun maxsus varonka
	Sanat	Quvnoq koptokchalar rasm hamda applikatsiya		Rangli xalqachalar loy ishi			Oq va rangli qog'ozlar, rangli bo'yoq, rangli qalamlar, loy.

IYUL. IKKINCHIHAFTA

QUVNOQ ESTAFETALAR

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Velosiped haydash yo‘lagini yasaymiz

Maqsad: bolalar lego to‘plami, qurilish materiallaridan mustaqil foydalangan holda yo‘lakcha quradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, legolar to‘plami, qurilish materiallari, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzati sh.
2. Kerakli jihozlarni tanlash.
3. Ijodiy ish.
4. Bajarilgan ishlar yuzasidan suhbat.

Qo‘shimcha: yo‘lakchalardan o‘yinchoq velosipedlarni yurgazib ko‘rish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: yo‘lakni to‘g‘ri qurish malakasi.

Fan va tabiat

Mavzu: Baklajkalarga qum va tuproq to‘ldirish

Maqsad: tarbiyalanuvchilar odam tanasi qismlarini chiniqtirish va uning uchun nimadan foydalanish mumkinligini biladilar.

Kerakli jihozlar: kichik hajmdagi baklajkalar, namuna, qum va tuproq.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Bo‘sh baklajkalarni qum va tuproq bilan to‘ldirish.
3. Tayyor anjomdan foydalanib ko‘rish.

Qo‘shimcha: jihozlarni sport burchagiga qo‘yish.

Til va nutq

Mavzu: Kim ko‘p tez aytish aytadi?

Maqsad: bolalar xotira va diqqatlarini jamlaydilar, tezlikda vazifani bajaradilar, nutq templarini ravonlashtiradilar.

Kerakli jihozlar: AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Ovozli yozuvni tinglash.
2. Ovozli yozuv bilan takrorlash.
3. Tez ayti shni qayta takrorlash.
4. O‘z-o‘ziga baho berish.

Qo‘shimcha: musobaqa o‘tkazish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: eslab qolish qobiliyati.

San‘at

Mavzu: Quvnoq koptokchalar

Maksad: tarbiyalanuvchilar rangli qog‘ozlarni dumaloq shaklda kesa oladilar, yelimlash malakalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: koptok, namuna, rangli qog‘ozdan kesilgan doirachalar, yelim, salftetka.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani tomosha qilish.
2. Namunalar bilan tanishish.
3. Yelimlash ketma-ketligini kuzatish.

4. Bolalarning ish jarayoni.
 5. Bolalarni rag'batlantirish.
- Qo'shimcha: koptok o'ynashni taklif etish.
Alohida e'tibor qaratiladi: doira shaklini kesa olish malakalari.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Tasmani to'g'ri taq

Maqsad: bolalar mayda va yirik motorikalarini rivojlantiradilar, mo'ljal olish malakalarini yanada shakllantiradilar.

Kerakli jihozlar: katta, kichik tasmalar.

Faoliyatning borishi:

1. Tasmalarni bo'lishish.
2. Tasmalarni teshikchalardan o'tkazish.
3. Tayyor bo'lgan tasmalarni to'g'ri taqilganligini muhokama qilish.
4. O'zaro suhbat.

Qo'shimcha: turli munchoqlarni tasmaga qadashni taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: mayda qo'l motorikasining rivojlanishi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: O'yinchoq mashinalar poygasi

Maqsad: tarbiyalanuvchilar sport turlaridan biri mashinalar poygasi haqidagi bilimlarini boyitadilar, bu sport turi qayerda va qanday tartibda tashkil etilishini biladilar.

Kerakli jihozlar: turli hajmdagi o'yinchoq mashinalar, mashinalar yo'lakchasi, bosh kiyim, start berish uchun bayroqcha, xushtak, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. AKT yordamida mashinalar poygasi haqidagi videotasmani tomosha qilish.
2. Yo'lakcha va mashinalar bilan tanishish.
3. Istaklariga ko'ra mashinalarni tanlash.
4. Rollarga taqsimlash.
5. O'yin jarayoni.

Qo'shimcha: "Avtomobil" harakatli o'yinlar Alohida e'tibor qaratiladi: o'yin jarayonidagi dialog.

Til va nutq

Mavzu: Sport turlari haqida suhbat (AKT orqali)

Maqsad: bolalar sportning bir qancha turlari haqida bilimga egalar, sport turlarining bir-biridan nimasi bilan farq qilishini biladilar, shu sport turiga mos harakatlarni bajaradilar.

Kerakli jihozlar: AKT.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqali sport turlari va sport turlariga oida xatti-harakatlar tasvirlangan videoroliklarni tomosha qilish.

2. Ko'rgan videolari yuzasidan o'zaro suhbat.

3. Mavzuga oid savollarga javob berish.

4. Xulosalash

Qo'shimcha: sevimli sport ustasi haqida so'zlab berishni taklif qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: eslab qolish va qayta hikoya qilish berish.

Sanʼat

Mavzu: rangli halqachalar

Maqsad: tarbiyalanuvchilardoirashaklinikaftlariorasidamustaqilyasaydilar, ranglarnifarqlaydilar, katta-kichiktushunchalarinimustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, plastilin, loy, rangli xamir, xalqachalar rasmi, kartochka, salfetka, stek, doska.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna va halqachalar rasmini kuzatish.
 2. Namunalar bilan tanishish.
 3. Kerakli materialni tanlash.
 4. Xalqachalarni tayyorlash.
 5. Bolalarni ragbatlantirish.
- Qoʻshimcha: tayyor xalqachalarni dastakka terib chiqish.
Alohida eʼtibor qaratiladi: doira shaklini yasay olish.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh	
Mavzu	
Muddati	
Rivojlantirish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlantirish va soglom turmush tarzini shakllanishi
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari
	Bilish jarayonining rivojlanishi
	Ijodiy rivojlanish
Rivojlantirish markazlari	
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish
	Til va nutq
	Fan va tabiat
	Sanat

IYUL. UCHINCHIHAFTA

KITOBBLAR OLAMIGA SAYOHAT

Til va nutq

Mavzu: Bu qaysi ertak qahramoni?

Maqсад: tarbiyalanuvchilar ertak mazmuni xususida fikr yuritadilar, ertakdagi jarayonni tahlil qiladilar, ertak qahramonlarini yaqindan taniydilar.

Kerakli jihozlar: ertak qahramonlari tasvirlangan kartochkalar, ertak kitoblar, ertak mazmuni yoritilgan rasmlar, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Ertak mazmuni yoritilgan rasmlarni kuzatish.
2. Ertak kitoblarini tomosha qilish.
3. ertak qahramonlari tasvirlangan kartochkalarni tanlash va kartochkalardagi ertak qahramonlarini nomlarini aytib berish.
4. Ertak qahramonlarining obrazlariga kirish.

Qo‘shimcha: ertaklardan olgan taassurotlari haqida yakuniy suhbat AKT orqali ertakni tomosha qilish.

Fan va tabiat

Mavzu: Kitoblarni ta‘mirlaymiz

Maksad: bolalarkitoblarni asraydilar va undan to‘g‘ri foydalanadilar, kitobni yaroqli holga keltirish ishlarini mustaqil olib borishga urinadilar, yelimdan to‘g‘ri foydalanadilar Kerakli jihozlar: ta‘mirtalab kitoblar, rangli qog‘oz va yelim.

Faoliyatning borishi:

1. Kitoblarni ko‘rish.
2. Nima qilish kerakligini rejalashtirish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash.
4. Yirtiq kitoblarni ta‘mirlash.

Qo‘shimcha: ta‘mirlangan kitobchalardan foydalanish.

San‘at

Mavzu: Quvnoq ayiqcha rasmini chizamiz

Maksad: bolalar shakllar yordamida hayvonlar rasmini mustaqil chizadilar, ularning rangi, ko‘rinishini aniq ifodalaydilar.

Kerakli jihozlar: oq qog‘oz, rangli qalam, bo‘yoq, namuna, suv, mo‘yqalam.

Faoliyatningborishi:

1. Namunani tomosha qilish.
2. Ijodiy ish.
3. Tayyor bo‘lgan ishlar taqdimoti.

Qo‘shimcha: Vinnipux hikoyasini aytib berish.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Biz o‘rmon hayvonlari obrazidamiz

Maqsad: bolalar hayvonlarga taqlid qiladilar, ularning hatti-xarakatlarini ko‘rsatib bera oladilar.

Kerakli jihozlar: turli xil hayvonlar kastyumlari, ularning tovushlari yozuvli ovozi.

Faoliyatning borishi:

1. Kastyumlarni tomosha qilish.
2. Istaklariga ko‘ra kiyimni tanlash.
3. Obrazga kirish.
4. O‘rmondagi hayvonlar harakatlarini bajarish orqali o‘yinni o‘ynash.

Qo‘shimcha: “Ayiqlar va asallari” harakatli o‘yini.

Alohida e‘tibor qaratiladi: hayvonlarning harakatlarini aniq ko‘rsatib berish.

Til va nutq

Mavzu: Topishmoqning javobini aytamiz

Maqsad: tarbiyalanuvchilar tezlik bilan fikrlaydilar, hozirjavoblikka odatlanadilar.

Kerakli jihozlar: topishmoqli kartochkalar Faoliyatning borishi:

1. Topishmoqli kartochkalarni kuzatish.
2. Xar bir bola 4-5 tadan kartochka tanlash.
3. Kartochkadagi vazifani bajarish.
4. Do‘sti bilan topgan javobi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini muhokama qilish.
5. Kartochkalarni almashish.

Qo‘shimcha: umumiy guruhda topishmoqlar topish.

Qurish- yasashvamatematika

Mavzu: Legolardan sandiqcha yasaymiz

Maqsad: bolalar legolardan maqsadli foydalanadilar, maydpa qo‘l matorikalini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid, lego, namuna.

Faoliyatningborishi:

1. Namuna va mavzuga oid rasmlarni tomosha qilish
2. Ijodiy ish.
3. Bajarilgan ishlarga izoh berish.

Qo‘shimcha: “Zumrad va Qimmat” ertagini tinglash.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Kitob do‘koni

Maqsad: bolalar kitobga qiziqadilar va kitob do‘kon haqidagi tushunchalarini boyitadilar.

Kerakli jihozlar: kitoblar, rasmlar, o‘yinchoq terminal va pullar.

Faoliyatning borishi:

1. Bolalar ichidan sotuvchini tanlash.
 2. Kitob do‘konini tomosha qilish.
 3. Sotuvchi bilan suhbatlashish, narxlarni so‘rash.
 4. Kitob sotib olganda pul muomalasi bilan ishlash.
- Qo‘shimcha: bolalarni tashkilotdagi kichik kutubxonaga sayr qildirish.
- Alohida e‘tibor qaratiladi: o‘yin so‘ngida jihozlarni tartibga keltirish.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh		Orta guruh					
Mavzu		Suv bayrami					
Muddati		Iyul 4-hafta					
Rivojlantirish sohalariga maqsadlar	Jismoniy rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini shakllanishi	Tozalikka rioya qilishga odatlantirishda davom etish.Sathi ko'kragigacha bo'lgan suv havzasida yurishga o'rgatish. Suv bilan mulojalarda shahsiy gigiyenaga rioya qilishga o'rgatishda davom etish.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Kerak bo'lganda kattalardan yordam so'rash kerakligi haqidagi tushunchalarini mustahkamlash.Jahl, quvonch,hayrat, hafalik kabi hissiyotlarni tarbiyalash. Sevimli o'yinchoqlari va qiziqishlarini bayon qilishga ko'maklashish.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	“So‘z”, “Tovush”larning ma‘nosini o‘rgatishda davom etish.she‘rlarni ifodali o‘qishga o‘rgatish. Tanish badiiy asarlar haqida o‘z fikrlarini bildirishga o‘rgatish. Ertaklarni qayta hikoya qilishni mashq qilish. Buyumlarni joylashish o‘rinlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Bolalarda baliqlar va suvda yashovchi boshqa jonivorlar haqidagi tushunchalarni kengaytirish, akvariumdagi baliqlarni to‘g‘ri ovqatlantirishga o‘rgatish. Uy ro‘zg‘or buyumlari haqidagi tushunchalarini kengaytirish. Turli kasb egalarining mehnat qurollari					
	Ijodiy rivojlanish	Bo‘rtirilgan applikatsiya usulidan foydalanishni o‘rgatish. Qog‘ozni buklash usuli bilan oddiy modellarni yaratishni o‘rgatishda davom etish. Jamoa bilan kompozitsiya yaratishni mashq qilish orqali ranglarni ifodalashni o‘rgatish.					
Rivojlantirish markazlari		Talim-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanb	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika		Qog‘oz qutidan akvarium Yasash		“Basseyn quramiz”		Qurilish materiallari, lego konstruktor, turli kattalikdagi qog‘oz qutilarva g‘ishtlar
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish	Qayiq'larni suvda suzdiramiz		“Qo‘g‘irchoq Lolaxonni cho‘miltiramiz”			Niqoblar, jihozlar, disk, AKT, kostyumlar, tog‘ora, suv, yuvinish jihozlari, kiyim - kechaklar
	Til va nutq	“Oltin baliq” multfilmi					Mavzu asosida suratlar, AKT materiallari
	Fan va tabiat		Suv va turli ranglar bilan tajribalar		“Suv separ” o‘yini uchun moslama tayyorlash		Suv, maxsus idishcha, naychalar
	Sanat	Suv o‘tlari applikatsiya	Akvariumdagi baliqlar rasmi				Oq va rangli qog‘ozlar, rangli qog‘oz rangli bo‘yoq, yelim, rangli qalamlar, loy.

IYUL. TO‘RTINCHI HAFTA

SUV BAYRAMI

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Qayiqnlarni suvda suzdiramiz

Maqsad: bolalar kapitan va matroslar qanday ishlar bilan shug‘ullanishi va dengizchilar kasbi haqidagi bilimlarini boyitadilar, rollarni mustaqil ijro etadilar.

Kerakli jihozlar: katta tog‘orada suv, turli xil qayiq va kemalar, dengizchilar uchun kiyimlar, AKT.

Faoliyatningborishi:

1. Rollarni taqsimlash.
2. O‘yin uchun joy hozirlash.
3. O‘yinni rejalashtirish.
4. O‘yin jarayoni.
5. Yakuniy suhbat.

Qo‘shimcha: AKTda suv ostini tomosha qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: dengizchilar va qayiqni boshqarish haqidagi ma‘lumotlar.

Til va nutq

Mavzu: “Oltin baliq” multfilmi

Maqsad: bolalar ertakdan kerakli xulosa chiqaradilar, qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qiladilar.

Kerakli jihozlar: AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Multfilm namoyishi.
2. Ko‘rgan multfilmlari haqida suhbatlashish.

Qo‘shimcha: oltin baliqchani chizish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: xodisalarni tahlil qilish.

San‘at

Mavzu: Suv o‘tlari

Maqsad: bolalar yelimdan to‘g‘ri foydalanish malakalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, oq qog‘oz, yelim, salfetka.

Faoliyatningborishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Suv o‘tlari shaklini kesib olish.
3. Tayyor suv o‘tlarini yelimlash.
4. Ishni turli bezaklar bilan boyitish.

Qo‘shimcha qism: suv osti o‘simliklari haqida ma‘lumot berish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: kesish malakalari.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Qog'oz qutidan akvarium

Maqsad: bolalar qutilarga ishlov beradilar, qutilardan ijodiy ishlari orqali o'yin va o'yinchoqlar, jihozlar yaratishga intiladilar.

Kerakli jihozlar: namuna, qog'oz qutilar, flomaster, rangli bo'yoq, suv, kartonlar, mavzuga oid rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlarni kuzatish.
2. Qog'oz qutidan kerakli shaklni yaratish.
3. Tayyor shaklga akvarium tasvirini berish.
4. Bajarilgan ishni muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: akvariumni baliqchalar bilan bezatish va tabiat burchagiga olib chiqish.

Fan va tabiat

Mavzu: Suv va turli ranglar bilan tajribalar

Maqsad: bolalarhar xil rang yordamida rangli suvlar hosil qilish malakalarini mustahkamlaydilar. Kerakli jihozlar: namunalar, suv, shaffof idishlar, rangli bo'yoqlar, pipetka.

Faoliyatning borishi:

1. Namunalarni tomosha qilish.
2. Shaffof idishdagi suvlarni tanlash.
3. Suvga pipetka yordamida rangli bo'yoqlarni qo'shish.
4. Hosil bo'lgan rangli suvlarni tahlil qilish.

Qo'shimcha qism: o'tkazilgan tajribalarni taqqoslab, suhbatlashish.

San'at

Mavzu: Akvariumdagi baliqlar.

Maksad: bolalar mustaqil tarzda ijodiy ishlaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, rangli bo'yoq, suv, oq qog'oz, xo'l qog'oz.

Faoliyatning borishi:

1. Qog'ozda tasvirlarni yaratish.
2. Tayyor ishni tahlil qilish.
3. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha: istaklariga ko'ra tasviriy faoliyatning boshqa turi bilan shug'ullanishlarini taklif qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarning ijodi.

Qurish-yasashva matematika

Mavzu: Basseyin quramiz

Maqsad: bolalar qurilish bloklaridan basseyin qurishni biladilar, basseyinni qo'shimcha jihozlar bilan boyitadilar.

Kerakli jihozlar: namuna, lego, kubiklar.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Basseyin qurishni rejalashtirish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash.

Qo'shimcha: tashkilot cho'milish xavzasiga chiqish.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Qogirchoq Lolaxonni cho'miltiramiz

Maqsad: bolalar shaxsiy gigiyenaga rioya qiladilar, cho'milish tartibini biladilar.

Kerakli jihozlar: katta tog'orada suv, sovun, sochiq, salfетка, qo'g'irchoq.

Faoliyatning borishi:

1. Rollarni taqsimlash.
2. O'yin uchun joy hozirlash.
3. O'yinni rejalashtirish.
4. Lolaxonni cho'miltirish.
5. Yakuniy suhbat.

Qo'shimcha: gigiyena haqida suhbat.

Alohida e'tibor qaratiladi: cho'miltirish jarayonining borishi.

Fan va tabiat

Mavzu: Suv sepish o'yini uchun moslama tayyorlash

Maqsad: bolalar suv sepish uchun mustaqil ravishda moslama tayyorlashga harakat qiladilar.

Kerakli jihozlar: suv, katta kichik baklajkalar, mix, bolg'acha, mavzuga oid rasmlar. Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlarni tomosha qilish.
2. Mavjud jihozlar bilan tanishish.
3. Baklajka qopqoqlarini tarabiyachi yordamida mix bilan teshish.
4. Tayyor qopqoqlarni baklajkaga yopish.
5. Moslamaga suv to'ldirish.
6. Moslamadan suv sepish.
7. Tajriba muhokamasi va xulosasi.

Qo'shimcha: sayrda "Suv sepish" o'yinini tashkil etish.

AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG‘LOM BOLALAR

Guruh		O‘rta guruh					
Mavzu		Sabzavot va mevalar					
Muddati		Avgust 1-hafta					
Rivojlantirish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlantirish va soglom turmush tarzini shakllanishi	Gavdani rivojlantiruvchi mashqlar orqali bolalami jismoniy rivojlantirish. Musiqa sadolari asosida ularga mos harakatlarni bajarishni mashq qilish. Tayoqchalar, bayroqlar va koptoklar bilan harakatlanish orqali mayda matorikani rivojlantirish.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Bolalarda o‘ziga nisbatan hurmatni tarbiyalash. Eslatmasdan oldin o‘z narsalarini yig‘ishga odatlanishni shakllantirish. Ona yurti va uning bog‘ va dalalari haqida fahr bilan so‘zlashga o‘rgatish.					
	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari	O‘rganilgan yangi so‘zlarni topishmoqlar, tezaytishlar, so‘z o‘yinlari bilan mustahkamlash. Tashkil etilgan suhbatlarda bolalarni faol bo‘lishga chaqirish. Xalq og‘zaki ijodi bilan tanishtirishda davom etish.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	5 gacha bo‘lgan sonlarni sanashda ta‘limiy o‘yinlardan foydalanish. Miqdor, kattalik haqidagi tushunchalarini mustahkamlash. Vaqt bo‘yicha ilk tushunchalarini mustahkamlashda davom etish. Tejamkorlikka o‘rgatish.					
	Ijodiy rivojlanish	Meva va sabzavotlarning suvlaridan bo‘yoqlar tayyorlashni va ulardan foydalangan holda turli rasmlar chizishda davom etish. Sabzavot va mevalar uchun savatchalar yasashda cho‘zish, silliqlash usullaridan foydalanishni o‘rgatish. Qog‘ozni teng 2 ga, 4 ga bo‘lib qirishni o‘rgatishda davom etish.					
Rivojlantirish markazlari		Talim-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	Sabzavot va mevalar uchun savatcha yasaymiz			“Quvnoq munchoqlar” sabzavotli va mevali munchoqlar		Qurilish materiallari, lego konstruktor, sabzavot va mevalar rasmi yopishtirilgan boklashka qopqoqlari, turli rangdagi botinka iplari
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish	“Sabzavot va mevalar” do‘koni		“Sabzavot va mevalar” do‘koni			Nikoblar, jixozlar, kostyumlar, pul, terminal apparati
	Til va nutq	Meva va sabzavotlar haqidagi topishmoqlar	Qismlardan butun yasa va u haqda hikoya qilib ber		“Chipolino” multfilmini tomosha qilish		Mavzu asosida suratlar, AKT materiallari, fleshkada multfilm.
	Fan va tabiat		Muddati o‘tgan mevalarni ajratish		Karvin usulidagi sabzavot va mevalarni kuzatish amaliy jarayonni ko‘rish		Savzavot va mevalar turli holatlardagi. Savatchalar, karvin ishi uchun jihozlar.
	San‘at	Savatdagi sabzavotlar rasm	Likopchadagi olmalar loy ishi		Quvnoq meva va sabzavotlar (meva va sabzavotlarga qo‘shimcha rasmlar yopishtirish)		Oq va rangli qog‘ozlar, rangli karton, rangli bo‘yoq, rangli qalamlar, loy.

AVGUST. BIRINCHHAFTA SABZAVOT VA MEVALAR

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: "Sabzavot va mevalar" do'koni

Maqsad: tarbiyalanuvchilar "Do'konda" ta'limiy o'yini orqali yoz oylarida pishadigan sabzavot va mevalar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar. Kuzdagi mevalardan yozgi mevalarning farqi, qaysi meva qachon pishishi haqidagi ma'lumotlarni bilib oladilar. Masalan: (gilos, olcha, olxo'ri, o'rik kabi mevalar yoz oylarida pishishi, behi, yong'oq, xurmo mevalari kuzda pishadi)

Kerakli jihozlar: sotuvchi kiyimi, tarozi, yasama pul, meva va sabzavotlar mulyaji.

Faoliyatning borishi:

1. O'yin jihozlari bilan tanishish.
2. Rollarni taqsimlash.
3. O'yin jarayoni.
4. Rollarni almashib o'ynash.
5. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha: meva va sabzavotli kartochkalarni berib, ularni ajratib, savatchalarga solishni taklif etish.

Fan va tabiat

Mavzu: Muddati o'tgan mevalarni ajratamiz.

Maqsad: tarbiyalanuvchilar mevalarni yangi va uringanligini ularni ko'rinishi orqali aniqlashni o'rganadilar. Uringan mevalar inson salomatligi uchun zararli ekanligini tushunadilar. Mevalarni toza yuvish, ularni iste'mol qilishdan avval ularni holatini sinchiklab ko'rishni o'rganadilar, lug'atlariga yangi so'zlar (irigan, qoraygan) qo'shiladi.

Kerakli jihozlar: likopchada yangi va uringan mevalar (olma, limon, banan, gilos), salfetka, mevalar rasmi tasvirlangan kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Likopchadagi mevalarni ko'rib chiqish.
2. Likopchada qanday mevalar borligini aniqlash.
3. Mevalarni holatiga ko'ra yangi va uringanligini aniqlashdagi belgilarni sanab o'tish.
4. Likopchadagi mevalarni kelishilgan belgilar asosida ajratish.
5. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: quruq mevalar (yong'oq, magiz, turshak)ning ichidagi qurtlarni ko'rishni taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: mevalarni uzoq saqlash mumkin emasligini tushunish.

Qurish- yasashvamatematika

Mavzu: Sabzavot va mevalar uchun savatcha yasaymiz

Maqsad: tarbiyalanuvchilar turli lego konstruktorlardan sabzavot va mevalar uchun savatchalar yasaydilar. Qanday shakllardan foydalanganliklarini aytib bera oladilar. Ranglarni farqlay oladilar.

Kerakli jihozlar: namuna, legolar, meva va sabzavotlar to'ldirilgan savatchalarning rasmlari, mevalari pishgan daraxt, sabzavotlar pishgan dala rasmlari.

Faoliyatning borishi:

1. Mevalari pishgan daraxt, sabzavotlar pishgan dala mavzusidagi rasmlarni ko'rib chiqish
2. Namunalar bilan tanishish
3. Savatchalarni yasashni rejalashtirish
4. Bolalar ish jarayoni
5. Bolalarni ragbatlantirish

Alohida e'tibor qaratiladi: har bir bolaning mavzuga ijodiy yondashishi.

Til va nutq

Mavzu: Meva va sabzavotlar haqida topishmoqlar.

Maqsad: tarbiyalanuvchilar sabzavot va mevalarni farqlaydilar, lug'at boyligiga yangi so'zlarni qo'shadilar, topishmoqlarning javobini topish davomida diqqat, xotiralarini rivojlantiradilar, meva hamda sabzavotlarning tuzilishlariga qarab yangi topishmoqlar to'qishga o'rganadilar.

Kerakli jihozlar: meva va sabzavotlar to'plami, savatcha, likopcha, "Meva va sabzavotlar" ta'limiy o'yini, topishmoqlar kitobi.

Faoliyatning borishi:

1. Savatdagi sabzavotlarni va likopchadagi mevalarni kuzatish.
2. O'zlari bilgan topishmoqlarni do'stlariga aytish va ularning javobini tinglash.
3. Likopchadagi sabzavot va mevalarni diqqat bilan kuzatish va ularning ko'rinishiga qarab

yangi

4. topishmoqlar to'qish.
5. Bolalarni ragbatlantirish.

Qo'shimcha: kim qanday sabzavot va mevalarni yaxshi ko'rishi haqida suhbat.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalar diqqati va xotirasini rivojlantirish.

Til va nutq

Mavzu: Qismlardan butun yasa va u haqida hikoya qilib ber.

Maqsad: tarbiyalanuvchilar diqqati, mavjud qismlardan kerakligini izlay olish va topish va o'z o'rniga joylashtirish malakalarini rivojlantiradilar. Qismlarni birlashtirish orqali sabzavot va mevalarni farqlaydilar va ularni ajratadilar.

Kerakli jihozlar: meva va sabzavotlar rasmlarining qismlarga bo'lingan to'plami va ularning asl rasmlari

Faoliyatning borishi:

1. Berilgan to'plamdagi qismlarni ko'zdan kechirish va vazifani aniqlashtirib olish.
2. O'zlari tanlagan qismning qolgan qismlarini topish va birlashtirish.
3. Qismlardan hosil bo'lgan yaxlit rasmlardagi sabzavot va mevalarning nomini aytish.
4. Bolalarni ragbatlantirish.

Qo'shimcha: kim qanday sabzavot va mevalarni yaxshi ko'rishi haqida suhbat.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalar diqqati va nutqini rivojlantirish.

Fan va tabiat

Mavzu: Karvin usulida bezak berilgan sabzavot va mevalarni kuzatish va amaliy jarayonda ishtirok etish.

Maqsad: tarbiyalanuvchilar karvin usuli orqali sabzavot va mevalardan turli obrazlar yaratish mumkin ekanligini ko'radilar, karvin usulida bezak berishga qiziqadilar, karvin usulida bezak berish jarayonida gigiyenaga qat'iy rioya qilish kerakligini tushunadilar.

Kerakli jihozlar: turli sabzavot va mevalar, pichoqchalar, taxtakach, salfetka, karvin usulida shakl va bezak berilgan sabzavot va mevalar tasvirlangan suratlar.

Faoliyatning borishi:

1. Likopchadagi mevalarni ko'rib, ularni haqiqiy ekanligini tekshirib ko'rish.
2. Karvin usulida shakl va bezak berilgan sabzavot va mevalar tasvirlangan rasmlarni ko'rish.
3. Mutaxassisning karvin usulida sabzi, bodring, olma, apelbsin va boshqa sabzavot va mevalarga shakl va bezak berishini kuzatish.
4. Mutaxassis yordamida to'mtoq pichoq bilan oddiy shakllarni yaratish.
5. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: mutaxassis va bolalarga katta hajmda bo'lgan tarvuzdan savatcha Yasashni taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalar hayot xavfsizligini ta'minlash.

Til va nutq

Mavzu: "Chipolino" multfilmini tomosha qilish

Maqsad: tarbiyalanuvchilar multfilm orqali sabzavotlar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar, filmdagi ertak qahramonlari haqida o'z fikrlarini bildiradilar.

Kerakli jihozlar: AKT, mavzuga oid rasmlar

Faoliyatning borishi:

1. Multfilmni diqqat bilan ko'rish.
2. Multfilm haqidagi taassurotlar haqida suhbat.
3. O'zlariga yoqqan ertak qahramoni haqida so'zlash.
4. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha: multfilm asosida ixtiyoriy rasm chizish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalar diqqati va nutqini rivojlantirish.

San'at

Mavzu: Savatdagi sabzavotlar

Maqsad: tarbiyalanuvchilarning qo'l motorikasi rivojlanadi, ijodiy tasavvuri shakllanadi, rangli qalam va bo'yoqlardan foydalanish malakasi oshadi.

Kerakli jihozlar: oq qog'oz, rangli bo'yoq, qalamlar, stakan suv bilan, salfetka, namuna, sabzavot rasmlari, tayyor chizilgan savatcha.

Faoliyatning borishi:

1. Pomidor, bodring, kartoshka, piyoz, sabzi va boshqa sabzavotlar mul'yajlarini ko'rib chiqish.
2. Namunalar bilan tanishish.
3. Bolalar ish jarayoni.
4. Tayyor ishl ar taqdimot-ko'rgazmasi.
5. Bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha: sabzavotlar haqida she'r va topishmoqlar.

Alohida e'tibor qaratiladi: ijodiy ishda ozodalik va sarishtalik. Hayot xavfsizligi.

Qurish- yasashvamatematika

Mavzu: “Quvnoq munchoqlar” sabzavot va meva rasmlari yopishtirilgan qopqoqlarni ipga terish.

Maqsad: tarbiyalanuvchilar turli rasmlar ichidan sabzavot va mevalarni ajrata oladilar, qopqoq teshigidan rangli botinka iplariga tanlangan qopqoqlarni tera oladilar, qaysi munchoq mevali, qaysi munchoq sabzavotli ekanligini ajrata oladilar.

Kerakli jihozlar: turli munchoq namunalari, ustiga turli meva va sabzavotlarning rasmlari yopishtirilgan ikki tomonlama teshiklari bo‘lgan baklajka qopqoqlari, turli rangdagi botinka iplari, meva va sabzavotlarning rasmlari.

Faoliyatningborishi:

1. Berilgan turli munchoqlarni ko‘rib chiqish.
2. Rangli iplar va munchoqlarni tanlash va hozirlash.
3. Bolalar ish jarayoni.
4. Tayyor munchoqlar uchun bolalarni rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: munchoqlar taqib defile namoyishi

Alohida e‘tibor qaratiladi: mayda motorikaning rivojlanishi.

Sanat

Mavzu: Likopchadagi olmalar

Maqsad: bolalar istaklariga ko‘ra turli rangdagi plastilindan foydalanib olma mevasini yasashga harakat qiladilar, ijodiy ish jarayonida tartib-qoidalarga rioya qiladilar.

Kerakli jihozlar: rangli plastlin, namuna, oldindan yasalgan likopcha, stek, salfetka, doska.

Faoliyatningborishi:

1. Namuna bilan tanishish.
2. Yasash texnologiyasi bilan tanishish.
3. Bolalarning ijodiy faoliyati.
4. Olmalarni likopchalarga joylashtirish
5. Bolalar ishini ko‘rib chiqish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: olma mevasi tasvirlangan suratlarini tomosha qilish

Alohida e‘tibor qaratiladi: plastilindan to‘g‘ri foydalanish.

San‘at

Mavzu: Quvnoq sabzavot va mevalar (meva va sabzavotlarga qo‘shimcha rasmlar yopishtirish orqali yangi obrazlar yaratish).

Maqsad: bolalar sabzavot va mevalarga qo‘shimcha rasm (quloqchalar, burun, ko‘z-qosh, ko‘ylak, shapkalar, dumchalar va hakazo)ni yopishtirish orqali yangi obrazlar yarata oladilar, ularda bajarayotgan ishlariga nisbatan qiziqish paydo bo‘ladi.

Kerakli jihozlar: rangli qog‘ozlar, yelim, mayda gugurt cho‘plari, namunalari, oldindan chizilgan mevalar va sabzavotlar rasmlari.

Faoliyatningborishi:

1. O‘zi yoqtirgan sabzavot va mevani tanlash va undan qanday obraz yaratishni rejalashtirish.
2. Namunalarni kuzatish va applikasiya texnologiyasi asosida ish boshlash.
3. Bolalarning ijodiy faoliyati.
4. Bolalar ishlarini ko‘rib chiqish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: ko‘rgazma tashkil etish va ota-onalarga ko‘rsatish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: bolalarning ijodiy faoliyati.

AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG'LOM BOLALAR

Guruh		O'rta guruh					
Mavzu		Kattalarga quloq tut					
Muddati		Avgust 2-hafta					
Rivojlantirish sohalariga maqsadlar	Jismoniy rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini shakllanishi	Svetofoming chiroqlariga ko'ra harakatlanishni o'rgatishda davom etish. Buyruq asosida qatorga turish, juft bo'lib yurish, doira shaklida yurish malakalarini mustahkamlash. Ovqatlanishdan oldin, hojatxonaga borgandan so'ng va biron bir ishni bajargandan so'ng kattalarni eslatishsiz qo'lni yuvishga o'rgatishda davom etish.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Bolalarni kattalarning nasihatlariga quloq tutishga chaqirish. Buyuk bobokalonlarimizning pand nasihatlaridan misollar keltirish oqali kattalarni hurmat qilishga o'rgatish.					
	Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari	Ta'limiy o'yinlar orqali bolalarda nima yaxshi-yu, nima yomon haqidagi tushunchalarni mustahkamlash. Berilgan rasmlar asosida qisqacha hikoya tuzishni tanish rasmlarni ko'rganda ular haqida ma'lumotlar berish va o'z fikrlarini bayon qilishga o'rgatishda davom etish					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Bolalarga pazl, mozaikalarni mustaqil yig'ishga imkoniyat yaratish orqali o'z rejalarini ro'yobga chiqarishga o'rgatish. Uy ro'zg'or buyumlaridan foydalanishda kattalarga quloq solishni o'rgatish. Kattalar mehnati bilan tanishtirishda davom etish.					
	Ijodiy rivojlanish	Milliy usuldagi chizilgan rasmlarni tomosha qilish orqali ularga qiziqishni orttirish. Mo'yqalam bilan ishlashni mustahkamlash. 2 xil rangdan yangi rang hosil bo'lishini tushuntirish.					
Rivojlantirish markazlari		Talimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika		Buvij onimnikiga boradigan Yo'l				Qurilish materiallari, lego konstruktor, pazllar, turli kattalikdagi g'ishtlar
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish	"Mehmon-mehmon" o'yini			"Yaxshi va yomon". "Zumrad va Qimmat" ertagini sahnalashtirish		Niqoblar, jihazlar, AKT, kostyumlar, sahna dekoratsiyalari
	Til va nutq	"Telefon o'yinchoq emas" mavzusida suhbat	"Nima yaxshi-yu, nima yomon" rasmlar asosida suhbat		"Bir bola bor ismi Salom" she'rini audio tinglash		Mavzu asosida suratlar, AKT
	Fan va tabiat	Mehnat, mehnatning tagi rahat. Tabiat burchagida mehnat	"Oshqozon" o'yini				Suv, maxsus idishcha, naychalar, 2 litrli banka, turli yeguliklar.
	San'at	Toza va kir qo'llarni rasmlarda tasvirlaymiz			Qog'oz supurgi yasash		Oq va rangli qog'ozlar, rangli bo'yoq, rangli qalamlar, loy.

AVGUST. IKKINCHI HAFTA

KATTALARGA QULOQ SOL

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Buvijonimnikiga boradigan yo‘l

Maqsad: bolalar yo‘l qurish kerakli ish ekanligi, qurilgan yo‘lning insonlarga foydasi tegishini tushunadilar.

Kerakli jihozlar: lego, pazl, qurilish bloklari.

Faoliyatning borishi:

1. Namunalarni o‘rganish orqali vazifani tushunish.
 2. Kerakli jihozlarni tanlash
 3. Ijodiy ish.
 4. Yasalgan yo‘ldan Qizil qalpoqcha bilan buvijonnikiga mehmonga borish
- Qo‘shimcha: keng va tor yo‘llarni mayda detallar bilan to‘ldirish Alohida

e‘tibor qaratiladi: hayot xavfsizligi asoslari.

Til va nutq

Mavzu: Nima yaxshiyu, nima yomon

Maqsad: bolalar yaxshini yomondan ajrata olishga o‘rganadilar, qisqa gaplardan hikoya tuza oladilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar, rasmlar, AKT

Faoliyatning borishi:

1. Kitoblardagi mavzuga mos rasmlar va alohida suratlarni ko‘rib chiqish.
2. Mavzuga mos videorolikni tomosha qilish.
3. Rasmlar asosida o‘zaro suhbat
4. Mavzu yuzasidan sodda gaplar bilan hikoya tuzish
5. Muhokama, xulosa

Qo‘shimcha: “Zumrad va Qimmat” ertagini tinglash.

Alohida e‘tibor qaratiladi: ertakdan yaxshi va yomon xususiyatlarni farqlash.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: “Mehmon- mehmon” sujetli o‘yini (mehmonda bo‘lish odobi)

Maqsad: bolalar mehmonga borganda o‘zini tutishni, baland ovozda gapirmaslik, to‘polon va xarxasha qilmaslik kerakligini biladilar.

Kerakli jihozlar: o‘yin uchun kerakli bo‘lgan kiyim kechaklar, uy ro‘zg‘or buyumlari, supacha, stol stullar, non va sabzavot va meva mulyajlari, idish-tovoqlar.

Faoliyatning borishi:

1. O‘yin maydoni va kerakli anjomlarni tayyorlash
2. O‘yinni rejalashtirish
3. Rollarni taqsimlash
4. O‘yin jarayoni
5. O‘yinni yakunlash

Qo‘shimcha: “Yaxshi va yomon odatlar” mavzusidagi rasmlar kartochkalar bilan ishlashni taklif etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: o‘zaro munosabatlar, muomala madaniyati.

Sanat

Mavzu: Toza va kir qo'llarni rasmlarda tasvirlaymiz.

Maqsad: bolalar kaftining rasmini qog'ozga tushirish orqali toza va kir qo'llarni ifodalaydilar, bo'yoqlar bilan ishlash malakalarini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, rangli bo'yoq yoki rangli qalam va akvarel, mo'yqalam, qog'ozlar.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna bilan tanishish.
2. O'zi xohlagan usulda chizish uchun kerakli anjomlarni tanlash.
3. Ishni qanday boshlashni rejalashtirish.
4. Ijodiy ish.

Qo'shimcha: ko'rgazma tashkil qilish

Alohida e'tibor qaratiladi: bolaning ijodkorligi, ranglarni to'g'ri tanlash

Til va nutq

Mavzu: "Telefon o'yinchoq emas" .

Maqsad: bolalar telefon apparatining foyda va zarar tomonlari haqidagi ma'lumotlarni bilib oladilar, telefon o'yinchoq emasligini tushunadilar.

Kerakli jihozlar: AKT, mavzuga mos bo'lgan telefonning foyda va zarar tomonlari aks ettirilgan rasmlar, kartochkalar, turli telefon apparatlari.

Faoliyatning borishi:

1. Telefon apparatlarini kuzatish.
2. Telefonlar haqida suhbat.
3. Telefonlarning foyda va zarar tomonlarini rasmlar kartochkalardan izlab topish va ularni izohlash.

Qo'shimcha: mavzu asosida rasm chizish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalar tasavvurini kengaytirish.

Fan va tabiat

Mavzu: Mehnat, mehnatning tagi rohat (tabiat burchagida mehnat)

Maqsad: bolalar kattalar mehnati haqidagi tushunchalarini mustahkamlaydilar, xona gullarini tagini yumshatish, barglarini artish va ularni sug'orish orqali mehnat qilishga o'rganib boradilar.

Kerakli jihozlar: tabiat burchagida mehnat qilayotgan bolalar tasvirlangan rasm, tabiat burchagi, gullar, ish qurollari, suv, fartuklar.

Faoliyatning borishi:

1. Tabiat burchagida mehnat qilayotgan bolalar tasvirlangan rasmlarni kuzatish.
2. Ish turini rejalashtirish.
3. Kerakli ish qurollarini tanlash.
4. Mehnat faoliyati.
5. Tabiat burchagining oldingi va mehnatdan keyingi holatini taqqoslash, xulosalash.

Qo'shimcha: "Mehnat, mehnatning tagi rohat" maqolining mazmunini izohlash.

Alohida e'tibor qaratiladi: mehnat qilish ko'nikmasining shakllanishi.

Sanʼat

Mavzu: Qogʻoz supurgi yasash

Maqsad: bolalarda yelim, qaychi bilan ishlash malakalari mustahkamlanadi.

Kerakli jihozlar: namuna, rangli qogʻoz, daraxt novdalaridan tayyorlangan dastaklar, salfetka, yelim.

Faoliyatning borishi:

1. Namunalarni oʻrganish, mavzuga mos topishmoqlarni aytish.
2. Ish uchun kerakli anjomni tanlash va ishini rejalashtirish.
3. Ijodiy ish.
4. Yakuniy suhbat.

Qoʻshimcha: “Qaysi biri ortiqcha?” taʼlimiy oʻyinini taklif etish. Ota-onalar uchun koʻrgazma tayyorlash.

Alohida eʼtibor qaratiladi: gigiyena qoidalariga rioya qilish.

Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Yaxshi va yomon. “Zumrad va Qimmat” ertagini sahnalashtirish.

Maqsad: bolalar ertak qahramonlarining ijobiy va salbiy xususiyatlarini ajrata oladilar, ijrochilik mahoratini takomillashtiradilar.

Kerakli jihozlar: oʻyin uchun kerakli boʻlgan kiyim-kechaklar, idish-tovoqlar, roʻzgʻor buyumlari.

Faoliyatning borishi:

1. Oʻyin uchun j oy tanlash va kerakli anjomlarni tayyorlash.
2. Ertakni qanday sahnalashtirishni rejalashtirish.
3. Rollarni taqsimlash.
4. Sahnana namoyishi.
5. Ijro etilgan obrazlarni tasniflash.

Qoʻshimcha: “Yaxshi va yomon odatlar” mavzusidagi rasmlari kartochkalar bilan ishlashni taklif etish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: oʻzaro munosabatlar, muomala madaniyati.

Til va nutq

Mavzu: “Bir bola bor ismi Salom” R.Farhodiy.

Maqsad: bolalar salom bergan bola odobli bola ekanligini tushunadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga mos boʻlgan rasmlar, AKT, audio yozuv.

Faoliyatning borishi:

1. Sheʼr yozilgan audio yozuvni tinglash.
2. Sheʼr mazmuni haqida suhbat.
3. Sheʼr mazmunini oʻz soʻzi bilan hikoyalash.
4. Bolalarni ragʻbatlantirish.

Qoʻshimcha: mavzuga oid maqollarni aytish.

Alohida eʼtibor qaratiladirlar bolalar tasavvurini kengaytirish.

AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG‘LOM BOLALAR

Guruh		Oʻrta guruh					
Mavzu		Oʻyinlar shaharchasi					
Muddati		Avgust 3-hafta					
Rivojlantirish sohalarigaoid maqsadlar	Jismoniy rivojlantirish va soglom turmush tarzini shakllanishi	Bir daqiqa davomida yengil yugurish. Gimnastik narvonchasiga chiqish va tushish malakasini mustahkamlash. Predmetlar bilan harakatlanishni rivojlantirish. 20-30 metrga sekin-asta yugurishni mashq qilishda davom etish					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Boshqalarning soʻzlarini diqqat bilan tinglash, ularning diqqatini jalb qilish malakalarini mustahkamlash. Oʻyin jarayonida oʻzi va doʻstlarining imkoniyatlariga mosboʻlgan rollarni taqsimlashga oʻrgatish.					
	Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari	Savol bilan murojaat etish malakasini shakllantirishda davom etish. Xotirani mustahkamlashga qaratilgan oʻyinlarni oʻynash orqali tanish asarlardan bir parcha oʻqib berilganda ularni qaysi asar ekanligi bilish malakalarini rivojlantirish.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Tun va kun, ertalab va kechqurun kabi tushunchalarni oʻyinlar orqali mustahkamlash. Guruhda navbatchilikni tashkil etish orqali bolalarda oʻzgaral uchun xizmat qilish xohishini tarbiyalash.					
	Ijodiy rivojlanish	Bolalargatanishshakllarnioʻzigaxostarzdajoylashtirishorqaliyangisanʼatarlariniyaratishgaragʻbatlantirish. Jamoa bilan ishlash malakalarini rivojlantirish.					
Rivojlantirish markazlari		Talimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	Shaharchamiz uchun mashinalar			Shaharchamiz uchun baland-past uylar		Qurilish materiallari, lego konstruktor
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish	Yosh shashkachilar					Shashka oʻyini uchun shashka donchalari va taxtachasi
	Til va nutq	“Bizning quvnoq shaharcha” multafilmini koʻrish					Mavzu asosida suratlar, AKT materiallari
	Fan va tabiat		Jamoa ishi “Quvnoq shaharcha ” maketini tayyorlash				Qurilish materiallari, tashlandiq materiallar qogʻoz parchalari va boshqa jihozlar
	Sanʼat	Loy ishi: Gullar shahri			Loydan tennis raketkasi va koptogini yasash		Oq va rangli qogʻozlar, rangli boʻyoq, rangli qalamlar, loy.

AVGUST. UCHINCHHAFTA

O‘YINLAR SHAHARCHASI

Svuietli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish Mavzu: Yosh shashkachilar

Maqsad: bolalar o‘yin orqali shashka o‘ynash malakalarini rivojlantiradilar, rollarni ijro etishda ovoz ohangining xatti-harakatlarga mosligiga e‘tibor qaratadilar.

Kerakli jihozlar: shashka, stol, stul, mavzuga oid rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. O‘yinni rejalashtirish.
2. Rollarni taqsimlash: murabbiy va shogirdlar
3. O‘z joylarini egallash.
4. O‘yin jarayoni.

Qo‘shimcha: shashka musobaqasini tashkil etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: hamkorlik, hamjixatlik.

Til va nutq

Mavzu: “Bizning quvnoq shaharcha” multfilmi

Maqsad: bolalar multfilm ko‘rish jarayonida diqqatlarini jamlaydilar va hodisani tahlil qiladilar.

Kerakli jihozlar: AKT.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqali multfilm tomosha qilish.
2. Multfilmni tahlil qilish.
3. Multfilmdagi shaharcha bilan o‘zlari yashayotgan shahar (qishloq) orasidagi o‘xshashlik va farqlarni aytib berish.

4. Xulosa chiqarish.

Qo‘shimcha: kulguli voqea va hodisalarni yodga olgan holda gapirib berish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: diqqat va tahlil qilish malakalari.

San‘at

Mavzu: Gullar shahri

Maqsad: bolalar turli xil kattalikdagi va ko‘rinishdagi gullarni mustaqil ravishda yasaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, loy, plastilin, rangli xamirlar, stek, doska.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Kerakli anjomlarni tanlash.
3. Ishni rejalashtirish.
4. Ijodiy ish.
5. Ko‘rgazma.

Qo‘shimcha: gullardan katta kompozitsiya yaratish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: ijodkorlik

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Shahrimiz uchun mashinalar

Maqsad: bolalar katta-kichik hajmdagi mashinalarni yasaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, lego, kubik, mavzuga oid rasmlar

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish
2. Namunani kuzatish
3. Kerakli jihozlarni tanlash
4. Ijodiy ish.
5. Ishlar taqtimoti.

Qo‘shimcha: tayyor mashinalarni xarakatga keltirish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: mashina shaklini yaratish.

Fan va tabiat

Mavzu: “Quvnoq shaharcha” maketini tayyorlash

Maqsad: bolalar shahar ko‘rinishi va shahardagi inshootlar, maskanlar nima maqsadda (yashash, ishlab chiqarish, dam olish, davolanish, ta‘lim olish...) barpo etilganligini biladilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga doir rasm, panno, mayda va yirik inshootlar maketi, yelim gullar, o‘yinchoq hayvonlar, mashinalar...

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish
2. Mavjud maketlarni tanlash.
3. Vazifalarni taqsimlash.
4. Pannoga barcha maket va jihozlarni joylashtirish.
5. Pannodagi shaharchaga izoh berish.

Qo‘shimcha: bog‘cha maketini yaratish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: shaharni tasavvur qilish.

Qurish- yasash va matematika

Mavzu: Shaharchamiz uchun turar-joy kompleksi

Maqsad: bolalar zamonaviy ko‘rinishdagi binolarni loyihalashtira oladilar, qurish malakalarini yanada mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: legolar, kubiklar, namuna, mavzuga oid rasmlar, qurilish bloklari.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna va mavzuga oid rasmlarni kuzatish.
 2. Kerakli qurilish bloklarini tanlash.
 3. Ijodiy ish.
 4. Bolalarning ishini muhokama qilish.
 5. Tayyor ishni qo‘shimcha detallar bilan boyitish.
- Qo‘shimcha: “Mo‘jizaviy uylar” kompozitsiyasini yaratish.

Sanʼat

Mavzu: Tennis raketkasi va koptogi

Maqsad: bolalar tennis sport turining jihozlarini mustaqil ravishda yasaydilar, loy, plastilin yoki xamirga ishlov berish orqali maqsadga erishadilar.

Kerakli jihozlar: namuna, loy, rangli xamirlar, plastilin, stek, doska, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna bilan tanishish.
2. Kerakli jihozlarni tanlash.
3. Tennis raketkasi va koptogi shaklini hosil qilish.
4. Tayyor shakllarga ishlov berish.
5. Bajarilgan ish tahlili.

Qoʻshimcha: sayrda stol tennisini oʻynashni taklif qilish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: mayda qol motorikasi.

AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG‘LOM BOLALAR

Guruh		O‘rta guruh					
Mavzu		Zavqli Yoz					
Muddati		Avqust 4-hafta					
Rivojlantirish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlantirish va soglom turmush tarzini shakllanishi	O‘zining tana a‘zolarini toza saqlash va ulami doimiy parvarishlab borishga o‘rgatish. “Toza va kir qo‘llar” haqida so‘zlash orqali ularda sog‘liqlariga e‘tibor berishga o‘rgatish.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Do‘stlari va oilasidagilarni nimalarni yaxshi ko‘rishlari va Yomon ko‘rishlari haqida so‘zlab berishga o‘rgatish. Arazlashgan do‘stlarni yarashtirishga qaratilgan hikoyalar orqali ularni do‘stligini mustahkamlashga o‘rgatish.					
	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari	Mustaqillik bayrami haqidagi tushunchalarni kengaytirish, badiiy she‘riy asarlarni yodlash orqali bayram haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Yil fasllari va ularning o‘ziga xosligini ta‘limiy o‘yinlar orqali o‘rgatish. Har bir fasl haqida bolalar tushunchalarini kengaytirish.					
	Ijodiy rivojlanish	Qaychisiz applikasiya usulini rivojlantirish orqali bolada mayda motorikani rivojlantirish. Turli ikkilamchi materiallardan yangi narsalarni yaratishga o‘rgatish. Boladagi xohish va istakni rivojlantirish.					
Rivojlantirish markazlari		Talimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	Yozgi oromgohlar					Qurilish materiallari, lego konstruktor, turli kattalikdagi g‘ishtlar
	Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish	Supermarket			Tug‘ilgan kunni nishonlaymiz		Niqoblar, jihozlar, AKT, kostyumlar, sahna dekoratsiyalari peshtaxtalar, pul, sotuv uchun buyum va oziq-ovqat mahsulotlari
	Til va nutq	“Ertakchi bolalar” Tanish ertaklarni hikoya qilish			“Yurtimni madh etaman” Vatan haqidagi she‘rlar		Mavzu asosida rasmlar, she‘riy kitobchalar
	Fan va tabiat		Ikkilamchi materiallarga yangi hayot bag‘ishlaymiz				Turli ikkilamchi materiallar: baklajka, qog‘oz qutilari, smetana idishlari, qiyqim, rangli karton, matolar
	San‘at	Rasm: Yoz mening tassavvuri	Loy ishi: Mening sevimli o‘yinchog‘im		Applikatsiya: Quvnoq bolalar		Oq va rangli qog‘ozlar, rangli bo‘yoq, rangli qalamlar, loy.

AVGUST. TO'RTINCHI HAFTA

ZAVQLIYOZ

Qurish- yasash va matematika

Mavzu: Yozgi oromgohlar

Maqsad: bolalar o'zlari dam olgan oromgohlar ko'rinishini loyihalashtiradilar, qurish malakalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: legolar, kubiklar, namuna, mavzuga oid rasmlar, qurilish bloklari.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna va mavzuga oid rasmlarni kuzatish.
2. Kerakli qurilish bloklarini tanlash.
3. Ijodiy ish.
4. Bolalarning ishini muhokama qilish.
5. Tayyor ishni qo'shimcha detallar bilan boyitish.

Qo'shimcha: bolalar istagiga ko'ra turli dam olish maskanlari maketini yaratish.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Supermarket

Maqsad: bolalar do'konlar turlari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid do'kon rasmlari, turli xil do'konlar uchun mahsulotlar, sotuvchi uchun kiyim, maxsus pullar, terminal va kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. O' yin uchun sharoit yaratish
2. O'yinni rejalashtirish
3. Rollarni taqsimlash
4. O'yin
5. Yakuniy suhbat.

Qo'shimcha: mavzu asosida suhbatlashish.

Alohida e'tibor qaratiladi: do'konturlariva uyerdagi mahsulotlarning ajrata olish malakalari.

Til va nutq

Mavzu: Ertakchi bolalar

Maqsad: bolalar ertaklarni nomini biladilar va undagi voqealar syujetini so'zlab beradilar.

Kerakli jihozlar: ertaklar tasvirlangan rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Rasmlarni kuzatish.
3. Rasmga qarab ertak nomini aniqlash.
4. Istaklariga ko'ra ertaklarni hikoya qilish.
5. Suhbatni yakunlash, umumiy xulosa chiqarish.

Qo'shimcha: ertak kitoblarni tomosha qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: hikoya qilish malakasi, intonatsiya.

Sanʼat

Mavzu: Yoz mening tasavvurimda

Maqsad: bolalar rasm chizish malakalarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, rangli va oq qogʻozlar, rangli qalam, boʻyoqlar.

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Namuna bilan tanishish.
3. Ijodiy ish.
4. Bajirilgan ish taqdimoti.

Qoʻshimcha: mavzu asosida jamoa ishini taklif qilish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: ranglar yorqinligi.

Til va nutq

Mavzu: Yurtimni madh etaman

Maqsad: bolalar yil davomida yod olgan sheʼrlarini qayta eslaydilar va yangi Sheʼrlar yod oladilar.

Kerakli jihozlar: AKT, ovozli yozuv.

Faoliyatning borishi:

1. Yod olgan sheʼrlarini eslash.
2. Sheʼrlarni yoddan aytib berish.
3. AKT orqali yangi sheʼrlarni tinglash.
4. Yangi sheʼrlarni yod olish.
5. Yod olgan sheʼrlarining mazmuni haqida suxbatlashish.

Qoʻshimcha: sheʼrxonlik tashkil etish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: eslab qolish qobiliyati, ifodali aytib berish malakasi.

Fan va tabiat

Mavzu: Ikkilamchi materiallarga yangi hayot bagʻishlaymiz

Maqsad: bolalar har bir narsadan unumli foydalanish va isrof qilmaslik kerakligini biladilar, oʻz qoʻllari bilan ikkilamchi materiallardan yangi buyumlar yaratadilar.

Kerakli jihozlar: bakalajka, turli xildagi qutilar, mevalar urugʻlari, namunalar, yelim, flomaster, rangli qalam, boʻyoqlar, rangli qogʻoz va oq qogʻozlar, suv idish, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Mavjud buyumlarni tomosha qilish.
2. Qaysi buyumdan nima yaratish mumkinligini rejalashtirish
3. Ijodiy ish.
4. Yangi hayot bagʻishlangan ishlar taqdimoti.
5. Bajargan ishlaridan xulosa chiqarish.

Qoʻshimcha: guruh xonasidagi keraksiz buyumlarni jamlash va ularga ikkinchi hayot bagʻishlash.

Alohida eʼtibor qaratiladi: tasavvur va xulosa.

Sanʼat

Mavzu: Mening sevimli oʻyinchogʻim

Maqsad: bolalar loy va plastilindan foydalanish texnologiyasini biladilar, murakkab shakllarni yaratishga intiladilar, ijodiy ishlashda oʻz tasavvurlariga tayanadilar.

Kerakli jihozlar: loy, plastilin, stek, doska, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Bajariladigan ishni rejalashtirish.
2. Kerakli materiallarni olish.
3. Ijodiy ishni boshlash.
4. Yaratgan ishlarini qo‘shimcha detallar bilan boyitish.
5. Bajarilgan ish tahlili.

Qo‘shimcha: sevimli o‘yinchoqlari haqida so‘zlab berish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: loy, plastilin bilan ishlash texnologiyasi.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Tug‘ilgan kunni nishonlaymiz

Maqsad: bolalar tug‘ilgan kunni nishonlash an‘analarini biladilar, tug‘ilgan kun uchun zaruriy buyumlarni mustaqil ravishda tanlab, ulardan maqsadli foydalanadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlari, turli xil sharlar, bayroqchalar, bosh kiyimlar, sovg‘alar.

Faoliyatning borishi:

1. O‘yin uchun j oy tayyorlash.
2. Sharlar, bayroqchalar bilan bezatish.
3. Rollarni taqsimlash.
4. Tug‘ilgan kun sahnasini ijro etish.
5. Rollarni almashish.
6. Rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: tug‘ilgan kun qo‘shig‘ini ijro etish

Alohida e‘tibor qaratiladi: jamoada ishlash, fikrlarni hurmat qilish.

San‘at

Mavzu: Quvnoq bolalar

Maqsad: bolalar mustaqil ravishda qaychidan foydalanish malakalarini rivojlantiradilar, quvnoq chehralarni tasvirlaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, rangli va oq qog‘ozlar, yelim, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Bajariladigan ishni rejalashtirish.
3. Ijodiy ish
4. Yaratilgan ishlarni qo‘shimcha detallar bilan boyitish.
5. Taqdimot.

Qo‘shimcha: bolalarga “quvnoq” so‘zini o‘z so‘zlari bilan tushuntirib berish taklif qilinadi.

Alohida e‘tibor qaratiladi: yelimlash, qog‘oz sathida ishni joylashtirish.

KATTA GURUH

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK

Guruh	Katta						
Mavzu	Baxtli bolalik						
Muddati	Iyun1-hafta						
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish vasog‘lomturmushtarziningsh akllanishi	Oyoqlaruchidantovongaalmashtiribyoradi.Turliusullarbilansakraydi.Shaxsiygigiyenagarioyaqiladi.Stolatrofidaovqatlanish tartibiga amalqiladi.					
	Ijtimoiy-hissiyrivojlanish	Mustaqilo‘zigafaoliyatturinitanlaydi.Tushunarliasarlarniqiziqishbilantinglaydivaulargahissiyotlarininamoyon etadi.					
	Nutq,muloqat,o‘qishva yozishmalakalari	Rasmasosidahodisavavoqealarnitushuntiribberadi.Nutqningmonologikshakliniqo‘llaydi.O‘ztasavvurvafikrlarini ifodalashnio‘rganadi,nutqifaollashadi.gapnigrammatikjihtadanto‘g‘rituzadi.					
	Bilish jarayoniningrivojlanishi	Turlihajmligeometirikfiguralardan(kub,silindr,g‘isht,plastina,piramida)uyquraoladi,ularnomlariniva belgilarinibiladi.Rasmdagisyujetnieslabqoladivaunigapiradi.Ketma-ketliknisaqlaganholdafikryuritadi,mulohazaqiladi.Jonlivajonsiz tabiatnifarqlaydi.					
	Ijodiyrivojlanish	Bayram taasurotlarini qog‘ozda aks ettirishga harakat qiladi. Mayda qo‘l motorikasi, tasavvuri rivojlanadi, estetik bezatish,jamoabilanishlashnibiladi. O‘ziningijodini chiroylibezatadi. Bayramonakayfiyat,zavq-shavqoladi.					
Rivojlanishmarkazlari		Ta’limiy-tarbiyaviyfaoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkinfaoliyat	Qurish,yasash vamatematika	Bolalar maydonchasiniquramiz					Lego, konstruktor, turlikattalikdagig‘ishtlar
	Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish	“Mehmonda”					Mavzugamosuyjihozlari,qo‘g‘irchoqlar,idish-tovoqlar,oshxonaanjomlari.
	Tilvanutq	Bolalar bayrami kuni			Menyaxshiko‘rgan faslim		Hayotdavrnomasio‘yinlato si, yozfasligadoirrasmlar
	Fanvatabiat		Kuvnoqsharchalar		Do‘stimuchunhadya		Shar,mevalarmulyaji, maydalanganrangliqog‘ozlar
	San’at	Rasm: Bolalarbayrami		Applikat siya:Bayramsovg‘asi	Loy ishi: Kichkintoylaruchuno‘yinchoqlar		Keraklianjomlaar

IYUN. BIRINCHI HAFTA

BAXTLI BOLALIK

Til va nutq

Mavzu: Bolalar bayrami kuni

Maqsad: bolalar rasm mazmunini soʻzlab beradilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasm.

Faoliyatning borishi:

1. “Bolalar bayrami kuni” mavzusidagi rasmlarni koʻrish.
 2. Rasm mazmunini soʻzlab berish.
 3. 1-Iyun Xalqaro bolalarni himoya qilish kunini qanday oʻtkazganligi haqida suhbat.
- Qoʻshimcha: bolalar bayrami kuniga bagʻishlangan sheʼrlarni yoddan aytib berish.
- Alohida eʼtibor qaratiladi: bolalarning monologik nutqi.

Fan va tabiat

Mavzu: Quvnoq

pufaklar

Maqsad: bolalar havoning xususiyatlariga oid amaliy tajribalar

oʻtkazadilar Kerakli jihozlar: sellofan paket, paxta yoki pat, pufak.

Faoliyatning borishi:

1. Sellofanga havo toʻldirish va uni mahkamlash.
2. Pufakni shishirish va uni bogʻlash.
3. Havoning hosil boʻlishi va bir joyda toʻplanish jarayonini tahlil qilish.
4. Sellofan va pufakning ogʻzini boʻshatish jarayonida yengil jism yordamida (paxta yoki pat) sellofan yoki pufakdan chiqayotgan havoning bosimini kuzatish.
5. Amaliy tajribani tahlil qilish.

Qoʻshimcha: havoning koʻz bilan koʻrib, qoʻl bilan ushlab boʻlmazligi, havo yana nimalar uchun zarurligi, havo boʻlmasa sayyoramizda nimalar sodir boʻlishi mumkinligi haqida qoʻshimcha maʼlumotlar berish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: bolaning mavzu borasida qanday fikrga, bilimga ega boʻlganligi, mavzuni toʻgʻri tahlil qila olishi.

Sanʼat

Mavzu: Bolaligim - poshsholigim

Maqsad: bolalar bayram taassurotlarini qogʻozda aks ettirishga harakat qiladilar.

Kerakli jihozlar: rangli qalamlar, boʻyoqlar, moʻyqalam, qogʻoz, mavzuga oid rasmlar, namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlarni kuzatish.
 2. Namunani tahlil qilish.
 3. Ishni rejalashtirish.
 4. Kerakli anjomlarni tanlash.
 5. Ijodiy faoliyat.
 6. Ijodiy ishlar koʻrgazmasi.
- Qoʻshimcha: “Bolalar bayrami” mavzusida jamoa ishi.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Bolalar maydonchasini quramiz

Maqsad: bolalar turli hajmli shakllardan: kubik, silindr, g'isht, piramidadan bolalar maydonchasi konstruksiyasini quradilar, predmetlar joylashuvini tahlil qilib, ularni katta-kichikligiga qarab taqqoslaydilar.

Kerakli jihozlar: kubiklar, geometrik shakllar, lego, arg'imchoq uchun kerakli qismlar.

Faoliyatning borishi:

1. "Bolalar maydonchasi" mavzusidagi rasmlarni ko'rish.
2. Ishni rejalashtirish.
3. Bolalar maydonchasining qurish va uni mayda o'yinchoqlar bilan to'ldirish.
4. Bolalar maydonchasidagi predmetlar joylashuvi tahlili.

Qo'shimcha: bolalar maydonchasiga oid bolalar adabiyoti namunalari.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarning jamoada ishlay olish malakalari.

Syujetli-rolli o'yinlar va

sahnalashtirish Mavzu: Mehmonda

Maqsad: bolalar mehmonga borish odobini biladilar, mehmonlar orasida so'zlashish madaniyatiga ega bo'ladilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga mos uy jihozlari, qo'g'irchoqlar, idish-tovoqlar, oshxona anjomlari.

Faoliyatning borishi:

1. O'yinni rejalashtirish.
2. Rollarni o'zaro taqsimlash.
3. O'yin jarayoni.
4. O'yin yakuni, muhokama.

Qo'shimcha: qo'shni guruhga mehmonga chiqish.

Alohida e'tibor qaratiladi: mezbon va mehmon odobi.

San'at

Mavzu: Bayram sovg'asi

Maqsad: bolalar ijod qilishga, ijodiy tasavvurlarini kengaytirishga, o'z ishini did bilan bezatishga o'rganadilar.

Kerakli jihozlar: rangli kartonlar, qog'oz, yelim, stepler, ramkalar.

Faoliyatning borishi:

1. "Sovg'alar" mavzusidagi rasmlarni ko'zdan kechirish.
2. Kviling usuli chizmasi bilan tanishish.
3. Bolalar ijodiy ishi.
4. Tayyorlangan bayram sovg'asini do'stlariga hadya qilish.

Qo'shimcha: mavzuga oid she'r yoki qo'shiq kuylashni taklif qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: tartibli va gigiyena talablariga rioya qilib ishlash.

Til va nutq

Mavzu: Viktorina: Ertaklar olamiga sayohat

Maqsad: bolalar ertaklar nomi va ularning mazmunini chuqur bilib oladilar.

Kerakli jihozlar: O'zbek va jahon xalq ertaklari asosidagi rasmlar, topishmoqlar, AKT yoki albom.

Faoliyatning borishi:

1. Sehrli ertaklar olamiga sayohat. AKT yoki albomdagi ertaklar jamlanmasini tomosha qilish.
 2. Viktorina: Ertaklar nomini bosh harfidan top.
 3. Viktorina: Ertaklardagi foydali maslahatlar.
 4. Rag'batlantirish.
- Qo'shimcha: g'oliblarga medal topshirishni tashkil etish.
- Alohida e'tibor qaratiladi: ertaklarni qay darajada bilishi, ularni eshitishga bo'lgan ishtiyoqi va xohishi.

Til va nutq

Mavzu: Men yaxshi ko'rgan fasl

Maqsad: bolalargapni grammatik jihatdan to'g'ri tuzishga o'rganadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar, ta'limiy o'yin, rasmlari kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Fasllar haqidagi rasmlarni tomosha qilish va o'zi yaxshi ko'rgan fasl tasvirlangan rasmini tanlash.

2. Rasm asosida hikoya.

3. "Buqachonbo'ladi?" ta'limiy o'yini.

Qo'shimcha: fasllarga doir she'rlar va topishmoqlar.

Alohida e'tibor qaratiladi: gapning bosh bo'laklarini to'g'ri qo'llash.

Fan va tabiat

Mavzu: Do'stim uchun hadya (Paqildoq)

Maqsad: bolalarda mayda qo'l motorikasi rivojlanadi, detallarni bir-biriga moslaydi, ijodkorligi oshadi, tasavvuri kengayadi, qo'l mehnati bilan shug'ullana oladi.

Kerakli jihozlar: qog'oz, yelim, qaychi, maydalangan rangli qog'ozlar Faoliyatning borishi:

1. Namunani o'rganish.
2. Bajariladigan ishni rejalashtirish.
3. Kerakli Shakllarni tanlab olish.
4. Ijodiy ish.
5. Tahlil qilish.
6. Kamchiliklarni to'ldirish.
7. Tayyor ishni do'stlarga hadya etish.

Qo'shimcha: tarbiyachi yordamida tayyor va qo'lda yasalgan paqildoqlarni solishtirish.

San'at

Mavzu: Kichkintoylar uchun o'yinchoqlar

Maqsad: bolalar loyga murakkab shakllarni bera oladilar.

Kerakli jihozlar: loy, stek, doska, ho'l sochiq, turli o'yinchoqlar (quyoncha, ayiqcha, piramida), namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna yoki rasmlarni ko'rish.
2. Ishni rejalashtirish.
3. Chizmalar bilan tanishish.
4. Ijodiy ish.
5. Bolalar ishini muhokama qilish va ularni rag'batlantirish.

Qo'shimcha: tayyor bo'lgan o'yinchoqlarni kichik guruh bolalariga sovg'a qilish. Alohida e'tibor qaratiladi: loydan turli shakllarni yasash.

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK

Guru	Katta						
Mavz	Gulzordagi gullar						
Mudd	Iyun 2-hafta						
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi	Tovondan oyoq uchiga oʻtgan tarzda yuradi, toʻsiqlardan xatlaydi yoki aylanib oʻtadi, gimnastika skameykasi boʻylab muvozanatni saqlagan holda yuradi. Ozining tashqi korinishini nazorat qilib boradi. Murakkab konstruktsiyalarni yigadi. Mayda qismlardan iborat boʻlgan mozaika va pazllar yigʻadi					
	Ijtimoiy-hissiy	Tabiatni sevish va ardoqlash hissi mustahkamlanadi.Kattalarning mehnati natijalariga hurmat bilan qaraydi.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Grammatik sodda va murakkab gaplar tuzadi; umumlashtiruvchi soʻzlarni toʻgʻri qoʻllaydi (bahorgi gullar, kuzgi gullar; xona gullari, gulzorda oʻsadigan gullar, dorivor oʻsimliklar).					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Yoz faslidagi gullar, oʻsimliklardagi oʻzgarishlarni biladi, gullarning nomi, ularning tuzilishi: barglarini shakli, poyasi va gullaridagi farqlarni, baʼzi oʻsimliklarning shifobaxsh xususiyatlarohaqidagi bilimlarini mustahkamlaydi.					
	Ijodiy rivojlanish	Gullarni tasvirlashda turli usullardan foydalana oladi. Gullarning rasmini chiza oladi, xamir, loy yoki plastilindan yasashni biladi.					
Rivojlanish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanb	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika			“Gullar uchun guldon” jamoa ishi			Namuna, kubik, lego, plastmas sunʼiy gullar.
	Syujetli-rolli o yinlar va sahnalashtirish	“Gul oʻ stira olmagan bola” asari			Ibn Sino va dorivor oʻ simliklar		Kerakli anjomlar
	Til va nutq		“Gullar” mavzusidagi taʼlimiy oʻyin				Mavzuga doir bolalar adabiyoti namunalari, syujetli
	Fan va tabiat	Xona gullarini parvarish qilish			Dorivor oʻsimliklar		Xona gullari, dorivor oʻ
	Sanʼat	Rasm ishi: Guldondagi gullar		Loy ishi: Tuvakda gul	Applikatsiya Moychechak		Kerakli ashyolar

IYUN. IKKINCHI HAFTA GULZORDAGI

GULLAR

Syujetli-rollo‘yinlarvasahnalashtirish

Mavzu: Bilmasvoybizninggulzorda

Maqsad: bolalar gullarning turlarini farqlaydilar, ular haqida qisqa ma‘lumot bera oladilar.

Kerakli jihozlar: gulzordagi gullar niqobi.

Faoliyatning borishi:

1. O‘yin qoidalarini bilan tanishish.
2. “Bilmasvoy bizning gulzorda” syujetli-rollo‘yini.
3. Rollarni taqsimlash va qahramonlar obrazini yaratish.
4. O‘yin rejasini tuzish.
5. O‘yin.
6. Yakuniy suhbat.

Qo‘shimcha qism: MTTning gulzoriga sayruiyushtirish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: o‘yin jarayonida hamkorlari bilan do‘stona muloqotda bo‘lish.

Til va nutq

Mavzu: “Gullar” ta‘limiy o‘yini

Maqsad: bolalar gullarning nomi, ularning qayerda o‘ssishi, tuzilishi, barglarining shakli, poyasi va gullaridagi farqlarni, ba‘zi gullarning shifobaxsh xususiyatlari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: gulzordagi gullar rasmlari, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. O‘yin qoidasini tushuntirish: etishmagan qismni topish va o‘z joyiga joylashtirish.
2. O‘yin jarayoni.
3. O‘yinni muhokama qilish va xulosalash: qilgan ishlarini izohlab berish.

Qo‘shimcha: bolalarga gullar haqida she‘r aytirish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: izohlash jarayonida fikrlarni aniq va to‘liq gap bilan ifodalash.

Fan va tabiat

Mavzu: Nobud bo‘layotgan gulni parvarishlash.

Maqsad: bolalar o‘simlikni qayta tirilish jarayonini kuzatadilar. Bunday gullarni mustaqil ravishda parvarishlay oladilar.

Kerakli jihozlar: nobud bo‘layotgan gul, suv, idish.

Faoliyatning borishi:

1. Amaliy tajriba: nobud bo‘layotgan gulni parvarishlash.
2. Gulni suvli idishga solish va uni kun davomida kuzatib borish.
3. Amaliy tajriba natijasini muhokama qilish.

Qo‘shimcha: tashkilot gulzoridagi gullarni sug‘orish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: ozoda, tartibli ishlash, parvarishga muhtoj gul bilan sog‘lom gulni farqlash.

Sanʼat

Mavzu: Guldondagi gullar

Maqsad: bolalar naturadan foydalanib rasm chizadilar.

Kerakli jihozlar: rangli qalamlar yoki boʻyoq, moʻyqalam, suv idishi, qogʻoz va gul solingan guldond.

Faoliyatning borishi:

1. Gul solingan guldondni kuzatish.
2. Bajariladigan ishni rejalashtirish.
3. Kerakli anjomlarni tanlash.
4. Ijodiy ish: natura asosida.
5. Rasmlar koʻrgazmasini tashkil etish.

Qoʻshimcha: chizgan rasmlarni doʻstlariga sovgʻa qilishtaklif qilinadi.

Alohida eʼtibor qaratiladi: naturadan foydalana olish malakasi.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: “Gullar uchun guldond” jamoa ishi

Maqsad: bolalar guldond shaklini yasaydilar, materialdan maqsadli foydalanadilar.

Kerakli jihozlar: namuna, kubik, lego, sunʼiy gullar.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani oʻrganish.
2. Kerakli materialni tanlash.
3. Ishni rejalashtirish.
4. Jamoa ishi.
5. Tayyor ishni sunʼiy gullar bilan toʻldirish.

Qoʻshimcha: “Origami” usulida turli gullarni yasash va guruhni gullar bilan bezatish. Alohida eʼtibor qaratiladi: jamoa boʻlib ishlash, fikrlarni hurmat qilish.

Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish

Mavzu: “Gul oʻstira olmagan bola” asarini sahnalashtirish.

Maqsad: bolalar asar mazmunini biladilar, berilgan rolni ijro etadilar.

Kerakli jihozlar: AKT, gul, kiyimlar.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqali asar namoyishi
2. Rollarni taqsimlash.
3. Obrazni yaratish.
4. Asarni sahnalashtirish.

Qoʻshimcha: asar haqidagi fikrlarini tinglash.

Alohida eʼtibor qaratiladi: rolni ijro etish mahorati.

Sanʼat

Mavzu: Tuvakdagi gullar

Maqsad: bolalargullar shaklini loy yoki plastilindan yasaydilar, gullar nomini biladilar.

Kerakli jihozlar: loy, plastilin, doska, salftka, stek, namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Mavzu asosida loy yoki plastilin ishi.
3. Bajarilgan ishi uchun baho berish va kamchiliklarin bartaraf etish.
4. Doʻstlari bilan bajarilgan ishlari tahlilini qilish.

Qo‘shimcha: tayyor ishni do‘stlariga sovg‘a qilish taklif qilinadi.

Alohida e‘tibor qaratiladi: shakllarga aniq ishlov berish.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Ibn Sino va dorivor o‘simliklar

Maqsad: bolalardorivor o‘simliklar haqidagi ma‘lumotlarni tahlil qiladilar.

Kerakli jihozlar: Ibn Sino obrazi uchun kiyim, dorivor o‘simliklar, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqalidorivoro‘simliklardanmalhamtayyorlashniko‘rish.
2. Sahna ko‘rinishi uchun kerakli ashyo va jihozlarni tanlash.
3. Ibn Sino va dorivor o‘simliklar sahnasini rejalashtirish.
4. Rollarni taqsimlash.
5. Sahnalashtirish jarayoni.
6. Muhokama va rag‘batlantirish

Qo‘shimcha qism: tashkilotning tibbiyot xonasiga ekskursiya uyushtirish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: o‘yin jarayonida hamkorlari bilan do‘stona muloqotda bo‘lish.

Fan va tabiat

Mavzu: Dorivor o‘simliklar

Maqsad: bolalar dorivor o‘simliklarning sog‘lomlashtirish va davolash xususiyatlarini biladilar.

Kerakli jihozlar: grafinlar, rangli va shaffof stakanlar, dorivor o‘simliklar, dorivor o‘simliklarning rasmlari.

Faoliyatning borishi:

1. Dorivor o‘simliklarning tog‘ yon bag‘rlarida uchrashi tasvirlangan rasmlarni kuzatish, ularning quritilgan guli, mevasi, tashqi tuzilishi, mazasi va shifobaxsh xususiyatlarini o‘rganish
2. Dorivor o‘simliklardan turli damlamalarni tayyorlash.
3. Tayyor damlamalarni ta‘tib ko‘rish.

Qo‘shimcha: tashkilot hududidagi o‘simliklarni kuzatish, gerbariy tayyorlash.

Alohida e‘tibor qaratiladi: damlamalarni davo xususiyati

San‘at

Mavzu: Moychechak

Maqsad: bolalar mustaqil ravishda moychechak gulini bo‘rttirish usulida yasaydilar.

Kerakli jihozlar: tabiiy moychechak guli, qaychi, yelim, namuna, rangli va oq qog‘ozlar, salfetka. Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish
2. Chizmani o‘rganish
3. Ijodiyish.
4. Bajarilgan ishlar ko‘rgazmasi, rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: tayyorishnido‘stlarigasovg‘aqilishtaklifqilinadi.

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK

Guruh	Katta						
Mavzu	Jonli va jonsiz tabiat						
Muddati	Iyun 3-hafta						
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi	Toʻ siqlami aylanib yoki xatlab oʻtadi, gimnastika skameykasida muvozanatni saqlagan xolda qadamba qadam yuradi. Murakkab konstruksiyalarni yigʻ adi. Mayda qismlardan iborat boʻlgan mozaika va pazllar yigʻ adi.					
	Ijtimoiy-hissiy	Qurish jarayonida gʻoyalar taklif etadi. Oʻyin mobaynida doʻstlari bilan oʻz hissiyotlari va kechinmalari bilan					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Nutqning dialogik, monologik shaklini qoʻllaydi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Geometrik shakllarni biladi va ularni predmetlar orasidan ajratadi; predmetlarni uzunligi, eni, qalinligi va balandligiga koʻra taqqoslaydi, 1dan 10gacha boʻlgan sonlarni toʻgʻri va teskari sanashni mustahkamlaydi, kuzatuv orqali chumoli hayoti va faoliyati haqidagi tushunchalarni takomillashtiradi.					
	Ijodiy rivojlanish	hasharotlarni yasashda ularning tuzilishi va rangining xarakterli xususiyatlarini koʻrsata oladilar, togʻ manzarasini yaratishda jamoada ishlash koʻnikmasini rivojlantiradi.					
Rivojlanish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanb	Seshanba	Chorshanba	Payshan	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika			Togʻlar			Kerakli ashyolar
	Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish		Yosh sayyohatchilar		“Mushuk va Chumoli” rus xalq ertagi		Kerakli anjomlar
	Til va nutq	Yer osti boyliklari					AKT, mavzuga oid rasmlar
	Fan va tabiat		Yer osti qazilmalari		Chumoli inini kuzatish		Kerakli anjom va ashyolar
	Sanʼat	Rasm ishi: Bizning Yer sayyoramiz		Applikatsiya ishi: Jamoa ishi kollaj “Togʻ manzarasi”	Loy ishi: Hashoratlar		Kerakli ashyolar

IYUN. UCHINCHI HAFTA

JONLI VA JONSIZ TABTAT

Til va nutq

Mavzu: “Yer osti boyliklari” suratiga qarab hikoya tuzish

Maqsad: bolalar yer osti boyliklari to‘g‘risida hikoya tuzib, uni aytib bera oladilar. Kerakli jihozlar: AKT, mavzuga oid rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlar va slaydlarni tomosha qilish.
2. Ko‘rganlarini do‘stlari bilan tahlil qilish.
3. Rasm asosida hikoya tuzish va uni do‘stlariga aytib berish
4. Rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: yer osti boyliklari haqida topishmoqlar aytish Alohida e‘tibor qaratiladi: bolalar monologik nutqi.

Fan va tabiat

Mavzu: Yer osti qazilmalari

Maqsad: bolalar yer osti qazilmalari xususiyatlarini amaliy tajribada o‘rganadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar, AKT, katta hajmdagi tuvak yoki maxsus idishlarda berkitilgan ko‘mir, tilla, kumushni aks ettiruvchi tangachalar, konchilarning maxsus kiyimlari, belkurak.

Faoliyatning borishi:

1. Yer osti qazilmalari haqida film namoyishi.
2. Filmdagi yer osti qazilmalari nomlarini aytish.
3. Konchilar obraziga kirish va maxsus idishdagi tuproqni kavlab uning tagidan yer osti

qazilmalarini topish.

4. Topgan qazilmalar nomini aytish va nima uchun ishlatilishini do‘stlari bilan muhokama qilish.
5. Yer osti qazilmalarining xususiyatlari bilan tanishish. Ko‘mir bilan amaliy ish.
6. Amaliy ish xulosalari

Qo‘shimcha: “Konchilar” syujetli-rolli o‘yinini o‘ynashni taklif etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: yer osti qazilmalarini nomlab bera olishiga, ulardan keladigan foydalar haqidagi bilimlari.

San‘at

Mavzu: Bizning Yer sayyoramiz

Maqsad: bolalar rasm chizish malakalarini yanada mustahkamlaydilar, murakkab syujetlarni tasvirlay oladilar, mustaqil ravishda yangidan-yangi ranglarni hosil qiladilar.

Kerakli jihozlar: A4 hajmdagi qog‘oz, mavzu asosida rasmlar, rangli bo‘yoqlar, mo‘yqalam, suv uchun idish, namuna, salfetka Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlarni tomosha qilish.
2. Klyaksografiya texnologiyasi asosida rasm chizishni rejalashtirish.
3. Namunani kuzatish.
4. Ijodiy ish.
5. Ishlar ko‘rgazmasini tashkil etish.

Qo‘shimcha: mavzugadoirashulalarniyodolishvajroetishnitaklif qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: “Klyaksografiya” texnologiyasi.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Tog‘lar

Maqsad: bolalar tog‘ni qurishda kerakli shakllarni tanlay oladilar, sanaydilar, taqqoslaydilar, maketlarni mustaqil ravishda yasaydilar.

Kerakli jihozlar: kubik, modullar, karton qutilar, tog‘lar aks ettirilgan rasmlar va namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosida rasmlarni tomosha qili
 2. Namunani ko‘rish.
 3. Kerakli ashyolarni tanlash.
 4. Bolalarning mustaqil ishlari.
 5. Bajarilgan ishlar taqdimoti.
- Qo‘sh _____ o‘z maketlarida jonli tabiatni aks

Alohida e‘tibor qaratiladi: jonli va jonsiz tabiatning bog‘liqligi.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Yosh sayohatchilar (suvda, quruqlikda va tog‘da)

Maqsad: bolalar sayohatda bo‘lgan vaqtlarini eslaydilar, sayohat uchun zarur jihozlarni tanlay oladilar va jihozlardan maqsadli foydalanadilar.

Kerakli jihozlar: sumkachalar, qo‘shimcha kiyim, o‘yinchoq idish-tovoqlar, yeguliklar, kompas, osma qozoncha, belkurak.

Faoliyatning borishi:

1. Sayohatga boriladigan joyni tanlash.
2. Sayohat uchun kerakli buyumlarni tanlash va joylashtirish.
3. Syujetli-rolli o‘yinlar.
4. Rollar ijrosini muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: borgan joylarida fotosuratlar olishni taklif qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: sayohatdan olgan taassurotlari.

San‘at

Mavzu: Tog‘ manzarasi. Jamoa ishi

Maqsad: bolalar tog‘ manzarasini tasavvur qilib, shuningdek tog‘ manzarasini aks ettiruvchi ranglardan foydalanib rasm chizadilar.

Kerakli jihozlar: A1 hajmdagi qog‘oz, rangli qog‘ozlar, mo‘yqalam, rangli qalam, flomasterlar, namuna, mavzu asosida rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosida rasmlarni tomosha qilish.
 2. Namunani kuzatish.
 3. Bajariladigan ishlarni o‘zaro taqsimlash.
 4. Ijodiy ish.
 5. Tayyor bo‘lgan jamoa ishini muhokama qilish.
- Qo‘shimcha: jamoa ishini taqdimot qilish.
- Alohida e‘tibor qaratiladi: qog‘oz sathida to‘g‘ri mo‘ljol olish.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: “Mushuk va chumoli” ertagi

Maqsad: bolalarning “Mushuk va chumoli” ertagi orqali sahnalashtirish va rollarga bo‘linib ijro etish layoqati takomillashadi.

Kerakli jihozlar: ertak asosida rasmlar, atributlar, niqoblar.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlarni tomosha qilish orqali ertakning syujetini esga olish.
2. Mavjud jihozlarni ko‘zdan kechirish va rejalashtirish.
3. Rollarni taqsimlash.
4. Ertakni sahnalashtirish.
5. Rolni qay darajada ijro etganliklarini o‘zaro muhokama qilish.

Qo‘shimcha: bolalar rollarni almashishlari yoki ertakka boshqacha yakun o‘ylab topishlari mumkin.

Alohida e‘tibor qaratiladi: yaxshi va yomon xulqni farqlab, mustaqil xulosalar chiqarish.

Fan va tabiat

Mavzu: Chumoli inini kuzatish

Maqsad: bolalar chumolining tabiiy sharoitdagi hayoti, uning turmush tarzi haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: mavzu asosida rasmlar, chumoli, AKTda chumoli uyasi slaydlari, oddiy tuproq, chumoli inidan olingan tuproq.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqali slayd va rasmlarni tomosha qilish.
2. Slayd asosida suhbat 3..Chumoli haqida ma‘lumot berish.
3. Chumolini kuzatish.
4. Oddiy tuproq va chumoli inidan olingan tuproqni farqlash.
5. Loydan chumoli inini yasash.

Qo‘shimcha: chumolilar haqida multfilm namoyishi.

Alohida e‘tibor qaratiladi: chumoliga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish.

San‘at

Mavzu: Hasharotlar

Maqsad: bolalar hasharotlarni turi va tuzilishi bo‘yicha farqlaydilar, hasharot uchun kerakli shakllarni yasaydilar.

Kerakli jihozlar: plastilin, stek, doska, namunalar, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Syujetni tanlash.
2. Kerakli materiallarni tanlash.
3. Namunalarni ko‘rish.
4. Ijodiy ish.
5. Ijodiy ishlar ko‘rgazmasi.

Qo‘shimcha: kompozitsiyalarni osimliklar bilan toldirish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: shakllarni hosil qilish texnologiyasi.

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK

Guruh	Katta						
Mavzu	Ertak qahramonlari mehmonda						
Muddati	Iyun 4-hafta						
Rivojlanish sohalariga maqsadlar	oid	Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi	Bolalarda yurish, yugurish, yumalatish, irgʻitish, ilib olish, emaklash, tirmashish, muvozanat saqlash kabi asosiy harakatlarni mustahkamlanadi. Murakkab konstruksiyalarni yigʻadi.				
		Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Bolalarda ozbek xalq ertaklari orqali manaviy-axloqiy sifatlar: saxiylik, mehnatsevarlik, botirlik, jasurlik, dostlik, mehr- oqibatni tarbiyalanadi.				
		Nutq, muloqot, o qish va yozish malakalari	Bolalar qahramonlarning kechinmalarini, his-hayajonlarini tasirchan ifodalaydilar. Bolalar grammatik sodda va murakkab gaplar tuzadilar.				
		Bilish jarayonining	Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi namunalari asosida bolalar qalbida oz millatiga muhabbat, milliy gʻurur hissini tarbiyalanadi.				
		Ijodiy rivojlanish	Badiiy asarni sahnalashtirish va rollarga boʻlinib ijro etish layoqati rivojlanadi.				
Rivojlanish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dus	Seshanba	Chorshanba	Payshan	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat		Qurish-yasash va matematika			Kubiklardan ertak lavhalarini yigʻamiz		Qurish-yasash jamlanmasi, geometrik shakllar
		Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish	A.Navoiyning “Non isi” rivoyati				Sahnalashtirish uchun jihozlar
		Til va nutq	“Non nimadan tayyorlanadi?”		“Rasmli kartochkalardan yangi ertak toʻqiyimiz!”		Kerakli ashyolar
		Ilm-fan va tabiat	Mazali kulcha.			Oltin tarvuz	Kerakli
		Sanʼat		Loy va tuzli xamir bilan ishlash. “Non turlari”	Rasm ishi: Mening ertak qahramonim		Applikatsiya: Yalmogʻiz kampir uychasiga mehmonga

IYUN. TO'RTINCHI HAFTA

ERTAK QAHRAMONLARI MEHMONDA

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish Mavzu: A.Navoiyning "Non isi" rivoyati

Maqsad: bolalar A.Navoiyning "Non isi" rivoyatini biladilar, aktyorlik mahoratlarini oshiradilar.
Kerakli jihozlar: nonlar, savat, shox uchun taxt, kostyumlar, sallalar, stol va ko'rpachalar, dasturxon, gullar.

Faoliyatning borishi:

1. A.Navoiyning "Non isi" hikoyasini eslash.
2. Rollarni taqsimlash.
3. Obrazga kirish
4. Rivoyatni sahnalashtirish.
5. Rivoyat mazmunidan kelib chiqadigan xulosa muhokamasi.

Qo'shimcha: rivoyatning tarbiyaviy jihatlarini bolalar bilan muhokama qilish Alohida e'tibor qaratiladi: rolni ijro etayotganda ovoz tempi va ijro mahorati.

Til va nutq

Mavzu: Non nimadan tayyorlanadi? Suhbat

Maqsad: bolalar bug'doydan un hosil bo'lish jarayoni ketma-ketligi va non tayyorlash jarayonini aytib beradilar.

Kerakli jihozlar: don solingan likopchalar (arpa, bug'doy, suli), un solingan likopcha, non turlari namunalari, kartochkalar, undirilgan suli doni, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. "Non qanday paydo bo'lgan" slayd-taqdimotini ko'rish.
2. Namoyish asosida suhbat.
3. Donlarni ko'rib chiqish va nomlarini eslab qolish.
4. "Non nimadan tayyorlanadi?" ta'limiy o'yini.
5. Xulosa, rag'batlantirish

Qo'shimcha: bolalar non mahsulotlari turlarini sanab o'tishadi.

Alohida e'tibor qaratiladi: arpa, bug'doy, sulini bir-biridan farqlash.

Fan va tabiat

Mavzu: "Mazali kulcha" Oshpazning mahorat maktabi

Maqsad: bolalar kulcha nonni tayyorlashni biladilar, xamirdan, loydan, turli rangli plastilinnlardan kulcha non yasay oladilar. Kulcha nonni pechkaga solib pishirish jarayonida ishtirok etadilar. **Kerakli jihozlar:** patnis, kesish uchun taxta, jo'va, xamir uchun mahsulotlar, chakich, idishlar, bosh kiyim.

Faoliyatni olib borilishi:

1. Bolalar uchun ish joylarini tayyorlash.
2. Xamir tayyorlash jarayoni.
3. Bolalar xohishiga ko'ra kichik kulchalar tayyorlash.
4. Kulchalarni pishirish va boshqa guruh bolalarini mehmon qilish.
5. Mahorat maktabi muhokamasi, ish natijalari xulosasi

Qo'shimcha: kulcha nonga bezak berishadi, sedana sepishadi.

Alohida e'tibor qaratiladi: oziq-ovqat mahsulotlarini isrof qilmaslik, oshpaz mehnatini qadrlash

Sanʼat

Mavzu: Non turlari

Maqsad: bolalar non turlari va uning shakllarini biladilar.

Kerakli jihozlar: tuzli xamir, rangli plastilin, karton qogʻoz, non turlari tasvirlangan rasmlar, namuna.

Faoliyatning borishi

1. Non turlari tasvirlangan rasmlarni koʻrish.
2. Ishni rejalashtirish.
3. Jarayonning borishi.
4. Ijodiy ishlar taqdimoti.
5. Ragʻbatlantirish

Qoʻshimcha: ota-onalar uchun koʻrgazma tayyorlash.

Alohida eʼtibor qaratiladi: gigiyenik talablarga rioya qilish, doʻstlarining mehnatini qadrlash.

Qurish-vasava matematika

Mavzu: Kubiklardan ertak lavhalarini yigʻamiz

Maqsad: bolalar ertak qahramonlarini taniydilar, ertakdagi voqea va hodisalarni yoddan biladilar, ertak syujetini mustaqil ravishda tuzadilar.

Kerakli jihozlar: ertak syujeti tasvirlangan kubikli mozaikalar, rasmi ertak kitoblar.

Faoliyatning borishi:

1. Ertakni yodga olish.
2. Kubiklarni kuzatish va tahlil qilish.
3. Qaysi ertak syujetini yaratishni rejalashtirish.
4. Kubikli mozaikalarni yigʻish.
5. Oʻzaro suhbat qurish.

Qoʻshimcha: tarbiyalanuvchilarga hosil boʻlgan syujet asosida hikoya tuzish va ertakni aytib berishni taklif qilish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: bolalarni jamoa boʻlib ishlashi, hamkorlik jarayonida oʻzini tutish madaniyati va boshlangan ishni oxiriga yetkazish.

Til va nutq

Mavzu: Ertak toʻqiyamiz!

Maqsad: bolalar kartochkalar vositasida oʻz tasavvurlari orqali ertak toʻqiydilar va uni ifodali aytib bera oladilar.

Kerakli jihozlar: turli mavzulardagi rasmi kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavjud rasmi kartochkalarni kuzatish va tanlab olish.
2. Tanlab olingan kartochkalarni bir-biriga moslab ketma-ketlikda qoʻyib chiqish.
3. Kartochkalar ketma-ketligi boʻyicha ertak toʻqish va uni nomlash.
4. Ertakni doʻstlariga aytib berish.

Qoʻshimcha: rasmi kartochkalardan ertak kitobini yaratishni taklif qilish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: ertakni obrazli aytib berish.

Sanʼat

Mavzu: Mening ertak qahramonim

Maqsad: bolalar oʻz ertak qahramonlarini tavsiflab bera oladilar va tavsiflangan qahramonlarining rasmini chizadilar.

Kerakli jihozlar: ertaklar qahramonlari rasmlari, moʻyqalam, rangli qalam, boʻyoq, idish, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Ertak qahramonlarining rasmlarni kuzatish.
2. Ertak qahramonlarini eslab ularni tavsiflash.
3. Ijodiy ish jarayoni.
4. Ertak qahramonlari galereyasini tashkil etish.
5. Ragʻbatlantirish.

Qoʻshimcha: yaratgan qahramoni obraziga kirishni taklif etish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: obrazning toʻliq va oʻxshatib yaratilganligi.

Fan va tabiat

Mavzu: Oltin tarvuz

Maqsad: bolalar tabiiy va ertakdagi “oltin tarvuz”ni farqlay oladilar.

Kerakli jihozlar: tabiiy tarvuz, papye-masheli “oltin tarvuz”.

Faoliyatning borishi:

1. Tabiiy tarvuz va “oltin tarvuz”ni kuzatish.
2. Tarbiyachi yordamida tarvuzlarni ikki pallaga boʻlish.
3. Ikkala tarvuz boʻlaklarini taqqoslash va tahlil qilish.
4. Umumlashtirish va yakunlash.

Qoʻshimcha: tarvuzdan sharbat olish va uni taʼtib koʻrish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: sunʼiy va haqiqiy mahsulotlarni farqlash.

Sanʼat

Mavzu: Yalmogʻiz kampir uychasiga mehmonga

Maqsad: bolalar qaychidan toʻgʻri foydalanish malakalarini mustahkamlaydilar, mustaqil ravishda uycha uchun kerakli shakllarni qirqadilar.

Kerakli jihozlar: Yalmogʻiz kampir uyining turli koʻrinishdagi tasvirlari, rangli va oq qogʻoz.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosida rasmlarni tomosha qilish.
2. Chizmani oʻrganish va ishni rejalashtirish.
3. Ijodiy ish.
4. Ijodiy ishlar himoyasi (taqdimoti).

Qoʻshimcha: ijodiy ishlarni ota-onalar burchagiga qoʻyish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: qaychidan toʻgʻri foydalanish.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh	Katta						
Mavzu	Yoz - soz						
Muddati	Iyul I-hafta						
Rivojlanish sohalariga maqsadlar	oid	Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi	Yengil, tezkorlik bilan, to‘siqlardan hatlab o‘tgan holda, yo‘nalish va muvozanatni saqlab yuguradi. Turgan joyida burilib, oyoqlarini o‘ ngga-chapga qo‘yib sakraydi. Sakramachoqda turli usullarda sakraydi. Mayda qismlardan iborat bo‘lgan mozaika va pazllar yig‘ adi.				
		Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Bola asarning nomi va uning mazmunini biladi, nom va mazmunning uygunligini kora oladi.				
		Nutq, muloqot, o qish va yozish malakalari	Bola surat asosida suhbat qura oladi. Murakkab gapni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuza oladi, rasmlar ustida hikoya tuzadi, nutqida antonim (qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar), sinonim (ma‘nodosh) va omonim (shakldosh) so‘zlarni ishlatadi.				
		Bilish jarayonining rivojlanishi	Bolalar suv va qum bilan tajribalar o‘tkaza oladilar.				
		Ijodiy rivojlanish	Bola akvarel bo‘yoqlari bilan rasm solishni (mo‘yqalam tuklarini suvga botiradi, ehtiyotkorlik bilan bo‘yoq ustiga surtadi. Ranglarni aralashtirib, yangi (omuxta) rang hosil qiladi. Narsalarni asliga qarab yoki tasavvurga asoslanib yasaydi. Noan‘anaviy usul (sovun ko‘pikchalari yordami)da rasm soladi				
Rivojlanish markazlari		Ta‘limiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dus	Seshanba	Chorshanb	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	Pazllar yig‘ish Yoz manzarasi				Yoz fasliga doir suratlar, namuna, pazllar	
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish			Qo‘g‘irchoq teatri		Barmoq teatri	Kerakli ashyolar
	Til va nutq	Yozgi o‘yinlar surati ustida suhbat					Kerakli ashyolar
	Fan va tabiat	Suv va qum bilan tajribalar			“Rangli pufakchalar”		Kerakli ashyolar
	San‘at	Rasm ishi: kapalakchalar		Loy ishi: O‘yinchoqlar		Applikatsiya . Yosh ijodkorlar	Kerakli ashyolar

IYUL. BIRINCHI HAFTA

YOZ-SOZ

Til va nutq

Mavzu: Yozgi o'yinlar rasmi ustida suhbat

Maqsad: bolalar rasmimazmuni bo'yicha suhbat qura oladilar.

Kerakli jihozlar: AKT, mavzuga oid rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlar va AKT namoyishini tomosha qilish.
2. Ko'rgan voqea-hodisani tahlil qilish.
3. Mavzu asosida do'sti bilan suhbat.
4. Yakuniy suhbat: Yoz davridagi siz yoqtirgan

o'yinlar

Qo'shimcha: "Quyosh va yomg'ir" o'yini.

Alohida e'tibor qaratiladi: rasmlarni tahlil qilinishiga, suhbatda voqea-hodisalarni ketma-ketligini to'g'ri tuzilganligi.

Fan va tabiat

Mavzu: Suv va qum bilan tajribalar

Maqsad: bolalar suv va qum bilan tajribalar o'tkaza oladilar.

Kerakli jihozlar: AKT, toza suv va qum, idish, bir martali stakanchalar, muz bo'laklari, bo'sh idish.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqali slayd va rasmlarni tomosha qilish.
2. Suv va qumni ko'zdan kechirish.
3. Qumni qo'llari bilan ushlab ko'rish va tahlil qilish.
4. Suvni qo'li bilan his qilish va uning xususiyatlarini aytish (ta'mi, rangi, shakli).
5. Muz bo'lakchalarini quyosh nurlari ostida erishini kuzatish.
6. Qumga suv aralashtirish va hosil bo'lgan massani izohlash.
7. Nam qumdan narsalar yasash.
8. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: tarbiyachi yordamida suvning bug'ga aylanish tajribasini o'tkazish.

Alohida e'tibor qaratiladi: suvni tejash.

San'at

Mavzu: Sho'x kapalakchalar

Maqsad: bolalar kapalaklarning turli ko'rinishlarini rasmlarda tasvirlay oladilar.

Kerakli jihozlar: kapalaklar tasvirlangan rasmlar, namuna, rangli shamchalar yoki mo'yqalam, rangli qalamlar, bo'yoq, flomasterlar.

Faoliyatning borishi:

1. Turli ko'rinishdagi kapalaklar rasmlari va namunani tomosha qilish.
2. Rasm chizish uchun materiallarni tanlash.
3. Jarayonning borishi.
4. Ijodiy ishlar taqdimoti.

Qo'shimcha: rasmni yana qo'shimcha bezaklar bilan boyitish.

Alohida e'tibor qaratiladi: ranglardan maqsadli foydalana olishi.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Yoz manzarasi

Maqsad: bolalarda qo'l mayda motorikasi rivojlanadi.

Kerakli jixozlar: yoz fasliga doir suratlar, namuna,

pazllar Faoliyatning borishi:

1. Yoz fasli asosidagi rasmlar va namunani tomosha qilish.
2. Pazllar yig'ish jarayoni.
3. Jarayonni dostlari bilan muhokama qilish.

Qo'shimcha: yoz fasliga doir sherlar yod oldirish, ota-onalar uchun bolalar ishlaridan korgazma tayyorlash.

Alohida e'tibor qaratiladi: bo'laklarni to'g'ri tanlangani va joylashtirilgani

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Qo'g'irchoq teatri (bolalar xohishiga

ko'ra)

Maqsad: bolalar asarning nomi va uning mazmunini biladilar, nom va mazmunning uyg'unligini ko'ra oladilar.

Kerakli jihozlar: o'rmon aks etgan shirma, ikki ayiqcha, ona ayiq, tulki, pishloq bo'laklari, har xil rangdagi geometrik shakllar chizilgan teatr chiptasi (shu shakllar stullarga ham chiziladi).

Faoliyatning borishi:

1. Ertak syujetini esga olish.
2. Rollarni taqsimlash va qo'g'irchoq teatrini sahnalashtirish.

Qo'shimcha qism: sahnalashtirilgan ertakni boshqa guruh bolalariga namoyish etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bir-biriga do'stona munosabatda bo'lish, bo'lishish va imkon berishga o'rgatish.

San'at

Mavzu: O'yinchoqlar

Maqsad: bolalar o'zlari yoqtirgan o'yinchoqlarini loydan tasvirlaydilar, toza va tartibli ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: plastilin, sho'r xamir, loy, qo'l artish uchun salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Turli o'yinchoqlar rasmlarni tomosha qilish.
2. Ish stoliga kerakli jihozlarni tayyorlash.
3. O'yinchoqlarni tasvirlash uchun tanlash.
4. Ijodiy ish jarayoni
5. Bolalar ishlari natijalari muhokamasi.

Qo'shimcha: tarbiyachi bolalarning ishlaridan ko'rgazma tayyorlashni taklif etadi.

Alohida e'tibor qaratiladi: ozoda va gigiyenik talablarga rioya etib ishlash ko'nikmasining rivojlanishi.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Barmoq teatri (bolalar xohishiga ko‘ra)

Maqsad: bolalarda barmoq teatri orqali qo‘l mayda motorikasi rivojlanadi. Bolada ijodkorlik oshadi. Ertak haqidagi bilimlari mustahkamlanadi. Do‘stlariga yaxshi kayfiyat ulashganligidan xursand boladi.

Faoliyatning borishi:

1. Teatr namoyishiga tayyorgarlik ko‘rish.
2. O‘tirish uchun joyni moslashtirish.
3. Rollarni taqsimlash.
4. Barmoq teatri namoyishi
5. Taassurotlar bilan o‘rtoqlashish.

Qo‘shimcha: bolalar tanlagan ertakning qisqacha mazmunini eslatish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: bolalarning bir-biriga nisbatan o‘zaro hurmati, nutqi va ijodiy qobiliyatlarining shakllanishiga.

Fan va tabiat

Mavzu: Rangli pufakchalar

Maqsad: bolalar sovun ko‘pikchalari hosil bo‘lishni kuzatadilar va ular yordamida rasm soladilar.
Kerakli jihozlar: stakanda suv, suyuq sovun (yoki idish-tovoq yuvadigan suyuqlik) yoki shampun, naychalar, har xil rangdagi bo‘yoqlar, kichkina qoshiqcha, oq qog‘ozlar.

Faoliyatning borishi:

1. Rangli bo‘yoq tayyorlash uchun stakandagi suvga suyuq sovun yoki shampun, rangli bo‘yoq solish.
2. Tayyorlangan rangli bo‘yoqlar naycha bilan qog‘ozga puflanib ko‘pikchalar hosil qilish.
3. Qog‘ozdagi ko‘pikchalarga ijodiy yondashgan holda turli Shakllar berish.
4. Ishlar taqdimoti.
5. Amaliy tajribalar tahlili va xulosa.

Qo‘shimcha: kichkina qoshiqcha yordamida sovun pufakchalari oq qog‘ozga quyilib rasm chiziladi

Alohida e‘tibor qaratiladi: sovun ko‘pikchalari yordamida chiroyli rasmlar chizishga, bolalardagi qiziqish va tajribalarning natijalari.

San‘at

Mavzu: Yosh ijodkorlar

Maqsad: bolalar simmetrik shakldagi narsalarni (gullar, barglar) siluetini kesadilar, gofri qog‘ozdan applikatsiya (gullar, qo‘ng‘iz, oqqush) yasaydilar. Bolalarda ranglar mutanosibligini his etish layoqati rivojlanadi.

Kerakli jihozlar: gofri qog‘oz, oq qog‘oz, bo‘yoqlar, qaychi, yelim, qalamlar.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlar ko‘rgazmani tomosha qilish.
2. Namunani tahlili qilish va ijodiy ishni rejalashtirish
3. Gofri qog‘oz bilan ishlash yo‘lari, usullarini tushuntirish.
4. Fikrlarini bayon etish, aynan nima uchun shu tasvirni tanlaganini izohlash.
5. Ijodiy ishni tahlil qilish.

Qo‘shimcha: bolalar ishlari ko‘rgazmasini tashkil etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: ozoda ishlay olish malakalari va hayot xavfsizligiga rioya qilish.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh	Katta					
Mavzu	Biz yosh sportchilarmiz					
Muddati	Iyul 2-hafta					
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi	Gimnastika devori boʻylab tirmashadi. Yurish vaqtida turli buyruqlarni bajaradi. Murakkab konstruksiyalarni yigʻadi. Mayda qismlardan iborat bolgan mozaika va pazllar yigʻadi.				
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Oyinda topqirlik, ziyraklik, sabr-toqatlilik, dostlik, ozaro yordam, vazifani mustaqil va maromiga yetkazib bajarish malakasi rivojlanadi. Ozbek xalq milliy oyinlari asosida bola qalbida oz millatiga muhabbat, milliy gʻurur hissi tarbiyalanadi.				
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	K.Chuykovskiyning “Moydodir” ertagini rasm orqali ijodiy hikoya qiladi.				
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Mevalarning vitamininga boyligi, mevalar sharbati sogʻliq uchun foydaligini biladi, maishiy texnikadan foydalanishga qiziqishlari oshadi.				
	Ijodiy rivojlanish	Bola sogʻlom turmush tarzini rasmlarda ifodalashni oʻrganadi, ranglarni ajratish boʻyicha bilimlari mustahkamlanadi, qoʻl motorikasi rivojlanadi.				
Rivojlanish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat				
		Dushanba	Seshanba	Chorshanb	Pays	Juma
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va	Stadion quramiz				Kerakli
	Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish			Sport buyumlari doʻkoni		Kerakli ashyolar
	Til va nutq	K. Chuykovskiyning “Moydodir” ertagini rasm orqali ijodiy hikoya qilish			Rasmda qanday sport turi tasvirlangan? taʼlimiy oʻyini	Kerakli ashyolar
	Ilm-fan va tabiat	Yosh quruvchilar uchun sharbatlar				Kerakli ashyolar
	Sanʼat	Rasm ishi: Biz badantarbiya qilamiz		Loy ishi: Biz futboldamiz	Applikatsiya:Yozgi olimpiada oʻyinlari. Jamoa ishi	

IYUL. IKKINCHI HAFTA

BIZ YOSH SPORTCHILARMIZ

Til va nutq

Mavzu: K.Chuykovskiyning “Moydodir” ertagini rasm orqali ijodiy hikoya qilish.

Maqsad: bolalar “Moydodir” ertagini mustaqil soʻzlab bera oladilar, nutqi rivojlanadi, tozalik va ozodalik haqida suxbatlasha oladilar. Oz fikrlari bilan ortoqlashadilar.

Kerakli jihozlar: “Moydodir” ertagiga mos rasmlar, ertak kitobi, ertak uchun atributlar, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. “Moydodir” ertak kitobini tomosha qilish.
2. “Moydodir” ertagini hikoya qilish.
3. “Nima ortiqcha, nega?”, “Xatosini top” oʻyinlari.

Qoʻshimcha: Bolalarga nima ortiqcha ekanligini tushuntirish, “Moydodir” multfilmini AKT orqali tomosha qilish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: nutqni ravonligi.

Fan va tabiat

Mavzu: Yosh quruvchilar uchun sharbatlar tayyorlash

Maqsad: bolalar mevalarning vitamininga boyligi, mevalar sharbati sogʻliq uchun foydaligini amaliy ish va suhbat orqali tasdiqlaydilar.

Kerakli jihozlar: suratli albomlar, mevalar, taxtakach, pichoq, likopchalar, sharbat chiqarish apparati

Faoliyatning olib borishi:

1. Mevalar tasirlangan albomni kuzatish.
2. Mevalar va ularning vitamininga boy ekanligi haqida suhbat.
3. Mevalarni yuvib, taxtakach, pichoq va likopchalarni hozirlash.
4. Mevalarni kesish. Ularning urugʻlarini ajratish.
5. Mevalarning rangi, shakli, urugʻini kuzatish, taʼmini taʼtib izohlash.
6. Mevalardan sharbat tayyorlash.

Qoʻshimcha qism: chiqarilgan sharbatlardan boshqa guruh bolalarini mehmon qilish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: hayot xavfsizligi qoidolari va gigiyenaga rioya qilish.

Sanʼat

Mavzu: Biz badantarbiya qilamiz

Maqsad: bolalar sogʻlom turmush tarzini rasmlarda ifodalashni oʻrganadilar, ranglarni ajratish boʻyicha bilimlari mustahkamlanadi, qoʻl motorikasi rivojlanadi.

Kerakli jihozlar: mavzu boʻyicha syujetli rasmlar, oq qogʻoz, rangli qalamlar, boʻyoqlar, moʻyqalam, salftkalar.

Faoliyatni borishi:

1. Mavzuga oid rasmlarni tomosha qilish.
2. Ertalabki badantarbiya mashqlarining holatlaridan birontasini tanlab uni rejalashtirish
3. Ijodiy faoliyat.
4. Ishlar namoyishi.

Qoʻshimcha: bolalar bilan “Sogʻlomtanda - sogʻ aql” mavzusidakoʻrgazmatashkil qilish

Qurish-yasash va matematika
Mavzu: Stadion
quramiz.

Maqsad: bolalar kubiklar va qurilish materiallaridan stadion qura oladilar, to'g'ri to'rtburchak shakli xaqida tushunchalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: turli o'lchamdagi to'g'ri to'rtburchaklar, geometrik shakllar, AKT.

Faoliyatni borishi:

1. Stadionlar tasvirlangan slaydlarni ko'rish.
2. Bolalar bilan stadion qurishni rejalashtirish.
3. Qurilish materiallaridan stadion qurish.
4. Ishlar taqdimoti, rag'batlantirish.

Qo'shimcha: geometrik shakllar va mayda o'yinchoqlardan foydalanish.

Alohida e'tibor qaratiladi: jamoa bo'lib ishlash, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish
Mavzu: Sport buyumlari
do'koni

Maqsad: bolalar sport buyumlari do'konida oldi-sotdi muomalasi orqali sport buyumlari nomi, ularning turlari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: sport jihozlari, sport jihozlarini qo'yish uchun peshtaxta, kassa, kalkulyator.

Faoliyatni borishi:

1. Turli do'konlar tasvirlangan rasmlar va slaydlarni ko'rib chiqish (o'yinchoqlar, kitoblar, poyabzal va sport do'konlari).
2. Rollarni taqsimlash, o'yinga tayyorgarlik ko'rish.
3. O'yin jarayoni.
4. O'yin yakuni. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: o'zbek sportchilarining rasmlarini tomosha qilishlari mumkin.

Alohida e'tibor qaratiladi: o'yin vaqtida bolalar nutqi, ijro mahorati.

San'at

Mavzu: Biz futboldamiz

Maqsad: bolalar yasashning turli usullarini o'zlashtiradilar, odam shakli va xarakterini aniq tasvirlab bera oladilar.

Kerakli jihozlar: turli futbol maydonlaritasvirlangan rasmlar, salfetkalar, taxtacha, plastilin, stek.

Faoliyatning borishi:

1. Futbol maydonlari to'g'risida rasmlarni ko'rib chiqish (Bunyodkor, Paxtakor, Lokomotiv va boshqa).
2. Stadionni yasashni rejalashtirish.
3. Bolalarning ijodiy ishi.
4. Ishlar taqdimoti

Qo'shimcha: bolalarning tayyor ishlaridan umumiy futbol maydonchasini yasash.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalar ijodi va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish.

Til va nutq

Mavzu: “Rasmda qanday sport turi tasvirlangan?” ta’limiy o’yini

Maqsad: bolalar rasmni tasvirlashda gap tuzish ko‘nikmasini hosil qiladilar.

Kerakli jihozlar: sport turlari, musobaqalariga illyustratsiyalar, sportatributlari (raketka, koptok, ko‘zoynak, qalpoqcha, to‘r, qalqon).

Faoliyatning borishi

1. Sportga oid illyustratsiyalarni ko‘rib chiqish.
2. Illyustratsiyalarni taqsimlash.
3. Bolalarning bir-biriga rasmda qaysi sport turi tasvirlanganligini ta’riflashlari.
4. Taklif qilingan sport atributlaridan ushbu sport turiga mos keladiganini tanlab, qo‘llanishi yuzasidan ma’lumot berish.

Qo‘shimcha: jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi albomni tomosha qilish. AKT

Alohida e’tibor qaratiladi: boshqa bolalarning fikrini tinglash, o‘z fikrini aniq va ravon ifodalash.

San’at

Mavzu: Yozgi olimpiada o‘yinlari. Jamoa ishi

Maqsad: bolalar olimpiada ramzini va olimpiada xalqalarining ranglari uyg‘unligini qog‘ozga tushiradilar.

Kerakli jihozlar: rangli qog‘oz, oq karton qog‘oz, tuxum po‘chog‘i, yelim, qaychi, guashb, mo‘yqalam.

Faoliyatning borishi:

1. Xalqalar chetiga mo‘yqalam bilan yelim surtish.
2. Xalqa chetiga surilgan yelimga mustahkam qilib tuxum qobig‘idan mozaika joylashtirish.
3. Tuxum qobig‘iga olimpiada xalqalarining ranglari uyg‘unligiga muvofiq rang berish.
4. Bolalar ishini muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: bolalarga olimpiada ramzi, mayog‘i, bayrog‘i, va xalqalari haqida hikoya qilib berish. Olimpiada bayrog‘ini rangli qog‘ozlardan tayyorlash va qog‘oz teshish moslamasi yordamida rangli doirachalar yog‘dusini yaratish mumkin.

Alohida e’tibor qaratiladi: bolalarning birgalikda ijod qilishi hamda mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh	Katta						
Mavzu	Qiziqarli uchrashuvlar						
Muddati	Iyul 3-hafta						
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi	Yengil, tezkorlik bilan, to'siqlardan hatlab o'tgan holda, yo'nalish va muvozanatni saqlab yuguradi. Turgan joyida burilib, oyoqlarini o'ngga-chapga qo'yib sakraydi. Murakkab konstruksiyalarni yig'adi. Mayda qismlardan iborat bo'lgan mozaika va pazllar yig'adi.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Shoirilar va ertak qahramonlari bilan uchrashuvlar bolalarda emotsional munosabatni rivojlantiradi. O'zbek xalq ogzaki ijodi namunalari asosida bola qalbida oz millatiga muhabbat, milliy g'urur hissi tarbiyalanadi.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Topishmoqlarga oylab, fikrlab javob berishga organadi, sanama, tez aytishlarni yod oladi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Bola qalbida ajdodlarimiz hayotiga qiziqish, ular bilan faxrlanish hissi tarbiyalanadi. Bolalar shifokor kasbiga qiziqadilar.					
	Ijodiy rivojlanish	Bola rasm chizishga intiladi, voqeani tushunib aks ettiradi, ranglar uyg'unligiga e'tibor beradi.					
Rivojlanish markazlari		Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	Sevimli kutubxona					Kerakli ashyolar
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish				Ertak qahramonlari mehmonda		Kerakli ashyolar
	Til va nutq	Shifokor bilan uchrashuv					Kerakli ashyolar
	Fan va tabiat	Termometr va uning turlari					Kerakli ashyolar
	San'at	Rasm ishi: Shaxsiy gigiyena vositalari		Applikatsiya: Kitobchalar yasash va ularni bezatish		Loy ishi: Sevimli qahramonim	Kerakli ashyolar

IYUL. UCHINCHI HAFTA

QIZIQARLI UCHRASHUVLAR

Til va nutq

Mavzu: Shifokor bilan uchrashuv

Maqsad: bolalar shifokor bilan uchrashuvda shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish lozimligini anglaydilar, sog'lom turmush tarzi, yoz faslida qaynatilmagan suvni ichmaslik, meva va sabzovotlarni yuvib istemol qilish haqidagi bilim va tushunchalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: "Tozalik - salomatlik garovi" mavzusidagi rasmlar Faoliyatning borishi:

1. Shifokor va "Tozalik - salomatlik garovi" mavzusidagi rasmlarni ko'rib chiqish.
2. Shifokor (hamshira)ning bolalar bilan shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish, yoz faslida oftobdan saqlanish, salomatlik to'g'risida g'amxo'rlik qilish muhimligi haqida suhbat.
3. Suhbatni xulosalash.
4. Uchrashuv yakuni, shifokorga minnatdorlik bildirish.

Qo'shimcha: sog'liqni saqlash, ozodalik haqida she'r va maqollar aytish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarda shaxsiy gigiyenaga rioya qilish ko'nikmasi shakllanganligi.

Fan va tabiat

Mavzu: Termometr va uning turlari

Maqsad: bolalar termometrning ko'rinishini va xususiyatini biladilar. U haqidagi tushunchalari boyitiladi. Uning ichidagi simob inson hayoti uchun havfli ekanligini tushunadilar.

Kerakli jihozlar: havo, suv haroratini va inson issiqlik haroratini, o'lchaydigan termometr, AKT Faoliyatning borishi:

1. Termometrlarning vazifalari bilan AKT orqali tanishish.
2. Termometrlar orqali xona harorati va inson haroratini o'lchab ko'rish.
3. Bolalar ishlari muhokamasiva rag'batlantirish.

Qo'shimcha: kartondan termometr yasashni taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarda bilish jarayonini faollashtirish, xulosa chiqarish malakalarini mustahkamlash.

San'at

Mavzu: Shaxsiy gigiyena vositalari

Maqsad: bolalar shaxsiy gigiyena vositalarining tasvirini chizadilarva ularni taqdim qilib bera oladilar.

Kerakli jihozlar: "Shaxsiy gigiyena" mavzusida rasmlar, mo'yqalam, rangli qalamlar, bo'yoq, flomasterlar.

Faoliyatni borishi:

1. "Shaxsiy gigiyena" mavzusidagi rasmlarni ko'rib chiqish.
2. Rasm chizish uchun shaxsiy gigiyena vositalarini tanlash.
3. Bolalarning ijodiy ishi.
4. Ijodiy ishlar taqdimoti va ko'rgazmasi.

Qo'shimcha: salomatlik va shaxsiy gigiyena vositalari haqida maqollar va badiiy adabiyot namunalari.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarning shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish ko'nikmasi.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu:Sevimli kutubxona

Maqsad: bolalar shaxsiy tashabbusga ko'ra o'zining sevimli kutubxanasini qura oladilar, ularni yangi qismlar bilan to'ldiradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, yirik kubiklar jamlanmasi, konstruktor moduli, turli Shakldagi qurilish ashyolari, kichik kitobchalar.

Faoliyatning borishi:

1. Kutubxona fotosuratlarini tomosha qilish.
2. Chizmani o'rganish.
3. Qurish ishlarini rejalashtirish.
4. Qurish-yasash ishlarini amalga oshirish.
5. Yasalgan "sevimli kutubxonalar" ko'rgazmasi va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: tashkilotning kichik kutubxonasiga tashrif buyurish.

Alohida e'tibor qaratiladi: kitobga, kutubxonaga mehr uyg'otishi, yasagan kitoblarini avaylab asrash.

San'at

Mavzu: Kitobchalar yasash va ularni bezatish

Maqsad:bolalar kitob yasab, uni turli rasm va applikatsiyalar bilan bezaydilar.

Kerakli jihozlar: kitobcha namunasi, rangli qog'oz va kartonlar, qaychi, rangli qalamlar, flomaster, bo'yoq, mo'yqalam, salfetka, yelim.

Faoliyatning borishi:

1. Kitobchalar va ularning rasmlarini tomosha qilish.
2. Ijodiy ishni taxminiy rejalashtirish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash.
4. Kitobni rasm va applikatsiyalar bilan bezash.
5. Kitoblar ko'rgazmasini o'tkazish.

Qo'shimcha: tayyor bo'lgan kitoblarini uyga olib ketishlari va oila a'zolari bilan o'rtoqlashishlarini taklif qilish.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Ertak qahramonlari mehmonda

Maqsad: bolalar ertaklar xaqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: ertak qahramonlari kiyimlari, ertaklardan lavha tasvirlangan rasmlar, ertak qahramonlariga tegishli buyumlar (sandiqliq, tandir, dasturxon, xumcha, oltin tarvuz va hokazolar) Faoliyatning borishi:

1. Ertakchi buvi bilan uchrashuv.
2. Ertakchi buvining bolalarga topshiriqlari(Qaysi ertakda chol, kampir, nevara, ayiq, quyon,
3. bo'ri, tulki, bo'g'irsoq qatnashgan? Qaysi ertakda "Ey, haloyiq, men bolalarga ulashgan gul urug'i qaynatilgan edi"deb qirol aytadi? Qaysi ertakda "Men sendan "Qaynar xumcha" ni so'rayman"deb aytadi chol)
4. Ertakchi buvining savollari (Sehrli sandiqchamdagi buyumlar qaysi ertakga tegishli? (qizil
5. qalpoqcha, oltin tarvuz, ur to'qmoq, tandir, xumcha)
6. Bolalar javoblarini umumlashtirish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: ertaklar olamiga sayohat ko'rgazmasi.

Sanat

Mavzu: Sevimli qahramonim

Maqsad: bolalar ertak qahramonlarining rasmiga qarab yoki o'z tasavvurlari asosida yasaydilar, yasalayotgan qahramonning o'ziga xos xususiyati (obrazi)ni tasvirlashga harakat qiladilar, qo'l mayda motorikasini takomillashtiradilar.

Kerakli jihozlar: loy, plastilin, stek, taxtacha, salfetka, ertak qahramonlari rasmlari Faoliyatning borishi:

- 1.Ertak kitoblarini ko'rib chiqish.
 - 2.Qaysi qahramonni yasashni rejalashtirish.
 - 3.Ijodiy ish.
 - 4.Ish jarayoni va natijani baholash.
- Qo'shimcha:** ijodiy ishlar ko'rgazmasini tashkil etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish va toza ishlashni bilish, tafakkur va mayda motorikani rivojlantirish.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh	Katta						
Mavzu	Suv qiroli mehmonda						
Muddati	Iyul 4-hafta						
Rivojlanish sohalariga maqsadlar oid	Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi	Tovondan oyoq uchiga oʻtgan tarzda yuradi, toʻsiqlardan hatlaydi yoki aylanib oʻtadi, gimnastika skameykasi boʻylab muvozanatni saqlagan holda yuradi, murakkab konstruktsiyalarni yigadi.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Tajribalar otkazishda goyalar taklif etadi, tashabbuskorlik korsatadi. Kattalar va tengdoshlari bilan oson muloqot qiladi.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Sodda gaplarni ishlatadi, murakkab gapni grammatik jihatdan toʻgʻri tuza oladi, rasmlar asosida hikoya tuzadi, o z his- tuygʻularini, maqsadini nutq yordamida ifodalaydi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Suvning inson hayoti uchun nihoyatda zarurligi, suvsiz hayot boʻlmasligini, yer yuzidagi eng bebaho boylik suv ekanligi, suvni asrash, tejash, isrof qilmaslik lozimligi haqida biladi.					
	Ijodiy rivojlanish	Bola rangli va oddiy qora qalamlar, rangli boʻrlar, guash, akvarel boʻyoqlari, turli moʻyqalamlar bilan oddiy usullarni qoʻllagan holda rasm soladi.					
Rivojlanish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika			Bassey n quramiz			Kerakli ashyolar
	Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish			Neptun bobo mehmonda	“Tomchi xaqida ertak”ni sahnalashtirish		Kerakli ashyolar
	Til va nutq	“Suv osti dunyosi” taʼlimiy oʻyin					Kerakli ashyolar
	Fan va tabiat	Suvga ranglarni tomizish amaliy tajriba			Tomchilab sugʻ arish uchun baklajkadan moslama Tayyorlash		Kerakli ashyolar
	Sanʼat	Rasm ishi: Suv osti dunyosi		Applikatsiya Bassey n	Loy ishi: Favvoralar		Kerakli ashyolar

IYUL. TO‘RTINCHI HAFTA SUV QIROLI MEHMONDA

Til va nutq

Mavzu: “Suv osti dunyosi” ta’limiy o‘yin

Maqsad: bolalar dengiz hayvonlari kit, akula, delfinlar, ularning yashash sharoiti, tashqi qiyofasi haqida bilimlari mustahkamlanadi.

Kerakli jihozlar: Suv osti dunyosi hayvonlari, o‘simliklarining rasmlari Faoliyatning borishi:

1. Suv osti dunyosi haqida suhbat.
2. “Suv osti dunyosi” o‘yinini o‘ynash tartibi bilan tanishtirish.
3. O‘yin jarayoni.
4. O‘yin yakuni muhokamasi, suhbat.
5. Rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: bolalarga mavzubo‘yicha she‘rayttirish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: izohlash jarayonida fikrlarni aniqvato‘liq gap bilan ifodalash.

Fan va tabiat

Mavzu: Suvga ranglarni tomizish. Amaliy tajriba

Maqsad: bolalar suvning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishga qiziqadilar.

Kerakli jihozlar: suv va bo‘yoqlar, pipetka, rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Suvning xususiyatlari bilan tanishish.
2. “Suv bo‘lmasa...” mavzusi yuzasidan suhbat va mavzuga doir rasmlar namoyishi.
3. Bo‘yoq va suv bilan amaliy tajriba.
4. Bolalar ishining muhokamasi va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: bolalarni “Tomchilar sayohati”ga taklif qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: tajriba o‘tkazish malakalari.

Fan va tabiat

Mavzu: Tomchilab sug‘arish uchun baklajkadan moslama tayyorlash

Maqsad: bolalar tomchilab sug‘arishning maqsadini biladilar, tomchilab sug‘arish uchun baklashjkadan moslama tayyorlaydilar.

Kerakli jihozlar: suv va teshik qopqoqli baklajkalar, AKT Faoliyatning borishi:

1. Tomchilab sug‘orish haqida suhbat.
2. Tomchilab sug‘orish mavzuga doir rasmlar namoyishi.
3. Ish jarayoni.
4. Bolalar ishining muhokamasi va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: bolalarning tomchilab sug‘orish jarayonini kuzatish uchun AKT yordamida polizga sayr uyushtirish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: tajriba o‘tkazish malakalari.

Sanʼat markazi:

Mavzu: Suv osti dunyosi

Maqsad: bolalar dengiz hayvonlari kit, akula, delfinlarning oʻziga xos xususiyatlarini oʻz rasmlarida tasvirlay oladilar.

Kerakli jihozlar: rangli qalamlar, flomaster, rangli boʻyoq, moʻyqalam, salfetka, suv idishi Faoliyatning borishi:

1. Suv osti dunyosini tomosha qilish.
2. Ijodiy ishni taxminiy rejalashtirish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash.
4. Rasm chizish jarayoni.
5. Bolalar ishlarini muhokama qilish va ragʻbatlantirish.

Qoʻshimcha: tayyor boʻlgan ishlarni sovgʻa qilish.

Qurish-yasash va matematika Mavzu: Basseyin quramiz

Maqsad: bolalar kubiklar va qurilish materiallaridan basseyin qura oladilar, toʻgʻri toʻrtburchak haqida tushunchalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: turli oʻlchamdagi va shakldagi toʻgʻri toʻrtburchaklar, geometrik shakllar, basseyinlar tasvirlangan slaydlar, AKT.

Faoliyatni borishi:

1. Basseyin tasvirlangan slaydlarni koʻrish.
2. Bolalar bilan basseyin qurishni rejalashtirish.
3. Qurilish materiallaridan basseyin qurish.
4. Taqdimot, ragʻbatlantirish

Qoʻshimcha: tarbiyachi mayda oʻyinchoqlardan foydalanishni tavsiya etadi.

Alohida eʼtibor qaratiladi: jamoa boʻlib ishlash, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish.

Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Neptun bobo mehmonida

Maqsad: bolalarda sarguzashtlarda qatnashish, syujetli-rolli oʻyin qahramonlarining (qirol, suv parisi, baliqlar) rollarini ijro etish hoxishi uygʻonadi va ijrochilik mahorati rivojlanadi.

Kerakli jihozlar: Neptun bobo, suv parisi, baliqlar liboslari, suv osti dunyosi tasvirlangan rasmlar. Faoliyatning borishi:

1. “Neptun bobo mehmonida” mavzusidagi rasmlarni tomosha qilish.
2. Bolalar oʻrtasida rollarni taqsimlash.
3. Oʻyinga hozirlik koʻrish
4. Oʻyinning borishi.
5. Oʻyin yakuni, ragʻbatlantirish.

Qoʻshimcha: ayvoncha (suv havzasi, basseyin)da oʻyinni davom ettirish mumkin.

Alohida eʼtibor qaratiladi: har bir bolaning oʻyinga jalb etilishi, bolalarning ijrochilik mahorati.

Sanʼat

Mavzu: Basseyin

Maqsad: bolalar monotopiya usulidan foydalangan holda basseyin tasvirini yarata oladilar.

Kerakli jihozlar: basseyn tasvirlangan rasmlar namunasi, kontselyariya mollari, rag‘batlantirish uchun “Ofarin” medallari.

Faoliyatning borishi:

1. Turli turdagi basseynlar tasvirini ko‘rib chiqish.
2. Kerakli ish qurollarini hozirlash.
3. Ishni rejalashtirish
4. Ijodiy ish jarayoni.
5. Bolalar ishlari “galereya”sini tashkil etish va “Ofarin” medali bilan rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: ayvonchada tayyor ishlarko‘rgazmasini tashkil qilish, ko‘rgazmaga ota-onalarni taklif qilish

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish Mavzu: “Tomchi” ertagini sahnalashtirish

Maqsad: bolalar adabiy ertakka qiziqadi, do‘stlik, sadoqat, yaxshilik kabi insoniy xislatlarni tushunadi

Kerakli jihozlar: ertak qahramonlari kiyimlari, ertaklardan lavha rasmlar, AKT Faoliyatning borishi:

1. “Tomchi” ertagini audio yozuvini tinglash, ertak kitobini tomosha qilish
2. Rollarni taqsimlash
3. Sahnalashtirish jarayoni
4. Sahnalashtirish jaryonini muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: Suv haqida multfilm namoyishi, maqol va topishmoqlar.

San‘at

Mavzu: Favvoralar

Maqsad: bolalar favvoralarni rasmga qarab yoki tasavvurga asoslanib yasaydi, yasalayotgan favvoraning o‘ziga xos xususiyatlarini tasvirlashga harakat qiladi, bolalarda qo‘l maydamotorikalari rivojlanadi.

Kerakli jihozlar: loy, plastilin, stek, taxtach, salfetka Faoliyatning borishi:

1. Favvoralar albomini ko‘rib chiqish.
2. Favvora yasashni rejalashtirish.
3. Ish ketma-ketligi berilgan chizmani o‘rganish
4. Ijodiy ish
5. Ish yakuni, yasalgan favvoralar taqdimoti.

Qo‘shimcha: ijodiy ishlar ko‘rgazmasini tashkil etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: toza ishlashni bilish, tafakkur va mayda motorikani rivojlantirish.

AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG‘LOM BOLALAR

Guruh	Katta						
Mavzu	Vitaminlar bilan qiziqarli uchrashuvlar						
Muddati	Avgust 1-hafta						
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi	Bolalar sport turlariga qiziqadilar, ochiq havodagi musobaqalar, harakatli va estafetali oʻyinlarda ishtirok etadilar.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Bolalar jamoada oʻ zini tutish, tengdoshlari bilan samimiy munosabatda boʻ lish, atrofdagilar bilan barqaror aloqalar oʻ rnatish, dostlar orttirish, ularga yordam berishni biladilar.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Bolalar toʻgʻri ovqatlanish tartibiga rioya qilishga harakat qiladilar. Bolalarda zararli odatlar (tirnoqni ogziga solish, predmetlarni soʻ rish va chaynash, barmoqlarni quloq va burun teshigiga solish) haqida tushuncha shakllanadi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Bolalar hoʻl mevalarning oʻ ziga xos jihatlarini amaliy ish orqali farqlashga oʻ rganadilar.					
	Ijodiy rivojlanish	Bolalar vitaminlar va ularning foydali tomonlarini bilgan holda ularni rasmda tasvirlaydilar, bolalar turli qurilish materiallaridan foydalanib dorixona yasaydilar, urugʻlardan bogʻ va poliz ekinlarini yasaydilar.					
Rivojlanish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika			Dorixona			
	Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish	Sabzavotlar doʻkoni					Kerakli ashyolar
	Til va nutq	Toʻgʻri ovqatlanish tartibi			Zararli odatlar va ularning oldini olish		Kerakli ashyolar
	Fan va tabiat		Ajib mevalar		Buyuk siymolar sihat- salomatlik haqida		Kerakli ashyolar
	Sanʼat	Rasm ishi: Shoʻx vitaminchalar		Applikatsiya Poliz ekinlari		Loy ishi: Hosil yigʻamiz	Kerakli ashyolar

AVGUST. BIRINCHI HAFTA

VITAMINLAR BILAN QIZIQARLI UCHRASHUVLAR

Til va nutq

Mavzu: Sogʻlom ovqatlanish tartibi

Maqsad: bolalar toʻgʻri ovqatlanish tartibi haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar va unga rioya qilishga harakat qiladilar.

Kerakli jihozlar: toʻgʻri ovqatlanish tartibi tasvirlangan rasmlar toʻplami, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Toʻgʻri va notoʻgʻri ovqatlanish tartibining AKT orqali namoyishi.
2. Koʻrilgan holatlarni tahlil qilish.
3. Toʻgʻri ovqatlanish tartibi tasvirlangan rasmlarni ketma-ketlikda joylashtirish.
4. Joylashtirilgan rasmlarni izohlash.
5. Xulosalash.

Qoʻshimcha: sogʻlom ovqatlanishning organizm uchun ahamiyati haqida suhbat.

Alohida eʼtibor qaratiladi: batartib ovqatlanishga intilish.

Fan va tabiat

Mavzu: Ajib mevalar

Maqsad: bolalar hoʻl mevalarning oʻziga xos jihatlarini amaliy ish orqali farqlashga oʻrganadilar. Kerakli jihozlar: hoʻl mevalar, taxtakach, pichoq, likopchalar, salfetka, sharbat chiqarish apparati.

Faoliyatni olib borishi:

1. Hoʻl mevalarni lupa ostida kuzatish.
2. Mevalarni kesish, ularning urugʻlarini ajratish.
3. Mevalarning sharbatini chiqarish va taʼtib koʻrish.
4. Mevalarning rangi, shakli, taʼmi, urugʻlari boʻyicha maʼlumotlar berish.
5. Amaliy ish yakuni va xulosasi.

Qoʻshimcha: mevalardan tayyorlangan sharbat bilan doʻstlarini mehmon qilish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: hoʻl mevalarni muntazam isteʼmol qilish inson organizmiga foydasi.

Sanʼat

Mavzu: Shoʻx vitaminchalar

Maqsad: bolalar vitaminlar va ularning foydali tomonlarini bilgan holda ularni rasmda tasvirlaydilar.

Kerakli jihozlar: oq qogʻoz, boʻyoq, rangli qalamlar, flomasterlar, namuna, salfetka, AKT. Faoliyatning borishi

1. AKT orqali shox vitaminchalar tasvirlangan multimedia yoki multfilm tomosha qilish.
2. Namunalarni koʻrish.
3. Ishni rejalashtirish.
4. Ijodiy ish jarayoni.
5. Ijodiy ishlar koʻrgazmasi va taqdimoti.

Qoʻshimcha: mavzu asosida taʼlimiy oʻyin.

Alohida eʼtibor qaratiladi: vitamin turlari va ularning inson organizmi uchun ahamiyati.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu:Dorixona

Maqsad: bolalar turli qurilish materiallaridan foydalanib dorixona yasaydilar.

Kerakli jihozlar: kubiklar, katta va kichik g'ishtchalar, geometrik shakllar, lego shakllari, vitamin - dorilar uchun javon.

Faoliyatning borishi:

1. Dorixona va undagi vitamin va dorilar turadigan javonlar rasmlarini ko'rish.
2. Qurilish materiallarini o'rganish, tanlash va dorixona qurilishini rejalashtirish.
3. Vitamin va dorilar uchun dorixona qurish jarayoni.
4. Javonlarni vitaminlar bilan to'ldirish.
5. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: "Dorixona" syujetli o'yinini o'ynash.

Alohida e'tibor qaratiladi: bajarilgan ishning mustahkamligi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Sabzavotlar do'koni

Maqsad: bolalar sabzavot do'koni sotuvchilarining mehnatini ijodiy tasvirlay oladilar, atributlarni maqsadli ishlata oladilar.

Kerakli jihozlar: "Sabzavot do'koni" rasmi, o'yin uchun atributlar: peshlavha, rasta, kassa apparati, xarid uchun savatcha, qog'oz pullar, terminal, kartochkalar, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Sabzavot do'koni rasmi va AKT namoyishi.
2. Rollarni taqsimlash.
3. O'yin uchun kerakli atributlarni tanlash.
4. Syujetni ijro etish.
5. Ijro etilgan lavhani tahlil qilish.

Qo'shimcha: sabzavotlardan salat tayyorlash.

Alohida e'tibor qaratiladi: sabzavotlarning inson organizmi uchun muhimligi.

San'at

Mavzu:Poliz ekinlari

Maqsad:bolalarurug'lardan poliz ekinlarini yasashga o'rganadilar.

Kerakli jihozlar:rangli qog'oz, karton qog'oz, bo'yoq cho'tkalar, rangli qalamlar, qaychi, yelim va yig'ma rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Poliz ekinlari rasmini ko'rib chiqish
2. Applikasiya yasash uchun urug'larni tanlash
3. Ishni chizmaga qarab rejalashtirish.
4. Poliz ekinlari applikasiyasini urug' (qovun, tarvuz)lar yordamida yasash.
5. Taqdimot

Qo'shimcha:"Qovoqvoy" bolalar uchun filmidan lavha tomosha qilish Alohida e'tibor qaratiladi:poliz ekinlarining foydali xususiyatlari.

Til va nutq

Mavzu: Zararli odatlar va ularning oldini olish

Maqsad: bolalarzararliodatlar (tirnoqni og‘ziga solish, predmetlarni so‘rish va chaynash, barmoqlarni quloq va burun teshigiga solish), ularning oqibatlarini biladilar va bunday odatlardan saqlanadilar.

Kerakli jihozlar: multfilm yoki slayd, zararli va foydali odatlar aks etgan rasmlar, gigiyenaga taalluqli rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Zararli odatlar haqida multfilm yoki slayd namoyishi.

2. “Foydali odatlarni ko‘rsat” o‘yini (zararli va foydali odatlar aks etgan rasmlar gilam ustiga qo‘yiladi. Agar bola zararli odatlar aks etgan rasmni olsa xafa kayfiyatga, foydali odatlar aks etgan rasmni olsa xursand kayfiyatga yopishtiradi).

3. Foydali odatlarni qarsaklar orqali aniqlash o‘yini.

4. Mavzu bo‘yicha bolalarning fikrlarini tinglash.

Qo‘shimcha:She‘rlar va ertaklarni eslash

Alohida e‘tibor qaratiladi: zararli odatlardan o‘zini tiyish, foydali odatlarni singdirish.

Fan va tabiat

Mavzu: Buyuk siymolar sihat-salomatlik haqida

Maqsad: bolalarbuyuk siymolarning sihat-salomatlik haqida aytgan ibratli fikrlarini bilib oladilar. Kerakli jihozlar:AKT, dorivor o‘simliklar: namatak, anor po‘sti, makka soqoli.

Faoliyatning borishi:

1. Dorivor o‘simliklarning slaydlar orqali namoyishi.

2. Buyuk siymolar sihat-salomatlik haqidagi ibrat so‘zlarini tinglash.

3. Namatak, anor po‘sti, makka soqolini damlab do‘stlari bilan baham ko‘rish.

Qo‘shimcha:dorivor o‘simliklar tasvirlangan albomni ko‘rib chiqish.

Alohida e‘tibor qaratiladi:dorivor o‘simliklarning inson hayotidagi ahamiyati.

San‘at

Mavzu:Hosil yig‘amiz

Maqsad: bolalar urug‘lardan poliz ekinlarini yasashga o‘rganadilar.

Kerakli jihozlar:loy, tuzli xamir. namuna, sabzovot va mevalar rasmlari, salfetaklar, loy ishi uchun maxsus doskalar.

Faoliyatning borishi:

1. Bog‘ va poliz ekinlari rasmini ko‘rib chiqish

2. Loy ishi uchun mavzu tanlash

3. Ishni chizmaga qarab rejalashtirish.

4. Ish jarayoni.

5. Bolalarishlarinimuhokamaqilishvarag‘batlantirish

Qo‘shimcha:mavzuga mos multfilmtomosha qilish

Alohida e‘tibor qaratiladi:bog‘ va poliz ekinlarining foydali xususiyatlari

AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG'LOM BOLALAR

G	Katta						
M	Buni bilish foydali						
M	Avqust 2-hafta						
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va sog'lom	Yugurishning har xil turlari (ilonizi, zigzag, mokisimon, to'siqlarni engib o'tib)ni bajaradi, turli usullar bilan sakraydi, mayda qismlardan iborat bo'lgan mozaika va pazllar yig'adi.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Oziga yuklatilgan majburiyatlarni qabul qiladi va bajaradi; qo'rquv va xavfni tushunadi; hulq qoida va meyorlariga boysunadi (mumkin, man etiladi, yaxshi, yomon, kerak).					
	Nutq, muloqot, o'qish va yozish	Nutqning dialogik, monologik shaklini qo'llaydi. Syujetli rasmlar asosida tasviriy hikoya aytadi, voqealarni izchil bayon qiladi. "Mening xuquqlarim" mavzusidagi she'r mazmunini tahlil qiladi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Mantiqiy fiklash kengayadi, sonlar doirasida sanay oladi. Piyodalar uchun asosiy yo'l qoidalarini biladi; xavfsiz xatti- harakatning asosiy qoidalarini biladi va ularga rioya qiladi.					
	Ijodiy rivojlanish	Tengdoshlari bilan ijodiy o'yinlar o'ynaydi; qog'ozdan applikatsiyalar yaratadi (svetofor); loydan yo'l belgilarini yasaydi, tasavvuriga ko'ra syujet yaratadi.					
Rivojlanish markazlari		Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat					
		D	S	Ch	P	J	
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	"Yo'l belgilari" "Raqami bo'yicha terib ber" sonli qirqma rasmlar asosida yig'amiz					e r a k l i
	Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish			Av tobus			e
	Til va nutq	Yo'l harakati xavfsizligi qoidolari			Mening huquqlarim		
	Fan va tabiat				Havo markazi (ekologik tarbiya)		e
	San'at	Rasm ishi: Yo'l belgilari		Ap plikatsiya: "O	Loy ishi: Yo'l belgilari		e r a

AVGUST. IKKINCHI HAFTA

BUNI BILISH FOYDALI

Til va nutq

Mavzu: Yo‘l harakati xavfsizligi qoidalar

Maqsad: bolalar yo‘l harakati qoidalarini biladilar, ularni farqlaydilar, yo‘l harakati qoidalariga rioya qiladilar.

Kerakli jihozlar: rasmlar, plakatlar, o‘yinchoq mashinalar, mulyajlar, Shartli belgilar. Faoliyatning borishi:

1. Yo‘l harakati belgilarining rasmlarini ko‘rish.
2. Har bir belgini izohlash.
3. Yo‘l harakati xavfsizligi qoidalarini rasmlari bilan xarakatli o‘yin o‘ynash.
4. Bolalar ishtirokini muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: yo‘l harakati qoidalarini haqida multfilm namoyishi.

Alohida e‘tibor qaratiladi: yo‘l harakati belgilarini izohlash jarayonida nutqning ravonligi.

San‘at

Mavzu: Yo‘l belgilari

Maqsad: bolalar yo‘l belgilarini bo‘yoqlar orqali ifodalaydilar.

Kerakli jihozlar: rangli va oddiy qora qalamlar, rangli bo‘rilar, guashb, akvarel bo‘yoqlari, turli mo‘yqalamlar, suv idish, salftka Faoliyatning borishi:

1. Yo‘l belgilari mavzusidagi rasmni tomosha qilish.
2. Ishni rejalashtirish.
3. Ish jarayoni.
4. Ishlar natijalarini muhokama qilish.

Qo‘shimcha: ota-onalar uchun ko‘rgazma tashkil etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: ozoda va gigiyenik talablarga rioya etib ishlash ko‘nikmasining rivojlanishi.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: “Yo‘l belgilari”, “Raqami bo‘yicha terib ber” sonli qirqma rasmlar asosida yig‘amiz

Maqsad: bolalar taklif qilingan materiallardan yo‘l belgilarini yig‘adilar, yo‘l belgilari nimaga xizmat qilishi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

Kerakli jihozlar: pazllar, sonli kesma rasmlar, yo‘l belgilari.

Faoliyatning olib borilishi:

1. Yo‘l belgilari tasvirlangan rasmlarni ko‘rish va kuzatish.
2. Yo‘l belgilarini raqami bo‘yicha taxlashni rejalashtirish.
3. Yo‘l belgilarini taxlash.
4. Taxlangan yo‘l belgilarining taqdimotini amalga oshirish.
5. Bolalar tomonidan taxlangan belgilarni muhokama qilish va rag‘batlantirish.
6. Ishlatilgan materiallarni miqdorini sanash va shakllari bo‘yicha ajratish.

Qo‘shimcha: tarbiyachi bolalarga uyga ketayotganda yo‘l belgilarini kuzatish va o‘xshashini topishni taklif qiladi.

Alohida e‘tibor qaratiladi: yo‘l belgilariga rioya etishning inson hayotidagi ahamiyati.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Avtobus

Maqsad: bolalar avtobus turlarini farqlaydilar.

Kerakli jihozlar: haydovchi kiyimi, salon va o‘rindiqlar.

Faoliyatning borishi:

1. Avtobus turlari aks etgan rasmlarni ko‘rib chiqish.
2. Rollarni taqsimlash.
3. O‘yin uchun kerakli atributlarni tanlash.
4. “Avtobusda ketayapmiz” sahnasini qo‘yish.
5. Ijro etilgan sahnani muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: “Avtobus bekati” o‘yini.

Alohida e‘tibor qaratiladi: hayot xavfsizligi qoidalari.

Sanat

Mavzu: O‘z qo‘limiz bilan svetofor yasaymiz

Maqsad: bolalar karton va ikkilamchi materiallardan svetofor yasaydilar hamda uni qaeatlarda ishlatilishini tushuntirib bera oladilar.

Kerakli jihozlar: svetofor tasvirlangan rasmlar, rangli qog‘oz, karton, ikkilamchi materiallar, qaychi, yelim.

Faoliyatning borishi:

1. “Shahardagi svetoforlar” mavzusidagi rasmlarni ko‘rish.
2. Svetofor yasash chizmasi bilan tanishish.
3. Ishni rejalashtirish
4. Ish jarayoni.
5. Bolalarning faoliyati natijasini muhokama qilish.
6. Rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: tayyor svetoforni hovlidagi yo‘l harakati maydonchasiga o‘rnatib “Yo‘l belgilari” ta‘limiy o‘yinini o‘ynash.

Alohida e‘tibor qaratiladi: yo‘lni kesib o‘tayotganda svetofor chiroqlariga qarab o‘tish.

San‘at

Mavzu: Yo‘l belgilarini yasash

Maqsad: bolalar yo‘l belgilarini yasashda plastilin yoki loyni aylantirish va dumalatish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: loy, plastilin, yo‘l belgilari namunalari, rasmlari, stek, salftka, doska. Faoliyatning borishi:

1. Yo‘l belgilari mavzusidagi rasmlarni tomosha qilish.
2. Ish stolini yo‘l belgilarini yasash uchun tayyorlash.
3. Ish jarayoni.
4. Bolalar ishlari natijalarini muhokama qilish va rag‘batlantirish.
5. Bolalar ishlari ko‘rgazmasi.

Qo‘shimcha: “Svetofor” qo‘shig‘ini tinglash.

Alohida e‘tibor qaratiladi: yasash texnikasi.

Fan va tabiat

Mavzu: Havo markazi (ekologik tarbiya)

Maqsad: bolalar havo xususiyatlari haqidagi bilimlarini amaliy tajribalar orqali mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: bo'sh stakan, qog'oz salfetka, suv.

Faoliyatning borishi:

Amaliy tajriba:

1. Bo'sh stakan tagiga qog'oz salfetka yopishtiriladi va stakan teskari o'girib suvga tushiriladi.

2. Stakan suv bilan to'ladi, ichidagi qog'oz salfetka stakan ichida havo borligi uchun quruq qoladi.

3. Tajribani muhokama qilish.

4. Bolalar bilan o'tilgan tajribadan hulosasi chiqarish.

Qo'shimcha: yonib turgan sham ustiga stakan yopilganda uni o'chishi (havoning siqib chiqarilishi) tajribasini o'tkazish.

Alohida e'tibor qaratiladi: tajribalar o'tkazish jarayonidagi bolalar faolligi.

Til va nutq

Mavzu: Mening huquqlarim

Maqsad: bolalar she'rlar mazmunini tahlil qiladilar.

Kerakli jihozlar: AKT, "Mening huquqlarim" she'ri, "Mening huquqlarim" loto o'yini.

Faoliyatning borishi:

1. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya videorolik (slayd) namoyishi.

2. "Mening huquqlarim" - bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya moddalariga haqidagi she'rlar bilan tanishish.

3. She'rlar mazmuni muhokamasi.

Qo'shimcha: "Mening huquqlarim" loto o'yini.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarning o'z huquqlarini bilishlari.

OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG'LOM BOLALAR

G	Katta					
M	O'ynab o'rganamiz					
M	Avgust 3-hafta					
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining	Jismoniy tarbiya mashqlarini aniq va to'g'ri bajaradi, harakatli o'yinlar qoidasiga rioya etadi. Murakkab konstruksiyalar va mayda qismlardan iborat bolgan mozaika va pazllar yig'adi.				
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Oyin harakatlarida faol ishtirok etadi va teatrlashtirilgan oyinlarga bo'lgan qiziqishi kuchayadi, ozini turli rollarda sinab korish ishtiyoqi tarkib topadi. Ijodiy qobiliyat rivojlanadi, aktyorlik mahorati Shakllanadi. Bolada faollik, mustaqillik, dostona munosabat va ozaro yordam berish tarbiyalanadi.				
	Nutq, muloqot, oqish va	Shaxsiy hayotlari asosida sevimli oyinlari, oyinchoqlari haqida gapirib beradi. Sahna ko'rinishini tayyorlash va namoyish qilish uchun ijodiy guruh tuzish, sahnani bezashga qatnashishni o'rganadi. Nutqning dialogik, monologik				
	Bilish jarayonining	Ijodkorlik layoqati, o'yin uchun g'oyalar o'ylab topish, yangi o'yinlar tashkil etish qobiliyati shakllanadi. Buzilgan o'yinchoqlarni tuzatish yo'llarini biladi va amalda bajara oladi. Texnik o'yinchoqlarga qiziqadi				
	Ijodiy rivojlanish	Pazllar yordamida kamida 16 ta bo'lakdan iborat shakl yig'ishni biladi. Hamro buvi o'yinchoqlarini yasash malakalari mustahkamlanadi. O'yinlarda hayotiy vaziyatlar, kattalar mehnatiga taqlid qiladi.				
Rivojlanish markazlari		Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat				
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Pajshanba	Juma
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	O'yinlar shaharchasi			Pazldagi o'yinchoqlar	erkin
	Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish			Modalar atelezi (qo'g'irchoq uchun ko'ylak)		erkin
	Til va nutq	Barmoqlar teatri				
	Fan va tabiat	Suvosti kemasi tajribasi			Buzilgan o'yinchoqlarni tuzatish	erkin
	San'at		Rasm ishi: Bizn	Applikatsiya: Sevimli o'yinchog'im	Loy ishi:	erkin

AVGUST. TO‘RTINCHI HAFTA

O‘YNAB O‘RGANAMIZ

Til va nutq

Mavzu: Barmoqlar teatri

Maqsad: bolalar barmoq harakatlari orqali nutqni rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: AKT, barmoqlar uchun toqilgan-tikilgan ertaklar qahramonlari qo‘girchoqlari.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqali teatrlarning namoyishi.
2. Ertak qahramonlari va syujetini yodga olish.
3. Ertak qahramonlarini tanlash va rollarni taqsimlash.
4. O‘yin jarayoni.
5. Bolalar ishtirokini muhokama qilish va ragbatlantirish.

Qo‘shimcha: O‘zbek milliy akademik teatr aktyorlari haqida malumot berish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: rollarni bajarish jarayonida nutqning ravonligi.

Fanva tabiat

Mavzu: Suvosti kemasi tajribasi

Maqsad: bolalar sho‘r suvning zichligi chuchuk suvning zichligidan og‘ir ekanligini bilib oladilar. Kerakli jihozlar: 2 dona shisha stakan, toza suv, xom tuxum, tuz, qoshiq.

Faoliyatning borishi:

1. 1-amaliy ish: 1-stakanga tuxum solinadi va uning ustidan suv quyiladi. Bu jarayonda bolalar tuxumning suvga cho‘kishini kuzatadilar.

2. 2-amaliy ish: 2-stakanga suv quyiladi, unga 3 osh qoshiq tuz aralashtiriladi va unga tuxum solinadi. Bu jarayonda bolalar tuxumning suv yuzida suzib yurishini kuzatadilar.

3. Xulosa: Sho‘r suvning zichligi chuchuk suvning zichligidan ancha og‘ir. Shuning uchun sho‘r suvda predmetlar cho‘kmaydi.

Qo‘shimcha: dengiz suvida suzish chuchuk suvda suzishdan osonligini aytish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: amalga oshirilayotgan har bir jarayonni bolalar tomonidan izohlanishi.

San‘at

Mavzu: Bizning o‘yin maydonchamiz

Maqsad: bolalar o‘yin maydonchasini rasm chizish orqali tasvirlay oladilar.

Kerakli jihozlar: o‘yin maydonchasi tasvirlangan rasmlar, rangli bo‘yoqlar, rasm qog‘ozi, mo‘yqalam, suv idish, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu Yuzasidagi rasmlarni tomosha qilish.
2. Rasm mavzusi bo‘yicha suhbat.
3. Ish jarayoni.
4. Bolalar ishlari natijalarini muhokama qilish va ragbatlantirish.
5. Bolalar ishlari ko‘rgazmasi.

Qo‘shimcha: bolalar xohishiga ko‘ra maydonchani qo‘shimcha tarzda bezashni taklif etish mumkin.

Alohida e‘tibor qaratiladi: bolalarning jamoada ishlay olish qobiliyati, ularning ijodiy tafakkurini rivojlanishi, o‘zaro jamoaviy munosabatlar jarayoni.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: O'yinlar shaharchasi

Maqsad: bolalar kubiklar va turli konstruktorlardan o'rinli foydalanishni biladilar.

Kerakli jihozlar: kubiklar, geometrik shakl, manzarali o'simliklar to'plami, o'yinlar shaharchasi tasviri tushirilgan suratlar.

Faoliyatning borishi:

1. "O'yinlar shaharchasi" mavzusibo'yicha rasmlarniko'rib chiqish.
2. O'yinlar shaharchasining qurilishinirejalashtirish.
3. "O'yinlar shaharchasi"ni konstruktsiyalash.
4. Bolalar ishlarini muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: bolalarga o'z kompozitsiyalarini mayda o'yinchoqlar (archalar, gullar, haykalchalar va shu kabilar) bilan bezashni taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: quruvchi kasbiga qiziqish va hurmatning ortishi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Modalar atelesi (qo'g'irchoq uchun ko'ylak)

Maqsad: bolalar o'yin orqali modelyer va tikuvchi kasbini tasvirlab beradilar.

Kerakli jihozlar: turli gulli va sidirg'a ipli matolardan namunalar, tasmalar, qo'g'irchoq kiyimlari andozalari, chiroyli ko'ylaklar kiygan qo'g'irchoqlar.

Faoliyatning borishi:

1. "Qo'g'irchoqni kiyintiramiz" o'yini (tayyor kiyimlar).
2. O'z ishlari uchun mato va qo'g'irchoq tanlash.
3. O'z qo'g'irchoq'i uchun libos yaratish.
4. "Yasangan qo'g'irchoqlar" namoyishi.

Qo'shimcha: ko'ylaklar uchun aksessuarlar taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: qo'l mayda motorikalarining rivojlanishi va hayot xavfsizligi asoslari.

San'at

Mavzu: Sevimli o'yinchog'im

Maqsad: bolalar o'z sevimli o'yinchog'ining rasmini chizish orqali qo'g'irchoq haqidagi fikrlarini asoslab bera oladilar.

Kerakli jihozlar: o'yinchoqlar rasmi, rangli qog'oz, karton, qaychi, yelim, quti, plastilin. Faoliyatning borishi:

1. "Sevimli o'yinchog'im" mavzusidagi rasmlarni ko'rish.
2. "Sevimli o'yinchog'im" mavzusida bolalar tanlovi muhokamasi.
3. Ish jarayoni.
4. Bolalarning faoliyati natijasini muhokama qilish.
5. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: ko'rgazma tashkil etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: o'z ijodini chiroyli bezatish.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Pazldagi o'yinchoqlar aksini yig'ish

Maqsad: bolalar pazllar yordamida kamida 16 ta bo'lakdan iborat shaklni yig'ishni biladilar. Kerakli jihozlar: pazllar.

Faoliyatning borishi:

1. Pazllar namunasini ko'rib chiqish.
2. Pazldagi o'yinchoqlar aksini yig'ish.
3. Bolalar ishlarini muhokama qilish varag'batlantirish

Qo‘shimcha:bolalar ishlari ko‘rgazmasini tashkil etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi:mustaqil ravishda namunaga qarab shaklni to‘g‘ri yig‘ish malakalari.

Fanva tabiat

Mavzu:Buzilgan o‘yinchoqlarni tuzatish

Maqsad:bolalar buzilgan o‘yinchoqlarni tuzatish yo‘llari (yelimlash, ulash, batereyka qo‘yish, otvertkada burash)ni biladilar va amalda bajara oladilar.

Kerakli jihozlar: buzilgan o‘yinchoqlar, tuzatish uchun asboblari, otvertka, batareykalar. Faoliyatning borishi:

1. Buzilgan o‘yinchoqlarni ko‘rib chiqish.
2. Bolalar bilan buzilgan o‘yinchoqlarni muhokama qilish: mashinani qaeri buzilgan, robort nega harakatlanmayapti?).
3. Otvoyortkadan to‘g‘ri foydalanishni mashq qilish.
4. Batareyalarni to‘g‘ri joylantirishni mashq qilish.
5. Buzilgan o‘yinchoqlarni tuzatish.
6. Bajarilgan ishning to‘g‘riligini tekshirish.
7. Bolalar ishlarini ko‘rish, muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha:“Tuzat va o‘yna” multfilmni ko‘rish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: o‘zi tuzatgan o‘yinchoqlardan zavqlanish.

San‘at

Mavzu:Hamro buvi o‘yinchoqlari

Maqsad: bolalar loydan Hamro buvi o‘yinchoqlari namunalari asosida o‘yinchoqlar yasaydilar. Kerakli jihozlar: Hamro buvi o‘yinchoqlari namunalari, loy, salfetka, steklar,taxtachalar, salfetkalar .

Faoliyatning borishi:

1. Hamro buvi o‘yinchoqlarini ko‘rib chiqish.
2. Hamrobuvi o‘yinchoqlarini yasash yo‘llari va usullari haqida suhbatlashish.
3. Ish jarayoni.
4. Bolalarning ishlarini muhokama qilish.
5. Rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: milliy o‘zbek o‘yinchoqlarini yasovchi usta Hamrobibi Rahimovaning surati va uning yasagan o‘yinchoqlaridan ko‘rgazma tashkil etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi:milliy o‘yinchoqlarga qiziqishning namoyon bo‘lishi.

AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG‘LOM BOLALAR

G	Katta					
M	Yoz o‘tdi soz					
M	Avgust 4-hafta					
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom	Sport turlariga qiziqadilar, ochiq havoda musobaqalar, harakatli va estafetali o‘yinlarni tashkil qiladi. Murakkab konstruksiyalarni yig‘adi.				
	Ijtimoiy-hissiy	Oyinda ortog‘larining manfaatlari, fikrlari, xohish istaklari bilan hisoblashadi.				
	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari	Shaxsiy hayotlari asosida “Men yozni qanday o‘tkazdim” mavzusida hikoya tuzadi. Nutqning dialogik, monologik shaklini qo‘llaydi.				
	Bilish	Yil fasllarining o‘ziga xos belgilari to‘g‘risidagi tasavvurlar mustahkamlanadi.				
	Ijodiy rivojlanish	Qo‘g‘irchoq teatrini sahnalashtiradi. O‘zini turli rollarda sinab ko‘radi. Bola musiqa asarini astoydil tinglaydi va ularga nisbatan emotsional munosabat bildiradi, estetik idroki, musiqa orqali olamni anglaydi.				
Rivojlanish markazlari		Ta‘limiy-tarbiyaviy faoliyat				
		D	Ses	C	Ju	R
Erkin faoliyat	Qurish-yasash va matematika	Ekologik yo‘lakcha			Sp ort	K erakli
	Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish	Qo‘g‘irchoq teatrini sahnalashtirish		H ayvon		K erakli
	Til va nutq		“Bu qachon bo‘ladi?” ta‘limiyo‘yini			
	Fan va tabiat				Sport maydoni uchun Chim tayyorlash	K erakli
	San‘at	Rasm ishi: Yoz manzarasi		A pplikat	Lo y ishi.	K erakli

AVGUST. TO'RTINCHI HAFTA

YOZ O TDI SOZ

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Qo'g'irchoq teatrini sahnalashtirish (bolalar ixtiyoriga ko'ra)

Maqsad: bolalar o'zini turli rollarda sinab qo'g'irchoq teatrini sahnalashtiradilar.

Kerakli jihozlar: qo'g'irchoq teatri anjomlari, qo'g'irchoq kiyimlari, chiroyli ko'ylaklar kiygan qo'g'irchoqlar.

Faoliyatning borishi: Qo'g'irchoq teatri haqida suhbat.

1. Qo'g'irchoq teatri mavzusini tanlash.
2. Qo'g'irchoq teatri namoyishi.
3. Bolalar ishlari muhokamasi va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: bolalar uchun yaratilgan spektakl tomosha qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: aktyorlik sifatlarining tarbiyalanishi, ijroda o'zini erkin tutishi.

Til va nutq

Mavzu: "Bu qachon bo'ladi?" ta'limiy o'yini

Maqsad: bolalar yil fasllarining o'ziga xos belgilari to'g'risidagi tasavvurlari mustahkamlanadi. Pishgan mevalarni xom mevadani farqlaydi, mevalar qayerda tezroq pishishini (daraxt tagidami, soyadami, yalanglikdami yoki oftobdami) va uning sababi natijalarini bilib oladilar.

Kerakli jihozlar: yil fasllarining o'ziga xos belgilari, bog' va poliz, dala ekinlari tasvirlangan rasmlar, kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlarni tomosha qilish.
2. "Bu qachon bo'ladi?" ta'limiy o'yini

Bolalar rasmga qarab faslning tartibini, o'ziga xos xususiyatlarini so'zlab beradilar. Polizda qachon qovun-tarvuzlar, pomidor, bolgar qalampiri, bodringlar pishadi? Qachon olma, nok, behi, olcha, gilos, olxo'ri, anjir, o'rik pishadi? Vahakoz o'simliklarga rasmlar asosida javob beradilar. Pishgan mevalarni xom mevadani farqlaydilar, mevalar qayerda tezroq pishishini (soyadami yoki quyosh nuridami) va uning sababi natijalarini aytadilar.

Qachon quyosh zarrin nurlarini tarqatadi? Qachon asalarilar, qaldirg'ochlar uyalaridan uchib chiqadilar va havoda baland parvoz qiladilar?

Qachon quyosh to'q qizil yoki oltin rangga kiradi? Qachon oy va yulduzlar chiqadi?

1. O'yinni yakunlash va muhokama qilish.
2. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: She'r yoki topishmoqlar aytish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalar nutqi, nutqda fe'l zamonlari qo'shimchalarini to'g'ri qo'llay olish malakasi.

San'at

Mavzu: Yoz manzarasi

Maqsad: bolalar rasm chizishning bostirib chizish usuli orqali yoz manzarasini tasvirlay oladilar. Kerakli jihozlar: yoz manzarasi tasvirlangan rasmlar, oq qog'oz, pergament qog'oz, bo'yoqlar, mo'yqalam, yozgi barglar, turli xildagi gullar, suv idishi, salftetka.

Faoliyatning borishi:

1. Yoz manzarasi mavzusidagi rasmlarni ko'rish.
2. Bostirib chizish usuli chizmasi bilan tanishish.
3. Bolalar ijodiy ishi.
4. Bolalar ishlarini muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: paxtali cho'pchalar usulini qo'llash mumkin.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalardagi ijodiy tafakkurning rivojlanishi.

Qurish-yasash va matematikaMavzu: Ekologik yo‘lakcha

Maqsad: bolalar ekologik yo‘lakchani qurishda kubiklar va turli konstruktorlardan maqsadli foydalanadilar.

Kerakli jihozlar: kubiklar, geometrik shakl, manzarali o‘simliklar to‘plami, ekologik yo‘lakchani tasviri tushirilgan suratlar.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna va ekologik yo‘lakcha mavzusi bo‘yicha suratlarni ko‘rib chiqish.
2. Ekologik yo‘lakcha qurilishini rejalashtirish.
3. Ekologik yo‘lakchani konstruksiyalash.
4. Bolalar ishlarini muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: tarbiyachi bolalarga o‘z kompozitsiyalarini mayda o‘yinchoqlar (archalar, hayvonlar, qushlar, gullar, haykalchalarva shu kabilar) bilan bezashni taklif etishi mumkin. Alohida e‘tibor qaratiladi: bolalarning jamoa bo‘lib ishlashlari.

Syujiy-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Hayvonot bog‘i

Maqsad: bolalar yirtqich hayvonlar va ularning yashash tarzi haqida bilimlarini mustahkamlaydilar, hayvonot bog‘ida ishlaydigan xodimlar kasbi bilan tanishadilar.

Kerakli jihozlar: hayvonot bog‘ining rasmi, asosiy qurilish materiallari, o‘yinchoq yirtqich hayvonlar, hayvonlarni ovqatlantirish uchun idishlar, xalat, hayvonlar niqoblari.

Faoliyatning borishi:

1. Hayvonot bog‘ining rasmi bilan tanishish.
2. Rollarni taqsimlash.
3. O‘yin uchun kerakli atributlarni tanlash.
4. Ijro etish jarayoni.

O‘yinning borishi:

Quruvchilar hayvonot bog‘ini quradilar.

Haydovchi hayvonlarni yuk mashinasida olib keladi.

Yuk tashuvchilar hayvonlar solingan qafaslarni joylashtiradilar.

Hayvonot bog‘i ishchilari hayvonlarni parvarish qiladilar (ovqatlantiradilar, suv beradilar, qafaslarni tozalaydilar).

Veterinar shifokor hayvonlarga g‘amxo‘rlik qiladi, ularni tekshiradi (haroratini o‘lchaydi, fonendoskop bilan eshitadi).

Kassir chiptalarni sotadi.

Ekskursovod ekskursiya o‘tkazadi, hayvonlar haqida gapirib beradi, xavfsizlik choralari haqida aytadi.

Mehmonlar chiptalar sotib olib, ekskursovodni tinglaydilar, hayvonlarni tomosha qiladilar.

1. Muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: hayvonlar haqida she‘rlar.

Alohida e‘tibor qaratiladi: hayvonlarga do‘stona munosabatda bo‘lish va ularga g‘amxo‘rlik qilish.

Sanat

Mavzu: Quyoshli kun

Maqsad: bolalar applikatsiyada tasvirni uyg‘unlashtirish va estetik bezatishni biladilar.

Kerakli jihozlar: charaqlab turgan quyoshmanzarasi rasmi, rangli qog‘oz, karton, qaychi, yelim, salfetka, mo‘yqalam.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu bo'yicha rasmlarni ko'rib chiqish.
2. Quyoshli kunni bolalar bilan tasvirlashni rejalashtirish.
3. Ijodiy jarayon.
4. Bolalar ishlarini muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: mavzu bo'yicha ashula tinglash va tasavvur etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarning jamoa bo'lib ishlashlari.

Qurish-yasash va konstruksiyalash

Mavzu: Sport majmuasini quramiz(yirik qurilish materiallaridan)

Maqsad: bolalari yirik kubiklar yordamida sport majmuasining turli konstruksiyalarini quradilar. Kerakli jihozlar: yirik qurilish materiallari, sport musobaqalarining slaydlari, sport majmualarining rasmlari, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqali sport turlari tasvirlangan slaydlarni tomosha qilish: stadionda, suv havzasida, kortda, yugurish yo'lakchasida, maydonda.
2. Sport kompleksini qurishni rejalashtirish.
3. Sport kompleksini konstruksiyalash.
4. Ishning yakuni va muhokamasi.
5. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: "Sportchini nomla" ta'limiy o'yini.

Alohida e'tibor qaratiladi: sport turlariga qiziqishni oshirish.

Fan va tabiat

Mavzu: Sport maydoni uchun chim tayyorlash

Maqsad: bolalar chim o'simligi bilan tanishadilar, o'simliklar hayotida suv, tuproq va havoning ahamiyatini biladilar.

Kerakli jihozlar: ekish uchun anjomlar, fartuk, bolalar belkuragi, o'g'it, tuproq, urug', suv idish, kuzatish daftari.

Faoliyatning borishi:

1. Chim o'simligini ekish uchun maxsus idish tanlash va tayyorlash.
 2. Chimni ekish uchun yorug'lik, suv, havo, tuproq, o'g'it zarurligi va urug'ni ekishning ketma-ketligi haqida tarbiyachi ma'lumoti.
 3. Bolalarning mustaqil faoliyati.
 4. Chimning o'sishini kuzatish daftarida belgilab borish.
- Alohida e'tibor qaratiladi: o'simliklarni payhon qilmaslik lozimligi kabi tushunchalar.

Sanʼat

Mavzu: Shirin tarvuzlar

Maqsad: bolalar tarvuz qismlarini plastilin orqali tasvirlab beradilar.

Kerakli jihozlar: plastilin, taxta, steklar, salftkalar, tabiiy tarvuz, butun tarvuz, boʻlingan tarvuz rasmlari.

Faoliyatning borishi:

1. Tarvuz va uning boʻlaklari tasvirlangan rasmlarni koʻrib chiqish.
2. Mavzuni bolalar bilan tasvirlashni rejalashtirish.
3. Ijodiy jarayon.
4. Bolalar ishlarini muhokama qilish va ragʻbatlantirish.
5. Tayyor ishlar koʻrgazmasi.

Qoʻshimcha: tabiiy tarvuzdan sharbat tayyorlash.

Alohida eʼtibor qaratiladi: ijodiy qobiliyatning rivojlanishi.

TAYYORLOV GURUHI

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK

Guruh	Tayyorlov						
Mavzu	Baxtli bolalik						
Muddati	Iyun 1-hafta						
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi	Oyoqlar uchidan tovonga almashtirib yuradi. Yugurishning har xil turlarini: ilonizi, zigzag, mokisimon, to'siqlarni engib o'tib bajaradi. Turli usullar bilan sakraydi. Bir necha predmet oralab emaklaydi. Koptokni klyushka bilan to'siqlarora olib o'tadi. Qumli xaltachani nishonga otadi.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Mustaqil o'ziga faoliyat turini tanlaydi. Tushunarli asarlarni qiziqish bilan tinglaydi va ularga hissiyotlarini namoyon etadi.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Rasm asosida hodisa va voqealarni tushuntirib beradi. Nutqning monologik shaklini qollaydi. Sevimli badiiy adabiyot nomlari va ularning mualliflarini biladi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Turli hajmli geometirik figuralar (kub, silindr, g'isht, plastina, piramida)dan uy qura oladi, ular nomlarini va belgilarini biladi. Rasmdagi syujetni eslab qoladi va uni gapiradi. Ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi.					
	Ijodiy rivojlanish	Bayram taasurotlarini qog'ozda aks ettirishga harakat qiladi. Mayda qo'l motorikasi, tasavvuri rivojlanadi, estetik bezatish, jamoa bilan ishlashni biladi. Ozining ijodini chiroyli bezatadi. Bayramona kayfiyat, zavq-shavq oladi. Musiqiy asarga hissiy munosabat bildiradi. Musiqaga monand harakatlar oylab topadi. Qogozdan applikatsiyalar yaratadi					
Rivojlantirish markazlari		Ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish, konstruksiyalash va matematika	Bolalar maydonchasini quramiz					Lego, konstruktor, turli kattalikdagi g'ishtlar
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish			"Tug'ilgan kunda" talimiy oyin			Kerakli anjomlar
	Til, nutq va savodxonlikka orgatish	Bolalar bayrami kuni			Mening orzularim mavzusida suhbat		Kerakli anjomlar
	Fan va tabiat	Quvnoq sharchalar			Do'stim uchun hadya		Kerakli anjomlar
	San'at	Rasm: Biz baxtiyor bolalarmiz		Applikatsiya: Bayram sovg'asi	Loy ishi: Kichkintoylar uchun oyinchoqlar		Kerakli anjomlar

IYUN.BIRINCHI HAFTA

BAXTLI BOLALIK

Til va nutq

Mavzu: Bolalar bayrami kuni

Maqsad: bolalar rasm mazmunini soʻzlab beradilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasm.

Faoliyatning borishi:

1. “Bolalar bayrami kuni” mavzusidagi rasmlarni koʻrish.
2. Rasm mazmunini soʻzlab berish.
3. 1-Iyun - “Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni”ni qanday oʻtkazganligi haqida suhbat.

Qoʻshimcha: bolalar bayrami kuniga bagʻishlangan sheʼrlarni yoddan aytib berish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: bolalar monologik nutqi.

Fan va tabiat

Mavzu: Quvnoq pufaklar

Maqsad: Bolalar havoning xususiyatlariga oid amaliy tajribalar oʻtkazadilar.

Kerakli jihozlar: sellofan paket, paxta yoki pat, pufak.

Faoliyatning borishi:

1. Sellofan paketga havo toʻldirish va uni mahkamlash.
2. Pufakni shishirish va uni boʻgʻlash.
3. Havoning hosil boʻlishi va bir joyda toʻplanish jarayonini tahlil qilish.
4. Sellofan paket va pufakning ogʻzini boʻshatish jarayonida yengil jism yordamida (paxta yoki pat) sellofan paket yoki pufakdan chiqayotgan havoning bosimini kuzatish.
5. Amaliy tajribani tahlil qilish.

Qoʻshimcha: havoning koʻz bilan koʻrib, qoʻl bilan ushlab boʻlmasligi, havo yana nimalar uchun zarurligi, havo boʻlmasa sayyoramizda nimalar sodir boʻlishi mumkinligi haqida qoʻshimcha maʼlumotlar berish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: bolaning mavzu borasida qanday fikrga, bilimga ega boʻlganligi, mavzuni toʻgʻri tahlil qila olishi.

Sanʼat

Mavzu: Biz baxtiyor bolalarmiz

Maqsad: bolalar bayram taassurotlarini qogʻozda aks ettirishga harakat qiladilar.

Kerakli jihozlar: boʻyoqlar, moʻyqalam, qogʻoz, mavzuga oid rasmlar, namuna, suv idishi, salfetka

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlarni kuzatish.
2. Namunani tahlil qilish.
3. Ishni rejalashtirish.
4. Kerakli anjomlarni tanlash.
5. Ijodiy faoliyat.
6. Ijodiy ishlar koʻrgazmasi.

Qoʻshimcha: “Baxtli bolalikka sayohat” mavzusida jamoa ishi.

Qurish, konstruktsiyalash va matematika

Mavzu: Bolalar maydonchasini quramiz

Maqsad: bolalar turli hajmli shakllardan: kubik, silindr, g'isht, piramidadan bolalar maydonchasi konstruktsiyasini quradilar, predmetlar joylashuvini tahlil qilib, ularni katta-kichikligiga qarab taqqoslaydilar.

Kerakli jihozlar: kubiklar, geometrik shakllar, lego, arg'imchoq uchun kerakli qismlar.

Faoliyatning borishi:

1. "Bolalar maydonchasi" mavzusidagi rasmlarni ko'rish.
2. Ishni rejalashtirish.
3. Bolalar maydonchasining qurish va uni mayda o'yinchoqlar bilan to'ldirish.
4. Bolalar maydonchasidagi predmetlar joylashuvi tahlili.

Qo'shimcha: bolalar maydonchasiga oid bolalar adabiyoti namunalari.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarning jamoada ishlay olish malakalari.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Tug'ilgan kunda

Maqsad: bolalar tug'ilgan kunga borish odobini biladilar, "bayram stoli", "tug'ilgan kun sohibi", "oshxona anjomlari" kabi so'zlardan o'z o'rnida foydalanadilar.

Kerakli jihozlar: sovg'a uchun o'yinchoqlar, oshxona idish-tovoqlari, dasturxon, salfetkalar.

Faoliyatning borishi:

1. O'yinning borishini rejalashtirish.
2. Rollarni o'zaro taqsimlash.
3. O'yin jarayoni.
4. O'yin yakuni, muhokama.

Qo'shimcha: yoz oyida tug'ilgan bolalarni tabriklash.

Alohida e'tibor qaratiladi: tug'ilgan kun egasi uchun tilaklarning aytilishi.

San'at

Mavzu: Bayram sovg'asi

Maqsad: bolalar ijod qilishga, ijodiy tasavvurlarini kengaytirishga, o'z ishini did bilan bezatish malakalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: rangli kartonlar, qog'oz, yelim, stepler, ramkalar, "Sovg'alar" mavzusidagi rasmlar, chizma Faoliyatning borishi:

1. "Sovg'alar" mavzusidagi rasmlarni ko'zdan kechirish.
2. Kviling usuli chizmasi bilan tanishish.
3. Bolalar ijodiy ishi.
4. Tayyorlangan bayram sovg'asini do'stlariga hadya qilish.

Qo'shimcha: mavzuga oid she'r yoki qo'shiq kuylashni taklif qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: kviling usulida qog'oz burash malakalari.

Til va nutq

Mavzu: Ertaklar olamiga sayohat. Viktorina

Maqsad: bolalar viktorina jarayonida o'quv yili davomida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: o'zbek va jahon xalq ertaklari asosidagi rasmlar, topishmoqlar, AKT yoki albom.

Faoliyatning borishi:

1. Sehrli ertaklar olamiga sayohat. AKT yoki albomdagi ertaklar jamlanmasini tomosha qilish.
2. Viktorina: Ertaklar nomini bosh harfidan top.
3. Viktorina: Ertaklardagi foydali maslahatlar.
4. Ragʻbatlantirish.

Qoʻshimcha: gʻoliblarga medalb topshirishni tashkil etish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: bilim, konikma va malakalarni takomillashtirish.

Til va nutq

Mavzu: “Mening orzularim” mavzusida suhbat

Maqsad: bolalargapni grammatik jihatdan toʻgʻri tuzishga oʻrganadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar, Bilmasvoyning xati.

Faoliyatning borishi:

1. “Mening orzularim” mavzusiga oid rasmlarni tomosha qilish va oʻz orzusi tasvirlangan rasmni tanlash.
2. Bilmasvoyning xati. Salom, bolalar. Men sizlarga oʻz orzularimni yozmoqchiman. Yoz fasli ham kirib keldi. Quyosh nurlarini sochmoqda, atrof oppoq qor bilan qoplangan. Men doʻstim Dangasavoy bilan choʻmilishni yaxshi kuramiz, shuning uchun choʻmilishni orzu qilyapman. Bilimdon esa choʻmilishni yoqtirmaydi. Men uni bilaman, u yoz boʻyi chanada uchishni xohlaydi. Bolalar, bilasizlarmi, yana nimani orzu qilaman? Yoz faslida daraxtlarda olma, bodring, qulupnaylar pishadi. Daraxt ustiga chiqib olib ularni maza qilib terib eyishni orzu qilaman. Ayniqsa, menga yoz faslining yanvarb oyi yoqadi. Bolalar, sizlar ham oʻz orzularingizni menga yozib yuboringlar.
3. Bilmasvoyning xatini muhokama qilish va undagi xatolarni topish.
4. Oʻz orzulari haqida oʻrtoqlari bilan suhbatlashish.
5. Muhokama qilish va ragʻbatlantirish.

Qoʻshimcha: gilamdagi yostiqlar ustiga yotib orzu qilishni taklif etish mumkin.

Eʼtiborga moyillik jihati: tortinmasdan orzu qilishga berilish.

Fan va tabiat

Mavzu: Doʻstim uchun hadya (Poqildoq)

Maqsad: bolalar mayda qoʻl motorikasini rivojlantiradilar, detallarni bir-biriga moslaydilar, qoʻl mehnati bilan shugʻullana oladilar.

Kerakli jihozlar: qogʻoz, yelim, qaychi, maydalangan rangli qogʻozlar Faoliyatning borishi:

1. Namunani oʻrganish.
2. Bajariladigan ishni rejalashtirish.
3. Kerakli shakllarni tanlab olish.
4. Ijodiy ish.
5. Tahlil qilish.
6. Kamchiliklarni toʻldirish.
7. Tayyor ishni doʻstlarga hadya etish.

Qoʻshimcha: tarbiyachi yordamida tayyor va qoʻlda yasalgan poqildoqlarni solishtirish.

Sanʼat

Mavzu: Kichkintoylar uchun oʻyinchoqlar

Maqsad: bolalar loyga murakkab shakllarni bera oladilar.

Kerakli jihozlar: loy, stek, doska, salfetka, turli oʻyinchoqlar (quyoncha, ayiqcha, piramida), namuna, chizma.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna yoki rasmlarni koʻrish.
2. Ishni rejalashtirish.
3. Chizmalar bilan tanishish.
4. Ijodiy ish.
5. Bolalar ishini muhokama qilish va ularni ragbatlantirish.

Qoʻshimcha: tayyor boʻlgan oʻyinchoqlarni kichik guruh bolalariga sovgʻa qilish.

Eʼtiborga moyillik jihati: loydan turli shakllarni yasash.

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK

Guruh	Tayyorlov						
Mavzu	Gulzordagi gullar						
Muddati	Iyun 2-hafta						
Rivojlanish sohalari ga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining	Tovondan oyoq uchiga oʻtgan tarzda yuradi, toʻsiqlardan hatlaydi yoki aylanib oʻtadi, gimnastika skameykasi boʻylab muvozanatni saqlagan holda yuradi; qiya taxtada togʻri va yonlama yuradi, turlicha yugurish usullarini bajaradi (ilonizi, egri-bugri, mokisimon, toʻsiqlarni engib oʻtgan ravishda).					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Tabiatni sevish va ardoqlash hissini tarbiyalanadi. Mehnat faoliyatida oʻrtogʻiga yordam berishi, oʻrtogʻining yutuqlaridan quvonish, boshqalarning mehnati natijalariga hurmat bilan qarash shakllanadi.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish	Grammatik sodda va murakkab gaplar tuzadi; umumlashtiruvchi sozlarni toʻgʻri qollaydi (bahorgi gullar, kuzgi gullar; xona gullari, gulzorda oʻsadigan gullar, dorivor oʻsimliklar).					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Yoz faslidagi gullar, oʻsimliklardagi oʻzgarishlar haqida biladi, gullarning nomi, ularning tuzilishi: barglarini shakli, poyasi va gullaridagi farqlarni, baʼzi oʻ simliklarning shifobaxsh xususiyatlarini biladi.					
	Ijodiy rivojlanish	Gullarni tasvirlashda turli usullardan foydalana oladi. Gullarning rasmini chiza oladi, xamir, loy yoki plastilindan yasashni					
Rivojlanish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Pays	Juma	Res
Erkin faoliyat	Qurish, konstruksiyalash va matematika		Gullar uchun guldon. Jamoa ishi				Kerakli anjomlar
	Syujetli-rolli oyinlar va	Bilmasvoy bizning gulzorda			Dorivor oʻ simliklar		Kerakli
	Til, nutq va savodxonlikka		“Gullar” talimiy oyin				Kerakli
	Fan va tabiat			Nobud boʻlayotgan gullarni	Kop - kam. Amaliy tajriba		Kerakli anjomlar
	Sanʼat	Rasm:Kungaboqar		Loy ishi:Binafsha va	Applikatsiya: Moychechak		Kerakli

IYUN. IKKINCHI HAFTAGULZORDAGI GULLAR

Syujetli-rollo'yinlarvasahnalashtirish

Mavzu: Bilmasvoybizninggulzorda

Maqsad: bolalar gullarning turlarini farqlaydilar, ular haqida qisqa ma'lumot bera oladilar.

Kerakli jihozlar: gulzordagi gullar niqobi.

Faoliyatning borishi:

1. O'yin qoidalarini bilan tanishish.
2. O'yin rejasini tuzish.
3. Rollarni taqsimlash va qahramonlar obrazini yaratish.
4. "Bilmasvoy bizning gulzorda" syujetli-rolli o'yini.
5. Bilmasvoy bilan nimalarni bilib olganligi to'g'risida suhbat.

Qo'shimcha qism: MTTning gulzoriga sayr uyushtirish.

E'tiborga moyillik jihati: o'yin jarayonidagi hamkorlari bilan do'stona muloqotda bo'lish.

Til, nutq va savodxonlikka o'rgatish

Mavzu: "Gullar" ta'limiy o'yini

Maqsad: bolalar gullarning nomi, ularning qayerda o'sishi, tuzilishi, barglarining shakli, poyasi va gullaridagi farqlarni, ba'zi gullarning shifobaxsh xususiyatlarini biladilar.

Kerakli jihozlar: gulzordagi gullar rasmlari, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. O'yin qoidasini tushuntirish: etishmagan qismni topish va o'z joyiga joylashtirish.
2. O'yin jarayoni.
3. O'yinni muhokama qilish va xulosalash: qilgan ishlarni izohlab berish.

Qo'shimcha: bolalarga gullar haqida she'r aytirish.

E'tiborga moyillik jihati: izohlash jarayonida fikrlarni aniq va to'liq gap bilan ifodalash.

San'at

Mavzu: Kungaboqar

Maqsad: bolalar kungaboqar gulini tasvirlaydilar.

Kerakli jihozlar: yirtib yopishtirish usuli uchun zarur materiallar, chizma Faoliyatning borishi:

1. Kungaboqar gulini kuzatish.
2. Yirtib yopishtirish usulichizmasi bilan tanishish.
3. Bajariladigan ishni rejalashtirish.
4. Kerakli anjomlarni tanlash.
5. Ij odiy ish jarayoni.
6. Applikatsiyalar ko'rgazmasini tashkil etish.

Qo'shimcha: applikatsiyalarni do'stlariga sovg'a qilish taklif qilinadi.

Alohida e'tibor qaratiladi: yirtib yopishtirish usulidan foydalanish malakasi.

Qurish, konstruktsiyalash va matematika

Mavzu: Gullar uchun guldon. Jamoa ishi

Maqsad: bolalar guldonni turli shaklini yasaydilar, materialdan maqsadli foydalanadilar.

Kerakli jihozlar: namuna, kubik, lego, sun'iy gullar.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani o'rganish.
2. Kerakli materialni tanlash.
3. Ishni rejalashtirish.
4. Jamoa ishi.
5. Tayyor ishni sun'iy gullar bilan to'ldirish.

Qo'shimcha: "Origami" usulida turli gullarni yasash va guruhni gullar bilan bezatish.

Alohida e'tibor qaratiladi: jamoa bo'lib ishlash, fikrlarni hurmat qilish.

Fan va tabiat

Mavzu: Nobud bo'layotgan gulni parvarishlash.

Maqsad: bolalar o'simlikni qayta tirilish jarayonini kuzatadilar, bunday gullarni mustaqil ravishda parvarishlay oladilar.

Kerakli jihozlar: nobud bo'layotgan gul, suv, idish.

Faoliyatning borishi:

1. Amaliy tajriba: nobud bo'layotgan gulni parvarishlash.
2. Gulni suvli idishga solish va uni kun davomida kuzatib borish.
3. Amaliy tajriba natijasini muhokama qilish.

Qo'shimcha: tashkilot gulzoridagi gullarni sug'orish.

E'tiborga moyillik jihati: ozoda, tartibli ishlash, parvarishga muhtoj gul bilan sog'lom gulni farqlash.

San'at

Mavzu: Binafsha va ninachi

Maqsad: bolalar binafsha shaklini loy yoki plastilindan yasaydilar, gullar nomlarini farqlaydilar.

Kerakli jihozlar: loy, plastilin, doska, salfetka, stek, yelim likopcha, namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Mavzu asosida loy yoki plastilin ishi.
3. Binafsha va ninachini yelim likopcha ustiga joylashtirish.
4. Do'stlari bilan bajarilgan ishlar tahlilini qilish.

Qo'shimcha: tayyor ishlarni tabiat burchagiga qo'yish.

Alohida e'tibor qaratiladi: shakllarga aniq ishlov berish.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Dorivor o'simliklar

Maqsad: bolalardorivor o'simliklar haqida ma'lumotga egalar, dorivor o'simliklardan malham tayyorlash mumkinligini biladilar.

Kerakli jihozlar: Ibn Sino obrazi uchun kiyim, dorivor o'simliklar, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqalidorivoro'simliklardanmalhamtayyorlashniko'rish.
2. Mavjud jihozlar bilan tanishish.
3. Ibn Sino va dorivor o'simliklar sahnasini rejalashtirish.

4. Sahnalashtirish jarayoni.

5. Ragʻbatlantirish.

Qoʻshimcha qism: tashkilotning tibbiyot xonasiga ekskursiya uyushtirish.

Eʼtiborga moyillik jihati: oʻyin jarayonida hamkorlari bilan doʻstona muloqotda boʻlish.

Fan va tabiat

Mavzu: Koʻp - kam. Amaliy tajriba

Maqsad: bolalar katta bargli oʻsimliklar mayda bargli oʻsimliklarga qaraganda koʻproq sugʻorilishini aniqlaydilar.

Kerakli jihozlar: 3 ta oʻsimlik bargi: 1-katta bargli, 2-mayda bargli, 3-kaktus oʻsimligi, sellofan paket, ip.

Faoliyatning borishi:

1. Oʻsimlik barglarini kuzatish va ularni farqlash.
2. Oʻsimliklar haqida bilganlarini aytib berish.
3. Barglarni alohida paketlarga solish va bogʻlash.
4. Paketda bugʻlanish natijasida hosil boʻlgan tomchilarni kuzatish va har bir paketdagi

hosil

boʻlgan tomchilarni taqqoslash va farqlash.

5. Xulosa: barglar qancha katta boʻlsa, ularda bugʻlanish ham shuncha yuqoridir va ushbu barglar koʻproq suvga muhtoj boʻladi.

Qoʻshimcha: katta va kichik bargli gullarga kam va koʻp miqdordagi suvni quyish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: oʻsimliklarga suv quyish jarayonida suv miqdorini bilish.

Sanʼat

Mavzu: Moychechak

Maqsad: bolalar moychechak gulini boshqa gul turidan farqlay oladilar, mustaqil ravishda moychechak gulini turli usullarda tasvirlaydilar.

Kerakli jihozlar: moychechak guli, qaychi, yelim, namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish
2. Ijodiy ish.
3. Bajarilgan ishlar koʻrgazmasi.

Qoʻshimcha: tayyorishnidoʻstlarigasovgʻaqilishtaklifqilinadi.

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK

Guruh	Tayyorlov						
Mavzu	Jonli va jonsiz tabiat						
Muddati	Iyun 3-hafta						
Rivojlanish sohalari oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining	Toʻsiqlarni aylanib yoki xatlab oʻtadi; gimnastika skameykasida muvozanatni saqlagan holda qadamba qadam yuradi; qiya doska ustida toʻgʻri va yoni bilan yuradi; koptokni osmonga irgitib, tutib oladi;uzatilgan koptokni turli usullar bilan ilib oladi.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Qurish jarayonida goyalar taklif etadi. Oʻyin mobaynida doʻstlari bilan oʻz hissiyotlari va kechinmalari bilan ortiqlashadi. Oʻrtoqlariga yordam koʻrsatadi.					
	Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari	Nutqning dialogik, monologik shaklini qoʻllaydi. Xorijiy tilni oʻrganishga qiziqadi; ayrim xorijiy tildagi soʻzlarni nutqida ifodalaydi; ifodalilikning ohang vositalarini toʻgʻri qoʻllaydi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Geografik tushunchalarni biladi (togʻ); oddiy sabab va oqibat aloqalarni tushunadi (kechasi osmonda oy va yulduzlar; kunduzi osmonda quyosh, bulutlar boʻladi).					
	Ijodiy rivojlanish	Hasharotlarni yasaydi, ularning tuzilishi va rangining xarakterli xususiyatlarini koʻrsata oladi, qoʻl ishlarining mustahkamligini saqlash uchun tayoq, trubka, simlarga biriktiradi.					
Rivojlantirish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Pays	Juma	Res
Erkin faoliyat	Qurish, konstruksiyalash va matematika			Togʻlar			Kerakli
	Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish	Yosh sayyohatchilar (suvda, quruqlikda va togʻda)				“Quyosh, suv va tuproq” ertagi	Kerakli anjomlar
	Til, nutq va savodxonlikka oʻrgatish	Hayvonot dunyosi Rasmga qarab hikoya tuzish					Kerakli anjomlar
	Fan va tabiat		Yer osti qazilmalari			Havoning siqilishini kuzatish	Kerakli anjomlar
	Sanʼat	Rasm: Bizning Yer sayyoramiz		Applikatsiya: Jamoat ishi. Kollaj “Togʻ	Loy ishi: Hasharotlar		Kerakli anjomlar

IYUN. TO‘RTINCHI HAFTA JONLI VA JONSIZ TABTAT

Til, nutq va savodxonlikka o‘rsatish

Mavzu: Hayvonot dunyosi. Rasmga qarab hikoya tuzish

Maqsad: bolalar hayvonlarni turkumi (sudraluvchi, sut emizuvchi, o‘txo‘r...)ga ajrata oladilar, ular haqida qisqa hikoya tuza oladilar.

Kerakli jihozlar: AKT, hayvonlar rasmlari, namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlar va slaydlarni tomosha qilish.
2. Rasmlarga qarab hayvonlarni turkumlaarga ajratish, do‘stlariga ajratish sabablarini izohlab berish.
3. Turkumlarlarga ajratilgan rasmlar asosida hikoya tuzish va so‘zlab berish.
4. “Qaysi hayvon qayerda yashaydi?” o‘yini.

Qo‘shimcha: xaritadan yovvoyi hayvonlar yashaydigan joylarni aniqlash.

Alohida e‘tibor qaratiladi: bolalar monologik nutqi.

Fan va tabiat

Mavzu: Yer osti qazilmalari

Maqsad: bolalar arxiologiyaga oid bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: mavzu asosida rasmlar, AKT, katta hajmdagi tuvak yoki maxsus idishlarda berkitilgan ko‘mir, tilla va kumushni aks ettiruvchi yasama tangachalar, arxiologlarning maxsus kiyimlari, belkurak.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqali slayd va rasmlarni tomosha qilish.
2. Yer osti qazilmalarini birma-bir nomlash.
3. Arxiologlar obraziga kirish.
4. Maxsus idishdagi tuproqni kavlab uning tagidan yer osti qazilmalarini topish.
5. Topilgan qazilmalar holatini o‘rganish.

Qo‘shimcha: “Konchilar” syujetli-rolli o‘yinini o‘ynashni taklif etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: Yer osti qazilmalarining noyoblighi, uni asrab-avaylab, keyingi avlodlarga yetkazishga bo‘lgan ijobiy munosabatni Shakllantirish.

San‘at

Mavzu: Bizning Yer sayyoramiz

Maqsad: bolalar “Klyaksografiya” usuli orqali turli ko‘rinishdagi rasmni chiza oladilar.

Kerakli jihozlar: A4 hajmdagi qog‘oz, mavzuga doir rasmlar, mo‘yqalam, rangli qalam, flomasterlar, namuna, suv idishi, salfetka Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlarni tomosha qilish.
2. “Klyaksografiya” texnologiyasi asosida rasm chizishni rejalashtirish.
3. Namunani kuzatish.
4. Ijodiy ish.
5. Ishlar ko‘rgazmasini tashkil etish.

Qo‘shimcha: mavzuga doir ashulalarni yod olish va ijro etishni taklif qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: “Klyaksografiya” usuli.

Qurish, konstruktsiyalash va matematika

Mavzu: Tog‘lar

Maqsad: bolalar tog‘ni qurishda kerakli shakllarni tanlay oladilar, sanaydilar, taqqoslaydilar, maketlarni mustaqil ravishda yasaydilar.

Kerakli jihozlar: qurish-yasash jihozlari, tog‘lar aks ettirilgan rasmlar va namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosida rasmlarni tomosha qilish.
2. Namunani ko‘rish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash.
4. Qurish-yasash ishlari.
5. Bajarilgan ishlarini tahlil qilish va kamchiliklarini bartaraf etish.

Qo‘shimcha: o‘z maketlarida jonli tabiatni aks ettirish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: jonli va jonsiz tabiatning bog‘liqligi.

Svuetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Yosh sayohatchilar (suvda, quruqlikda va tog‘da)

Maqsad: bolalar sayohatda bo‘lgan vaqtlarini eslaydilar, sayohat uchun zarur jihozlarni tanlay oladilar va jihozlardan maqsadli foydalanadilar.

Kerakli jihozlar: sumkachalar, qo‘shimcha kiyim, o‘yinchoq idish-tovoqlar, yeguliklar, kompas, osma qozoncha, belkurak.

Faoliyatning borishi:

1. Sayyohatga boriladigan joylarni tanlash.
2. Sayohat uchun kerakli buyumlarni tanlash va joylashtirish.
3. Syujetli-rolli o‘yinlar.
4. Rollar ijrosini muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: borgan joylarida fotosuratlar olishni taklif qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: sayohatdan olgan taassurotlari.

San‘at

Mavzu: Tog‘ manzarasi. Jamoa ishi

Maqsad: bolalar tog‘ manzarasini tasavvur qilib rasmda aks ettiradilar va tog‘ manzarasini aks ettiruvchi ranglardan foydalanadilar.

Kerakli jihozlar: A1 hajmdagi qog‘oz, rangli qog‘ozlar, mo‘yqalam, rangli qalam, flomasterlar, namuna, mavzu asosida rasmlar, yelim, suv idishi, salfetka Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosida rasmlarni tomosha qilish.
2. Namunani kuzatish.
3. Bajariladigan ishlarni o‘zaro taqsimlash.
4. Ijodiy ish.
5. Tayyor bo‘lgan jamoa ishini muhokama qilish.

Qo‘shimcha: jamoa ishini taqdimot qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: qog‘oz sathida to‘g‘ri mo‘ljallash olish.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: “Quyosh, suv va tuproq” ertagi

Maqsad: bolalar ertakni sahnalashtirishda sahna qoidalari, notiqlikmahoratiga rioya qilgan holda rollarni ijro etadilar.

Kerakli jihozlar: ertak asosida rasmlar, atributlar, niqoblar.

Faoliyatning borishi:

1. “Quyosh, suv va tuproq” ertagi syujetini rasmlarga qarab eslash.
2. Mavjud jihozlarni ko‘zdan kechirish va rejalashtirish.
3. Rollarni taqsimlash.
4. Ertakni sahnalashtirish.
5. Rolni qay darajada ijro etganliklarini o‘zaro muhokama qilish va ragbatlantirish.

Qo‘shimcha: bolalar sahna qoidalari va notiqlik mahoratiga rioya qila olishlarini kichiq lavha ijrosi orqali o‘rganish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: maqtanchoq va kamtarlikka xos xulqni farqlab, mustaqil xulosalar chiqarish.

Fan va tabiat

Mavzu: Havoning siqilishini kuzatish

Maqsad: bolalar jismlarning torayishi va kengayishi(fizikaviy xossasi)ni amaliy ish orqali kuzatadilar va xulosalaydilar.

Kerakli jihozlar: plastik butilka, shishirilmagan shar, issiq suv solingan idish.

Faoliyatning borishi:

1. Og‘zi ochiq plastik butilkani muzlatgichda sovitish.
2. Sovigach, butilka og‘ziga Sharni shishirmasdan kiydirish.
3. Tarbiyachi ko‘magida issiq suv solingan idishga butilkani qo‘yish.
4. Sharning kattalashishini kuzatish.
5. Xulosa: havo isish jarayonida kengayadi.
6. Butilka qayta muzlatgichga qo‘yilganda havo torayadi va shar o‘z holiga qaytadi.

Alohida e‘tibor qaratiladi: jismlarning torayishi va kengayishi holati haqidagi xulosalar

San‘at

Mavzu: Hasharotlar

Maqsad: bolalar hasharotlarning turi va tuzilishi bo‘yicha farqlaydilar, hasharotning tana qismlariga mos shakllarni yasaydilar, ularni birlashtirib hasharotning yaxlit ko‘rinishini hosil qiladilar.

Kerakli jihozlar: plastilin, stek, doska, namunalar, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Syujetni tanlash.
2. Kerakli materiallarni tayyorlash.
3. Namunalarni ko‘rish.
4. Ijodiy ish.
5. Ijodiy ishlar ko‘rgazmasi.

Qo‘shimcha: kompozitsiyalarni o‘simliklar bilan to‘ldirish.

E‘tiborga moyillik jihati: shakllarni hosil qilish texnologiyasi.

IYUN
OY MAVZUSI: BAXTLI BOLALIK

Guruh	Tayyorlov						
Mavzu	Ertak qahramonlari mehmonda						
Muddati	Iyun 4-hafta						
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi	Yurish, yugurish, yumalatish, irgʻitish, ilib olish, emaklash, tirmashish, muvozanat saqlash kabi asosiy harakatlarni mustahkamlaydi. Murakkab konstruk^iyalar, mayda qismlardan iborat boʻlgan mozaika va pazllarni yigadi					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Bolalarda ozbek xalq ertaklari orqali manaviy-axloqiy sifatlar: saxiylik, mehnatsevarlik, botirlik, jasurlik, dostlik, mehr-oqibatni tarbiyalanadi.					
	Nutq, muloqot, oʻqish va yozish	Bolalar qahramonlarning kechinmalari, his-hayajonlarini taʼ sirchan ifodalaydi, nutqida uyushiq bolakli, sodda gaplardan foydalanish malakasini mustahkamlaydi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi namunalari asosida bolalar qalbida oʻz millatiga muhabbat, milliy gʻurur hissini tarbiyalanadi.					
	Ijodiy rivojlanish	Badiiy asarni sahnalashtirish va rollarga boʻ linib ijro etish layoqati rivojlanadi.					
Rivojlanish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanb	Juma	Resu
Erkin faoliyat	Qurish, konstruksiyalash va			Pazllardan Zumrad uchun sandiq			Kerakli anjomla
	Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish	A.Navoiyning “Non isi” rivoyatini sahnalashtirish					Kerakli anjomla r
	Til, nutq va savodxonlikka oʻrgatish			Rasmli kartochkalardan yangi ertak toʻqiyimiz		Ertaklar - yaxshilikka etaklar mavzusida suhbat	Kerakli anjomla r
	Fan va tabiat	Mazali kulcha				Oltin tarvuz	Kerakli anjomla
	Sanʼat	Loy va tuzli xamir bilan ishlash “Non turlari”		Rasm: Mening ertak qahramonim		Applikatsiya: Yalmogʻiz kampir uychasiga mehmonga	Kerakli anjomla r

IYUN. TO'RTINCHI HAFTA

ERTAK QAHRAMONLARI MEHMONDA

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish Mavzu: A.Navoiyning "Non isi" rivoyati

Maqsad: bolalar A.Navoiyning "Non isi" rivoyatini biladilar, aktyorlik mahoratlarini oshiradilar.

Kerakli jihozlar: nonlar, savat, shox uchun taxt, kostyumlar, sallalar, stol va ko'rpachalar, dasturxon, gullar.

Faoliyatning borishi:

1. A.Navoiyning "Non isi" rivoyatini eslash.
2. Rollarni taqsimlash.
3. Obrazga kirish.
4. Rivoyatni sahnalashtirish.
5. Rolni qay darajada ijro etganliklarini o'zaro muhokama qilish.

Qo'shimcha: hikoyaning tarbiyaviy jihatlarini bolalar bilan muhokama qilish Alohida e'tibor qaratiladi: rolni ijro etayotganda ovoz balandligi.

Fan va tabiat

Mavzu: "Mazali kulcha" Oshpazning mahorat maktabi

Maqsad: bolalar kulcha nonni tayyorlashni biladilar, xamirdan, loydan, turli rangli plastilindan kulcha non yasay oladilar. Kulcha nonni pechkaga solib pishirish jarayonida ishtirok etadilar. Kerakli jihozlar: patnis, kesish uchun taxta, jo'va, xamir uchun mahsulotlar, chakich, idishlar, bosh kiyim.

Faoliyatni olib borilishi:

1. Bolalar uchun ish joylarini tayyorlash.
2. Xamir tayyorlash jarayoni.
3. Bolalar xohishiga ko'ra kichik kulchalar tayyorlash.
4. Kulchalarni pishirish va boshqa guruh bolalarini mehmon qilish.
5. Mahorat maktabi muhokamasi, ish natijalari xulosasi

Qo'shimcha: kulcha nonga bezak berishadi, sedana sepishadi. Alohida e'tibor qaratiladi: oziq-ovqat mahsulotlarini isrof qilmaslik, oshpaz mehnatini qadrlash.

San'at

Mavzu: Non turlari

Maqsad: bolalar non turlari va uning shakllarini biladilar.

Kerakli jihozlar: tuzli xamir, rangli plastilin, karton qog'oz, non turlari tasvirlangan rasmlar, namuna.

Faoliyatning borishi

1. Non turlari tasvirlangan rasmlarni ko'rish.
2. Ishni rejalashtirish.
3. Jarayonning borishi.
4. Ijodiy ishlar taqdimoti.
5. Rag'batlantirish

Qo'shimcha: ota-onalar uchun ko'rgazma Tayyorlash.

Alohida e'tibor qaratiladi: gigiyenik talablarga rioya qilish, do'stlarining mehnatini qadrlash.

Qurish, konstruktsiyalash va matematika

Mavzu: pazllardan Zumrad uchun sandiq

Maqsad: bolalar Zumrad uchun sandiqni qopqoqli idish modeli asosida yasaydilar.

Kerakli jihozlar: sandiq namunasi, pazllar.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani o'rganish.
2. Ishni rejalashtirish
3. Ish jarayoni.
4. Yakunlangan ish muhokamasi: sandiq qopqog'ini ochib yopilishini tekshirish.

Qo'shimcha: sandiqcha ichini "tilla tangachalar" bilan to'ldirish

Alohida e'tibor qaratiladi: qurilgan moslamani harakatga kelishini sinab ko'rish.

Til, nutq va savodxonlikka o'rgatish

Mavzu: Ertak to'qiydilar!

Maqsad: bolalar kartochkalar vositasida o'z tasavvurlari orqali ertak to'qiydilar va uni ifodali aytib bera oladilar.

Kerakli jihozlar: turli mavzulardagi rasmlar kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavjud rasmlar kartochkalarni kuzatish va tanlab olish.
2. Tanlab olingan kartochkalarni bir-biriga moslab ketma-ketlikda qo'yib chiqish.
3. Kartochkalar ketma-ketligi bo'yicha ertak to'qish va uni nomlash.
4. Ertakni do'stlariga aytib berish.

Qo'shimcha: rasmlar kartochkalardan ertak kitobini yaratishni taklif qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: ertakni obrazli aytib berish.

San'at

Mavzu: Mening ertak qahramonim

Maqsad: bolalar o'z ertak qahramonlarini tavsiflab bera oladilar va tavsiflangan qahramonlarining rasmini chizadilar.

Kerakli jihozlar: ertaklar qahramonlari rasmlari, mo'yqalam, rangli qalam, bo'yoq, idish, saftetka. Faoliyatning borishi:

1. Ertak qahramonlarining rasmlarni kuzatish.
2. Ertak qahramonlarini eslab ularni tavsiflash.
3. Ijodiy ish jarayoni.
4. Ertak qahramonlari galereyasini tashkil etish.
5. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: yaratgan qahramonni obraziga kirishni taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: obrazning to'liq va o'xshatib yaratilganligi.

Til, nutq va savodxonlikka o'rsatish

Mavzu: "Ertaklar - yaxshilikka etaklar" mavzusida suhbat

Maqsad: bolalar Mavzu yuzasidan suhbatda ishtirok etadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Doira hosil qilib o'tirib davra suhbatiga tayyorlanish.
2. Suhbat uchun savol va topshiriqlar:
 - Tinglaganertaklari orasidan yaxshilikka chorlovchi ertaklar nomini ayting.
 - Bu ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
 - "Ertaklar - yaxshilikka etaklar" iborasi ma'nosini tushuntirib bering.
 - Tinglagan ertaklaringizdan qaysi ertak sizga ko'proq yoqdi? Nima uchun?
 - Ertaklardagi qaysi qahramonning xatti-harakatiga qo' shilmaysiz? Nimaga?
3. Davra suhbat
4. Bolalar tomnidan pytilgan fikr va mulohazalarni umumlashtirish va xulosalash

Qo'shimcha: "Antonimlar" ta'limiy o'yini (botir-qo'rqq, mehribon-johil, mehnatsevar-dangasa).

Alohida e'tibor qaratiladi: suhbat jarayonidagi bolalar fikrlarining teranligi.

Fan va tabiat

Mavzu: Oltin tarvuz

Maqsad: bolalartabiiy va ertakdagi "oltin tarvuz"ni farqlay oladilar.

Kerakli jihozlar: tabiiy tarvuz, papye-masheli "oltin tarvuz".

Faoliyatning borishi:

1. Tabiiy tarvuz va "oltin tarvuz"ni kuzatish.
2. Tarbiyachi yordamida tarvuzlarni ikki pallaga bo'lish.
3. Ikkala tarvuz bo'laklarini taqqoslash va tahlil qilish.
4. Umumlashtirish va yakunlash.

Qo'shimcha: tarvuzdan sharbat olish va uni ta'tib ko'rish.

Alohida e'tibor qaratiladi: sun'iy va haqiqiy mahsulotlarni farqlash.

San'at

Mavzu: Yalmog'iz kampir uychasiga mehmonga

Maqsad: bolalar qaychidan to'g'ri foydalanish malakalarini mustahkamlaydilar, mustaqil ravishda uycha uchun kerakli shakllarni qirqadilar.

Kerakli jihozlar: Yalmog'iz kampir uyining turli ko'rinishdagi tasvirlari, rangli va oq qog'oz.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosida rasmlarni tomosha qilish.
2. Chizmani o'rganish va ishni rejalashtirish.
3. Ijodiy ish.
4. Ijodiy ishlar himoyasi (taqdimoti).

Qo'shimcha: ijodiy ishlarni ota-onalar burchagiga qo'yish.

Alohida e'tibor qaratiladi: qaychidan to'g'ri foydalanish.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh	Tayyorlov						
Mavzu	Yoz - soz						
Muddati	Iyull-hafta						
Rivojlanish sohalari ga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi	Yengil, tezkorlik bilan, toʻsiqlardan hatlab oʻtgan holda, yoʻnalish va muvozanatni saqlab yuguradi. Turgan joyida burilib, oyoqlarini ongga-chapga qoʻyib sakraydi. Sakramachoqda turli usullarda sakraydi.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Mehnat faoliyatida oʻrtogʻ iga yordam beradi, oʻrtogʻ ining yutuqlaridan quvonadi, boshqalarning mehnati natijalariga hurmat bilan qarash kabi ezgu xislatlar shakllanadi.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Murakkab gapni grammatik jihatdan toʻgʻri tuza oladi, rasmlar ustida hikoya tuzadi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Bola oʻyin jarayonida atrof-olamni idrok etadi, insoniy munosabatlarni anglaydi. Bolada oʻrtoqlik, doʻstlik, rostgoʻylik, xolislik, ozaro yordam kabi ijobiy xislatlarni tarbiyalanadi.					
	Ijodiy rivojlanish	Rangli qum bilan baliq rasmini solish malakalari mustahkamlanadi. Bolalar ishga ijodiy yondashadilar, ranglar va uning anvoyi turlarini biladilar, turli xil shakllardan kompozitsiyalar yasab, ishonch bilan ishlaydilar					
Rivojlanish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chors	Payshanba	Juma	Res
Erkin faoliyat	Qurish, konstruksiyalash va	Pazllar yigʻish Yoz manzarasi					Kerakli
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish		Qoʻgʻirchoq teatri		“Oila” syujetli- rolli oʻyin	Kerakli anjoml	
	Til, nutq va savodxonlikka oʻrgatish	“Yozgi oʻyinlar”rasm asosida suhbat				Kerakli	
	Fan va tabiat		Suv va qum bilan amaliy tajribalar		“Rangli pufakchalar”	Kerakli	
	Sanʼat	Rasm: Rangli qum bilan baliq rasmini solish		Loy ishi: Oʻyinchoqlar		Applikatsiya: Mening xonam	Kerakli anjoml

IYUL. BIRINCHI HAFTA

YOZ-SOZ

Til, nutq va savodxonlikka o'rsatish

Mavzu: Yozgi o'yinlar rasmi ustida suhbat

Maqsad: bolalar rasmmazmuni bo'yicha suhbat qura oladilar.

Kerakli jihozlar: AKT, mavzuga oid rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlar va AKT namoyishini tomosha qilish.
2. Ko'rgan voqea-hodisani tahlil qilish.
3. Mavzu asosida do'sti bilan suhbat.
4. Yakuniy suhbat: Yoz davridagi siz yoqtirgan o'yinlar

Qo'shimcha: "Quyosh va yomg'ir" o'yini.

Alohida e'tibor qaratiladi: rasmlarni tahlil qilinishiga, suhbatda voqea-hodisalarni ketma-ketligini to'g'ri tuzilganligi.

Fan va tabiat

Mavzu: Suv va qum bilan tajribalar

Maqsad: bolalar suv va qum bilan tajribalar o'tkaza oladilar.

Kerakli jihozlar: AKT, toza suv va qum, idish, bir martali stakanchalar, muz bo'laklari, bo'sh idish.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqali slayd va rasmlarni tomosha qilish.
2. Suv va qumni ko'zdan kechirish.
3. Qumni qo'llari bilan ushlab ko'rish va tahlil qilish.
4. Suvni qo'li bilan his qilish va uning xususiyatlarini aytish (ta'mi, rangi, shakli).
5. Muz bo'lakchalarini quyosh nurlari ostida erishini kuzatish.
6. Qumga suv aralashtirish va hosil bo'lgan massani izohlash.
7. Nam qumdan narsalar yasash.
8. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: tarbiyachi yordamida suvning bug'ga aylanish tajribasini o'tkazish.

Alohida e'tibor qaratiladi: suv va qumning o'ziga xos xususiyatlaari.

San'at

Mavzu: Rangli qum bilan baliq rasmini solish

Maqsad: rangli qum bilan baliq rasmini solish malakalari mustahkamlanadi.

Kerakli jihozlar: rangli qum, baliq chizmasi tasvirlangan rasmlar, namuna, yelim, mo'yqalam.

Faoliyatning borishi:

1. Turli ko'rinishdagi baliqlar rasmlarini va namunani tomosha qilish.
2. Rangli qum bilan baliq rasmini solish uchun materiallarni tanlash.
3. Jarayonning borishi.
4. Ijodiy ishlar taqdimoti.

Qo'shimcha: rasmni yana qo'shimcha bezaklar bilan boyitish.

Alohida e'tibor qaratiladi: konturdan chiqmagan holda rangli qumlarni yelimlash.

Qurish, konstruktsiyalash va matematika

Mavzu: Yoz manzarasi

Maqsad: bolalarda qo'l mayda motorikasi rivojlanadi.

Kerakli jixozlar: yoz fasliga doir suratlar, namuna, pazllar Faoliyatning borishi:

1. Yoz fasli asosidagi rasmlar va namunani tomosha qilish.
2. Pazllar yig'ish jarayoni.
3. Jarayonni do' stlari bilan muhokama qilish.

Qo'shimcha: yoz fasliga doir sherlar yod oldirish, ota-onalar uchun bolalar ishlaridan ko'rgazma tayyorlash.

Alohida e'tibor qaratiladi: bo'laklarni to'g'ri tanlangani va joylashtirilgani

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Qo'g'irchoq teatri (bolalar xohishiga ko'ra)

Maqsad: bolalar asarning nomi va uning mazmunini biladilar, nom va mazmunning uyg'unligini ko'ra oladilar.

Kerakli jihozlar: o'rmon aks etgan shirma, ikki ayiqcha, ona ayiq, tulki, pishloq bo'laklari, har xil rangdagi geometrik shakllar chizilgan teatr chiptasi (shu shakllar stullarga ham chiziladi).

Faoliyatning borishi:

1. Ertak syujetini esga olish.
2. Rollarni taqsimlash va qo'g'irchoq teatrini sahnalashtirish.

Qo'shimcha qism: sahnalashtirilgan ertakni boshqa guruh bolalariga namoyish etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bir-biriga do' stona munosabatda bo'lish, bo'lishish va imkon berishga o'rgatish.

San'at

Mavzu: O'yinchoqlar

Maqsad: bolalar o'zlari yoqtirgan o'yinchoqlarini loydan tasvirlaydilar, toza va tartibli ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: plastilin, sho'r xamir, loy, qo'l artish uchun salfetka, doska, stek.

Faoliyatning borishi:

1. Turli o'yinchoqlar rasmlarini tomosha qilish.
2. Ish stoliga kerakli jihozlarni tayyorlash.
3. O'yinchoqlarni tasvirlash uchun tanlash.
4. Ij odiy ish jarayoni
5. Bolalar ishlari natijalari muhokamasi.

Qo'shimcha: tarbiyachi bolalarning ishlaridan ko'rgazma tayyorlashni taklif etadi.

Alohida e'tibor qaratiladi: ozoda va gigiyenik talablarga rioya etib ishlash ko'nikmasining rivojlanishi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: "Oila" syujetli-rolli o'yin

Maqsad: bolalar o'ylangan syujet uchun mustaqil sharoit yarata olish, o'yin davomida xayrixohlik xislatlarini namoyon etish va jamoada o'ynay olish, tengqurlari bilan oson muloqotga kirisha olish malakalariga ega bo'ladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: qo'g'irchoq, o'yinchoq idish-tovoq, mebelb, o'yin atributlari.

Faoliyatning borishi:

1. Bolalar o'rtasida rollarni taqsimlash (dada, oyi, bola va h.z.)
2. Markazni uy qilib bezash.
3. Mustaqil syujetni ijro etish.
4. Bolalar ishlarini tahlil qilish va rag'batlantirish

Qo'shimcha qism: tarbiyachi kuzatadi, qo'shimcha syujetni taklif etadi: sizlarnikiga mehmon keladi; dadangiz xizmat safariga ketmoqda va h.z.

E'tiborga moyillik jihati: bolalarning jamoada inoq bo'lib o'ynashlari, nizoli vaziyatlarni yumshatish, mustaqil qaror qabul qila olish.

Fan va tabiat

Mavzu: Rangli pufakchalar

Maqsad: bolalar sovun ko'pikchalari hosil bo'lishni kuzatadilar va ular yordamida rasm soladilar.

Kerakli jihozlar: stakanda suv, suyuq sovun (yoki idish-tovoq yuvadigan suyuqlik) yoki shampun, naychalar, har xil rangdagi bo'yoqlar, kichkina qoshiqcha, oq qog'ozlar.

Faoliyatning borishi:

1. Rangli bo'yoq tayyorlash uchun stakandagi suvga suyuq sovun yoki shampun, rangli bo'yoq solish.
2. Tayyorlangan rangli bo'yoqlar naycha bilan qog'ozga puflanib ko'pikchalar hosil qilish.
3. Qog'ozdagi ko'pikchalarga ijodiy yondashgan holda turli shakllar berish.
4. Ishlar taqdimoti.
5. Amaliy tajribalar tahlili va xulosa.

Qo'shimcha: kichkina qoshiqcha yordamida sovun pufakchalari oq qog'ozga quyilib rasm chiziladi

Alohida e'tibor qaratiladi: sovun ko'pikchalari yordamida chiroyli rasmlar chizishga, bolalardagi qiziqish va tajribalarning natijalari.

San'at

Mavzu: Mening xonam

Maqsad: bolalar ishga ijodiy yondashadilar, ranglar va uning anvoyi turlarini biladilar, turli xil shakllardan kompozitsiyalar yasab, ishonch bilan ishlaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, flomaster, qalam, salftka, mato qiyqimlari, namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna bilan tanishish.
2. O'zxonadagi jihozlarni sanab o'tish.
3. Sanab o'tilgan jihozlarni rangli qog'ozlardan qirish.
4. Qir qilgan jihozlardan o'z xonasini yaratish.
5. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: bolalar applikatsiyada tasvirlagan xonalariga hayolan sayr qiladilar.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh	Tayyorlov						
Mavzu	Biz Yosh sportchilarmiz						
Muddati	Iyul 2-hafta						
Rivojlanish sohalari oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi	Gimnastika devori boʻylab tirmashadi. Kolonnada bittalab, ikkitalab, torttalab yuradi; doirada, sherengada yuradi. yurish vaqtida turli buyruqlarni bajaradi. Chambarak (obruch)ni qollari, oyoqlari, beli bilan aylantiradi.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Hamkorlik va oʻzaro yordamga asoslangan munosabatlar shakllanadi. Hayrxohlik, tengdoshlariga yordam berish, oʻz yolda oʻrtoqlarining manfaatlari, fikrlari, xohish istaklari bilan hisoblashish kabi yaxshi odatlar tarbiyalanadi, bahsli oʻrinlarni xushmuomalalik bilan hal qilishga oʻrganadi.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Bolani shaxsiy tajribalari asosida: tarbiyachi taklif etgan hayotiy mavzular boʻyicha mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya yoki ertak tuzish layoqati rivojlanadi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Sport va xalq oʻyinlariga boʻlgan qiziqish rivojlanadi.					
	Ijodiy rivojlanish	Bolada ijodiy qobiliyat rivojlanadi. Bola sport oʻyinlarida faol ishtirok etadi.					
Rivojlantirish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshan	Juma	Resmi
Erkin faoliyat	Qurish, konstruksiyalash va			Xumo sport arenasi			Kerakli
	Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish			Sport maktabi			Kerakli
	Til, nutq va savodxonlikka oʻrgatish	Yozgi sport olimpiadasi haqida suhbat					Kerakli anjoni
	Fan va tabiat	Mevalardan sharbatlar tayyorlash			Bizning sportchilar albomi		Kerakli anjoni
	Sanʼat	Rasm: Xumo sport arenasi		Loy ishi: Voleybol oynaymiz		Applikatsiya: Sport anjomlari	Kerakli anjomlar

IKKINCHI HAFTA

BIZ YOSH SPORTCHILARMIZ

Til, nutq va savodxonlikka o'rsatish

Mavzu: Yozgi sport olimpiadasi mavzusidagi mazmunli rasm asosidahikoya qilish.

Maqsad: bolalar yozgi sport olimpiadasi mavzusida mazmunli rasmni mustaqil so'zlab bera oladilar, oz fikrlari bilan ortiqlashadi.

Kerakli jihozlar: yozgi sport olimpiadasi mavzusida mazmunli rasm.

Faoliyatni borishi:

1. Yozgi sport olimpiadasi mavzusida mazmunli rasmni tomosha qilish.
2. Yozgi sport olimpiadasi mavzusida mazmunli rasm asosida savol-javob o'tkazish
3. Mazmunli rasm asosida hikoya qilish.

Qo'shimcha: yozgi sport olimpiadasi mavzusida vidiorolik tomosha qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: Nutqni grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash.

San'at

Mavzu: "Xumo" sport arenasi

Maqsad: bolalar xumo sport arenasini rasmlarda tasvirlaydilar, murakkab predmetlarni chizadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid rasmlar, oq qog'oz, rangli qalamlar, bo'yoqlar, salfetkalar, namuna.

Faoliyatning borishi:

1. "Xumo sport arenasi" rasmlarni tomosha qilish.
2. Namunani kuzatish.
3. Ijodiy ish.
4. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: Xumo sport arenasi mavzusida videorolikni tomosha qilish.

Fan va tabiat

Mavzu: Yosh sportchilar uchun sharbatlar tayyorlash

Maqsad: bolalar mevalarning vitamininga boyligi, mevalar sharbati sog'liq uchun foydaligini biladilar, maishiy texnikadan foydalanishga qiziqadilar.

Kerakli jihozlar: mevalar, taxtakach, pichoq, likopchalar, sharbat chiqarish apparati.

Faoliyatning borishi:

1. Mevalarni kuzatish.
2. Mevalarni turiga qarab ajratish.
3. Mevalarni kesish, urug'larini ajratish.
4. Mevalardan sharbat tayyorlash.
5. Xulosalash.

Qo'shimcha qism: chiqarilgan sharbatlardan do'stlarini mehmon qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: hayot havfsizligi qoidalar va gigiyenaga rioya qilish.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Sport maktabi.

Maqsad: bolalar sport turlarining nomini biladilar, sport turlarining ayrim xolatlarini o'z harakatlarida korsatib beradilar.

Kerakli jihoz va materiallar: sport anjomlari, sport maktablari xaqida slaydlar.

Faoliyatning borishi:

1. Turli sport maktablari haqida slaydlarni ko'rish.
2. Bolalar tomonidan o'ynash uchun rollarni taqsimlash.
3. O'yin.

Qo'shimcha qism: O'zbek sportchilari haqida qisqacha ma'lumot berish.

Alohida e'tibor qaratiladi: o'yin jarayonida hayot havfsizlik qoidalariga rioya qilish.

San'at

Mavzu: Voleybol o'ynaymiz

Maqsad: bolalar loydan odam shaklini aniq bera oladilar, ma'lum g'oya asosida syujetni yarata oladilar.

Kerakli jihozlar: "Voleybol maydoni" xaqida rasmlar, salfetka, taxtacha, stek, doska, plastilin.

Faoliyatning borishi:

1. Voleybolmaydonito'g'risidarasmlarko'ribchiqish.
2. Kim nimani yasashni bolalar tomonidan tanlash.
3. Yasalgan detallarni jamlash orqali maydonni yaratish.
4. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: voleybol o'yinini o'ynashni taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: odam shaklini yarata olish.

San'at

Mavzu: Sport anjomlarini yasash

Maqsad: bolalar sport anjomlaridagi murakkab detallarni mustaqil ravshda kesadilar.

Kerakli jihozlar: mavzuga doir rasmlar, namuna, rangli qalam, flomasterlar, oq qog'oz, rangli bo'yoq, suv idish, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlarni ko'rish.
2. Namuna bilan tanishish.
3. Kerakli materiallar bilan qurollanish.
4. Ijodiy ish.

Qo'shimcha qism: chizgan sport anjomlarini sport burchagidan olib kelish va unga mos xarakatlarni bajarish.

Alohida e'tibor qaratiladi: qaysi sport turiga qanday jihozlar zarurligi.

San'at

Mavzu: "Bizning sportchilar" albom tayyorlash

Maqsad: bolalar mustaqil ravshda mavzu asosida albom yarata oladilar, albom mazmuniga ijodiy yondoshadilar.

Kerakli jihozlar: albom namunasi, rangli qog'oz va kartonlar, rangli qalamlar, flomaster, bo'yoq, mo'yqalam, salfetka, yelim.

Faoliyatning borishi:

1. Albom namunani tomosha qilish.
2. Ijodiy ishni taxminiy rejalashtirish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash.
4. Ijodiy ish.
5. Tayyor albomni mazmunan boyitish.

Qo‘shimcha: albomlardan maqsadli foydalanish.
Alohida e‘tibor qaratiladi. Albom shaklini hosil qilish.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh	Tayyorlov						
Mavzu	Qiziqarli uchrashuvlar						
Muddati	Iyul 3-hafta						
Rivojlanish sohalari oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi	Yengil, tezkorlik bilan, toʻsiqlardan hatlab oʻtgan holda, yoʻnalish va muvozanatni saqlab yuguradi. Turgan joyida burilib, oyoqlarini oʻngga-chapga qoʻyib sakraydi.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Shoirilar va ertak qahramonlari bilan uchrashuvlar bolalarda emotsional munosabatni rivojlantiradi. Ozbek xalq ogzaki ijodi namunalari asosida bola qalbida oz millatiga muhabbat, milliy gʻurur hissi tarbiyalanadi.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Topishmoqlarga oylab, fikrlab javob berishga organadi, sanama, tez aytishlarni yod oladi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Bola qalbida ajdodlarimiz hayotiga qiziqish, ular bilan faxrlanish hissi tarbiyalanadi. Bola ertakning oziga xos xususiyatlarini tushunadi.					
	Ijodiy rivojlanish	Bola rasm chizishga intiladi, voqeani tushunib aks ettiradi, ranglar uygʻunligiga eʼtibor beradi.					
Rivojlantirish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chors	Paysh	Juma	Res
Erkin faoliyat	Qurish, konstruksiyalash va matematika	Harbiy texnika uchun turargoh qurish					Kerakli anj
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish			Ertakchi buvi mehmonda			Kerakli
	Til, nutq va savodxonlikka orgatish	Harbiylar bilan uchrashuv					Kerakli
	Fan va tabiat	Qalqon xususiyati			Bolta shorva tayyorlash		Kerakli
	Sanʼat		Rasm: Men askarman	Loy ishi: Guldon		Applikatsiya: Sevimli qahramonim	Kerakli anj

IYUL. UCHINCHI HAFTA
QIZIQARLI UCHRASHUVLAR
Til, nutq va savodxonlikka o'rsatish

Mavzu: Harbiylar bilan uchrashuv

Maqsad: bolalar harbiylar kasbiga qiziqadilar, xarbiy bilan muloqotga erkin kirishadilar.

Kerakli jihozlar: harbiylar va ularning hayotidan rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Harbiylar bilan uchrashuv.
2. Harbiylarga bolalar tomonidan berilgan savollarga javob olish.
3. Harbiylarning shaxsiy hayotlaridan hikoya tinglash.
4. Harbiy bo'lish uchun "nima qilish kerak?" savoliga javob olish.
5. Suhbatni xulosalash

Qo'shimcha: Harbiylar haqida she'r va maqollar aytish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarda mustaqil, tartibli bo'lishga, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish ko'nikmasi shakllanganligi.

Fan va tabiat

Mavzu: Qalqon xususiyati

Maqsad: bolalar amaliy tajribada o'yinchoq qalqonning xususiyatlarini tadqiq qiladilar, qo'shimcha ma'lumotlar orqali haqiqiy qalqon haqidagi tushunchalarini boyitadilar.

Kerakli jihozlar: bolalar uchun harbiy o'yinchoqlar to'plami, AKT, ko'rgazmali materiallar.

Faoliyatning borishi:

1. O'yinchoq qalqonni tomosha qilish.
2. AKT orqali qalqon turlari va uning vazifasi bilan tanishish.
3. Qalqonni tig' o'tkazmasligini tajribada sinab ko'rish:
 - o'yinchoq qalqonni kiyish va unga o'yinchoq nayzalarni ulotirish.
 - o'yinchoq avtomatdan qalqonga o'q otish.
4. Tajribada ko'rilgan holatlarni muhokama qilish va xulosalash.

Qo'shimcha: haqiqiy qalqon metallardan yasash va unga tig'li, o'tkir predmetlarni o'tmasligi haqida og'zaki va ko'rgazmali materiallarni namoyishi

Alohida e'tibor qaratiladi: amaliy tajriba orqali qalqonning xususiyatlarini aniqlash.

San'at

Mavzu: Men askarman

Maqsad: bolalar askarlarni o'z tasavvurlari orqali tasvirlab bera oladilar.

Kerakli jihozlar: askarlarni tasvirlangan rasmlar, mo'yqalam, rangli bo'yoqlar, suv idishi, salfetka, rasm qog'ozi.

Faoliyatning borishi:

1. Askarlar tasvirlangan rasmlarni ko'rib chiqish.
2. Kim qanday askar rasmini chizishni bolalar tomonidan tanlanishi
3. Ijodiy ish
4. Bolalarishiko'rgazmasi

Qo'shimcha: askarlar haqidagi she'rlar

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarning askarlar va ularning vazifalari haqidagi tushunchalari.

Sanʼat

Mavzu: Guldon

Maqsad: bolalar namuna asosida plastilindan guldonni yasaydilar, uni munchoqlar bilan bezaydilar.

Kerakli jihozlar: plastik stakanlar, plastilin, munchoqlar, namuna, guldon rasmi.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna va rasmlarni tomosha qilish.
2. Kerakli jihozlarni tanlab olish.
3. Guldonni yasash va uni munchoqlar bilan bezash.
4. Tayyor ishni doʻstlari bilan oʻrtoqlashish.

Qoʻshimcha: “Singan guldon” hikoyasini oʻqib berish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: Ijodiy qobiliyat va nafislikka eʼtibor qaratish.

Qurish, konstruktsiyalash va matematika

Mavzu: Harbiy texnika uchun turargoh qurish

Maqsad: bolalar harbiy texnika turargohini yasashda qurilish materiallaridan unumli foydalanadilar, turargoh oʻlchamini aniq chamalab qurilmani mustahkam quradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, mavzuga oid rasmlar, kubik, lego, oʻyinchoq harbiy texnikalari

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosidagi rasmlarni tomosha qilish.
2. Koʻrgan namuna va rasmlar asosida reja tuzish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash.
4. Turargohni qurish.
5. Tayyor ishlarni muhokama qilish va solishtirish.

Qoʻshimcha: tayyor turargohlarga oʻyinchoq harbiy texnikalarni joylash.

Alohida eʼtibor qaratiladi: turargohning qay darajada mustahkam ekanligini sinash.

Syujetli-rolli oʻyinlarva sahnalashtirish

Mavzu: Ertakchi buvi mehmonda

Maqsad: bolalar ertaklar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: ertak qahramonlari kiyimlari, ertaklardan lavha tasvirlangan rasmlar, ertak qahramonlariga tegishli buyumlar (sandiqlik, tandir, dasturxon, xumcha, oltin tarvuz va hokazolar)

Faoliyatning borishi:

1. Ertakchi buvi bilan uchrashuv.
2. Ertakchi buvining bolalarga topshiriqlari:
 - Qaysi ertakda chol, kampir, nevara, ayiq, quyon, boʻri, tulki, boʻgʻirsoq qatnashgan?
 - Qaysi ertakda “Ey, haloyiq, men bolalarga ulashgan gul urugʻi qaynatilgan edi” deb qirolda aytadi?
 - Qaysi ertakda “Men sendan “Qaynar xumcha” ni soʻrayman” deb aytadi chol ...
3. Ertakchi buvining savoli:
 - Sehrli sandiqchamdagi buyumlar qaysi ertakka tegishli? (qizil qalpoqcha, oltin tarvuz, ur toʻqmoq, tandir, xumcha.
4. Bolalar javoblarini umumlashtirish va ragʻbatlantirish.
5. Ertakchi buvining hikoyasi asosida ertakni sahnalashtirish

Qoʻshimcha: ertaklar olamiga sayohat koʻrgazmasi.

Sanʼat:

Mavzu: Sevimli qahramonim

Maqsad: bolalar oʻz sevimli ertak qahramonlarining applikasiyasini yaratadilar.

Kerakli jihozlar: rangli qogʻozlar, qaychi, yelim, namuna.

Faoliyatning borishi:

1. Ertak kitoblarini koʻrib chiqish.
2. Qaysi qahramonni yasashni rejalashtirish.
3. Ish jarayoni
4. Ishlar koʻrgazmasi.

Qoʻshimcha: ijodiy ishlar koʻrgazmasini tashkil etish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: sevimli qahramonlar obrazini toʻliq yaratish.

Fan va tabiat

Mavzu: Bolta shoʻrva tayyorlash

Maqsad: bolalar boltali shoʻrvani tayyorlash jarayonida ishtirok etadilar, shoʻrvani isteʼmolga yaroqli yoki yoroqsiz ekanligini tajriba asosida isbotlaydilar.

Kerakli jihozlar: shoʻrva uchun kerakli masalliq: suv, tuz, qozon, bolta, koʻkatlar, sabzavotlar, AKT

Faoliyatning borishi:

1. Ertakdan lavha tomosha qilish.
2. Shoʻrva uchun kerakli masalliqni tayyorlash: suv, tuz, qozon, bolta, koʻkatlar, sabzavotlar.
3. “Shoʻrva pishirish” jarayoni.
4. Tayyor shoʻrvani taʼtib koʻrishni tavsiya qilish.
5. Bolalarning nima uchun shoʻrvani ichmaganliklari izohi

Qoʻshimcha: ertakni toʻliq namoyish etish.

Alohida eʼtibor qaratiladi: har bir masalliqni oʻz oʻrnida ishlatish.

IYUL
OY MAVZUSI: QUVNOQ YOZ

Guruh	Tayyorlov						
Mavzu	Suv qiroli mehmonda						
Muddati	Iyul 4-hafta						
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi	Tovondan oyoq uchiga oʻtgan tarzda yuradi, toʻsiqlardan xatlaydi yoki aylanib oʻtadi, gimnastika skameykasi boʻylab muvozanatni saqlagan holda yuradi; uzatilgan toʻpni turli usullar bilan ilib oladi.					
	Ijtimoiy-hissiy	Tajribalar otkazadi, goyalar taklif etadi, tashabbuskorlik krsatadi. Kattalar va tengdoshlari bilan oson muloqot qiladi.					
	Nutq, muloqot, oqish va yozish malakalari	Sodda gaplarni ishlatadi, murakkab gapni grammatik jihatdan toʻgʻri tuza oladi, rasmlar ustida hikoya tuzadi, oʻz his-tuygʻularini, maqsadini nutq yordamida ifodalaydi.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Bola suvning inson hayoti uchun nihoyatda zarurligi, suvsiz hayot boʻlmasligini, yer yuzidagi eng bebaho boylik suv ekanligi, suvni asrash, tejash, isrof qilmaslik lozimligi haqida biladi.					
	Ijodiy rivojlanish	Bolaning rasm solish, qogʻoz qirqish va tasvir hosil qilishga oid koʻnikma va malakalari mustahkamlanadi. Loy, plastilin, tuzli xamir, rangli shamchalardan narsalar Yasashni biladi.					
Rivojlantirish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanb	Pays	Juma	Resu
Erkin faoliyat	Qurish, konstruktsiyalash va matematika		Ikkilamchi materiallardan qayiqcha yasash				Kerakli anjomlar
	Syujetli-rolli oyinlar va sahnalashtirish			Neptun bobo mehmonda		“Tomchi xaqida ertak”	Kerakli anjomlar
	Til, nutq va savodxonlikka oʻrgatish	“Suv osti dunyosi” taʼlimiy oʻyin					Kerakli anjomlar
	Fan va tabiat	Suvga ranglarni tomizish Amaliy tajriba				Tomchilab sugʻarish uchun baklajkadan moslama tayyorlash	Kerakli anjomlar
	Sanʼat	Rasm: Suv osti dunyosi			Loy ishi: Qayiq		Applikatsiya

IYUL. TO'RTINCHI HAFTA

SUV QIROLI MEHMONDA

Til, nutq va savodxonlikka o'rsatish Mavzu: "Suv osti dunyosi" ta'limiy o'yini

Maqsad: bolalar dengiz hayvonlari kit, akula, delfinlar, ularning yashash sharoiti, tashqi qiyofasi haqida bilimlarni mustahkamlaydilar, murakkab gapni grammatik jihatdan to'g'ri tuza oladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: suv osti dunyosi hayvonlari, o'simliklarining rasmlari, AKT

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqali suv osti dunyosiga sayohat qilish.
2. "Suv osti dunyosi" ta'limiy o'yini tartibi bilan tanishish.
3. Ta'limiy o'yin jarayoni.
4. O'yin yakunida bolalarning o'z taassurotlarini gapirib berishlari

Qo'shimcha: mavzu bo'yicha she'r aytirish.

E'tiborga moyillik jihat: taassurotlar bilan o'rtoqlashishda murakkab gapni grammatik jihatdan to'g'ri tuza olish.

Fan va tabiat

Mavzu: Suvga ranglarni tomizish. Amaliy tajriba

Maqsad: bolalar suvning o'ziga xos xususiyatlarini bilishga qiziqadilar.

Kerakli jihozlar: suv va bo'yoqlar, pipetka, rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Suvning xususiyatlari bilan tanishish.
2. "Suv bo'lmasa..." mavzusi yuzasidan suhbat va mavzuga doir rasmlar namoyishi.
3. Bo'yoq va suv bilan amaliy tajriba.
4. Bolalar ishining muhokamasi va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: bolalarni "Tomchilar sayohati"ga taklif qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: tajriba o'tkazish malakalari.

Fan va tabiat

Mavzu: Tomchilab sug'orish uchun baklajkadan moslama tayyorlash

Maqsad: bolalar tomchilab sug'orishning maqsadini biladilar, tomchilab sug'arish uchun baklashjkadan moslama tayyorlaydilar.

Kerakli jihozlar: suv va teshik qopqoqli baklajkalar, AKT Faoliyatning borishi:

1. Tomchilab sug'orish haqida suhbat.
2. Tomchilab sug'orish mavzuga doir rasmlar namoyishi.
3. Ish jarayoni.
4. Bolalar ishining muhokamasi va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: bolalarning tomchilab sug'orish jarayonini kuzatish uchun AKT yordamida polizga sayr uyushtirish.

Alohida e'tibor qaratiladi: tajriba o'tkazish malakalari.

Sanʼat

Mavzu: Suv osti dunyosi

Maqsad: bolalar dengiz hayvonlari kit, akula, delfinlarning oʻziga xos xususiyatlarini oʻz rasmlarida tasvirlay oladilar.

Kerakli jihozlar: rangli qalamlar, flomaster, rangli boʻyoq, moʻyqalam, salfетка, suv idishi
Faoliyatning borishi:

1. Suv osti dunyosini tomosha qilish.
2. Ijodiy ishni taxminiy rejalashtirish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash.
4. Rasm chizish jarayoni.
5. Bolalar ishlarini muhokama qilish va ragʻbatlantirish.

Qoʻshimcha: Tayyor boʻlgan ishlarni sovgʻa qilish.

Qurish-yasash va matematika

Mavzu: Ikkilamchi materiallardan qayiqcha yasash

Maqsad: bolalar ikkilamchi materiallardan qayiqcha yasay oladilar.

Kerakli jihozlar: ikkilamchi materiallar: mato, quritilgan barglar, yongʻoq poʻchogʻi, namunalar, sabzavotlar, AKT Faoliyatni borishi:

1. Qayiqcha tasvirlangan slaydlarni koʻrish.
2. Bolalar bilan qayiqcha yasashni rejalashtirish.
3. Ikkilamchi materiallardan qayiqcha yasash jarayoni.

Qoʻshimcha: Tarbiyachi tish kovlagich tayoqchalaridan foydalanishni mumkinligini tavsiya etadi

Alohida eʼtibor qaratiladi: jamoa boʻlib ishlash, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish.



Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Neptun bobo mehmonda

Maqsad: bolalarda sarguzashtlarda qatnashish, syujetli-rolli oʻyin qahramonlarining (qirol, suv parisi, baliqlar) rollarini ijro etish hoxishi uygʻonadi va ijrochilik mahorati rivojlanadi.

Kerakli jihozlar: Neptun bobo, suv parisi, baliqlar liboslari, suv osti dunyosi tasvirlangan rasmlar. Faoliyatning borishi:

1. “Neptun bobo mehmonda” mavzusidagi rasmlarni tomosha qilish.
2. Bolalar o'rtasida rollarni taqsimlash.
3. Oyinga hozirlik korish
4. yinning borishi.
5. O'yin yakuni, rag'batlantirish.

Qo'shimcha: ayvoncha (suv havzasi, basseyn)da o'yinni davom ettirish mumkin.

Alohida e'tibor qaratiladi: har bir bolaning o'yinga jalb etilishi, bolalarning ijrochilik mahorati.

San'at

Mavzu: Suvpurkagich

Maksad: bolalar mo'yqalam va yelimdan to'g'ri foydalanish malakalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: namuna, mo'yqalam, suv, oq qog'oz, tayyor shablonlar, suvpurkagich.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Suvpurkagichni qanday yasalganini tahlil qilish.
3. Ish jarayoni.
4. Tayyor ishni turli bezaklar bilan boyitish.

Qo'shimcha qism: baklajkalardan ham suvpurkagich ixtiro qilish, bolalarni rag'batlantirish.

Alohida e'tiborga moyillik jihati: tayyor bezatilgan ijodiy ishlar.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: “Tomchi” ertagini sahnalashtirish

Maqsad: bolalar adabiy ertakka qiziqadi, do'stlik, sadoqat, yaxshilik kabi insoniy xislatlarni tushunadi

Kerakli jihozlar: ertak qahramonlari kiyimlari, ertaklardan lavha rasmlar, AKT Faoliyatning borishi:

1. “Tomchi” ertagini audio yozuvini tinglash, ertak kitobini tomosha qilish
2. Rollarni taqsimlash
3. Sahnalashtirish jarayoni
4. Sahnalashtirish jarayonini muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: suv haqida multfilm namoyishi, maqol va topishmoqlar.

San'at

Mavzu: Qayiq

Maqsad: bolalar qayiq larni rasmga qarab yoki tasavvurga asoslanib yasaydilar, yasalayotgan qayiqning o'ziga xos xususiyatlarini tasvirlashga harakat qiladilar.

Kerakli jihozlar: loy, plastilin, stek, taxtach, salfetka Faoliyatning borishi:

1. Qayiq larni albomini ko'rib chiqish.
2. Qayiq yasashni rejalashtirish.
3. Ish jarayoni
4. Tayyor ish larni taqdimoti va ko'rgazmasi

Qo'shimcha: ijodiy ishlarni suvda suzdirish.

E'tiborga moyillik jihati: toza ishlashni bilish, tafakkur va mayda motorikani rivojlantirish.



AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG‘LOM BOLALAR

Guruh	Tayyorlov						
Mavzu	Vitaminlar bilan qiziqarli uchrashuvlar						
Muddati	Avgust 1-hafta						
Rivojlanish sohalariga oid maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi	Bolalar sport turlariga qiziqadilar, ochiq havoda musobaqalar, harakatli va estafetali oʻyinlarni tashkil qiladilar, musiqa ohangiga mos jismoniy harakatlarni bajaradilar.					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Bolalar jamoada o zini tutish, tengdoshlari bilan samimiy munosabatda boʻlish, atrofdagilar bilan barqaror aloqalar o rnatish, dostlar orttirish, ularga yordam berishni biladilar.					
	Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari	Bolalar togrri ovqatlanish tartibi haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar va unga rioya qilishga harakat qiladilar. Bolalar muloqot jarayonida, ozini tutishida, harakatida, soʻzida zararli odatlardan foydalanmaslikni bilib oladilar.					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Bolalar hoʻl mevalarning oʻziga xos jihatlarini amaliy ish orqali farqlashga oʻrganadilar. Bolalar sabzavot doʻkoni sotuvchilarining mehnatini ijodiy tasvirlay oladilar, atributlarni maqsadli ishlata oladilar.					
	Ijodiy rivojlanish	Bolalar vitaminlar va ularning foydali tomonlarini bilgan holda ularni rasmda tasvirlaydilar.					
Rivojlantirish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanb	Payshanb	Juma	Resu
Erkin faoliyat	Qurish, konstruksiyalash va	Fitobar					Kera kli
	Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish			Poliz ekinlari doʻkoni			Kera kli
	Til, nutq va savodxonlikka oʻrgatish	Sogʻlom ovqatlanish tartibi			Zararli odatlar va ularning oldini olish		Kera kli anjo
	Fan va tabiat	Foydali mahsulotlar			Buyuk siymolar sihat-salomatlik haqida		Kera kli anjo
	Sanʼat		Rasm: Shoʻ x vitaminchalar	Applikatsiya Quyosh va suv - bizning doʻstlarimiz		Loy ishi: Hosil yigʻamiz	Kera kli anjo mlar

AVGUST. BIRINCHI HAFTA

VITAMINLAR BILAN QIZIQARLI UCHRASHUVLAR

Til, nutq va savodxonlikka o'rsatish

Mavzu: Sog'lom ovqatlanish tartibi

Maqsad: bolalar to'g'ri ovqatlanish tartibi haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar va unga rioya qilishga harakat qiladilar.

Kerakli jihozlar: to'g'ri ovqatlanish tartibi tasvirlangan rasmlar to'plami, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. To'g'ri va noto'g'ri ovqatlanish tartibining AKT orqali namoyishi.
2. Ko'rilgan holatlarni tahlil qilish.
3. To'g'ri ovqatlanish tartibi tasvirlangan rasmlarni ketma-ketlikda joylashtirish.
4. Joylashtirilgan rasmlarni izohlash.
5. Xulosalash.

Qo'shimcha: sog'lom ovqatlanishning organizm uchun ahamiyati haqida suhbat.

Alohida e'tibor qaratiladi: batartib ovqatlanishga intilish.

Fan va tabiat

Mavzu: Foydali mahsulotlar

Maqsad: bolalar foydali mahsulotlarning o'ziga xos jihatlarini amaliy ish orqali farqlashga o'rganadilar.

Kerakli jihozlar: ho'l mevalar, taxtakach, pichoq, likopchalar, salfetka, sharbat chiqarish apparati. Faoliyatni olib borishi:

1. Ho'l meva va sabzavotlarni lupa ostida kuzatish.
2. Mevalarni kesish, ularning urug'larini ajratish va sabzavotlarni tozalash.
3. Meva va sabzavotlarning sharbatini chiqarish va ta'tib ko'rish.
4. Meva va sabzavotlarning rangi, shakli, ta'mi, urug'lari bo'yicha ma'lumotlar berish.
5. Amaliy ish yakuni va xulosasi.

Qo'shimcha: meva va sabzavotlardan tayyorlangan sharbat bilan do'stlarini mehmon qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: mevalar va sabzavotlarni muntazam iste'mol qilishning inson organizmiga foydasi.

San'at

Mavzu: Sho'x vitaminchalar

Maqsad: bolalar vitaminlar va ularning foydali tomonlarini bilgan holda ularni rasmda tasvirlaydilar. Kerakli jihozlar: oq qog'oz, bo'yoq, rangli qalamlar, mo'yqalam, suv idishi, namuna, salfetka, AKT. Faoliyatning borishi

1. AKT orqali shox vitaminchalar tasvirlangan multimedia yoki multfilm tomosha qilish.
2. Namunalarni ko'rish.
3. Ishni rejalashtirish.
4. Ijodiy ish jarayoni.
5. Ijodiy ishlar ko'rgazmasi va taqdimoti.

Qo'shimcha: mavzu asosida ta'limiy o'yin.

E'tiborga moyillik jihat: vitamin turlari va ularning inson organizmi uchun ahamiyati.

Qurish, konstruktsiyalash va matematika

Mavzu: Fitobar

Maqsad: bolalar katta hajmdagi kubiklardan foydalanib fitobar yasaydilar.

Kerakli jihozlar: AKT, katta hajmdagi kubiklar, katta va kichik g'ishtchalar, geometrik shakllar.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqalifitobar va uningjvonlarida joylashgan anjomlarni tomosha qilish.
2. Qurilish materiallarini o'rganish, tanlash va fitobar qurilishini rejalashtirish.
3. Qurish jarayoni.
4. Bajarilgan ishning muhokamasi.
5. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: moychechak va na'matak damlamasini ichish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bajarilgan ishning mustahkamligi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Poliz ekinlari do'koni

Maqsad: bolalar sotuvchilarning mehnatini ijodiy tasvirlay oladilar.

Kerakli jihozlar: poliz ekinlari do'koni rasmi, poliz ekinlari mulyajlari, o'yin uchun atributlar: peshlavha, rasta, kassa apparati, xarid uchun savatcha, qog'oz pullar, terminal, kartochkalar, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Poliz ekinlari do'koni rasmi va AKT namoyishi bilan tanishish.
2. Rollarni taqsimlash.
3. O'yin uchun kerakli atributlarni tanlash.
4. Syujetni ijro etish.
5. Ijro etilgan lavhani tahlil qilish.

Qo'shimcha: "Poliz ekinlarini top" ta'limiy o'yini.

Alohida e'tibor qaratiladi: poliz ekinlarining inson organizmi uchun muhimligi.

San'at

Mavzu: Quyosh va suv - bizning do'stlarimiz

Maqsad: bolalar quyosh va suvni noan'anaviy usul-plastilinografiya tasvirlay oladilar.

Kerakli jihozlar: rangli qog'oz, karton qog'oz, bo'yoq cho'tkalar, rangli qalamlar, qaychi, yelim va yig'ma rasmlar, namuna.

Faoliyatni olib borilishi:

1. Quyosh va suvning rasmini ko'rib chiqish.
2. Plastilinografiya texnikasi bilan tanishish.
3. Bajariladigan ishni rejalashtirish.
4. Kerakli anjomlarni tanlash.
5. Ijodiy ish.
6. Rasmlar ko'rgazmasini tashkil etish.

Qo'shimcha: tayyorlangan ishlarni ota-onalarga hadya etish

Alohida e'tibor qaratiladi: barmoqlarni bitta yo'nalish bo'yicha harakatlanish texnikasi.

Til, nutq va savodxonlikka o'rsatish

Mavzu: Zararli odatlar va ularning oldini olish

Maqsad: bolalarzararliodatlar (tirnoqni og'ziga solish, predmetlarni so'rish va chaynash, barmoqlarni quloq va burun teshigiga solish), ularning oqibatlarini biladilar va bunday odatlardan saqlanadilar.

Kerakli jihozlar:multfilm yoki slayd, zararli va foydali odatlar aks etgan rasmlar, gigiyenaga taalluqli rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Zararli odatlar haqida multfilm yoki slayd namoyishi.
2. "Foydali odatlarni ko'rsat" o'yini (zararli va foydali odatlar aks etgan rasmlar gilam ustigaqo'yiladi. Agar bolazararli odatlar aks etgan rasmni olsa xafa kayfiyatga, foydali odatlar aks etgan rasmni olsa xursand kayfiyatga yopishtiradi).
3. Foydali odatlarni qarsaklar orqali aniqlash o'yini.
4. Mavzu bo'yicha bolalarning fikrlarini tinglash.

Qo'shimcha:she'rlar va ertaklarni eslash

Alohida e'tibor qaratiladi:zararli odatlardan o'zini tiyish, foydali odatlarni singdirish.

Fan va tabiat

Mavzu: Buyuk siymolar sihat-salomatlik haqida

Maqsad: bolalarbuyuk siymolarning sihat-salomatlik haqida aytgan ibratli fikrlarini bilib oladilar.

Kerakli jihozlar:AKT,dorivor o'simliklar: namatak, anor po'sti, makka soqoli.

Faoliyatning borishi:

1. Dorivor o'simliklarning slaydlar orqali namoyishi.
2. Buyuk siymolar sihat-salomatlik haqidagi ibrat so'zlarini tinglash.
3. Namatak, anor po'sti, makka soqolini damlab do'stlari bilan baham ko'rish.

Qo'shimcha:dorivor o'simliklar tasvirlangan albomni ko'rib chiqish.

Alohida e'tibor qaratiladi:dorivor o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati.

San'at

Mavzu:Hosil yig'amiz

Maqsad: bolalar urug'lardan poliz ekinlarini yasashga o'rganadilar.

Kerakli jihozlar:loy, tuzli xamir, namuna, sabzovot va mevalar rasmlari, salftkalar, loy ishi uchun maxsus doskalar.

Faoliyatning borishi:

1. Bog' va poliz ekinlari rasmini ko'rib chiqish
2. Loy ishi uchun mavzu tanlash
3. Ishni chizmaga qarab rejalashtirish.
4. Ish jarayoni.
5. Bolalarishlarinimuhokamaqilishvarag'batlantirish

Qo'shimcha:mavzuga mos multfilm tomosha qilish

Alohida e'tibor qaratiladi:bog' vapoliz ekinlarining foydali xususiyatlari

AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG‘LOM BOLALAR

Guruh	Katta						
Mavzu	Buni bilish foydali						
Muddati	Avgust 2-hafta						
Rivojlanish sohalari o'ld maqsadlar	Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi	Yugurishning har xil turlarini bajaradi (ilonizi, zigzag, mokisimon, toʻsiqlarni engib oʻtib); turli usullar bilan sakraydi; bir necha predmet oralab emaklaydi; qornida yotib, qoʻllari bilan tortilib emaklaydi; gimnastika harvoniga oʻrmlab chiqadi; konstruksiyalarni jamlaydi; Piyodalar uchun asosiy yoʻl qoidalarini biladi; xavfli joylarda oʻynash (mashina qatnovi yolaklarida, qurilish yaqinida).					
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Oziga yuklatilgan majburiyatlarni qabul qiladi va bajaradi; qoʻrquv va xavfni tushunadi; hulq qoida va meyorlariga boysunadi (mumkin, man etiladi, yaxshi, yomon, kerak).					
	Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari	Nutqning dialogik, monologik shaklini qoʻllaydi. Asosiy ranglar nomini biladi. Mazmunli rasmlar asosida tasviriy hikoya aytadi, voqealarni izchil bayon qiladi. Bolalar mening xuqularim mavzusidagi sher mazmunini tahlil qiladilar					
	Bilish jarayonining rivojlanishi	Bolada mantiqiy fiklash kengayadi, sonlar doirasida sanashni, bir qator qoyilgan buyumlarni sanab, sonni tartib bilan aytishni, sonni ot bilan moslashtirib, oxirgi sonni sanalgan buyumlarga taalluqli qilib umumlashtirib aytishni biladi.					
	Ijodiy rivojlanish	Tengdoshlari bilan ijodiy oyinlar oynaydi; qogozdan applikatsiyalar yaratadi (svetofor); loydan yoʻl belgilarini yasaydilar, tasavvuriga koʻra syujet yaratadilar.					
Rivojlantirish markazlari		Taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyat					
		Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Pays	Juma	Res
Erkin faoliyat	Qurish, konstruksiyalash va matematika	“Yoʻl belgilari”, “Raqami boʻyicha terib ber”					Kerakli anj
	Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish			Avtobus			Kerakli anj
	Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari	Choʻmilish havzasidagi holatlar			Mening huquqlarim		Kerakli anj
	Fan va tabiat				Havo markazi (ekologik tarbiya)		Kerakli anj
	Sanʼat	Rasm: Xavf tugʻdiruvchi uy jihozlari		Applikatsiya: Oʻz qoʻlimiz bilan svetofor yasaymiz		Loy ishi: Yoʻl belgilari	

AVGUST. IKKINCHI HAFTA

BUNI BILISH FOYDALI

Til, nutq va savodxonlikka o'rgatish

Mavzu: Cho'milish havzasidagi holatlar

Maqsad: bolalar cho'milish havzalaridagi tartib va qoidalarini biladilar, ularga rioya qiladilar, cho'milish mumkin bo'lmagan suv havzalari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: AKT, sochiq, maxsus himoyalovchi kiyimlar: badan hamda qo'llar uchun ballonchalar, quloq va burun uchun moslamalar, cho'milish havzasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy holatlar tasvirlangan rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga mos rasmlar va AKT namoyishini ko'rish.
2. Har bir anjomni izohlash.
3. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy holatlar tasvirlangan rasmlarni kuzatish va bolalar bilan muhokama qilish.
4. Bolalar ishtirokini muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: "Suzadi-suzmaydi" ta'limiy o'yini.

Alohida e'tibor qaratiladi: qo'l va oyoqlarning harakatlanish tartibini bilishlari.

San'at

Mavzu: Hayot uchun xavfli

Maqsad: bolalar hayot uchun xavfli holatlarni rasm orqali tasvirlab bera oladilar, texnika vositalaridan to'g'ri foydalanish qoidalariga amal qiladilar.

Kerakli jihozlar: gaz pechi, tok razetkalaridan to'g'ri foydalanilmaganda kelib chiqadigan salbiy oqibatlar tasvirlangan rasmlar, guashb, akvarel bo'yoqlari, turli mo'yqalamlar, suvli idish, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Gaz pechi, tok, razetkalardan to'g'ri foydalanilmaganda kelib chiqadigan salbiy oqibatlar tasvirlangan rasmlarni tomosha qilish.
2. Ishni rejalashtirish.
3. Ish jarayoni.
4. Ish natijalarini muhokama qilish.
5. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: ota-onalar uchun ko'rgazma tashkil etish.

E'tiborga moyillik jihati: ehtiyotkor bo'lish ko'nikmasining rivojlanishi.

Qurish, konstruktsiyalash va matematika

Mavzu: "Yo'l belgilari", "Raqami bo'yicha terib ber" sonli qirqma rasmlar asosida yig'amiz

Maqsad: bolalar taklif qilingan materiallardan yo'l belgilarini yig'adilar, yo'l belgilari nimaga xizmat qilishi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Kerakli jihozlar: pazllar, sonli kesma rasmlar, yo'l belgilari.

Faoliyatning olib borilishi:

1. Yo'l belgilari tasvirlangan rasmlarni ko'rish va kuzatish.
2. Yo'l belgilarini raqami bo'yicha taxlashni rejalashtirish.
3. Yo'l belgilarini taxlash.
4. Taxlangan yo'l belgilarining taqdimotini amalga oshirish.
5. Bolalar tomonidan taxlangan belgilarni muhokama qilish va rag'batlantirish.
6. Ishlatilgan materiallarni miqdorini sanash va shakllari bo'yicha ajratish.

Qo‘shimcha: tarbiyachi bolalarga uyga ketayotganda yo‘l belgilarini kuzatishni va o‘xshashini topishni taklif qiladi.

Alohida e‘tibor qaratiladi: yo‘l belgilariga rioya etishning inson hayotidagi o‘rni.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Avtobus

Maqsad: bolalar avtobus turlarini farqlaydilar.

Kerakli jihozlar: haydovchi kiyimi, salon va o‘rindiqlar.

Faoliyatning borishi:

1. Avtobus turlari aks etgan rasmlarni ko‘rib chiqish.
2. Rollarni taqsimlash.
3. O‘yin uchun kerakli atributlarni tanlash.
4. “Avtobusda ketayapmiz” sahnasini qo‘yish.
5. Ijro etilgan sahnani muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: “Avtobus bekati” o‘yini.

Alohida e‘tibor qaratiladi: hayot xavfsizligi qoidalari.

San‘at

Mavzu: O‘z qo‘limiz bilan svetofor yasaymiz

Maqsad: bolalar karton va ikkilamchi materiallardan svetofor yasaydilar hamda uni qaeirlarda ishlatilishini tushuntirib bera oladilar.

Kerakli jihozlar: svetofor tasvirlangan rasmlar, rangli qog‘oz, karton, ikkilamchi materiallar, qaychi, yelim.

Faoliyatning borishi:

1. “Shahardagisvetoforlar” mavzusidagirasmlarniko‘rish.
2. Svetofor yasash chizmasi bilan tanishish.
3. Ishni rejalashtirish
4. Ish jarayoni.
5. Bolalarning faoliyati natijasini muhokama qilish.
6. Rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: tayyor svetoformi hovlidagi yo‘l harakati maydonchasiga o‘rnatib “Yo‘l belgilari” ta‘limiy o‘yinini o‘ynash.

Alohida e‘tibor qaratiladi: yo‘lni kesib o‘tayotganda svetofor chiroqlariga qarab o‘tish.

San‘at

Mavzu: Yo‘l belgilarini yasash

Maqsad: bolalar yo‘l belgilarini yasashda plastilin yoki loyni aylantirish va dumalatish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: loy, plastilin, yo‘l belgilari namunalari, rasmlari, stek, salftetka, doska.

Faoliyatning borishi:

1. Yo‘l belgilari mavzusidagi rasmlarni tomosha qilish.
2. Ish stolini yo‘l belgilarini yasash uchun tayyorlash.
3. Ish jarayoni.
4. Bolalar ishlari natijalarini muhokama qilish va rag‘batlantirish.
5. Bolalar ishlari ko‘rgazmasi.

Qo‘shimcha: “Svetofor” qo‘shig‘ini tinglash.

Alohida e‘tibor qaratiladi: yasash texnikasi

Fan va tabiat

Mavzu: Havo markazi (ekologik tarbiya)

Maqsad: bolalar havo xususiyatlari haqidagi bilimlarini amaliy tajribalar orqali mustahkamlaydilar. Kerakli jihozlar: bo'sh stakan, qog'oz salfetka, suv.

Faoliyatning borishi:

Amaliy tajriba:

1. Bo'sh stakan tagiga qog'oz salfetka yopishtiriladi va stakan teskari o'girib suvga tushiriladi.
2. Stakan suv bilan to'ladi, ichidagi qog'oz salfetka stakan ichida havo borligi uchun quruq qoladi.
3. Tajribani muhokama qilish.
4. Bolalar bilan o'tilgan tajribadan hulosalar chiqarish.

Qo'shimcha: yonib turgan sham ustiga stakan yopilganda uni o'chishi (havoning siqib chiqarilishi) tajribasini otkazish.

Alohida e'tibor qaratiladi: tajribalar o'tkazish jarayonidagi bolalar faolligi.

Til, nutq va savodxonlikka o'ratish

Mavzu: Mening huquqlarim

Maqsad: bolalar she'rlar mazmunini tahlil qiladilar.

Kerakli jihozlar: AKT, "Mening huquqlarim" she'ri, "Mening huquqlarim" loto oyini.

Faoliyatning borishi:

1. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya videorolik (slayd) namoyishi.
2. "Mening huquqlarim" - bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya moddalarini haqidagi she'rlar bilan tanishish.
3. Sherlar mazmuni muhokamasi.

Qo'shimcha: "Mening huquqlarim" loto o'yini.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarning o'z huquqlarini bilishlari.

AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG‘LOM BOLALAR

Guruh	Tayyorlov					
Mavzu	O‘vnab organamiz					
Muddati	Avgust 3-hafta					
Rivojlanish sohalari ga oid maqsadlar	<u>Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi</u>	<u>Bola jismoniy mashqlarni aniq va to‘g‘ri bajaradi, harakatli o‘yinlar qoidasiga rioya qiladi. Velosipedda uchadi, har xil sport oyinlarida amal qilinadigan qoidalarga rioya qiladi.</u>				
	<u>Ijtimoiy-hissiy rivojlanish</u>	<u>Murakkab konstruksiyalarni yig‘adi. Mayda qismlardan iborat bo‘lgan mozaika va pazllarni yordamsiz yig‘adi.</u>				
	<u>Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari</u>	<u>Bola o‘yin harakatlarida faol ishtirok etadi va teatrlashtirilgan o‘yinlarga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi, o‘zini turli rollarda sinab ko‘rish ishtiyoqi ortadi. Bolada ijodiy qobiliyat rivojlanadi, aktyorlik sifatlari tarbiyalanadi; teatr qo‘yishga qiziqadi, tengdoshlari, ota-onalari va mehmonlar oldiga bemalol chiqi oladi.</u>				
	<u>Bilish jarayonining rivojlanishi</u>	<u>Bolada faollik, mustaqillik, do‘stona munosabat va o‘zaro yordam berish tarbiyalanadi.</u>				
	<u>Ijodiy rivojlanish</u>	<u>Shaxsiy hayotlari, sevimli o‘yinlari, o‘yinchoqlari haqida gapirib beradi. Bola mavjud imkoniyatlardan foydalanib sahna ko‘rinishlari, teatr tayyorlash va o‘tkazish uchun ijodiy guruh tuzishga, sahnani bezashga qatnashishni o‘rganadi. Nutqning dialogik, monologik shaklini qo‘llaydi.</u>				
Rivojlantirish markazlari		Ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat				
		<u>Dushanba</u>	<u>Seshanba</u>	<u>Chorshanba</u>	<u>Pay</u>	<u>Juma</u>
Erkin faoliyat	<u>Qurish, konstruksiyalash va matematika</u>	<u>O‘yinlar shaharchasi</u>				<u>Kerakli anjomlar</u>
	<u>Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish</u>			<u>Modalar atelezi (qo‘g‘irchoq uchun ko‘ylak)</u>		<u>Kerakli anjomlar</u>
	<u>Til, nutq va savodxonlikka o‘rgatish</u>	<u>Barmoqlar teatri</u>				<u>Kerakli anjomlar</u>
	<u>Fan va tabiat</u>	<u>Suvosti kemasi</u>			<u>Buzilgan o‘yinchoqlarni tuzatish</u>	<u>Kerakli anjomlar</u>
	<u>San’at</u>		<u>Rasm ishi: Bizning o‘yin</u>	<u>Applikatsiya: Sevimli o‘yinchog‘im</u>	<u>Loy ishi: Hamro buvi o‘yinchoqlari</u>	<u>Kerakli anjomlar</u>

AVGUST. TO'RTINCHI HAFTA

O'YNAB O'RGANAMIZ

Til, nutq va savodxonlikka o'rgatish

Mavzu: Barmoqlar teatri

Maqsad: bolalar barmoq harakatlari orqali nutqni rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: AKT, barmoqlar uchun toqilgan-tikilgan ertaklar qahramonlari qo'girchoqlari.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqali teatrlarning namoyishi.
2. Ertak qahramonlari va syujetini yodga olish.
3. Ertak qahramonlarini tanlash va rollarni taqsimlash.
4. O'yin jarayoni.
5. Bolalar ishtirokini muhokama qilish va ragbatlantirish.

Qo'shimcha: O'zbek milliy akademik teatr aktyorlari haqida malumot berish.

Alohida e'tibor qaratiladi: rollarni bajarish jarayonida nutqning ravonligi.

Fan va tabiat

Mavzu: Suvosti kemasi

Maqsad: bolalar sho'r suvning zichligi toza suvning zichligidan og'ir ekanligini bilib oladilar.

Kerakli jihozlar: 2 dona shisha stakan, toza suv, xom tuxum, tuz, qoshiq.

Faoliyatning borishi:

1. 1-

stakanga tuxum va uning ustidan suv quyiladi va bu jarayonda bolalar tuxumning suvgacha kishiniku zatadilar.

2. 2-stakanga

oshqoshiq tuz aralashtiriladi va uning ustidan suv quyiladi va bu jarayonda bolalar tuxumning suv yuziga suz ibyurishiniku zatadilar.

3. Xulosa: Sho'rsuvning zichligi toza suvning zichligidan ancha og'ir.

Shuning uchun sho'rsuv gapredmetlarcho'kmaydi.

Qo'shimcha: dengiz suvidan suzish toza suvga suzishdan osong'ini aytish.

Alohida e'tibor qaratiladi: amalga oshirilayotgan har bir jarayonni bolalar tomonidan izohlanishi.

San'at

Mavzu: Bizning o'yin maydonchamiz

Maqsad: bolalar o'yin maydonchasini Rasm chizish orqali tasvirlay oladilar.

Kerakli jihozlar: o'yin maydonchasi tasvirlangan rasmlar, rangli bo'yoqlar, oq qog'oz, mo'yqalam. Faoliyatning borishi:

1. Mavzu Yuvasidagi rasmlarni tomosha qilish.
2. Rasm mavzusi bo'yicha suhbat.
3. Ish jarayoni.
4. Bolalar ishlari natijalarini muhokama qilish va ragbatlantirish.
5. Bolalar ishlari ko'rgazmasi.

Qo'shimcha: bolalar xohishiga ko'ra maydonchani qo'shimcha tarzda bezashni taklif etish mumkin.

Qurish, konstruktsiyalash va matematika Mavzu: O'yinlar shaharchasi

Maqsad: bolalarkublar va turli konstruktorlardan o'rinli foydalanishni biladilar.

Kerakli jihozlar: kublar, geometrik shakl, manzarali o'simliklar to'plami, o'yinlar shaharchasi tasviri tushirilgan suratlar.

Faoliyatning borishi:

1. "O'yinlar shaharchasi" mavzusibo'yichasuratlarniko'ribchiqish.
2. O'yinlar shaharchasining qurilishinirejalashtirish.
3. "O'yinlar shaharchasi" ni konstruktsiyalash.
4. Bolalar ishlarini muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: tarbiyachi bolalarga o'z kompozitsiyalarini mayda o'yinchoqlar(archalar, gullar, haykalchalarva shu kabilar) bilan bezashni taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: quruvchi kasbiga qiziqish va hurmatning ortishi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Modalar atelesi (qo'g'irchoq uchun ko'ylak)

Maqsad:bolalar o'yin orqali modelyer va tikuvchi kasbini tasvirlab beradilar.

Kerakli jihozlar: turli gulli va sidiq'a ipli matolardan namunalar, tasmalar, qo'g'irchoq kiyimlari andozalari, chiroyli ko'ylaklar kiygan qo'g'irchoqlar.

Faoliyatning borishi:

1. "Qo'g'irchoqni kiyintiramiz" o'yin (tayyor kiyimlar).
2. O'z ishlari uchun mato va qo'g'irchoq tanlash.
3. O'z qo'g'irchoq'i uchun libos yaratish.
4. "Yasangan qo'g'irchoqlar" namoyishi.

Qo'shimcha: ko'ylaklar uchun aksessuarlar taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: qo'l mayda motorikalarining rivojlanishi va hayot xavfsizligi asoslari.

San'at

Mavzu: Sevimli o'yinchog'im

Maqsad: bolalar o'z sevimli o'yinchog'ining rasmini chizish orqali qo'g'irchoq haqidagi fikrlarini asoslab bera oladilar.

Kerakli jihozlar: o'yinchoqlar rasmi, rangli qog'oz, karton, qaychi, yelim, quti, plastilin.

Faoliyatning borishi:

1. Sevimli o'yinchog'im mavzusidagi rasmlarni ko'rish.
2. Sevimli o'yinchog'im mavzusida bolalar tanlovi muhokamasi.
3. Ish jarayoni.
4. Bolalarning faoliyati natijasini muhokama qilish.
5. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: ko'rgazma tashkil etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: o'z ijodini chiroyli bezatish.

Qurish, konstruktsiyalash va matematika

Mavzu: O'yinchoqlarni pazl usulida yig'ish

Maqsad: bolalar pazl o'yinchoqlar Yordamida kamida 16 ta bo'lakdan iborat shakl yig'ishni biladilar.

Kerakli jihozlar: pazl o'yinchoqlar.

Faoliyatning borishi:

1. Pazl o'yinchoqlar mavzusi bo'yicha suratlarni ko'rib chiqish.
2. Pazl o'yinchoqlarni namuna asosida yig'ish.
3. Bolalar ishlarini muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: bolalar ishlari ko'rgazmasini tashkil etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: mustaqil ravishda namunaga qarab shaklni to'g'ri yig'ish malakalari.

Fan va tabiat

Mavzu: Buzilgan o'yinchoqlarni tuzatish

Maqsad: bolalar buzilgan o'yinchoqlarni tuzatish yo'llarini (yelimlash, ulash, batereyka qo'yish, otvertkada burash) tushunadilar va amalda bajara oladilar.

Kerakli jihozlar: buzilgan o'yinchoqlar, tuzatish uchun asboblari, otvyortka, batareykalar.

Faoliyatning borishi:

1. Buzilgan o'yinchoqlarni ko'rib chiqish.
2. Bolalar bilan buzilgan o'yinchoqlarni muhokama qilish: mashinani qaeri buzilgan, robort nega harakatlanmayapti?).
3. Otvyortkadan to'g'ri foydalanishni mashq qilish.
4. Batareyalarni to'g'ri joylantirishni mashq qilish.
5. Buzilgan o'yinchoqlarni tuzatish.
6. Bajarilgan ishning to'g'riligini tekshirish.
7. Bolalar ishlarini ko'rish, muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: "Tuzat va o'yna" multfilmni ko'rish.

Alohida e'tibor qaratiladi: o'zi tuzatgan o'yinchoqlardan zavqlanish.

San'at

Mavzu: Hamro buvi o'yinchoqlari

Maqsad: bolalar loydan ajoyib milliy o'zbek o'yinchoqlarini yasovchi usta Hamrobibi Rahimovani taniydilar.

Kerakli jihozlar: Hamro buvi o'yinchoqlari namunalari, loy, salfetka, steklar, taxtachalar.

Faoliyatning borishi:

1. Hamro buvi o'yinchoqlarini ko'rib chiqish.
2. Hamrobuvio'yinchoqlariniyasashyo'llarivausullarihaqidasuhatlashish.
3. Ish jarayoni.
4. Bolalarning ishlarini muhokama qilish.
5. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: milliy o'zbek o'yinchoqlarini yasovchi usta Hamrobibi Rahimovanning surati va uning yasagan o'yinchoqlaridan ko'rgazma tashkil etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: milliy o'yinchoqlarga qiziqishning namoyon bo'lishi.

AVGUST. TO'RTINCHI HAFTA

YOZ O'TDI SOZ

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Qo'g'irchoq teatrini sahnalashtirish (bola ixtiyoriga ko'ra)

Maqsad: bolalar o'zini turli rollarda sinab qo'g'irchoq teatrini sahnalashtiradilar.

Kerakli jihozlar: qo'g'irchoq teatri anjomlari, qo'g'irchoq kiyimlari, chiroyli ko'ylaklar kiygan qo'g'irchoqlar.

Faoliyatning borishi:

1. Qo'g'irchoq teatri haqida suhbat.
2. Qo'g'irchoq teatri mavzusini tanlash.
3. Qo'g'irchoq teatri namoyishi.
4. Bolalar ishlari muhokamasi va rag'batlantirish.

Qo'shimcha: qo'g'irchoqlarga yangi kiyimlar kiydirish.

Alohida e'tibor qaratiladi: aktyorlik sifatlarining tarbiyalanish, ijroda o'zini erkin tutish.

Til va nutq

Mavzu: "Bu qachon bo'ladi?" ta'limiy o'yini

Maqsad: bolalar yil fasllarining o'ziga xos belgilari to'g'risidagi tasavvurlarini mustahkamlaydilar, pishgan mevalarni xom mevadani farqlaydilar, mevalar qayerda tezroq pishishini (daraxt tagidami, soyadami, yalanglikdami yoki oftobdami) va uning sababi natijalarini bilib oladilar.

Kerakli jihozlar: yil fasllarining o'ziga xos belgilari hamda bog', poliz, dala ekinlari tasvirlangan rasmlar, kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlarni tomosha qilish.
2. Rasmga qarab fasllarning tartibini, o'ziga xos xususiyatlarini so'zlab berish.
3. Savollarga javob berish.
 - Polizda qachon qovun-tarvuzlar, pomidor, bolgar qalampiri, bodringlar pishadi?
 - Qachon olma, nok, behi, olcha, gilos, olxo'ri, anjir, o'rik pishadi?
 - Qachon quyosh zarrin nurlarini tarqatadi?
 - Qachon asalarilar, qaldirg'ochlar uyalaridan uchib chiqadilar va havoda baland parvoz qiladilar?
 - Qachon quyosh to'q qizil yoki oltin rangga kiradi?
 - Qachon oy va yulduzlar chiqadi?
4. O'yinni yakunlash va muhokama qilish.
5. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: she'r yoki topishmoqlar aytish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalar nutqi, nutqda zamon va fe'llarni to'g'ri qo'llay olish malakasi.

San'at

Mavzu: Sharshara

Maqsad: bolalar nam qog'ozga rasm chizish orqali sharshara manzarasini tasvirlay oladilar.

Kerakli jihozlar: sharshara va suv havzalari tasvirlangan rasmlar, namuna, oq qog'oz, bo'yoqlar, mo'yqalam, suv, suv idish, salftka Faoliyatning borishi:

1. Sharshara mavzusidagi rasmlarni tomosha qilish.
2. Oq qog'ozni namlash usuli bilan xo'l qog'ozni hosil qilish.
3. Namuna bilan tanishish.

AVGUST
OY MAVZUSI: QUVNOQ VA SOG‘LOM BOLALAR

Guruh	Tayyorlov						
Mavzu	Yozo‘tdi soz						
Muddati	Avqust 4-hafta						
Rivojlanishsoha larigaoid maqsadlar	Jismoniyrivojlanishva sog‘lomturmushtarzini ngshakllanishi	Bolalarsportturlarigaqiziqadilar,ochiqhavodamusobaqalar,harakatlio‘yinlarnitashkilqiladilar,musiqaohangigamosjismoniyharakatlarnibajaradilar. Murakkabkonstruksiyalarniyig‘adilar.					
	Ijtimoiy- hissiyrivojlanish	Bolalardaayrxohlik,tengdoshlarigayordamberish,o‘yindao‘rtoqlariningmanfaatlari,fikrlari,xohishistaklaribilan hisoblashishkabiyaaxshiodatlargaadatlanadilar.					
	Nutq,muloqot,o‘qishva yozishmalakalari	Bolalarshaxsiyahotlaridan“Menyozniqandayo‘tkazdim”mavzusidahikoyatuzadilar.Nutqningdialogik,monologikshaklini qo‘llaydilar.					
	Bilishjarayoniningrivojl anishi	Bolalaryilfasllariningo‘zigaxosbelgilarito‘g‘risidagitasavvurlarnimustahkamlaydilar.Pishganmevalarnixommevadanfarqlaydilar, mevalarqayerdatezroqpishishini(daraxttagidami,soyadami,yalanglikdamiyokiiftobdami)vauning sababinatijalarinibiliboladilar.					
	Ijodiyrivojlanish	Qo‘g‘irchoqteatrinsahnalashtiradi.Ijrodao‘zinierkintutadi.					
Rivojlantirishmarkazlari		Ta‘limiy-tarbiyaviyfaoliyat					
		Dushanb	Seshanb	Chorshanba	Payshanba	Juma	Resurslar
Erkin faoliyat	Qurish, konstruksiyalash vamatematika			Bog‘da gimevalarni terishuchun nquti		Qushl aruchuninq uramiz	Keraklianjo mlar
	Syujetli- rollio‘yinlarvasahnalashtiris h		Qo‘g‘irchoqteatrini sahnalashtirish	Sirk			Keraklianjo mlar
	Til,nutqvasavodxonlikka ao‘rgatish		Buqachonbo‘la di? ta‘limiyo‘yini				Keraklianjo mlar
	Fanvatabiat					Suvni ng xususi yati	Keraklianjo mlar
	San‘at		Rasm: Sharshara	Applika tsiya:Quyosh likun		Loyi shi: Shirint arvuzlar	Keraklianjo mlar

4. Ragʻbatlantirish.

Qoʻshimcha: paxtali choʻpchalarusulidan foydalanib sharshara chizish.

Alohida eʻtibor qaratiladi: xoʻl qogʻoz va undagi tasvirlarni yaratish.

Qurish-yasash, konstruktsiyalash va matematika

Mavzu: Bogʻdagi mevalarni terish uchun quti

Maqsad: bolalar quti shaklini qurilish bloklaridan yasaydilar, uning hajmiga alohida eʻtibor qaratadilar.

Kerakli jihozlar: namuna, qurilish bloklari: lego, pazl, kubik, mevali bogʻ tasvirlangan rasmlar, meva mulyajlari.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlar va namunani koʻ rish.
2. Ishni rejalashtirish.
3. Kerakli materiallarni tanlash.
4. Ijodiy ish.
5. Tayyor qutilarni mevalar mulyaji bilan toʻldirish.

Qoʻshimcha: “Dehqon bobo” syujetli oʻyinini oʻynash.

Alohida eʻtibor qaratiladi: tayyor mahsulotdan maqsadli foydalanish uchun kerakli hajmni yarata olish.

Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Sirk

Maqsad: bolalar sirk, unda xizmat qiluvchi kasb egalari - fokuschi, akrobat, hayvon oʻrgatuvchilar haqida biladilar.

Kerakli jihozlar: sirk arenasi tasvirlangan rasm, tomosha koʻrsatadigan yirtqich hayvonlar va qushlar rasmlari, hayvonlarni ovqatlantirish uchun idishlar, kiyimlar, hayvonlar niqoblari.

Faoliyatning borishi:

1. Sirk arenasi tasvirlangan rasm bilan tanishish.
2. Rollarni taqsimlash.
3. Oʻyin uchun kerakli atributlarni tanlash.
4. Ijro etish jarayoni.
5. Rollarni almashish.

Qoʻshimcha: “Adashib qolgan kasblar” oʻyini.

Eʻtiborga moyillik jihati: sirk hayoti va u yerdagi jarayonlar haqidagi bilimlari.

Sanʻat

Mavzu: Quyoshli kun

Maqsad: bolalar applikatsiyada tasvirni uygʻunlashtirish va estetik bezatishni biladilar.

Kerakli jihozlar: charaqlab turgan quyosh manzarasi rasmi, rangli qogʻoz, karton, qaychi, yelim, salfetka.

Faoliyatning borishi:

1. Rasm va namunani koʻ rish
2. Zaruriy shakllarni kesish.
3. Tayyor shakllarni yelimlash orqali “Quyoshli kun” kompozitsiyasini yaratish.
4. Ragʻbatlantirish.

Qoʻshimcha: “Quyoshjon” ashulasini tinglash va xarakatlarini ijro etish.

Alohida eʻtibor qaratiladi: mayda detallarni yirtib yubormasdan kesish malakalari.

Qurish, konstruksiyalash va matematika

Mavzu: Qushlar uchun in quramiz

Maqsad: bolalarkarton qutilar, taxta bolaklari yordamida qushlar uchun in quradilar.

Kerakli jihozlar: karton qutilar, taxta bo'laklari, birlashtirish uchun ikki yoqlama skoch, qushlar uchun yasalgan inlar rasmlari, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. AKT orqali qushlarning ini tasvirlangan lavhalarni va rasmlarni tomosha qilish.
2. In qurish uchun anjomlarni tanlash va rejalashtirish.
3. Qurish jarayoni.
4. Ishning yakuni va muhokamasi.
5. Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: qurgan inlarni tashkilot bog'idagi daraxtlarga o'rnatish.

Alohida e'tibor qaratiladi: qushlarga nisbatan mehr, ikki tomonlama skochdan foydalanish malakasi.

Fan va tabiat

Mavzu: Suvning xususiyati

Maqsad: bolalar bitta rangdan ikkinchi rangni hosil bo'lishi haqidagi olgan bilimlarini amaliy tajriba orqali mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: 6 dona stakan, qog'oz salftkalar, fartuk, suv, xohishga ko'ra ranglar, pipetka

Faoliyatning borishi:

1. 3 ta stakanga suv solish va ularni ranglash.
2. Har bir stakanni bittadan bo'sh stakan bilan juftlashtirish.
3. Salfetkalarini o'rtasidan kesish va bir-biriga ulash.
4. Bir uchini rangli suvga, ikkinchi uchini stakanga qo'yish. Har bir stakanga shu holatni davom ettirish.
5. Bir necha daqiqalardan so'ng tomchilarning kuchi natijasida suv bo'sh stakanga oqa boshlaydi.
6. Jarayonni kuzatish.
7. Tajribani umumlashtirish va xulosa. Ranglarning aralashib oqishi natijasida to'rtinchi rang hosil bo'lishi.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalar tajriba ishtirokchisiga aylanadilar.

San'at

Mavzu: Shirin tarvuzlar

Maqsad: bolalar tarvuz bo'laklarini plastilin orqali tasvirlab beradilar.

Kerakli jihozlar: plastilin, doska, steklar, salftkalar, butun va bo'lingan tarvuz rasmlari.

Faoliyatning borishi:

1. Tarvuz va uning bo'laklari tasvirlangan rasmlarni ko'rib chiqish.
2. Ijodiy ishni rejalashtirish.
3. Ijodiy jarayon.
4. Bolalar ishlarini muhokama qilish va rag'batlantirish.
5. Tayyor ishlar ko'rgazmasi.

Qo'shimcha: tabiiy tarvuzdan sharbat tayyorlash.

Alohida e'tibor qaratiladi: ijodiy qobiliyatning rivojlanishi.



DAVLAT MAKTABGACHA
TA'LIM TASHKILOTI
T arbiyachisining
yozgi sog'lomlashtirish
oylari uchun shaxsiy
ISH REJASI
(ish jurnali)



_____ shahar
_____ tumani

“ _____ ”nomli

_____ - davlat maktabgacha
taʼlim tashkiloti

_____ guruh
tarbiyachisining

20 __ yil yozgi sogʻlomlashtirish
oylari uchun shaxsiy ish rejasi
(ish jumali)

Tarbiyachilar: _____

(familiyasi, ismi, sharifi) (familiyasi,

ismi, sharifi)

Telefon: _____

Tarbiyachilarga tavsiyalar

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ushbu ish jumali tashkilotda faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar uchun ishlab chiqilgan.

Mazkur hujjatni yuritishdan maqsad, O'zbekiston Respublikasining ilkva maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi talablarini bajarish asosida ertalabki soat, sayr, kunning ikkinchi yarmida bolalar bilan, hamda yakka tartibda ishlashni loyihalashtirishdan iboratdir.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni rejalashtirish bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishning negizi hisoblanib, bunda tarbiyachilar ta'limiy vazifalar, bolalar bilan birgalikda olib boriladigan ish shakllari, rivojlan- tiruvchi muhitga kiritish lozim bo'lgan o'zgartirishlarni belgilab beradi.

Rejalashtirish ta'lim-tarbiya jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish, bolalarga axborot va jismoniy vazifalarni me'yorlash imkonini beradi.

Ish rejasining to'laqonli bajarilishini tahlil qilish, bolaning rivojlanish sur'atini kuzatish va ular uchun yanada qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari bolalarning salomatligi va gigiyenasiga katta e'tibor berish orqali to'liq rivojlanishni qo'llab-quvvatlash tamoyillariga rioya etgan holda, bolalarga qulay va havfsiz muhitni ta'minlashi zazor;

Maktabgacha taim tashkiloti xodimlari bolalarga taim berish va parvarish qilish dasturlarini amalga oshirish jarayonlarida sog'iqli saqlash va xavfsizlikni ta'inlaydigan aniq chora-tadbirlar va targ'ibotlarni amalga oshirishlari kerak;

YOZGI SOG‘LOMLASHTIRISH DAVRI UCHUN ASOSIY VAZIFALAR

ERTALABKI BADAN TARBIYA			
OY	HAFTA	ERTALABKJ GIMNASTIKA KOMPLEKSI	
Iyun	1-2	Ertalabki gimnastika kompleksi JV«	
	3-4	Ertalabki gimnastika kompleksi JV«	
Iyul	1-2	Ertalabki gimnastika kompleksi JV«	
	3-4	Ertalabki gimnastika kompleksi JV«	
Avgust	1-2	Ertalabki gimnastika kompleksi JV«	
	3-4	Ertalabki gimnastika kompleksi JV«	

GURUHNING KUN TARTIBI

(yozgi sogʻlomlashtirish davri uchun)

222

t/r	TADBIRLARNING NOMI	OʻTKAZISH MUDDATI
	Ertalabki doira	
1	Bolalarning salomatligini tekshirib qabul qilish, bolalar bilan suhbat, oʻyinlar va mustaqil faoliyatlar.	
2	Ochiq havoda ertalabki badan tarbiya.	
3	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta.	
4	Rivojlanish markazlarda taʼlimiy- tarbiyaviy faoliyat yoki umumiy guruhlardagi mashgʻulotlar.	
5	Ochiq havoda kuzatish, mehnat, harakatli oʻyinlar, koʻngilochar tadbirlar.	
6	Ikkinchi nonushta	
7	Ihtiyoriy oʻyinlar, chiniqtirish tadbirlari.	
8	Sayrdan qaytish va gigienik muolajalar.	
9	Tushlikka tayyorgarlik.	
10	Kunduzgi uyquga tayyorgarlik, uyqu.	
11	Tetiklashtiruvchi mashqlar, suv va havo muolajalari.	
12	Kechki choyga tayyorgarlik va kechki choy.	
	Kunning ikkinchi yarmi	
13	Qoʻshimcha taʼlim, yakka ishlash, badiiy adabiyotlarni oʻqish, ixtiyoriy oʻyinlar.	
	Kechki sayr	
14	Kuzatish, harakatli oʻyinlar, ixtiyoriy oʻyinlar.	
15	Ota-onalar bilan suhbat va bolalarni uyga kuzatish.	

		0'YIN VA TADBIRLAR NOMI		RESURLAR, IZOH
KUNING 2 - YARMI	SESHANBA	Ihtiyoriy o'yinlar		
		Kuzatish va mehnat		
		Chiniqtirish tadbirlari		
		Harakatli o'yin		
		Ihtiyoriy o'yinlar		
	CHORSHANBA	Kuzatish va mehnat		
		Chiniqtirish tadbirlari		
		Harakatli o'yin		
		Ihtiyoriy o'yinlar		
	PAYSANBA	Kuzatish va mehnat		
		Chiniqtirish tadbirlari		
		Harakatli o'yin		
		Ihtiyoriy o'yinlar		
	5	Kuzatish va mehnat		
		Chiniqtirish tadbirlari		
		Harakatli o'yin		
		Ihtiyoriy o'yinlar		
	DUSHANBA	Yakka ishlash		
		Badiiy adabiyot		
		O'yin va faoliyatlar		
	SESHANBA	Yakka ishlash		
		Badiiy adabiyot		
		O'yin va faoliyatlar		
	CHORSHANBA I	Yakka ishlash		
		Badiiy adabiyot		
		O'yin va faoliyatlar		
	5	Yakka ishlash		
		Badiiy adabiyot		

[illegible]

HAFTA YAKUNI

Bolalar ilgari nimani bilishar edi?

Bolalar nimani bilishdi?

Bolalar nimani bilishni hoxlaydilar?

Kelgusi haftaga g'oyalar.

DMTT RAHBARIYATINING TAVSIYA VA KO'RSATMALARI